ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021
4-maxsus

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

	4	Bosh maqsadimiz – sifatli maktabgacha ta'limni rivojlantirish

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

A. Zaparov	6	Oliy ta'lim muassasalari talabalari kreativligini innovatsion rivojlantirishning pedagogik shartlari
U. Usmanova, H. Mamadaliyeva	11	Maktabgacha ta'lim yo'nalishi magistratura talabalarida ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish
N. Ataqulova, B. Marasulov	15	Oliy ta'lim muassasalari maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarining innovatsion kompetentligini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish
T. Kaziyeva	18	Ijtimoiy muloqotning pedagogik shart-sharoitlari
A. Teshaboyev	22	Tarbiyachilarda kommunikativ kompetentlilikni shakllashtirish omillari
Sh. Turdiyeva	26	Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash yuzasidan mulohazalar
M. Rahimova	30	Maktabgacha yoshdagi davrida bola shaxsining shakllanishi bosqichlari va o'ziga xos jihatlari
M. Abdullayeva	33	Kreativ yondashuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari nutqini o'stirish va tafakkurini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari
R. Umarova	36	Steam va smart ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarda intellektual salohiyatni rivojlantirish
M. Isomidinova	39	Bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning ayrim jihatlari
M. O'rinboyeva	42	Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi nutq madaniyatini o'zlashtirishda kasbiy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining ahamiyati

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

V. Qodirov	45	Maktabgacha ta'lim bosqichida nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishning metodik asoslari
M. Qosimov	48	Maktabgacha ta'limda tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlarining pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish
N. Mamadaliyeva	52	Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimida bolalarga og'zaki hisobni o'rgatishni takomillashtirish
O. Qodirov	56	Xorijiy til o'rganishda refleksiv yondashuv
G. Mingboyeva	59	Didaktik o'yinlar vositasida bolalar nutqini o'stirish omillari
M. Abdukarimova	63	Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirishning o'ziga xos jihatlari

MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

D. Abdullajonova	66	Maktabgacha ta'limda milliy tarbiyani yo'lga qo'yishning metodologik asoslari

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

U. Axunov	70	Jismoniy madaniyatning maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashning pedagogik tizimidagi o'rni
J. Mamaxonova	73	Yevropa va Osiyo mamlakat xalqlari va o'zbek millatiga xos tana harakatlarining qiyosiy tahlili



MUSIQA VA SAN'AT TA'LIMI

A. Isroilov 76 Baxshichilik san'ati: mushtarak ildizlar ("Yozi bilan Zebo" dostoni misolida)



MAKTABGACHA TA'LIM

Z. Azimova 79 Montessori tamoyillariga amaliy tavsiyalar

M. Artikova 84 Maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirish

Y. Umarova, D. Mahmudova 88 Maktabgacha ta'lim va oila hamkorligi ta'lim sifati garovidir

T. Xudoyberdiyeva Sh. Ibrohimova 91 Maktabgacha yoshdagi bolalarning kundalik faoliyatida erkalatma va ovutmachoqlardan foydalanish

M. Islomboyeva 95 Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tayyorlov guruhlarida bolalarni maktabga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari

Z. Hamroyeva 99 Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining oila bilan hamkorlik madaniyatini shakllantirish



TA'LIMDA MUTOLAA MADANIYATI

S. Abdurahmonova 103 Ota-onalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish farzandlar tarbiyasi omili sifatida

O. Latipova 107 Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish yuzasidan mulohazalar



PSIXOLOGIYA

Sh. Hasanov 110 Oliy ta'limda bo'lgusi tarbiyachilarning analitik tafakkurini shakllantirish masalalari

I. Oxunov 113 Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy ongni rivojlantirish mazmuni



KORREKSION PEDAGOGIKA

Z. Bozorova 116 Tarbiyalanuvchilar nutqini o'stirishda ta'lim va o'yin uyg'unligidagi xorij tajribasidan foydalanish

O. Sodiqova 120 Maktabgacha ta'limning Fransiya tajribasi



KORREKSION PEDAGOGIKA

G. Haydarova 123 Tarbiyachilarning nutqida nuqsoni bor bolalar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish



KORREKSION PEDAGOGIKA

F. Kiyikboyev 126 Boburiylar shajarasida otalar va bolalar muammosi (Pirimqul Qodirovning tarixiy romanlari asosida)

Z. Azizova 130 Ertaklar – qadimgi qadriyatlar namunasi, madaniy meros sifatida

O. Mirzayev 135 Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachisining kasbiy-ma'naviy fazilatlarini shakllantirishda islomiy manbalarning o'rni

Sh. Mamasoliyeva 138 Maktabgacha tayyorlov guruhlarida xalq ertaklaridan foydalanishning ahamiyati

S. Botiraliyeva 141 Ertaklar vositasida bolalarni milliy ruhda tarbiyalash

BOSH MAQSADIMIZ – SIFATLI MAKTABGACHA TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH

Jahon miqyosida sifatli maktabgacha ta'lim inson kapitalini rivojlantirish, ijtimoiy hayotdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashdagi muhim investitsiya sifatida belgilanmoqda. Jahondagi ilg'or tajribalar asosida respublikamizda maktabgacha ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga ko'tarish ehtiyojining mavjudligi tufayli bu sohada muayyan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilarining kasbiy mahoratini oshirish, davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, ota-onalar bilan tarbiyachilarning o'zaro hamkorlik ko'lamini kengaytirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun variativ dasturlarni qo'llash, innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarni joriy etish, bolalarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liq ilmiy-metodik tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg'or horijiy tajribalarni hisobga olgan holda sifatli ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini amaliyotga joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning innovatsion tizimini tashkil etish bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, shuningdek, eng ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish ustivor vazifa sifatida belgilangan.

Inson tarbiyasiga oid qonunlar dastlab xalq og'zaki ijodida: ertak, qissa, pandnoma, maqol va matal kabilarda, keyinroq yozma yodgorliklarda, hadislarda asoslab berilgan. Ta'lim-tarbiya ishlarining takomillashib borishida Sharq va G'arbning qomusiy olim va pedagoglarining o'rni kattadir. Markaziy Osiyolik mashhur allomalar: Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Alisher Navoiy, Ahmad Donish, Furqat, Abdulla Avloniy kabi jahon tan olgan mutafakkirlar o'zlarining qator asarlarida ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor bilan qaragan.

Avloniyning ta'kidlashicha, tarbiyani yoshlikdan berish nihoyatda zarur. Bolaga avvalo, kichik yoshdan boshlab, ota-ona tarbiya beradi, keyin tarbiya bilan butun jamoatchilik shug'ullanadi, chunki bunda inson taqdiri hal etiladi deydi. Demak, pedagogikaning bosh masalasi tarbiya sanaladi. Tarbiya jarayonida esa bolaning ongi, his-tuyg'ulari shakllanadi. Eng muhimi ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan va ijtimoiy munosabatlarga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Maktabgacha ta'lim bolalarning, yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olgan holda ularning har tomonlama rivojlanishini

ta’minlashga xizmat qiladi. Maktabgacha tarbiya tashkilotlari ham bolalarni har tomonlama tarbiyalaydi. Bola hayotidagi ilk yosh eng muhim davr bo‘lib, xuddi mana shu davrda bolaning jismoniy, axloqiy, mehnat, estetik rivojlanishiga poydevor bo‘ladi.

Inson tarbiyasi insonning o‘zi kabi qadimiy va keng qamrovlidir. Shu sababli, insonni har tomonlama tarbiyalash insoniyatning azaliy orzusi bo‘lib, ajdodlarimiz ma’rifat va madaniyatni yosh avlodga o‘rgatish, ularni komillikka yetaklash yo‘llari, qonun-qoidalarini izlaganlar. Darhaqiqat, insonning ma’rifatliligi va ma’naviy komilligiga erishish ishlari pedagogika fani yetakchiligida amalga oshiriladi. Demak, pedagogika fani kishiga har tomonlama tarbiya berish, har bir shaxsni hamma yosh davrlarida uyg‘un rivojlantirish qonuniyatlari to‘g‘risidagi fandir. Shu bois, pedagogika fani insonni har tomonlama tarbiyalash haqidagi fan bo‘lib, tarbiya sohasidagi jamiyat talablarini amalga oshirish yo‘lida xizmat qiladi. Maktabgacha pedagogika esa bolaga tug‘ilganidan to yetti yoshigacha har tomonlama tarbiya berish qonuniyatlarini o‘rganadi va bog‘cha sharoitida ta’lim-tarbiya ishini tashkil etishning mazmuni, metodi va shakllarini ishlab chiqadi.

Maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining milliy asoslari – ta’lim-tarbiya muammolarini, muayyan millatning milliy qadriyatlarini umumbashariy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lagan holda hal etish, har bir millatning ma’naviy merosi va milliy qadriyatlariga tayangan holda milliy tarbiya masalalarini yosh avlod ongiga yetkazish mazmuni, usul, metod va tamoyillarini milliylashtirishdan iborat. O‘sib kelayotgan yosh avlodni muayyan maqsad yo‘lida har tomonlama kamol toptirish, uning ongi, dunyoqarashi, e'tiqodini o‘stirish, xulq-atvorini tarkib toptirish maktabgacha pedagogika fanining dolzarb muammolaridan sanaladi.

Hozirgi davrda har tomonlama rivojlangan barkamol insonni tarbiyalashning maqsad va vazifalari ma’naviy boylik, axloqiy poklik, jismoniy mukammallikni o‘zida mujassamlashtirgan ijtimoiy faollikni tarbiyalashni taqozo etadi. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining maqsadi tarbiyachi murabbiylarning o‘z oldiga aniq maqsad qo‘yishi, yosh avlodni har tomonlama rivojlangan yetuk. Shaxs qilib tarbiyalash uchun o‘z ustida ishlashi, intilishi, izlanishi, zamon talablari asosida tarbiyalash uchun tarbiyaning yangi usul va vositalaridan keng foydalana olish kabi tarbiyachilik mahoratini shakllantirishga qaratiladi. O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash borasidagi mavjud muammolarni hal etish, ta’lim va tarbiya samaradorligini zamon talablari asosida ta’minlash, uni dunyo talablari darajasiga olib chiqishga erishish, yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga tayanish orqali ta’lim-tarbiyaning mohiyati, mazmunini shakllantirish va takomillashtirish, maktabgacha ta’lim pedagogikasi fanining qoida va qonunlarini xalqimizning boy tajribalari asosida boyitib borish va uning yangi qirralarini izlash bugungi kunning dolzarb muammolaridir.

Muxtasar aytganda, maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning boshlang‘ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog‘lom va rivojlangan shaxs bo‘lib shakllanishini ta’minlab, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini uyg‘otadi, tizimli o‘qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta’lim muassasalarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo‘lib shakllanishida muhim o‘rin tutadi.

Abduqahhor ZAPAROV,
Andijon davlat universiteti,
"Umumtexnika fanlari va texnologik ta'lim" kafedrasi professori v.v.b.

OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARI KREATIVLIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK SHARTLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kreativlikni shaxsiy fazilat sifatida aniqlashga turli yondoshuvlar ko'rib chiqilgan. Kreativ-qadriyatli ta'lim texnologiyalarini oliy ta'lim tizimida amalga oshirish zaruriyati ta'kidlangan, oliy o'quv yurtlari talabalarining kreativ fikrlashini rivojlantirishning asosiy usul va texnikalari aniqlab berilgan.

Kalit so'zlar. Kreativlik, kreativlik sifatlari, kreativ fikrlash,shaxs kreativligi, motivatsiya, kommunikativ, intellektual vaekzistensial parametrlar.

В данной статье рассматриваются различные подходы к определению креативности как личностного качества. Подчеркивается необходимость реализации креативно-ценностных образовательных технологий в системе высшего образования, определены основные способы развития и техника креативности студентов высших учебных заведений.

Ключевые слова. Креативность, креативные качества, креативное мышление, креативность личности, мотивация, коммуникативные, интеллектуальные и экзистенциальные параметры.

This article discusses various approaches to the definition of creativity as a personal quality. The necessity of implementation of creative-value educational technologies in the system of higher education is emphasized, the main methods of development and technique of creativity of students of higher educational institutions are determined.

Key words. Creativity, creative qualities, creative thinking, personality creativity, motivation, communicative, intellectual and existential parameters.

Universitetlar va pedagogika oliy o'quv yurtlarida ta'limni tashkil etishning asosiy maqsadi salohiyatli va yuqori malakaga ega bo'lgan bitiruvchilarni tayyorlash sanaladi. Ular nafaqat amaliyotda, o'z bilim, malaka, ko'nikmalarini qo'llay biladilar, balkim, kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarda o'ziga xos texnik yechim va nostandart qarorlarni qabul qilishi bilan ajralib turishlari kerak. Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatlari, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi.

Oliy ta'lim muassasalarida ko'plab talabalarning fanlarni o'zlashtirishlarida yuqori

darajadagi ijobiy natijalar kuzatilmayapti. Ko‘plab talabalarning ta’lim olishga nisbatan qiziqishi yo‘qolgan.

Buning sababi nimada? Balki darslarning avvaldan o‘ylab, rejalashtirilib qo‘yilishi talabalar uchun qiziq bo‘lmayotgandir, balki ta’lim mazmunining muayyan qolipga solinganligi talabalar uchun hyech qanday rag‘bat bildirmayotgandir. O‘quv mashg‘ulotlarining avvaldan rejalashtirilishidan voz kechish, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish va rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlash, yangi g‘oyalarni o‘ylab topishga majbur qilish ta’lim olishga bo‘lgan munosabatni o‘zgartirish, ularni yutuqlarga erishishga rag‘batlantirishda asosiy omil bo‘lar. O‘quv mashg‘ulotlarida yetishmayotgan omil – kreativlikdir.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini to‘laqonli anglash uchun dastlab “kreativlik” tushunchasining ma’noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko‘ra, “kreativlik – o‘z qiymatiga ega original g‘oyalar majmui” sanaladi. Gardner esa o‘z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: “kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma’lum amaliy qiymatga ega bo‘lishi kerak”. Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik “muayyan soha bo‘yicha o‘zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko‘nikmalarga ham ega bo‘lish” demakdir.

“Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, debtushunadilar. Garchig‘arblikvasharqliklarningkreativlikborasidagi qarashlariturlichabo‘lsa-da, biroq, harikkimadaniyatvakillarihammazkursifatvaungaegalikniyuqoribaholaydilar.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quyidagicha sharhlash mumkin: kreativlik (lot., ing. “create ” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyatidir.

Uzluksiz ta’lim tizimida oliy ta’lim muassasasi o‘qituvchisining kreativligini shakllantirishning nazariy uslubiy asoslarini o‘rganishning dolzarbligi pedagog ijodkor shaxsining o‘z ustida ishlashi, rivojlanishi va yetuklikka intilishi ham kasbiy faoliyatida faolligini ortishining ijtimoiy va amaliy ahamiyati bilan aniqlanadi.

Shunday qilib, o‘qitish vazifasi ijodiy fikrlash, tahlil qilish, g‘oyalarni yaratish va yechimlarni topa bilishdan iborat bo‘lib qoladi. Bu mashina va kompyuterlar quvvati oshib borishiga qaramay, inson omili sezilarli darajada ortib boruvchi, innovatsion ishlab chiqarishda zarur bo‘lgan element hisoblanadi. Mana shunday ko‘rinishdagi ishlab chiqarishga faqat biluvchi, uddaburon va o‘ziga xos fikr yurita oladigan mutaxassislar kerak bo‘ladi.

Izlanishlar turli akademik o‘zlashtirishga ega talabalarning kreativlik qobiliyatini tajribaviy baholashga bag‘ishlangan. O‘lchashlar mavjud verbal va noverbal kreatvili testlar yordamida amalga oshiriladi. Ilmiy maqolada, an’anaviy testlar, so‘rovnomalar va akademik o‘zdashtirish bilan o‘lchanadigan ijodiy qobiliyatlar o‘rtasidagi aloqa mavjudligi hamdayuqori va va yuqori bo‘lmagan o‘zlashtirishga ega talabalar o‘qiydigan guruhlardagi kreativlikning namoyon bo‘lishidagi farqlarni baholash haqidagi masala ko‘tarilgan.

O‘tgan asrning elliginchi yillaridan boshlab xorijiy psixologiyada shaxsning universal bilish ijodiy qobiliyati sifatida kreativlikka qiziqish ortdi va uning ijodiy muammo va vazifalarni yechish usullarini shakllantirishning amaliy jihatlarini ishlab chiqish bilan psixometrik o‘rganish boshlandi.

Universitetlar, pedagogika va texnika oliy o‘quv yurtlarini tamomlovchi talabalarda kreativlikni rivojlantirish jarayoni, uni yetarli darajada o‘rganilmaganligini inobatga olib, shuningdek, ilmiy va amaliy ahamiyatidan kelib chiqib, ilmiy asoslashni va uslubiy ta’minotni talab etadi. Talabalar tomonidan olingan oliy ma’lumot nafaqat, bilim, ko‘nikma va malakalarni egallashni ta’minlaydi, balki, bitiruvchilarga o‘zlarini ijodiy tomondan namoyon qilish uchun real imkoniyat yaratadi. Shu sababli bo‘lajak o‘qituvchi va muxandis-pedagoglarda kreativlikni rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi.

Kreativlik hodisasining psixologiyadagi o‘rni, uning rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi, unga turtki beruvchi va unga xalaqit beruvchi ko‘rsatkichlar, xossalar omillar o‘rganib chiqilgan. Hozirgi vaqtda o‘rganuvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish usullari chuqur o‘rganilgan va amaliyotga tatbiq etilmoqda (G.S. Altshuller), o‘quvchilarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish usullari ko‘rsatib berilgan (M.I. Maxmutov).

Bo‘lajak o‘qituvchi va muhandis-pedagoglarning pedagogik faoliyatga tayyorligini rivojlantirish masalalari bilan M.S. Yemets, pedagogik oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak bakalavrlarining kasbiy malakaviyligini shakllantirish masalalari bilan L.A. Ugarova shug‘ullangan, pedagogik oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak bakalavrlarining mustaqil faoliyatini rivojlantirish qirralari shug‘ullangan D. Kraynova ishlarida o‘z ifodasini topgan. Dizayn-ta’lim masalalari bo‘yicha S.A. Novoselov, A.B. Goffman, N.A. Koveshnikova, V.F. Sidorenkolarning ilmiy izlanishlarini misol qilib keltirish mumkin.

Oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak o‘qituvchi va muxandis-pedagoglarining kreativligi, maxsus va ixtisoslik fanlarini o‘rganib borish orqali o‘z-o‘zidan rivojlanadi deb hisoblash an’ana tusini olgan. Biroq, faqat kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish orqali savodli, biroq kreativ bo‘lmagan, bitiruvchini shakllantirish mumkin, xolos. Shu sababli oliy ta’lim muassasalari bo‘lajak bakalavrlarining kreativligini innovatsion rivojlantirishning pedagogik shartlarini aniqlash zaruriyati sezilmoqda, chunki ushbu muammo ta’kidlab o‘tilganidek, hamon yetarli darajada o‘rganilmay qolinmoqda.

Ilmiy doiralarda, mavjud kreativlik testlari aynan nimani o‘lchashi va ular insonlarning shaxsiy samaradorligini va kasbiy muvaffaqiyatni avvaldan bashorat qilib bera oladimi degan mazmundagi tortishuvlar uchrab turadi.

1-jadval

Izlanishlar natijasida olingan kreativlik ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymatlari

Kreativlik ko‘rsatkichlari	Guruh № 1			Guruh № 2		
	O‘AQ	SX	SChCh	O‘AQ	SX	SChCh
DD.Djonson so‘rovnomasida kreativlikni ekspert baholash	26,32	0,57	3,33	22,60	0,92	4,62
DD.Djonson so‘rovnomasida kreativlik bo‘yicha o‘ziga o‘zi baho berish	28,8	0,74	4,26	28,9	0,97	4,83
SS.Mednik testida noyob iste’dod indeksi	4,56	0,51	2,95	4,64	0,66	3,32
SS.Mednik testida o‘ziga xoslik indeksi	0,49	0,03	0,15	0,47	0,03	0,15

SS.Mednikning uzoqlashgan assosiasiyalar testida javoblar miqdori	19,4	0,39	2,24	18,6	0,63	3,13
Y. Torrensning “Tugallanmagan shakllar” testida noyob iste’dod indeksi	2,91	0,17	0,97	2,88	0,19	0,93
Y. Torrensning “Tugallanmaganshakllar” testidao‘ziga xoslik(originallik) indeksi	0,79	0,02	0,10	0,77	0,02	0,11
Y. Torrrensning “O‘zgacha foydalanish” testida tezkorlik	14,88	1,13	6,60	9,72	0,93	4,64
Y. Torrensning “O‘zgacha foydalanish” testida moslashuvchanlik	9,44	0,55	3,23	7,16	0,59	2,93
Y. Torrensning “O‘zgacha foydalanish” testida o‘ziga xoslik (originallik) indeksi	1,59	0,34	1,97	1,04	0,26	1,27

V.N. Drujinin o‘zining umumiy qobiliyatlar strukturaviy modelida ularni mehnat faoliyati muvaffaqiyati, ta’lim va ijod bilan bog‘ladi. Bu holda individual unumdorlik haqida so‘zlanganda, u “Faol o‘zlashtirish, kasbiy yutuqlarga erishish saviyasi, kreativlik testlarini yechish muvaffaqiyati bilan baholanishi mumkinligini muallif ko‘rsatib o‘tadi.

Inson faoliyati muvaffaqiyatining, masalan, o‘quv faoliyatining, mavjud kreativlik testlari bilan baholanadigan uning ijodiy qobiliyatlariga bog‘liqligi bormi degan savol tug‘iladi. Ijodiy qobiliyatlarni baholash uslubiyoti yuqori va yuqori bo‘lmagan o‘zlashtirishli talabalar o‘rtasidagi ishonarli farqlarni aniqlash imkonini beradigan vositasi bo‘la olishini ko‘rib chiqamiz.

Yuqorida keltirilganlardan asosiy maqsad, yuqori va yuqori bo‘lmagan o‘zlashtirishga ega talabalar o‘rtasidagi ishonarli farqlarni aniqlashdagi turli ijodiy qobiliyatlarni baholash uslubiyotlari samaradorligini aniqlashdan iborat bo‘lib, keltirilgan izlanishlarimizning dolzarbligiga asos bo‘ladi.

Izlanish uslubiyoti. Kreativ qobiliyatlarni o‘rganish uchun quyidagi uslubiyatlar tanlab olindi:

● Divergent fikrlashni baholash uchun Y. Torrens testlarining verbal va noverbal subtestlari.

● S. Mednikning uzoqlashgan assotsiatsiyalar testlari.

● D. Djonsonning kreativlik so‘rovnomasi.

● Sinalayotganlar bildirgan fikrlarining to‘g‘riligini baholash uchun Shkala otsenki motivatsii odobreniya D. Marlou-D.Kraunning motivatsiyani baholash shkalasidan foydalanildi. Mazkur shkala bo‘yicha 14 va undan yuqori ball olgan sinaluvchilar bayonnomalar, keyingi, ma’lumotlarga ishlov berish jarayonidan chetlashtirildi.

Olingan natijalar quyidagi xulosalarni qilishga imkon beradi:

1. D. Djonson so‘rovnomasida kreativlik bo‘yicha o‘ziga o‘zi baho berish yuqori kreativlikka ega talabalar va yuqori kreativlikka ega bo‘lmagan talabalarda bir xil. D.Djonson so‘rovnomasida kreativlikni ekspert baholash bo‘yicha yuqori kreativlikka ega talabalar va yuqori kreativlikka ega bo‘lmagan talabalar guruhlaridagi o‘rtacha ba-

holardagi farqlar aniqlandi. Birinchi guruhdagi ballar 26,32±0,57 ni tashkil etdi, ikkinchi guruhda bu qiymat 22,60±0,92 ballga teng bo‘ldi.

2. Shunday qilib, yuqori va yuqori bo‘lmagan akademik o‘zlashtirishli talabalar guruhlaridagi krevtivlikni namoyon bo‘lishini baholashning samarali vositasi D. Djonson so‘rovnomasida kreativlikni ekspert baholash, Y. Torrrensning “O‘zgacha foydalanish” testida tezkorlik va moslashuvchanlik ekspert baholash hisoblanadi. D. Djonson so‘rovnomasida kreativlik bo‘yicha o‘ziga-o‘zi baho berish va S. Mednikning uzoqlashgan assotsiatsiyalar testlarini ushbu maqsad uchun tavsiya etib bo‘lmaydi.

– kreativ fikrlash fikrlashning mantiq bilan qat’iy bog‘langan, predmetni aniq, to‘g‘ri, obyektiv, har tomonlama tahlil etishga qaratilgan aqliy faoliyat turi, ta’lim jarayonida bilimlarni o‘zlashtirishning mustahkam asosi;

– kreativ fikrlash – o‘rganilayotgan jarayonlarni tahlil qilish, munosabat bildirish, idrok etish, innovatsion yechimlarni belgilash imkonini beradigan sermahsul fikrlash yo‘sini, ta’lim tizimida uzviylik, izchillikni ta’minlashning muhim manbai;

– kreativ fikrlash insonni innovatsion g‘oyalarni ilgari surish, yangi texnologiyalarni yaratish, amaliyotga tatbiq etishga undaydigan yaratuvchan fikrlash tarzidir. Ta’lim jarayonida yoshlarni ijtimoiy faollashuvga tayyorlashning intensiv yo‘li;

– ta’lim tizimida talabalarda kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish – bu mustaqil fikrlaydigan, har qanday muammoga tezlik bilan oqilona yechim topa biladigan, fikriy qaramlikdan yiroq barkamol avlod tarbiyalash imkonini beradi. Analitik tafakkur kishiga odam va olamni idrok etish quvvatini beradigan, uning fikrlash mexanizmini ratsional harakatga keltiradigan aql generatoridir.

Oliy ta’limda kreativ fikrlashni rivojlantirishga e’tibor qaratish bo‘lajak pedagoglarni butun jamiyat a’zolarini teran va har taraflama fikrlay oladigan holatga keltirishga sabab bo‘ladi. Taraqqiyotning bugungi darajasi har qanday kasb egasidan, ayniqsa, pedagog mutaxassisdan o‘xshatish, chog‘ishtirish, qismlarga ajratish, umumlashtirish, tizimlash, modellashtirish, tasniflash va mo‘ljal qilish orqali o‘z faoliyatini rejalashtirishni talab qiladi. Sanab o‘tilgan sifatlarni qaror toptirish oliy ta’limning istalgan bo‘g‘inida talabalarda kreativ fikrlashni shakllantirishni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Алан Дж. Роу. Креативное мышление / Алан Дж. Роу; пер. с англ. Островской В.А. – М.: НТ Пресс, 2007. – С. 176.

2. Богоявленская Д.Б. Что выявляют тесты интеллекта и креативности? // Психология. Журн. Высш. шк. экон. – 2004. –Т.1, №2. –С.54-66.

3. Бьюзен Т., Гриффитс К. Интеллект-карты для бизнеса / Т.Бьюзен, К.Гриффитс; пер с англ. Белошеев О.Г. – Мн.: Попурри, 2011. – С. 320.

4. Дружинин В.Н. Психология общих способностей. 3-е изд. – СПб.: Питер, 2007. – С. 368.

5. Zaparov A., Toychiev R., Khusanov U. Teaching technology in general secondary schools on the “stem” educational approach. “Экономика и социум”. № 1(80) 2021, – С. 107-115.

6. Туник Е.Е. Диагностика креативности. Тест Е.Торренса. Адаптированный вариант. – СПб.: Речь, 2006. – С.176.

7. Ильин Е.П. Психология творчества, креативности, одаренности. – СПб.: Пи¬тер, 2009. – С. 448.

Umida USMANOVA,
Andijon davlat universiteti, “Umumiy pedagogika” kafedrasi dotsenti
Husnida MAMADALIYEVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM YO‘NALISHI MAGISTRATURA TALABALARIDA ILMIY TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim yo‘nalishi magistratura talabalarida ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Yangilik, ilm-fan, ilmiy-pedagogik faoliyat, tadqiqot, ilmiy tadqiqotchilik, kashfiyot, o‘z-o‘zini anglash, ilmiy konferensiyalar, intellektual-rivojlantiruvchi.

В данной статье рассматривается развитие исследовательских компетенций у аспирантов. Также указано, что в процессе получения высшего образования и последующего профессионального развития магистранты должны быть осведомлены о научных подходах, концепциях, теориях, содержании новейшей информации по своему предмету.

Ключевые слова. Инновация, наука, научно-педагогическая деятельность, исследования, научные исследования, открытия, самосознание, научные конференции, интеллектуально-развивающие.

This article examines the development of research competencies in graduate students. It is also indicated that in the process of obtaining higher education and subsequent professional development, undergraduates must be aware of scientific approaches, concepts, theories, the content of the latest information on their subject.

Key words. Innovations, science, scientific and pedagogical activity, research, scientific research, discoveries, self-awareness, scientific conferences, intellectual development.

Respublikamizning mustaqillikka erishishi fanning turli yo‘nalishlarda rivojlanishiga keng yo‘l ochib berdi. Bu jarayonda olimlarimizning mashaqqatli mehnatlari va ijodiy izlanishlari alohida ahamiyatga ega. Zero, 2020-yil, 31-yanvar kuni Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev olimlar, yosh tadqiqotchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv chog‘ida “Ilmiy ishlanmalarni joriy qilish samaradorligini oshirish, buning uchun tadqiqotlarning tarmoq korxonalari ehtiyojiga hamohangligini ta’minlash muhimligi”ni ta’kidlab o‘tdilar. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, bugungi kunda olimlar ilmiy-ijodiy faoliyatining falsafiy-metodologik masalalarini tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha alohida dastur ishlab siqish, ushbu tizimni boshqarish infrastrukturasini takomillashtirish vazifasi qo‘yilib, ilmiy-metodik ta’minotni

rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Inson o‘z ijodiy izlanishlari asosida ham dunyoni o‘zgartiradi, ham o‘zini yaratuvchi, ijodkor, kashfiyotchi sifatida namoyon etadi, ya’ni inson o‘z oldiga xilma-xil muammolarni qo‘yadi va hal qiladi, ularning o‘ziga xos yechimlarini topadi, ba’zan bunday yechimlarga nisbatan betakror yondashuvlar, usullarni qo‘llaydi. Ijodkor shaxs deganda yuksak qobiliyat, hayotiy tajribaga tayanadigan teran aql-idrokni, haqiqat va yaxshilik birligini, oliy haqiqatni, adolat va rostgo‘ylik mushtarakligini, aqliy va axloqiy kamolotning oliy darajaga yetgan holatini, qadriyatlarni qadrlash, o‘zgacha his-tuyg‘ularning hayotga singib ketishini, har qanday narsaga va hodisaga yangicha nuqtayi nazar, aql ko‘zi bilan qarash tushuniladi.

Ilmiy-ijodiy faoliyat – bu insonning o‘zi va atrofidagi o‘zgarishlarni anglab yetishga doimiy ravishda tayyor turish, yangicha tafakkur qilish asosida o‘z qobig‘idan chiqa olishidir. Yangi narsalarni ixtiro etishga bo‘lgan intilish olimning nazariy huzur-halovatini namoyon etadi.

Bugungi kunda ko‘plab olimlar ilm-fanning nazariy va amaliy masalalarini ilmiy asosda tadqiq etmoqdalar. Bizning nazarimizda, nazariy g‘oyalarni amaliyotga uyg‘unlashtirish, kashfiyotlar yaratish va ixtirolar qilishda buyuk olimlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Chunki ilmiy-pedagogik faoliyat muayyan tadqiqotlar asosida yig‘iladigan shaxsiy yoki jamoaviy intilishning bir ko‘rinishidir.

Birinchidan, tadqiqot va uning barcha turlari (badiiy, texnikaviy, ilmiy va boshqalar) haqidagi ilmiy bilimlarning rivoji uning mohiyatiga nisbatan turlicha falsafiy talqinlarning shakllanishiga olib kelgan. Bu esa tadqiqotchilik faoliyati doirasida erishilgan ilmiy izlanishlar natijalariga tayangan holda uning mazmuniga aniqlik kiritish, ilmiy asoslangan ta’rifni ishlab chiqishni taqozo qilmoqda.

Ikkinchidan, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi magistratura talabalarida ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish faoliyatining jamiyat va shaxs hayotiga ta’siri muammolari keyingi yillarda olimlarimiz tomonidan keng ko‘lamda tadqiq etilmoqda. Bu borada ilmiy-nazariy ahamiyatga ega o‘quv-qo‘llanmalar, risolalar, to‘plamlar chop etildi, doktorlik dissertatsiyalari yoqlandi. Ammo, bizning nazarimizda, evristik voqelik sifatidagi ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati tizimi hozirgacha keng va maxsus falsafiy tahlil qilinmagan. Shu sababli, ilmiy-nazariy va uslubiy adabiyotlarda ilmiy-ijodiy faoliyatning konseptual jihatini har tomonlama va mukammal falsafiy tahlil etish hozirgacha dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Uchinchidan, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi magistratura talabalarida ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish faoliyati jarayonining turli qirralarini yaxlit holda o‘rganish va undan samarali foydalanish barkamol insonni tarbiyalashda muhim vazifalardan hisoblanadi. Shuning uchun ham Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2020-yil, 31-yanvar kuni olimlar, yosh tadqiqotchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuv chog‘ida “Yosh tadqiqotchilarni qo‘llab-quvvatlash va doktorantura tizimining natijadorligini rag‘batlantirish kerak. Dissertatsiyasini muddatidan avval himoya qilgan doktorantlar va ularning ilmiy rahbarlari yoki maslahatchilarini munosib rag‘batlantirish maqsadida tejalgan mablag‘larni to‘liq to‘lab berish amaliyotini joriy qilish taklifi bildirilsin. Mutasaddilarga ilm-fan sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, unda o‘rta va uzoq istiqbolga mo‘ljallangan ilm-fan, texnologik va innovatsion taraqqiyot asoslarini belgilash vazifasi qo‘yilsin,” deb ta’kidlab o‘tdilar. Zero, ilmiy-ijodiy faoliyatning tarbiyaviy jihatlariga e’tiborni qaratish payti keldi.

To‘rtinchidan, hozirgi kunga kelib maktabgacha ta’lim yo‘nalishi magistratura talabalarida ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish faoliyatining yangidan-yangi g‘oya va tamoyillari ilmiy tadqiqot jarayoniga yanada kengroq kirib kelmoqda va bu esa zamonaviy fanda bir paytning o‘zida turli darajadagi fanlararo tadqiqot usullari va paradigmalar shakllanayotganligini ko‘rsatadi. Shu ma’noda, ushbu yo‘nalishdagi sa’y-harakatlarning samaradorligini ta’minlaydigan tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish va bu borada aniq taklif-tavsiyalarni ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Beshinchidan, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi magistratura talabalarida ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni chuqur mehnat ekanligiga shak-shubha yo‘q, lekin u boshqa barcha aqliy mehnat turlaridan katta farq qiladi. Ilmiy tadqiqot davomli hodisadir. Unda ijodkorning shaxsiy xislatlari – fazilatlari katta rol o‘ynaydi. Agar ijodkor mehnatkash, har bir kunini muayyan reja asosida tashkil qiladigan, vaqtning qadriga yetadigan, dadil, qiyinchiliklardan cho‘chimaydigan bo‘lsa, u o‘z ishini oxiriga yetkaza oladi. Bordi-yu buning aksi bo‘lsa, tadqiqot maqsadlari nari borsa yaxshi topilma sifatida, chiroyli reja tarzida qolib ketadi. Bu esa tadqiqotchi shaxsiy xislatlarining ma’naviy-axloqiy jihatlarini (ayniqsa, olimlik axloqi va mas’uliyatini) chuqurroq tadqiq etishning qanchalik dolzarbligini ko‘rsatib turibdi.

Oltinchidan, hozirgi kunda ilmiy tadqiqot jarayoniga taalluqli shunday qarashlar mavjudki, unga ko‘ra yangilik va kashfiyotlar yaratilishining o‘z yetarli emas, balki u amaliyotga joriy qilinib, samaradorlik darajasi baholanishi zarur. Shu ma’noda, sinergetika ilmiy tadqiqot faoliyatdagi evristik jihatlarni yangicha talqinda yoritib beruvchi paradigma sifatida namoyon bo‘lmoqda. Demak, bu sohadagi erishilgan yutuqlarni metodologik jihatdan o‘rganish bugungi kundagi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Yettinchidan, maktabgacha ta’lim yo‘nalishi magistratura talabalarida ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish faoliyati talabalarga o‘z-o‘zini anglash, o‘z-o‘zini baholashga amaliy yordam beradi, ya’ni agar inson haqiqiy olim bo‘lishni istasa, o‘zining ehtiros va intilishlarini boshqarishi, ratsional, samarali va optimal qarorlar qabul qilishi, ezgulikka xizmat qiladigan evristik faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lishi lozim. Bunday faoliyatning natijasi kashf qilish, yaratuvchanlik sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu holat, ilmiy-tadqiqot faoliyatini tahlil qilish, tushunish va unga baho berishda yangidan-yangi imkoniyatlarni ochadi. Shu nuqtayi nazardan ham ilmiy-tadqiqotchilik faoliyati haqidagi bunday yondashuvlarni yanada chuqurroq tadqiq etish, uning o‘ziga xos xususiyatlarini izlab topishga yordam beradi.

Hozirgi vaqtda magistratura bosqichida ilmiy tadqiqot ishlarining quyidagi shakllaridan keng foydalanilib kelinmoqda: ilmiy konferensiyalar, xalqaro dasturlar, tanlovlar, olimpiadalarda ishtirok etishi. Ana shu asosdan kelib chiqib, magistratura talabalari bilan ishlashning mavjud quyidagi tizimini ajratib ko‘rsatish mumkin:

1) ilmiy to‘garaklarda va ilmiy jamiyatlarda ishlash;
2) ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug‘ullanish;
3) ko‘rik-tanlovlarda, konkurslarda, grantlarda ishtirok etish;
4) olimpiadalarda qatnashish;
5) ilmiy konferensiyalarda ishtirok etish.

Magistratura talabalari bilan ishlashning bunday turlari ularning kelajakda ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun katta maktab vazifasini bajaradi.

– yoshlarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, tabiiy va texnik fanlarga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘yicha bilimini oshirishga qaratilgan ilmiy-ommabop “Intellektual taraqqiyot” televizion ko‘rsatuvini

tashkil etish;

– magistratura talabalarining ilmiy ishlari va intellektual imkonyatlarini faollashtirish maqsadidan kelib chiqib, ta’lim muassasalari miqyosida talabalar ilmiy sektorlarining keng tarmoqli strukturasini yaratish lozim.

Shu bilan birga, magistratura talabalarining katta qismidagi axborotlar bo‘shlig‘ini hal etish, magistratura talabalarining nashr etilgan ishlari sonini ko‘paytirish, bundan tashqari, kafedra, bo‘lim va fakultet ilmiy jamiyatini yaratish imkoni hosil bo‘ladi.

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi magistratura talabalarida ilmiy tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishlaridan biri – magistratura talabalarini intellektual jihatdan tarbiyalash, rivojlantirish vositasi sifatidagi ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy ijodning shakllarini izlab topish, ularni yangi mazmun bilan boyitish kerak. Bu borada oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan magistratura talabalariga ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish bo‘yicha mahorat darslarini tashkil etish, olimlar bilan uchrashuvlar o‘tkazish, ilmiy munozaraga kirishish madaniyati va malakasini shakllantirish, ilmiy nutq madaniyati va notiqlik san’atidan dars berish lozim bo‘lsa, magistratura talabalari o‘z yo‘nalishlarida olib borayotgan ilmiy ishlarini namoyish etish, ilmiy maqolalar nashr ettirish hamda seminar, konferensiyalarda ma’ruzalar o‘qishga o‘rganish, o‘z faoliyati natijalarini o‘zaro bir-birlari bilan o‘rtoqlashish, fan olamidagi yangiliklar bilan tanishib borishi kerak.

Magistratura talabalari ilmiy faoliyatining keyingi rivoji, eng avvalo, ta’lim va fan integratsiyasi jarayonlarini rivojlantirish, innovatsion faoliyatni faollashtirish, hamkorlikdagi ilmiy yo‘nalishga doir ishlar samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan faoliyatini chuqurlashtirish bilan bog‘liq.

Respublika Fanlar Akademiyasi bilan hamkorlikda magistratura talabalarining ilmiy-tadqiqotchilik va intellektual-rivojlantiruvchi faoliyatini rag‘batlantirish, faollashtirish va integratsiyalash maqsadida hamda magistratura talabalarining ilmiy va intellektual-rivojlantiruvchi ishlari bo‘yicha O‘zbekiston Yoshlar Ittifoqida Muvofiqlashtiruvchi Kengash tuzish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bunday kengash tuzishdan asosiy maqsad ilmiy tadqiqot va ta’lim jarayonini integratsiyalash hamda fan va ta’lim sohasida yagona axborot makonini yaratishdir.

Hozirgi vaqtda ko‘pchilik talabalarning ilmiy-tadqiqot sohasi, nashr etgan ilmiy ishlari bilan tanishish natijasida ularning aniq bir belgilangan mavzu doirasida ish olib bormayotganligi ko‘zga tashlanadi. Muvofiqlashtiruvchi kengash esa magistratura talabalarining ilmiy ishlari mavzularini belgilash, ularni doimiy ravishda biror tadqiqot muammosi doirasida faoliyat olib borishga yo‘naltiradi hamda nazoratni amalga oshiradi. Natijada, magistratura talabalarining vaqt byudjetini to‘g‘ri taqsimlash, ularni jismoniy va ruhiy jihatdan toliqishlarining oldi olinadi, bilishga qiziqish va ishtiyoq motivatsiyasi hosil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev olimlar, yosh tadqiqotchilar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan uchrashuvdagi nutqidan. 2020-yil, 31-yanvar.

2. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008. – 40–41-b.

Nargiza ATAQULOVA,
Andijon davlat universiteti, “Umumiy pedagogika” kafedrasi dotsenti
Bunyodjon MARASULOV,
Andijon davlat universiteti, “Maktabgacha pedagogik” kafedrasi o‘qituvchisi

OLIY TA’LIM MUASSASALARI MAKTABGACHA TA’LIM YO‘NALISHI TALABALARINING INNOVATSION KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqola oliy ta’lim muassasalari maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarinining innovatsion kompetentligini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi ko‘rib chiqilib, ta’lim jarayoniga innovatsiyalar kirishining muhim shartlaridan biri, o‘qituvchining innovatsion tayyorgarligi, ijodkorligi va kreativ faolligi bilan tavsiflandi hamda adabiyotlarni o‘rganish natijasida tahlil qilish muammosi o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar. Kreativlik, shaxsga yo‘naltirilgan, integrativ, ijtimoiy-madaniy, kommunikativ, tizimli yondashuvlar; ta’lim mazmuni komponentlari, interfaol o‘qitish, innovatsion.

В статье рассматривается формирование инновационной компетентности будущих учителей, описывается одно из важных условий внедрения нововведений в образовательный процесс, инновационная подготовка, творчество и творческая активность учителя, исследуются проблемы анализа литературы.

Ключевые слова. Реактивность, личностный, интегративный, социокультурный, коммуникативный, системный подходы; компоненты содержания образования, интерактивное обучение, инновации.

The article discusses the formation of innovative competence of future teachers, describes one of the important conditions for the introduction of innovations into the educational process, innovative training, creativity and creative activity of the teacher, examines the problems of literature analysis.

Key words. Creativity, personal, integrative, sociocultural, communicative, systemic approaches; components of educational content, interactive learning, innovation.

O‘zbekiston Respublikasi Perezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-son qarorida maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlarini va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratishga qaratilganligi bejiz emas.

Mazkur Qaror maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatining huquqiy-me’yoriy asoslarini takomillashtirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlarining davlat va nodavlat tarmoqlarini birday

rivojlantirish, mazkur tizimga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, pedagoglarning innovatsion faoliyat ko‘lamini darajasini kengaytirish, boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish, maktabgacha ta’lim tashkiloti rahbarlarining malakasini oshirish jarayoni mazmunini takomillashtirish kabi vazifalarni yanada dolzarblashtirdi.

Oliy ta’lim muassasalari maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarinining innovatsion kompetentligini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasida U.N. Nishonalievning tadqiqotlarida mehnat ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlash jarayoni turli tarixiy davrlarga bo‘lib o‘rganilgan hamda kasb ta’limi pedagogi shaxsining innovatsion sifatlari tadqiq etilgan. Pedagoglarni tayyorlash jarayonida bu masala dolzarb ahamiyat kasb etadi va pirovard natija bo‘lajak pedagogning shaxsiy yo‘nalganligiga borib taqaladi.

J.Hamidov klaster yondashuvi asosida kompetensiyalarni quyidagicha guruhlashni taklif etadi:

– axborotlar bilan ishlashga doir kompetensiyalar: axborotlarni to‘plash va tahlil etish, qarorlar qabul qilish; axborotlarni qayta o‘zgartirish;

– muvaffaqiyatga erishishga doir kompetensiyalar: rejalashtirish, faoliyatni tashkillashtirish, natijalarni tahlillash;

– insonlar bilan ishlashga doir kompetensiyalar: munosabatlarni boshqarish, komandada ishlash, atrofdagilarga ta’sir ko‘rsatish;

– o‘z-o‘zini takomillashtirishga doir kompetensiyalar: o‘z-o‘zini tekshirish, kasbiy o‘sish, innovatsion mobillik. Kasbiy kompetensiyalar hozirgi kunda innovatsiyalarni tatbiq etish uchun kreativlikka bog‘liq bo‘lgan innovatsion ta’lim texnologiyalariga asoslangan kasbiy kompetentli o‘qituvchi faoliyatidagi ijodiy qobiliyatdir.

Bo‘lajak o‘qituvchilarida o‘quv-biluv faoliyatining komponentlarini bosqichma-bosqich rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun har bir dars o‘qituvchi tomonidan loyihalashtirilishi, tarkibiy qismlari aniq chegaralangan bo‘lishi zarur. Darsda o‘qituvchi har bir o‘quvchi bilan o‘zaro muloqot va hamkorlik o‘rnata olishi, dialogga kirishishi uchun qulay sharoit yaratilishi muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’lim samaradorligini oshirish uchun o‘quvchilarni o‘yin faoliyatidan o‘quv-biluv faoliyatiga o‘tishlarini taxminlashga xizmat qiladigan innovatsion metodlar majmuini yaratish talab etilmoqda.

Oliy ta’lim muassasalari maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarining innovatsion kompetentligini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishning intensivligi, muqobil dasturlarning xilma-xilligi, ta’limning protsessual tomonlarining tubdan o‘zgarishi sababli jamiyat birinchi o‘ringa o‘qituvchi shaxsining sifat jihatdan o‘zgarishi, ta’lim jarayonida uning roli va faoliyati muammosini qo‘ydi. L.V.Trubaychukning fikriga ko‘ra, bugungi kunda bola shaxsi o‘qitish, rivojlantirish, o‘quv faoliyatida muloqotni tashkil etish sohasida psixologiyaga oid chuqur bilimlarga ega, shuningdek, maktab amaliyotiga innovatsion texnologiyalarni joriy etish uchun maxsus bilimlar va ko‘nikmalarga ega yangi turdagi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisini tayyorlash vazifasi dolzarb hisoblanadi.

Shu sababli, V.V.Gorbenko, zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi turli xil ta’lim dasturlaridan foydalanish va korreksion hamda kompensatsiyalovchi ta’lim sinflarida ishlashga tayyor bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Boshlang‘ich ta’limning yana bir farqli jihati o‘quv va sinfdan tashqari ishni ko‘pincha bir nafar o‘qituvchi bajarishi lozim. Unda quyidagi pedagogik ko‘nikmalar majmui shakllangan bo‘lishi kerak: perseptiv-refleksiv, proyektiv, konstruktiv va boshqaruv ko‘nikmalari. Bundan tashqari, zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi – bu yorqin ifodalangan ijodiy individuallikka ega mutaxassisdir.

Oliy ta’lim muassasalari maktabgacha ta’lim yo‘nalishi talabalarining innovatsion kom-

petentligini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishning psixologik-pedagogik hamda maxsus adabiyotlar tahlili, shuningdek, oliy ta'lim muassasalari tajribasini yaqindan o'rganib chiqish natijasida hali bu borada o'z yechimini kutayotgan muammolar mavjudligi aniqlandi. Shular jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

– oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak pedagoglarni innovatsion kompetentligini shakllantirishda psixologiya va pedagogika fanlarining funksional imkoniyatlarini tadqiq qilish;

– oliy ta'lim muassalalari talabalarining tahsil olish jarayonida kelgusida turli innovatsion metodlarni nazariy va amaliy qo'llash ko'nikmasini rivojlantirishning psixologik shartlarini yoritish;

– innovatsion kompetentligini shakllantirishning shakl va metodlarini takomillashtirish;

Tahlillardan ma'lum bo'lishicha, tadqiqot ishlarimizning holatini yoritishga bag'ishlangan bo'lajak pedagoglarni tayyorlash masalalarining umumnazariy va metodik qirralari ma'lum darajada yoritib kelinmoqda, ularni tasdiqlovchi statistik ma'lumot va dalillar bilan yetarlicha boyitilgan.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida sifat-samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi. O'quvchilarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma, malakalarini shakllantiradi.

Lug'aviy jihatdan "innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. Innovatsion ta'lim – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'limdir. Pedagogik texnologiya deganda, ta'lim funksiyasini amalga oshirishdagi san'at va mahorat tushunilib, u juda qulay usullar asosida o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga asos bo'ladi.

O'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirish mazmunan modernizatsiya qilish, ilg'or tajribalar asosida o'qitish jarayoniga innovasion pedagogik va multimediali texnologiyalarni joriy etish, bunda kadrlar salohiyatini oshirishga alohida e'tiborni qaratgan holda boshlang'ich ta'limning sifat-samaradorligini tubdan yaxshilash xalq ta'limi faoliyatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilab olingan.

Xulosa qilib aytganda, darsda foydalaniladigan zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarining uyg'unligini ta'minlash orqali dars jarayonida o'qituvchi bilan o'quvchilar orasida hamkorlik, o'zaro muloqot qilish va ijodiy faollik ko'rsatish uchun qulay sharoit yaratiladi. O'quvchilar topshiriqlarni individual bajarish jarayonida ularning aqliy faoliyati jalb etiladi, o'z bilimi, kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonch ortadi. Buning natijasida har bir shaxs o'z imkoniyati darajasida rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son qarori.

2. Нишоналиев У.Н. Формирование личности учителья и трудовогообучения. Проблемы и переспективы – Т.: Фан, 1990 – С.85.

3. Hamidov J.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda o'qitishning zamonaviy didaktik vositalarini yaratish va qo'llash texnologiyasi: Diss....ped. fan. dok. – T., 2017.

Turg‘unoy KAZIYEVA,
Andijon davlat universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
“Maktabgacha ta’lim” fakulteti dotsenti

IJTIMOIY MULOQOTNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

Annotatsiya

Maqolada ijtimoiy kommunikatsiyaning pedagogik jihatlari, psixologik xususiyatlari muloqotning o‘rni, shart-sharoitlariga ko‘ra nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ijtimoiy muloqot, kommunikator, retsepient, belgilar tizimi, o‘z-o‘zini anglash, muloqot turlari, ijtimoiylashuv.

В статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты социального общения как теоретически, так и практически в зависимости от места и условий общения.

Ключевые слова. Социальная коммуникация, коммуникатор, рецептор, система характера, самосознание, типы общения, социализация.

The article deals with the pedagogical and psychological aspects of social communication, both theoretically and practically, according to the place and conditions of communication.

Key words. Social communication, communicator, recipient, character system, self-awareness, types of communication, socialization.

Muloqotning hamkorlikda harakat qilish va faoliyat ko‘rsatish jarayonida odamlarni birlashtiradigan muloqot vositasi til bo‘lib, u muloqotga kirishuvchilar o‘rtasida aloqa bog‘lanishini ta’minlaydi. Tilni ushbu maqsad uchun tanlangan so‘zlar mohiyatiga ko‘ra kodlashtirgan holda axborotni ma’lum qilayotgan kishi ham, bu mohiyatning kodini ochgan, ya’ni uning ma’nosini oshkor etgan va ana shu axborot asosida o‘z xulq-atvorini o‘zgartirgan holda bu axborotni qabul qilayotgan kishi ham tushunadi. Axborotni boshqa kishiga yo‘llayotgan kishi (kommunikator) va uni qabul qilayotgan kishi (retsepient) munosabat va birgalikdagi faoliyat maqsadlarga erishish uchun mohiyatlarni kodlashtirish va kodini ochishning bitta yagona sistemasidan foydalanishlari, ya’ni “bitta tilda” so‘zlashishlari kerak bo‘ladi. Agar kommunikator va retsepient kodlashtirishning turli xil sistemalarini qo‘llasalar, ya’ni bir-birlariga noma’lum bo‘lgan “til”da so‘zlashsalar, bu holda ular o‘zaro hamjihatlikka va birgalikda faoliyat yuritish borasida muvaffaqiyatga erisha olmaydilar. Qo‘llanadigan belgilar (so‘zlar, imo-ishoralar va h.k.) zamiridagi mohiyat muloqotda ishtirok etayotgan shaxslarga tanish bo‘lgan taqdirdagina axborot ayirboshlash mumkin bo‘ladi. Mohiyat – tevarak-atrofdagi voqelikni bilishni ifoda etadigan qism sifatidagi mazmunga ega bo‘lgan so‘zlar belgisi tizimidir. Bunda so‘zlar belgilari tizimi hayot kechirish, ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish va uzatish vositasi sifatidagi tilni tarkib toptiradi. Ijtimoiy tajriba to‘plash va uzatish vositasi sifatidagi til aniq tovushlardan foydalangan holda o‘y-fikrlar almashinuvi, axborot berishni amalga oshiradi. Muloqot shaxslararo birgalikdagi harakat, ya’ni odamlarning hamkorlikdagi faoliyati jarayonida tarkib topadigan aloqalari va o‘zaro bir-birlariga ta’sirining yig‘indisi sifatida yuzaga chiqadi. Hamkorlikdagi faoliyat va mu-

nosabat ijtimoiy qoidalar – odamlarning birgalikdagi harakati va o‘zaro munosabatlarini qat’iyan belgilab qo‘yadigan hamda jamiyatda udum bo‘lgan xulq-atvor namunalari asosida amalga oshiriladigan ijtimoiy nazorat sharoitida yuz beradi. Jamiyat ijtimoiy qoidalar sifatida qabul qilgan, ma’qul topgan, udumga aylangan va tegishli vaziyatda turgan har bir kishidan bajarilishini kutayotgan namunalarning o‘ziga xos tizimini yaratadi. Ularning buzilishi qoidadan chetga chiqadiganlarning xulq-atvori to‘g‘rilanishini ta’minlaydigan ijtimoiy nazorat mexanizmlari (ma’qullamaslik, ta’na qilish, jazolash)ni o‘z ichiga oladi. Qoidalarning mavjudligi va qabul qilinishi haqida biron kishining barcha boshqa odamlar xulq-atvoridan farq qiluvchi xatti-harakatiga atrofdagilarning bir xilda munosabat bildirishidan dalolat beradi. Ijtimoiy qoidalar mehnat intizomi, harbiy burch va vatanparvarlik talablariga javob beradigan xulq-atvor namunalaridan tortib odoblilik qoidalariga qadar hammasini o‘z ichiga oladi. Odamlarning ijtimoiy qoidalariga murojaat qilishi ularda o‘z xulq-atvori uchun mas’ullik hissini uyg‘otadi, harakatlari va qiliqlarning ushbu qoidalarga mos kelishi yoki mos kelmasligini baholagan holda ularni tuzatib borish imkonini tug‘diradi. Qoidalarga qarab mo‘ljal olish kishiga o‘z xulq-atvorining shakllarini andozaga qarab moslash, ijtimoiy jihatdan maqbullarini tanlab olish, nomaqbul shakllariga amal qilmaslik, o‘zini muloqot jarayoniga yo‘naltirib va boshqarib borish imkonini beradi. Turli xil rollarni bajarayotgan odamlarning hamkorlikdagi harakati rollar ehtimoli bilan boshqariladi. Kishi buni istasa-istamasa atrofdagilar undan muayyan namunaga mos keladigan xulq-atvorni talab qiladi. Rolning qanday bajarilishi ijtimoiy nazorat ostida bo‘ladi, ijtimoiy jihatdan muqarrar ravishda baholanadi va namunadan salgina chetga chiqilishi esa qoralanadi. Muloqotning perseptiv jihatida bir kishining ikkinchi kishi tomonidan idrok qilinishi, tushunishi, baholanishi kuzatiladi. Muloqotning mazkur jihati quyidagi bosqichlar orqali amalga oshishi mumkin:

1) Idrok qilinayotgan odamni idrok qiluvchi o‘zining shaxsiy xislatlari bilan qiyoslash natijasida uning mahsuli bo‘yicha talqin qilinadi va tushuntiriladi; bunday idrok qilish tarzida insonni inson tomonidan aks ettirish, o‘xshatish, unga taqlid qilish, undan ibrat olish uslublari orqali yuzaga keladi, ya’ni identifikatsiya (aynan o‘xshatish) bosqichi bevosita amalga oshadi. Bunda kishi hamkorlikda harakat qilish vaziyatida sherigi o‘rniga o‘zini qo‘yib ko‘rib, uning ichki holati, niyatlari, o‘y-fikrlari, xohish-istaklari haqida taxmin qiladi, bunda ular anglanilgan yoki anglanilmagan bo‘lishi mumkin.

2. Idrok qilinayotgan shaxsning o‘rniga idrok qiluvchi o‘z xohishi bo‘yicha mulohaza yuritishi, uni tushunishga intilish o‘z-o‘zini anglash negizida namoyon bo‘ladi, ya’ni refleksiya bosqichi vujudga kelganligi to‘g‘risida muayyan qarorga kelinadi. Refleksiyada kishi idrok etish subyekti sifatida o‘ziga nisbatan sherigining munosabati anglab yetiladi. Lekin kishi har doim ham muloqot jarayonida o‘zini kim ekanligini to‘liq anglab yetolmaydi, bu esa uning o‘zi qilgan xatti-harakatlari sabablarini boshqalarga to‘nkashga majbur qiladi. Kishi o‘z xatti-harakatlari sabablarini, niyatlarini, o‘y-fikrlarini, xulq-atvor motivlarini boshqa kishilarga to‘nkash orqali tushuntirishi psixologiyada kauzal atributsiya, ya’ni sababiy izohlash deb ataladi.

3. O‘zga kishilarning kechinmalari va his-tuyg‘ulariga nisbatan hamdardlik bildirish, mehr-oqibatliligini amaliy ifodalash orqali ularni tushunish imkoniyati tug‘iladi, buning natijasida tub ma’nodagi empatiyaga asoslangan idrok qilish bosqichi yuzaga keladi.

4. O‘zga kishilarga, ijtimoiy guruh a’zolariga nisbatan berilgan xislatlarni hozirgacha ma’lum bo‘lgan ijtimoiy qoliplarga mos tarzda ommaviy tarzda yoyish, tavsif berish va baholash stereotipizatsiya (bir xil qolipga solish), ya’ni stereotiplashtirish deyiladi. Idrok etish subyekti ijobiy munosabatda bo‘lgan shaxslarga ijobiy, yoqtirmaydigan shaxslarga salbiy baho berilishi kauzal atributsiyaga xos tipik hollardan biridir. Tad-

qiqotlardan ma’lum bo‘lishicha, shaxs muloqot jarayonida o‘z obyektiga nisbatan ijobiy taassurotga ega bo‘lsa, subyektga ma’lum bo‘lmagan fazilatlarini ijobiy baholashga yoki, aksincha, obyekt salbiy taassurot qoldirgan bo‘lsa, subyektga ma’lum bo‘lmagan xislatlarini salbiy baholashga harakat qilar ekan. Bu holat psixologiyada oreol effekti nomi bilan yuritiladi. Muloqot odamlarning jamiyatda o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etib, u hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo‘lganligi hisobga olinganda, odamlarning mehnat unumdorligi va samaradorligini ta’minlovchi muhim omil ekanligini bildiradi. Muloqot mazmuniga ko‘ra quyidagi turlarga ajraladi:

1. Moddiy muloqot deganda subyektni dolzarb ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida, ayni paytda shug‘ullanayotgan faoliyatining mahsulotlari va predmetlarini ayirboshlash tushuniladi.

2. Kognitiv muloqot deb shaxslarning hamkorlikdagi faoliyatida narsa va hodisalarni o‘rganish, ma’lumotlarni bilib olish jarayonida o‘zaro bilim almashinuviga aytiladi.

3. Konditsion muloqotda psixologik va fiziologik holatlar ayirboshlanadi. Masalan, shifokor bemorning tushkun kayfiyatini ko‘tarishi yoki aksincha, ona qizining o‘ksinib yig‘layotgan holatiga yig‘i bilan munosabat bildirishi va h.k

4. Motivatsion muloqot muayyan yo‘nalishda hamkorlikda harakat qilish uchun o‘zaro maqsadlar, qiziqishlar, motivlar va ehtiyojlar almashinuvi jarayoni bilan izohlanadi.

5. Faoliyat muloqoti kognitiv muloqot bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bunda harakatlar, operatsiyalar, ko‘nikma va malakalar ayirboshlanadi. Bu muloqot jarayonida ma’lumotlar uzatiladi, bilim doirasi kengayadi, qobiliyatlar rivojlanadi va takomillashadi.

Muloqot maqsadiga ko‘ra, biologik va ijtimoiy ko‘rinishda bo‘ladi. Biologik muloqot nasl qoldirish, organizmni rivojlantirish, himoyalash kabi tabiiy ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq bo‘lsa, ijtimoiy muloqot esa shaxslararo munosabatlarni kengaytirish, mustahkamlash, takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Muloqot vositasiga ko‘ra, bevosita va bilvosita bo‘lib, bunda jonli mavjudotning tabiiy organlari yordamida, ya’ni qo‘li, boshi, tanasi, tovushi yordamida axborot ayirboshlasa – bu bevosita bo‘ladi, agar muloqotni tashkillashtirish va ma’lumot almashishda maxsus qurol va vositalardan foydalanilsa – bu muloqot bilvosita deyiladi. Muloqotning yuqorida mulohaza yuritilgan turlaridan tashqari ishbilarmonlik va shaxsiy turlari ham farqlanadi. Ishbilarmonlik muloqoti odamlarning turli xildagi qo‘shma mahsuldor faoliyati va mazkur faoliyatining sifatini oshirish vositasi sifatida yuzaga keladi. Shaxsiy muloqot esa shaxs o‘zining psixologik muammolariga, qiziqishlariga, ehtiyojlariga, o‘z hayotiga, atrofida nimalar bo‘layotganligiga bo‘lgan munosabatini atrofdagilardan bilishga yo‘naltirilgandir.

Muloqotning psixologik vositalari. Odamlar bir-birlari bilan muomalaga kirishar ekan, ularning asosiy ko‘zlagan maqsadlaridan biri – o‘zaro bir-birlariga ta’sir ko‘rsatish, ya’ni fikr-g‘oyalariga ko‘ndirish, harakatga chorlash, ustanovkalarni o‘zgartirish va yaxshi taassurot qoldirishdir. Turli vositalar yordamida insonlarning fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta’sir ko‘rsata olish – psixologik ta’sir deyiladi. Psixologiyada psixologik ta’sirning asosan uch vositasi farqlanadi:

1. Verbal ta’sir – bu so‘z va nutq orqali ko‘rsatadigan ta’sirlardir.Har qanday nutq ko‘rinishida odam o‘zidagi barcha so‘zlar zaxirasidan foydalanib, eng ta’sirchan so‘zlarni topib, sherigiga ta’sir ko‘rsatishni xohlaydi.

2. Paralingvistik ta’sir – bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillari bo‘lib, bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodala-

nayotganligi, artikulyasiya, tovushlar, to‘xtashlar, duduqlanish, yo‘tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi.

3. Noverbal ta’sir “nutqsiz” ko‘rinishga ega bo‘lib, bunga suhbatdoshlarning fazoda bir-birlariga nisbatan tutgan o‘rinlari, holatlari (yaqin, uzoq, intim), qiliqlari, mimika, pantomimika, qarashlar, bir-birini bevosita his qilishlar, tashqi qiyofa, undan chiqayotgan turli signallar (shovqin, hidlar) kiradi. Ularning barchasi muloqot jarayonini yanada kuchaytirib, suhbatdoshlarning bir-birlarini yaxshiroq bilib olishlariga yordam beradi.

Ijtimoiylashuv omillari. Ijtimoiylashuv bolalar, o‘smirlar, yoshlarning rivojlanishiga ta’sir qiluvchi ko‘p sonli shart-sharoitlar bilan o‘zaro munosabatida yuzaga keladi. Odam tug‘ilgan onidan boshlab shaxslar qurshovida bo‘ladi va uning butun ruhiy potensiali ana shu ijtimoiy muhitda namoyon bo‘ladi. Chunki agar insonning ontogenetik taraqqiyoti tarixiga e’tibor beradigan bo‘lsak, hali gapirmay turib, odam bolasi o‘ziga o‘xshash mavjudotlar davrasiga tushadi va keyingina ijtimoiy muloqotning barcha ko‘rinishlarining faol obyekti va subyektiga aylanadi. Ijtimoiylashuv jarayonlari ro‘y beradigan shart-sharoitlar ijtimoiy institutlar deb ataladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ba’zan odamning qaysi mahalladan ekanligini surishtirib, keyin xulosa chiqarishadi, ya’ni mahalla bilan mahallaning ham farqi bo‘lib, bu farq odamlar psixologiyasida o‘z ifodasini topadi. Ijtimoiylashuvning yana bir muhim o‘choqlariga maktab va boshqa ta’lim maskanlari kirib, aynan shu yerda ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari maxsus tarzda uyg‘unlashtiriladi. Bizning ijtimoiy tasavvurlarimiz shundayki, maktabni biz ta’lim oladigan, bilimlar tizimini o‘zlashtiradigan maskan sifatida qabul qilamiz, lekin aslida bu yer ijtimoiylashuv tarbiyaviy vositalarda yuz beradigan maskandir. Bunda har bir sinfda shakllangan muhit ham muhim rol o‘ynaydi. Ba’zi sinflarda o‘zaro hamkorlik, o‘rtoqchilik munosabatlari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan, guruhda ijodiy munozaralar hamda bahslar uchun qulay sharoit bo‘lib, bu muhit tabiiy o‘z a’zolari ijtimoiy xulqini faqat ijobiy tomonga yo‘naltirib turadi.Yana bir muhim ijtimoiylashuv muhiti – bu mehnat jamoalari bo‘lib, bu muhitning ahamiyati va o‘ziga xosligi shundaki, bu yerga shaxs odatda ancha aqli pishib qolgan, ma’lum tajribaga ega bo‘lgan, hayot haqidagi tasavvurlari shakllangan paytda keladi. Qolaversa, egallangan mutaxassislik, orttirilgan mehnat malakalari va bilimlar ham juda katta ahamiyatga ega bo‘lib, shu muhitdagi ijtimoiy normalar xarakteriga ta’sir qiladi. Shu bois ishga kirishdagi asosiy motivlardan biri – o‘sha jamoaning qanday ekanligi, bu yerdagi o‘zaro munosabatlar, rahbarning kimligi va uning jamoaga munosabati bo‘lib, ko‘pincha oylik-maosh masalasi ana shulardan keyin o‘rganiladi. Shuning uchun mehnat jamoalarida yaxshi, sog‘lom ma’naviy muhit, adolat va samimiyatga asoslangan munosabatlar har bir inson taqdirida katta rol o‘ynaydi. Katta yoshdagi ijtimoiylashuvning o‘ziga xosligi shundaki, unda individualizatsiya jarayoni aniqroq, sezilarliroq kechadi. Chunki katta odam nafaqat tashqi ta’sirlarni o‘zlashtiradi, balki o‘zidagi iqtidor, malakalar bilan boshqalarga ham tarbiyaviy ta’sir, shaxsiy namuna ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karnegi D. Muomala sirlari. –T.: Navro‘z, 1992.

2. Qosimov S., Mo‘minov N. Rahbarlik qobiliyati va boshqaruv masalalari.– T., 2001.

3. Adizova T. Boshqaruv muloqoti psixologiyasi. –T., 2000.

4. Ergashev P. Muloqot psixologiyasi (ma’ruzalar matni). –T., 2003.

Akromjon TESHABOYEV,
Andijon davlat universiteti, pedagogika fanlari nomzodi,
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi mudiri

TARBIYACHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLILIKNI SHAKLLASHTIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada tarbiyachilarda kommunikativ kompetentlilikni shakllashtirishning nazariy hamda amaliy asoslari yoritilgan. Tarbiyachining kommunikativlik kompetensiyasi va uni shakllantirish mexanizmi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Axloqiy mezonlar, qadriyat, etiket, kommunikativ kompetentlilik, axloq, muloqot muhiti, pedagogik ta’lim.

В статье рассматриваются теоретические и практические основы формирования коммуникативной компетентности воспитателя. Речь идет о коммуникативной компетентности педагога и механизме ее формирования.

Ключевые слова. Нравственные критерии, ценность, этикет, коммуникативная компетентность, этика, коммуникативная среда, педагогическое образование.

The article deals with the theoretical and practical foundations of the formation of the communicative competence of the teacher. We are talking about the communicative competence of the teacher and the mechanism of its formation.

Key words. Moral criteria, value, etiquette, communicative competence, ethics, communicative environment, pedagogical education.

Bugungi kunda inson shaxsini to‘laqonli shakllantirishni maqsadli axloqiy-estetik ta’limsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu talabalar tomonidan axloqiy mezonlar va qadriyatlar tizimini egallanishini ta’minlab, ularda ma’naviy-axloqiy hissiyotlarni rivojlantirish hamda kompetentli harakatlarning barqaror motivlarini shakllantirishga yordam beradi. Shuning uchun zamonaviy pedagogik ta’lim jarayonida ma’naviy barkamol mutaxassisni shakllantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Hozirgi tez o‘zgaruvchan sharoitda maktabgacha ta’lim tizimida internet tarmog‘i orqali yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa o‘rnatish kabi kommunikatsion aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochilmoqda. Bu amaliyotdagi hamda bo‘lajak tarbiyalanuvchilarda boshqa madaniyat vakillari bilan kasbiy va shaxsiy muloqot olib borish uchun ulkan imkoniyatlar yaratilmoqda.

Pedagogik OTMdagi bo‘lajak tarbiyachilar kommunikativ kompetentlilikni shakllashtirish bo‘yicha turli pedagogik texnologiyalar mazmunini o‘rganib chiqish natijasida bo‘lajak tarbiyachilarni insoniyat tomonidan yaratilgan odob-axloq qoidalariga, barcha insonlarga hurmat, ezgulik nuqtayi nazari bilan qarashga o‘rgatadigan madaniy etiket qoidalariga o‘qitish zarurligi tasdiqlandi.

Shuni qayd etish kerakki, etiket o‘z mohiyatiga ko‘ra, xulqning belgilangan tartibi bo‘lib, har bir insonning boshqalar bilan o‘zaro kommunikativ munosabatlarini tartibga soluvchi eng muhim odob-axloq qoidalarini o‘z ichiga oladi. O‘zaro aloqalarning maz-

kur kommunikativ shakli asosida insonlarning bir-birlarini hurmat qilishi hamda muloqot ishtirokchilarida o‘ziga nisbatan ijobiy yondashuvni vujudga keltirishga bo‘lgan intilish yotadi. Bunda etiket kishilarning xulqi va tashqi ko‘rinishida namoyon bo‘lib, hayotiy odob-axloq normalarini yuzaga keltiradi.

Qur’oni Karimning ma’lum oyatlari shirinsuhanlikka, to‘g‘riso‘z va muomala madaniyatiga bag‘ishlanadi. Muomala madaniyatiga rioya qilish qonun-qoidalari Islomgacha ham bo‘lgan. Ammo faqat Islomgina uning asl mohiyati, inson kamoloti, jamiyat taraqqiyotida naqadar katta ahamiyatga ega ekanini yoritib bera oldi. Chunki kishilarda shirinso‘zlik, madaniy muomala taraqqiy etgan mamlakatlardagina amalga oshadi. Shunga ko‘ra, Qur’oni Karimda har bir inson shirinso‘z bo‘lishi ta’kidlanadi: “Bandalarimga aytingki, ular (o‘zaro so‘zlashganlarida) eng go‘zal so‘zlardan so‘zlasinlar. Zero, shayton ularning o‘rtalarida buzg‘unchilik qilur (Al-isro surasi 53 oyat).

Ko‘plab olimlar (D. Alimova, S.K. Annamuratova, M. Ochilov, Y.N. Stepanov, A.Shveytserlar) A.V. Razinning nuqtayi nazarini quvvatlab, “etikaning obyekti axloq, premeti esa insonning axloqiy tanlovi, ushbu tanlovni shartlovchi vositalarni o‘rganish, deb hisoblaydilar. A. Shveytser etikani inson faoliyatining o‘ziga xos bir qismi deb belgilaydi: “Etika – bu insonning o‘z shaxsini takomillashtirishga yo‘naltirilgan faoliyati sohasidir”. Insonlarning hamkorlikdagi hayotining barcha sohalari (shular qatoriga iqtisodiyot va siyosat ham kiritiladi) ularning o‘z ma’naviyatiga asoslanib qabul qilinadigan qarori va tanloviga bog‘liq.

Shunday qilib, etik kompetensiyalar inson axloqiga oid mezonlar, xulq, xatti-harakatlarni modellashtirish hamda refleksiyaga oid kompetensiyalarni nazarda tutadi. Etika axloqni tadqiqot obyekti sifatida o‘rganib, e’tiborini quyidagi masalalarni yechishga qaratadi:

1) axloqni tasvirlash – jamiyatning axloqiy madaniyati tushunchasi tarkibiga kiruvchi axloq tarixi, tamoyillari, mezonlari, ideallarini tasvirlash;

2) axloqni tushuntirish – axloq mohiyati, tuzilishi, ishlash mexanizmini uning shart bo‘lgan va real mavjud variantlarini tahlil qilish;

3) axloqni o‘rgatish – insonlarga ezgulik va yovuzlik haqida zarur bilim berib, ularga to‘g‘ri hayot strategiyasi hamda taktikasini ishlab chiqish va o‘z-o‘zini takomillashtirishga imkon yaratish. Demak, etika xulqni boshqarish mexanizmlarini taklif etadi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

– shaxsning o‘z xatti-harakatlarini tanqidiy baholash darajalarini, uni boshqarishga bo‘lgan qobiliyatini taxmin qiluvchi axloqiy fazilatlari;

– tamoyillar – ijobiy xulq strategik ustanovka (buyruq) sifatida;

– axloqiylik ideallari ijobiy xulq namunalari sifatida;

– axloq mezonlari jamiyatda qabul qilingan talablar sifatida.

Ko‘rib turganimizdek, etika qoidalari o‘z odob-axloq asoslariga ega. Ular shaxs xulqida axloqiy normalarning o‘ziga xos aksi bo‘lib, jamiyatimizning ma’naviy-axloqiy holatini mustahkamlashga qodir.

Axloq normalariga asoslangan ijobiy xulq texnikasi tufayli shaxs o‘zining insonlarga, uni o‘rab turgan barcha narsalarga nisbatan axloqiy munosabatini namoyish etishi mumkin. Biroq shuni ham qayd etish kerakki, odob-axloq qoidalariga amal qilish insonda ma’lum bir madaniyatning shakllanganligi hamda uning ma’lum bilimlarni egallaganligi bilan bog‘liq. Biz bu jihatlarni bo‘lajak tarbiyachilarni tayyorlash ishiga tatbiq etar ekanmiz, odob-axloq qoidalarining keng qamrovli – shaxsning shakllana borishidan kasbiy tayyorgarlikning yetuk darajasigacha bo‘lgan jarayonning kasbiy

tayyorgarlikka yo‘naltirish zarurati bilan yuzlashamiz. Bunda talabaning individual xususiyatlaridan tashqari yana qanday omillar axloqiy-ta’limiy jarayonda to‘laqonli kommunikativ kompetentlilikni shakllantirishi mumkinligi borasida izlanishlarni talab qiladi. Shakllantiriladigan kompetensiyalar qatorida xulq xarakteridagi kompetensiyalar ham bo‘lishi shart. Bunda quyidagilarni hisobga olishimiz lozim:

– rasmiy holatlarda kiyinish uslubi – tantanali yoki odatdagidek: ustozining ko‘rinishi tarbiyalanuvchilarga o‘ziga xos namuna, ibrat, ayniqsa, qizaloqlarga;

– maqtov yoki tanqidiy fikrlarning o‘rinli bo‘lishi (bunda vaziyat sodir bo‘lgan joy va vaqt muhim). Ota-onalar, tarbiyalanuvchilarga nisbatan bu borada, ya’ni muloqotda imkon qadar ehtiyotkor bo‘lish;

– bahs yoki munozara olib borayotganda amal qilish kerak bo‘lgan qoidalarni bilishi, rioya qilishi hamda tarbiyalanuvchilarga singdirishi;

– ishbilarmonlik muzokarasi jarayonlarida zarur bo‘lgan va taqiqlangan harakatlarga rioya etishi;

– birinchi bo‘lib salom berish va boshqalardan salom berishlarini kutish zaruriyatini talab qiluvchi vaziyatlarni bilishi, bu borada boshqalarga, xususan, bolalarga ibrat bo‘lishi.

Bundan tashqari, kommunikativ faoliyatning yetakchi tarkibiy qismi bo‘lgan suhbat va uni o‘tkazishning o‘ziga xos xususiyatlarini bilish kerak:

– suhbatdosh fikrini tinglash, bunda uning gapini bo‘lmaslik odobini bolalarga shaxsiy ibrati bilan singdirish, shuningdek, o‘z fikr-mulohazalarini asoslangan holda so‘zlay bilish;

– so‘zlaganda noverbal muloqot ko‘nikmalariga ega bo‘lish, bu verbal vositalar bolalarni ruhlantirish, erkalash, tasdiq yoki inkor maqsadini ko‘zlashi kerak;

– suhbatdosh so‘zlagan paytda sukut saqlashni bilish, ya’ni tinglash odobiga rioya qilish, biroq bunda suhbatni uning monologiga aylanib ketishiga yo‘l qo‘ymasdan, o‘z fikr-mulohazalarini bayon qilish, bu bilan o‘zini muhokama qilinayotgan muammoni tushunadigan va kechayotgan muhokamaga qiziqishi bor inson sifatida ko‘rsatish muhim, ayniqsa, bolalar fikrini oxirigacha tinglashni odat qilish;

– fikr bayoni davomida keltiriladigan dalillarda suhbatdoshga nisbatan bepisandlik, mensimaslik alomatlariga yo‘l qo‘ymaslik, ayniqsa, bolalar bilan muloqotda ularga o‘z e’tibori va hurmatini anglatish muhim;

– o‘z nuqtayi nazarini bayon qilishda suhbatdoshga tushunarli bo‘ladigan hamda isbotlangan faktlarga tayanishga harakat qilish.

Shu omillarni hisobga olgan muloqot tajribasi kirishimlilik qobiliyatining rivojlanishini ta’minlaydi, chunki inson olingan tajriba orqali quyidagi bilimlarni egallay oladi:

– kim bilan: kattalar yoki bolalar (o‘g‘il bolalar yoki qizaloqlar bilan), qay tarzda muloqotga kirishish, suhbat jarayonida qaysi mavzularni ko‘tarish, qaysi so‘z va nutq qoidalaridan foydalanish;

– muloqotning yangi muhitiga, unda mavjud predmetlardan foydalangan holda, qanday moslashish mumkinligini anglash;

– monologni qay tarzda (ibora, jumla bilan) bo‘lish mumkin;

– suhbat jarayonida o‘z tana holatini qachon o‘zgartirish mumkin;

– kelajakda ish doirasida hamkor bo‘lishi ko‘zlanayotgan shaxslar bilan maishiy muloqot vaziyatida o‘zini qanday tutishi kabilar.

Muloqotning ko‘pqirrali jihatlari haqidagi bilimlar aynan madaniy etiket qoidalaridan olinadi, chunki ularda butun insoniyatning muloqotga oid tajribalari jamlangan.

Lekin kompetentlilik ko‘p marotaba takrorlanadigan amaliy faoliyat davomidagina shakllanadi. Shunga qaramasdan, pedagogik ta’lim amaliyotiga, ya’ni madaniy etiketni pedagogik ta’lim amaliyotiga joriy etish jarayoniga yetarlicha e’tibor berilmaydi. Shuningdek, bo‘lajak tarbiyachi xulqini takomillashtirishda ham etiketning ko‘pqirrali roli hamma vaqt ham hisobga olinmay kelingani amaliyotda kuzatiladi.

Bundan tashqari tarbiyachi zimmasiga o‘sib kelayotgan yosh avlodning hozirgi va kelajakdagi hayotiy faoliyati uchun katta va jiddiy mas’uliyat yuklatilishini ham unutmaslik kerak. Bu esa yosh avlod murabbiysidan yuksak darajadagi kasbiy mahorat, kommunikativ kompetentlilikni va albatta, ulkan ruhiy quvvatni talab etadi. Tarbiyachi o‘z shaxsi ta’siri bilan tarbiyalanuvchilarining madaniy muloqot va xulqini samarali shakllantirishi lozim. Bunday ta’sirni u barcha atrofdagilarga ham ko‘rsatadi va shu orqali jamiyatimizning sifat jihatdan takomillashishida faol qatnashadi. Faqat shu tariqa o‘sib kelayotgan avlodda jamiyatimizning axloqiy-estetik qadriyatlariga nisbatan ongli munosabatni shakllantirish mumkin. Natijada, bunday munosabat ta’sir kuchiga ega bo‘ladi.

Tarbiyachilarni tayyorlashning zamonaviy tizimida ularning kelajakda olib boriladigan pedagogik amaliyoti talabalarning kasbiy-pedagogik rivojlanishlarida yetakchi shakllardan biri bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachining faqatgina verbal muloqotigina emas, balki uning yurish-turishi, xatti-harakati, kiyinishi, atrof-muhitga munosabati tarbiyasi ostida bo‘lgan bolalar uchun o‘ziga xos ta’sir vositalari sanaladi. Bu esa mazkur vositalarning muloqot, ya’ni kommunikatsiya mavqeidagi omil darajasiga ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. Shu bois qaysi bir shaklda bo‘lmasin, tarbiyachining kommunikativ kompetentligi hamma vaqt ham dolzarb muammo sifatida kun tartibidan tushmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Губайдуллин А.А. Формирование исследовательской компетентности студентов в условиях проектного обучения: Дисс… канд. пед. наук. – Казань, 2011. – С. 235.

2. Давыдов В.В. Проблема развивающего обучения. – М.: ИНТОР, 1996. – С. 544.

3. Емельянов Ю.Н. Обучение паритетному диалогу. – Л.: Изд-во ЛГУ, 1991. – С.104.

4. Жуков Ю.М., Петровская Л.А., Соловьёва О.В. Введение в практическую и социальную психологию. – М.: Смысл, 1996. – С. 373.

5. Yulbarsova X. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentliligini shakllantirish texnologiyasi. Pedagogika fan. nom. dissert. – T.: 2019.

Shohidaxon TURDIYEVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi

BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH YUZASIDAN MULOHAZALAR

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak tarbiyachilarni kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularda kompetentlik sifatini shakllantirish omillari, kasbiy layoqatni takomillashtirish yo‘nalishlari kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Bo‘lajak tarbiyachi, kasbiy-pedagogik faoliyat, kompetensiya, axborot-kommunikativ texnologiyalari, loyihalashtirish, o‘z-o‘zini tarbiyalash.

В статье рассматриваются такие вопросы, как подготовка будущих педагогов к профессионально-педагогической деятельности, факторы формирования у них качества компетентности, направления совершенствования профессионального достоинства.

Ключевые слова. Будущий педагог, профессионально-педагогическая деятельность, компетентность, информационно-коммуникативные технологии, проектирование, самообразование.

The article covers such issues as preparation of future educators for professional-pedagogical activity, factors of formation of the quality of competency in them, directions of improvement of professional dignity.

Key words. Future educator, professional-pedagogical activity, competence, information and communicative technologies, design, self-education.

Mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohotlar o‘zining ko‘lami, mazmuni hamda sur’ati bilan jahon hamjamiyatida e’tirof qozonmoqda. Ayniqsa, tub burilish tavsifiga mos bo‘lgan ta’lim tizimidagi o‘zgarishlar sohaning barcha jabhalarida bo‘y ko‘rsatishi bilan birga unda faoliyat ko‘rsatayotgan har bir xodimdan ulkan mas’uliyatni talab etmoqda. Davlatimiz rahbarining “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarori ham soha rivojiga hukumat doirasida nechog‘liq jiddiy e’tibor berilayotganiga bir dalildir. Endilikda xalq ta’limida faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlarining har yili malaka oshirishlarini nazarda tutuvchi “hayot davomidagi uzluksiz kasbiy rivojlanish ta’limi” joriy etilmoqda. Bu ayni paytda ta’lim uchun mutaxassislar tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlari zimmasiga ham qator vazifalarni yuklaydi. Chunki har yilgi bitiruvchilar soha xodimlar tarkibini faqatgina son jihatdan ko‘paytirib qolmay, sifat ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga xizmat qilishi kerak. Buning uchun pedagog tayyorlaydigan oliy maktablar ham o‘z faoliyat asoslarini ko‘rib chiqishlari, har tomonlama yetuk, amaliyotga tayyor, ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini egallagan kadrlarni yetishtirishni

ko‘zlashlari kerak. Bu, ayniqsa, alohida tizim sifatida shakllanganiga ko‘p bo‘lmagan maktabgacha ta’lim sohasi uchun ayricha ahamiyatlidir. Yuqori kompetensiyaga ega mutaxassis har qanday sohada rivojlanishning tayanch nuqtasi sifatida e’tirof etiladi. “Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi”.

Kasbiy kompetentlikni shakllantirish va uni takomillashtirish borasidagi ishlar tarbiyachi shaxsining uzluksiz rivojlanish jarayoniga aylanishi, bizningcha, talabalik davridanoq boshlanishi kerak. Mamlakatimizda bunga birlamchi tashkiliy shart-sharoitlari ham yo‘lga qo‘yilgan. Buning yorqin misoli sifatida so‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim tizimi uchun mutaxassis tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlari soni sezilarli darajada oshganligini, bir qator oliygohlarda yangi fakultetlar ochilganini, kafedralar tashkil qilinganini keltirish mumkin. Oliy o‘quv yurtlarida kasbiy-pedagogik ta’lim tizimining hozirgi zamon talablariga muvofiqligi ularning moslashuvchanlik qobiliyati bilan ham bog‘liqdir. Bu orqali OTM sohaning o‘sib borayotgan talablariga samarali javob beradi, ta’lim xizmatlari va mehnat bozoridagi doimiy o‘zgarib turadigan vaziyatga tez moslashadi. Bugungi kunda bo‘lg‘usi tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyasi, amaliy jihatdan ta’lim-tarbiya faoliyatiga tayyorligi bir qator omillarga bog‘liq. Ular ichida quyidagilar alohida ahamiyatga ega:

a) axborot-kommunikativ texnologiyalarini o‘zlashtirish;

b) ta’lim jarayonini loyihalashtirishni bilish;

c) o‘z ustida davomli ishlab borish (o‘z-o‘zini tarbiyalash).

Axborot-kommunikativ texnologiyalarini o‘zlashtirish zamonaviy sharoitda tarbiyachi uchun faqat foydalanuvchi bo‘lishi uchun yetarli emas, AKT kompetentligini takomillashtirish haqida gapirish kerak. Mazkur kompetensiyaning uch darajasi mavjud. Birinchi asosiy daraja – tarbiyachilarga umumiy maqsadli axborot-kommunikativ texnologiyalari yordamida ta’lim muammolarini hal qilish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va tajribalarning o‘zgarmasligi. Ikkinchi daraja (texnologik, mavzuga yo‘naltirilgan) – AKTni o‘zlashtirish va o‘qitish mazmuni va metodikasiga qo‘yilgan talablarga muvofiq ishlab chiqilgan ta’lim faoliyatiga ixtisoslashtirilgan texnologiyalar va resurslarni joriy etish. Uchinchi daraja (psixologik-pedagogik, uslubiy, ijodiy) – ta’lim maqsadining o‘z elektron vositalarini ishlab chiqish, kasbiy va shaxsiy muammolarni hal etishda AKT vositalaridan foydalanish. AKT bo‘yicha yetarlicha malaka darajasiga egalik bo‘lg‘usi (zamonaviy) pedagog tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Erishilgan kompetentlik talabalikdan so‘ng tarbiyachining o‘z ustida ishlashi, bilim, ko‘nikma, malakalarini oshirishi, ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashtirishni bilishi hamda ularni amaliyotda qo‘llay olishida namoyon bo‘ladi.

Ta’lim jarayonini loyihalashtirishni bilish tarbiyachi pedagogga keng imkoniyatlar ufqini ochadi. Bo‘lg‘usi tarbiyachini loyiha faoliyatiga tayyorlash quyidagi jarayonlar orqali amalga oshiriladi: rejalashtirish ko‘nikmalarini rivojlantirish (maqsadni aniq shakllantirish, maqsadga erishish uchun asosiy qadamlarni, muddatlarni va vositalarni aniqlash); axborotni tanlash va qayta ishlash ko‘nikmalarini takomillashtirish (to‘g‘ri axborotni tanlash va undan to‘g‘ri foydalanish); ekspert va tahliliy ko‘nikmalarni rivojlantirish (ijodkorlik va tanqidiy fikrlash); predmetli ko‘nikmalarni rivojlantirish (faoliyatning

kutilayotgan natijasi); loyiha faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantirish (tashabbuskorlik, shijoat, belgilangan reja va jadvalga muvofiq ishlashga sodiqlik. Loyihalashtirish va to‘g‘ri rejalashtirish bo‘lajak pedagogning malaka darajasini oshirishga sifat jihatdan ta’sir ko‘rsatadi.

O‘z ustida davomli ishlab borish (o‘z-o‘zini tarbiyalash)ga odatlanishning o‘zi ham umuman har qanday kasb egasining fazilati sanaladi. U pedagogika sohasida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Bu kasbiy layoqatning bir nechta yo‘nalishlari bo‘lib, ularni bo‘lajak tarbiyachilar yaxshi bilishi va keyinchalik pedagogik faoliyatlarida bu yo‘nalishlar bo‘yicha o‘z ustilarida mustaqil ishlab borishlari lozim. Ular quyidagilar:

● kasbiy (fan asoslari bo‘lgan o‘quv predmetlarni puxta o‘zlashtirish, davomli tarzda yangiliklardan boxabar bo‘lish);

● psixologik-pedagogik (tarbiyalanuvchilar va ota-onalar bilan ishlash, munosabatlarni yo‘lga qo‘yish);

● psixologik (tarbiyalanuvchilar, hamkasblarga nisbatan muayyan imijga ega bo‘lish, muloqot, ta’sir ko‘rsatish san’ati, liderlik sifatlari va boshqalar);

● didaktik (pedagogik texnologiyalar, metod, shakl, usullar va vositalari, masalan, didaktik o‘yinlarning imkoniyatlar kabi);

● huquqiy (shaxs va fuqaro sifatida huquqiy asoslarni, mutaxassis sifatida me’yoriy hujjatlarni bilish);

● estetik (munosabatlarni eng go‘zal insonparvarlik asosida qurish, faoliyatni ijobiy tuyg‘ularni shakllantirishga yo‘naltirish);

● chet tillarini bilish, doimiy ravishda chet tillaridagi manbalarga murojaat qilish, xorijiy manbalarni mahalliy sharoit va imkoniyatlarga ko‘ra qabul qilish;

● axborot va kompyuter texnologiyalarini chuqur o‘zlashtirish;

● salomatlikni muhofaza qilgani (har qanday faoliyatda bo‘lgani kabi pedagogikada ham salomatlik kishining bor imkoniyatlarini yuzaga chiqarish asosidir);

● qiziqishlar va hobbilarning milliy mentalitet, kasbiy etika doirasida bo‘lishi.

Mazkur yo‘nalishlar faoliyatidagi pedagoglar hamda bo‘lg‘usi tarbiyachilarning o‘z ustilarida ishlash jarayonini tashkil etadigan, tarbiyachi-o‘qituvchining kasbiy o‘sishiga bevosita yoki bilvosita hissa qo‘shadigan quyidagi aniq faoliyat turlarini belgilab beradi:

– pedagogik davriy nashrlarni va mavzuga oid adabiyotlarni o‘qib borish alohida o‘rin tutadi. Aynan ularga oshno bo‘lish fanga oid yangiliklar bilan tanishishning yetakchi omilidir;

– internetdagi ma’lumotlar bilan tanishib borish, ularni saralash kundalik faoliyat uchun zaxira yaratishga yordam beradi;

– kundalik ommaviy axborot vositalaridagi yoki boshqa vositalar orqali berilayotgan (imkon qadar sohaga oid) muammolar, mashqlar, testlar, krossvordlar va boshqa vazifalarni hal qilib borish ham mutaxassis sifatida kishi aqlini charxlab turadi;

– turli miqyosda tashkillashtiriladigan seminarlar, treninglar, konferensiyalar va hamkasblar dars-mashg‘ulotlariga qatnashish kasbiy o‘sish uchun g‘oyat foydali sanaladi;

– malaka oshirish, qayta tayyorlash yoki ma’lum mavzu, yo‘nalishlarda tashkil qilingan ilg‘or o‘quv kurslarida ishtirok etish, ularni tizimli yakunlash ham tarbiyachini pedagog sifatida yuksaltiradi;

– ochiq mashg‘ulotlar o‘tkazib, hamkasblar munosabati, bahosini eshitish – bu o‘ziga ko‘zgu tutish kabi zaruriy faoliyat shaklidir;

– axborot va kompyuter texnologiyalarini o‘rganish faoliyati ta’lim-tarbiya sifat, samarasi oshirishga eng yaqin ko‘makchi bo‘ladi;

– mavzuga oid ko‘rgazmalar va mavzuli ekskursiyalarni ziyorat qilish umuman, pedagogik dunyoqarash, fan asoslarini chuqur o‘zlashtirish, tarbiyalanuvchilarga samarali singdirish omili bo‘ladi;

– sog‘lom turmush tarzini saqlash, sport bilan shug‘ullanish va badantarbiya mashqlari tarbiyachining doimo faoliyatga shayligini ta’minlaydi, mashg‘ulotlar natijadorligiga katta ta’sir ko‘rsatadigan ijobiy hissiyot va yuqori kayfiyatni ushlab turadi.

Kasbiy o‘sishning eng samarali usuli o‘z-o‘zini tarbiyalash yo‘nalishidir. O‘z-o‘zini tarbiyalash tarbiyachining kasbiy faoliyatining zaruriy shartidir. Jamiyat doimo pedagogga eng yuqori talablar qo‘ygan va bundan keyin ham davom etadi. Boshqalarga o‘rgatish uchun hammadan ko‘proq bilish kerak. O‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyati pedagogda universitet diplomi bilan birga shakllanmaydi. Bu mavzuda pedagog-olimlar F.Haydarov va N.Muslimovlarning ilmiy izlanishlari diqqatga sazovor. Olimlar bo‘lajak tarbiyachi va o‘qituvchilarni kasbiy faoliyatini shakllantirishning eng muhim tomoni shaxsni tanlagan kasbiga va mehnat faoliyatiga bog‘liqligini asoslab, bunda maqsadlar tizimi ehtiyojlar va motivlar bilan uyg‘unlashishini ko‘rsatib bergan. Bo‘lajak tarbiyachilarini tayyorlashni takomillashtirishning turli masalalari bo‘yicha bir qator ishlar olib borilishiga qaramay, bu muammo to‘la tadqiq etilgan deb bo‘lmaydi. Ba’zi mualliflar ushbu maqsadlar uchun muayyan texnologiyalar, shakllar, usullar, metodlar va o‘qitish vositalaridan foydalanish imkoniyati, zarurligi va ba’zan maqsadga muvofiqligi bo‘yicha kelishmovchiliklarga ega. Umuman pedagogik ta’limning o‘ziga xos xususiyatlari va, ayniqsa, oliy o‘quv yurtlari o‘quv amaliyotida ularning namoyon bo‘lishi to‘liq hisobga olinmagan. Shuning uchun ham bo‘lajak tarbiyachilarini tayyorlash, xususan, uning pedagogik tarkibiy qismini takomillashtirish bo‘yicha yondashuvlarni qaror toptirish sohasidagi tadqiqotlarni davom ettirish ilmiy-amaliy izlanishlarning dolzarb yo‘nalishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Endi xalq ta’limi xodimlari har yili malaka oshirishadi - Avloniy nomidagi institut rektori bilan suhbat. Elektron manba: Kun.uz 18:56 / 10.03.2021.

2. Kodirov V.A. Didaktik o‘yinlarning bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishdagi metodik imkoniyatlari. Andijon davlat universiteti Ilmiy xabarnomasi. Pedagogik tadqiqotlar seriyasi, 2020-yil 2-son. 129-136-betlar.

3. Haydarov F.I., Muslimov N. Pedagogik kadrlar tayyorlash istiqboli. Pedagogik ta’lim. –T.: 6-son 2009.

4. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari –T., 2015.

Mohinora RAHIMOVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI DAVRIDA BOLA SHAXSINING SHAKLLANISHI BOSQICHLARI VA O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi davrida bola shaxsining shakllanish bosqichlari va ularning xususiyatlari, bu bosqichda muhit, muloqot va munosabatlarning tutgan o‘rni hamda ahamiyati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha yosh davri, bola shaxsining shakllanishi, hissiy boshqaruv, axloqiy me’yorlar, muloqot, munosabat, o‘zini anglash.

В статье рассматриваются этапы формирования личности ребенка в дошкольном возрасте и их особенности, роль и значение среды, общения и взаимоотношений на этих этапах.

Ключевые слова. Дошкольный возраст, развитие личности ребенка, эмоциональное управление, этика, общение, установка, самосознание.

The article discusses the stages of formation of the child’s personality in preschool age and their characteristics, the role and importance of the environment, communication and relationships in these stages.

Keywords. Preschool age, child personality development, emotional management, ethics, communication, attitude, self-awareness.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli qarori ijrosini ta’minlashda bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlarini tatbiq etish, malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ta’lim muassasalarining moddiy texnika bazasini, maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlari rejasi ishlab chiqildi. Bunga ko‘ra maktabgacha ta’limning vazifasi bolalarni xalqning boy milliy, madaniy-tarixiy merosi va ma’naviy axloqiy jihatdan tarbiyalash: bolalarda milliy vatanparvarlik hislarini shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish ehtiyojini, o‘qishga intilish moyilliklarini shakllantirib, ularni muntazam ravishda ta’lim jarayoniga tayyorlash, bolalarning tafakkurini rivojlantirish, o‘zining fikrini mustaqil va erkin ifodalash malakalarini shakllantirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog‘ligini ta’minlashdan iborat. Albatta, bu vazifalar, avvalo, bola shaxsining, shaxs sifatida shakllanish davrlarining o‘ziga xosliklarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozimki, busiz ko‘zlangan samaraga erishish mumkin emas.

Ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishini uch bosqichga ajratish mumkin: birinchi davr 3-4 yosh oralig‘ida bo‘lib, bola hissiy (emotsional) jihat-

dan o‘zini boshqarish ko‘nikmalarining mustahkamlanishi bilan bog‘liq; ikkinchi bosqich 4-5 yoshni tashkil qilib, bolaning o‘zini axloqiy boshqara borishi bilan tavsiflanadi; uchinchi bosqich esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi.

Hissiy (emotsional) jihatdan o‘zini-o‘zi boshqarish bola shaxsi shakllanishidagi muhim voqelik sanaladi. Ichki kechinmalarini ifoda etadi, xursandchilik va xafaligini bildiradi. Holatga ko‘ra, hatto achchiqlanganini yashiradi, yig‘isini bosadi, bu uning iroda sifatlaridan darak beradi.

Axloqiy tushunchalar manbayi bo‘lib ularning ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo‘lishi mumkin. Axloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shu bilan birga kattalarning, ayniqsa, onalarning maqtovi va tanqidlari orqali yuzaga keladi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa, maqtov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlarning bola shaxsidagi muvaffaqiyatga erishish uchun harakatlarida va bu harakatlarning xarakterida, shuningdek, kelajakda uning shaxsiy hayoti hamda kasb tanlashida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tavsiflanayotgan shaxs shakllanishi bilan bog‘liq davrlar almashinishi bilan maktabgacha yoshdagi davrda bolalarda muloqotning yangi motivlari yuzaga keladi. U shaxsiy va ishbilarmonlik motivlaridir. Shaxsiy muloqot motivlari bu – bolaning tashvishga solayotgan ichki muammolari bilan bog‘liq, ishbilarmonlik motivlari esa u yoki bu ishni bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan motivlardir. Bu motivlar sirasiga asta-sekinlik bilan bilim, ko‘nikma va malakalarni egalashga bog‘liq bo‘lgan motivlari qo‘shiladi. Bu motivlar ilk bolalik davrdan boshlanib yuzaga keladigan bolalarning tabiiy qiziquvchanligi o‘rnida paydo bo‘ladi. O‘zini ko‘rsatish motivlari ham bu yoshda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bu motiv asosan bolalarning syujetli – rolli o‘yinlarda asosiy rolni egallashga boshqalar ustidan rahbarlik qilishga, musobaqaga kirishishga qo‘rqmasligida, nima bo‘lganida ham yutishga harakat qilishlarida ko‘rinadi.

3-3,5 yosh oralig‘ida o‘zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga o‘z munosabatlarini bildiradilar va bu munosabat asosan, ularning o‘zlariga beradigan baholari asosida bo‘ladi. 4 yoshli bolalar esa o‘z imkoniyatlarini real baholay oladilar. Lekin 4 -5 yoshli bolalar hali shaxsiy xususiyatlarini idrok etishga va baholashga qodir emaslar, shuningdek, o‘zlari haqida ma’lum bir xulosani bera olmaydilar. O‘z-o‘zini anglash layoqati katta guruh yoshidan boshlab rivojlanib, avval bola o‘zining qanday bo‘lganini va kelajakda qanday bo‘lishini fikrlab ko‘rishga harakat qiladi. Bu esa bolalar beradigan “Men kichkina paytimda qanaqa edim?”, “Men katta bo‘lganimda qanday (yoki kim) bo‘laman?” singari savollarida ko‘rinadi. Kelajak haqida tasavvur yuritib, ular kelgusida odobli, jasur, kuchli, aqlli va shu singari qadrlanadigan fazilatlar egasi bo‘lishiga harakat qiladilar.

Kichik va o‘rta bog‘cha yoshida bola xarakterining shakllanishi davom etadi. U asosan, bolalarning kattalar xarakterini kuzatishlari asosida tarkib topadi. Shu yillardan boshlab bola shaxsi uchun muhim bo‘lgan iroda, mustaqillik va tashabbuskorlik kabi ahamiyatli shaxsiy xususiyatlar rivojlana boshlaydi. Katta bog‘cha yoshidan boshlab bola o‘z muhitidagi odamlar bilan turli faoliyatlarda muloqot hamda munosabatlarga kirishishni o‘rgana boshlaydi. Bu esa unga kelajakda odamlar bilan til topishishda, ish bo‘yicha va shaxsiy munosabatlarni normal ravishda o‘rnata olishida foyda keltiradi. Bu yoshdagi bolalar shaxsining shakllanishida ularning ota-onalari haqidagi fikrlari va ularga beradigan baholari nihoyatda ahamiyatlidir. Shu bois ota-onalar o‘zaro munosa-

bat va muloqotlarda e’tiborli, ayni paytda ehtiyotkor bo‘lishlari lozim.

Muloqot – bu ikki yoki undan ortiq odamlar orasidagi axborot almashinuvi jarayoni bo‘lib, bunda o‘zaro munosabatlar shakllanishi, ro‘yobga chiqarilishi va namoyon bo‘lishi ifodalanadi. Bola shaxsining shakllanishida muloqotning roli benihoya kattadir. Muloqot jarayonida muayyan shaxsiy munosabatlar shakllanadi. Bolada qanday shaxsiy sifatlarning tarkib topishi ko‘p jihatdan uning atrofdagilar bilan bo‘lgan o‘zaro munosabati xarakteriga bog‘liqdir. Bolaning kattalarga munosabati ishonchli yoki ishonchsiz, yoqimli yoki yoqimsiz va hokazo bo‘lishi mumkin. Xo‘sh, bolalarning kattalarga bo‘lgan munosabati nima bilan belgilanadi? Bu munosabat asosida nimalar yotadi? Bunday masalalar hozircha atroflicha, to‘laqonli tadqiq qilinmagan. Ularga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud.

Dastlab bevosita - emotsional muloqot paydo bo‘ladi. Muloqotning bu shakli asosida bolaning unga nisbatan diqqat e’tiborli va mehribon bo‘lishlariga ehtiyoj his etishi yotadi. Keyinchalik muloqotdagi tashabbusni bola o‘z qo‘liga oladi. Ma’lum bir (uncha kata bo‘lmagan) muddatdan so‘ng unda nafaqat mehribonlikka ehtiyoj, balki kattalar bilan hamkorlik qilishga bo‘lgan ehtiyoj ham tug‘iladi. Bunday ehtiyoj ishchan muloqot davomida qondiriladi. Bola ishchan muloqotga kirishganda kattalardan yordam so‘rashi, ularni ma’lum bir faoliyat bilan shug‘ullanishga taklif etishi va boshqalarni amalga oshirishi mumkin.

Bilish muloqotida bola kattalar bilan atrof olamdagi narsa va hodisalarni muhokama qiladi. Bunda bola biror bir narsa haqida aytib berishi, savollar bilan murojaat qilishi, kattalardan biror narsa aytib berishlarini iltimos qilishi mumkin. Bunday turdagi muloqotga kirishishdan maqsad kattalardan zarur bo‘lgan axborotni olishdan iborat, shaxsiy muloqotda esa bola kattalar bilan odam haqida suhbatlashadi, bunda u o‘zining emotsional holatini tariflab berishi, kattalarni o‘zlari haqida gapirib berishlariga undashi mumkin. Bolaning emotsional qo‘llab-quvvatlashiga bo‘lgan ehtiyoji atrof -muhitga bo‘lgan munosabati va unga berayotgan bahosi kattalarning munosabat va bahosiga mos kelishiga intilishi shaxsiy muloqotning asosini tashkil etadi.

Aytilganlarga xulosa yasasak, bolaning ilk hayot davridan yaxlit bir inson bo‘lib shakllanishining tabiiy hamda ijtimoiy omillari, bosqichlari mavjud. Ota-onalar, tarbiyachilar bu omil va bosqichlar haqida tasavvurga ega bo‘lishi, ularning o‘ziga xos jihatlaridan xabardor bo‘lishlari va shularga ko‘ra ta’lim-tarbiya ishlarini yo‘lga qo‘yishlari lozim. Bola tarbiyasiga daxldor kattalar o‘zaro va bolalar bilan munosabatlarda ta’sir mexanizmlarini oldindan o‘ylab, ular uchun ibrat maktabini o‘tashlari, muloqotlarda bola shaxsini, xususan, ma’naviyatini shakllantiradigan milliy mentalitetga mos muomala shakllarini yo‘lga qo‘yishlari kerak bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Лисина М. И. Формирование личности ребенка в общении. – Санкт-Петербург [и др.] : Питер, 2009.

2. Nishonova Z.T., Alimova G.K. Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostiasi T.: TDPU, 2017.

3. Do‘stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya T.: Fan va texnologiyalar, 2013.

4. Гурович Л. М. Ребенок и книга / Л. М. Гурович, Л. Б. Береговая, В. И. Логинова. – М., 2009.

Mavluda ABDULLAYEVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabacha pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYALANUVCHILARI NUTQINI O‘STIRISH VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada kreativ yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirishning metodologik va ilmiy-nazariy asoslari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Kreativ yondashuv, tarbiyachi, nutq o‘stirish, tafakkur, ta’lim samaradorligini oshirish, STEAM o‘qitish.

В данной статье научно освещаются методологические и научно -теоретические основы речевого развития и мышления ребенка в дошкольных образовательных организациях на основе творческого подхода

Ключевые слова. Творческий подход, воспитатель, развитие речи, мышление, повышение эффективности образования, STEAM обучения.

In this article, the methodological and scientific-theoretical foundations of the child’s speech development and thinking in preschool educational organizations on the basis of a creative approach are scientifically covered

Key words. Creative approach, educator, speech development, thinking, improving the effectiveness of education, learning process.

Respublikamizda globallashuv sharoitida yuz berayotgan ta’lim sohasidagi o‘zgarishlar asosida maktabgacha ta’lim tizimida kasbiy va metodik faoliyat samaradorligini oshirish, tarbiyachilarning kreativlik potensialini rivojlantirish yuzasidan keng miqyosda izlanishlar olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “…ta’lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish” masalalari belgilab berilganligi, maktabgacha ta’lim tizimini uzluksiz ta’limning boshlang‘ich shakli sifatida e’tirof etilganligi, tizimga nisbatan qo‘yilgan vazifalarning bajarilishida alohida ahamiyatga ega ekanligiga e’tibor qaratish lozimligini belgilaydi.

Shu nuqtayi nazardan olib qaraganda kreativ yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish mazmunini takomillashtirish pedagoglar oldiga qo‘yilgan asosiy vazifalardan biridir.

Maktabgacha ta’lim muassasalarida “Ilk qadam” o‘quv dasturini tatbiq etishda shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivoj-

lanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarida yuqori samarali zamonaviy ta’lim va innovatsion texnologiyalar, ta’lim-tarbiya sohasidagi o‘zgarishlarni uzluksiz ta’lim tizimining eng quyi bo‘g‘ini maktabgacha ta’lim tizimidan boshlash, har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlash, sog‘lom genofondni, yetuk kadrlarni tarbiyalashda g‘oyat muhim vazifalar sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Aytish o‘rinliki globallashuv, texnogen sivilizatsiya yosh avlod tarbiyasiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazayotgani sir emas, bugungi kun bolasini “o‘tmish ertaklari, voqealari” bilan aldab bo‘lmaydi, ularni real voqealarga asoslangan ma’lumotlar qiziqtiradi. Aksariyat hollarda bir yoshli bolamiz mobil aloqa vositalaridan “foydalana” olayotganligini quvonch bilan gapiramiz. Demak, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan zamonaviy tarbiyachi maktabgacha ta’lim sohasida kechayotgan yangilanishlarni bilishi, o‘z ustida tinmay ishlashi, doimiy o‘zgarib turuvchi nostandart sharoitlarda amaliy faoliyatga innovatsion tayyorligini ta’minlash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda, bu esa qo‘shimcha, noan’anaviy, parallel mustaqil ta’lim tizimlarini yaratishga ehtiyoj tug‘dirmoqda.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagi muammolar orasida eng muhimlari maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarini ta’lim jarayoniga kreativ yondashuv masalalarini modernizatsiyalash, innovatsiya va novatsiya, innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan qurollantirish lozim. Kreativ yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonini mazmunli tashkil qilish tayanch o‘quv rejasining qanchalik mustahkam egallanganligiga bog‘liq.

Aytish o‘rinliki, maktabgacha ta’lim va ijtimoiy sohadagi yangilanishlar asosida ta’lim unsurlari jiddiy o‘zgarishlarga uchradi. Shu bois, uzluksiz ta’lim falsafasi, qonuniyatini, kreativ yondashuv asosida ta’lim muammolarini qaytadan ko‘rib chiqish davr talabiga aylanib bormoqda.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan bir qator vazifalar ijrosini ta’minlash maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan tarbiyachilarning kreativ qobiliyatlarini zamon talablariga javob bera oladigan darajada rivojlantirish, ta’limni tubdan isloh qilish, mazkur tizimni yangi sifat bosqichiga ko‘tarishning muhim shartlaridan biridir.

Kreativ yondashuv asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari nutqini o‘stirish va tafakkurini rivojlantirish jarayonining o‘ziga xosligi didaktik imkoniyatiga ko‘ra yangi ta’lim subyektlari: tarbiyachi – tarbiyalanuvchi – ota-ona hamda metodist-o‘qituvchi-professional, fuqaro-shaxs; tarbiyalanuvchilar jamoasi; pedagoglar jamoasi; jamoatchilik birlashmalarini tarkib toptirish bilan bog‘liqdir.

Aytish joizki, maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kreativ qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim xizmatlarini diversifikatsiyalash, sifat menejmentini joriy qilish, pedagogik texnologiya va ta’lim strategiyalarini o‘zaro integratsiyalash, ta’lim shakllarini optimizatsiyalash vazifalarini belgilaydigan texnik va inson resurslari va ularning o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirishning “butun” jarayonlarini yaratish, qo‘llash va aniqlashning tizimli metodi YUNESKO tomonidan alohida e’tirof etildi.

Kreativlik insondagi ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishga asos yaratadigan individual sifatlarining hamda fikrlash qobiliyatlarining birligidan iborat bo‘ladi.

Adabiyotlar tahlili asosida aytishimiz mumkinki, kreativlik termini Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo‘lib, bunda kreativlikning intellekt bilan bog‘liqligi masalalari hamda kreativlikning psixologik jihatlari va uning har bir shaxsning individual o‘ziga xususiyatlariga bog‘liqligi o‘rganilgan. M.N.Gnatko kreativlikning mexanizmlarini ikkita turga ajratib tahlil qilgan. Bular:

– potensial kreativlik – bu kreativlikning zaruriy sharti bo‘lib, qanday sharoit bo‘lmasin pedagoglarning kreativlikga tayyor turishi, shuning natijasida, o‘z g‘oyalarini amalga oshirishidir.

– faoliyatdagi kreativlik – bu muayyan bir sohadagi kreativlik hisoblanadi.

Kreativlik pedagoglarda o‘z-o‘zidan paydo bolib qolmaydi. Gnoseologik, aksiologik va kreativ texnologiyalar (ta’limning texnologik vositalari)ni faol ravishda ta’lim jarayonida qo‘llash kreativlik potensialini rivojlantirib borishga zamin yaratadi. Bu esa davrning ijtimoiy talabi bo‘lib, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish jamiyat taraqqiyoti bilan hamnafas tarzda pedagoglardan o‘z ustida ishlashini, o‘zini kreativ boyitib borishini, ilm-fanning yutuqlaridan boxabar bo‘lib, ularni o‘z faoliyatiga singdirib borishini talab etadi.

Pedagogik ta’limda kreativ kompetensiyalarga asoslangan yondashuvni amalga oshirish uning asosiy maqsadiga erishishiga ko‘maklashadi, bu esa – bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ularning yashirin aqliy qobiliyatlari (zukkolik, nutqiy ravonlik va mantiqiy fikrlash)ni namoyon qilish imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolar yechimini hal etishi, eng muhimi, o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik ta’limda kreativ kompetensiyalarga asoslangan yondashuvni amalga oshirish uning asosiy maqsadiga erishishiga ko‘maklashadi, bu esa – bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ularning yashirin aqliy qobiliyatlari (zukkolik, nutqiy ravonlik va mantiqiy fikrlash)ni namoyon qilish imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi 4947-Farmoniga 1-ilovasi (www.lex.uz)

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2017.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2017.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabr “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2018.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori Qonun xujjatlari to‘plami. https://lex.uz/docs/4327235

Ra’no UMAROVA,
Andijon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

STEAM VA SMART TA’LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QUVCHILARDA INTELLEKTUAL SALOHIYATNI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim tizimini isloh qilishdagi yangiliklar, STEAM va SMART ta’lim texnologiyalarining o‘quvchilar intellektual salohiyatini rivojlantirishdagi o‘rni, ta’lim olishda iqtidorli o‘quvchilarni qo‘llab-quvvatlash borasida yaratilayotgan imtiyozlar xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. STEAM, SMART, texnologiya, texnosfera, pedagogik innovatsiya, ilmiy-texnik ijod, intellektual salohiyat.

В этой статье обсуждаются инновации в реформе образования, роль образовательных технологий STEAM и SMART в развитии интеллектуального потенциала учащихся, а также преимущества, создаваемые для поддержки одаренных учащихся в образовании.

Ключевые слова. STEAM, SMART, технология, техносфера, педагогическая инновация, научно-техническое творчество, интеллектуальный потенциал.

This article discusses innovations in education reform, the role of STEAM and SMART educational technologies in the development of students’ intellectual potential, and the benefits created to support gifted students in education.

Key words. STEAM, SMART, technology, techno sphere, pedagogical innovation, scientific and technical creativity, intellectual potential.

Respublikamiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 14-dekabr kuni Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisida “Yoshlarimizni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, deb aytgan fikrlari ta’lim tizimini takomillashtirish, yoshlarni jahon standartlari asosida o‘qitish, yuksak intellektual salohiyatli avlodni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri ekanligini kun tartibiga qo‘yadi.

Ta’lim tizimida olib borilayotgan pedagogik tadqiqotlarda intellektual salohiyatni rivojlantirish shaxs kamolotida muhim omil bo‘lishi borasidagi ilmiy asoslar ilgari surilmoqda.

XXI asrga kelib, insoniyat barchaga birdek axborot olish imkoniyatini beruvchi ochiq axborot jamiyatini shakllantirish tomon jadal bormoqda. “Elektron hukumat”, “elektron uy”, “elektron tijorat”, “elektron ta’lim” kabi raqamli borliq elementlari hayotimizga kirib, an’anaviy holga aylandi. Endilikda insoniyat elektron resurslardan shunchaki axborot manbayi sifatida emas, balki interfaol muhitda ulardan aql bilan foydalanishni maqsad qilib qo‘ymoqda. Bu jadal yangilanib borayotgan axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan muloqot darajasida foydalanish, ma’lumotlarni qayta ishlashni talab qiladi. Bunday “aqlli” inson bilan muloqot qiluvchi va o‘rgatuvchi elektron resurs-

larni yaratish o‘ta dolzarb va mashaqqatli ish bo‘lib, uni yaratishga butun dunyoning eng malakali mutaxassislari imkoniyatlarini birlashtirishni taqozo qiladi. Bu yo‘nalishda qo‘yilgan salmoqli qadamlardan biri ta’lim sohasida dunyo bo‘yicha amalga oshirilishi boshlangan “SMART education” loyihasini keltirish mumkin. SMART education (aqlli ta’lim) ochiq axborot resurslari yordamida innovatsion virtual muhitda amalga oshiriladigan moslashuvchan va indшviduallashtirilgan yangi global ta’lim texnologiyasidir. Uning eng asosiy xususiyati butun dunyo miqyosida amalga oshirilishi va hammaga birdek axborot olish, ta’lim imkoniyatlaridan keng foydalanishning yaratilishidir. “SMART education” ta’lim muhiti o‘z navbatida, uning qatnashchilaridan butun ta’lim jarayonida foydalanilayotgan metod va texnologiyalarni yangilash va bir tizimga keltirishni taqozo etadi. Xuddi shu maqsadda Yevropa Ittifoqi davlatlari o‘z ta’lim tizimlarini bir xil standartga keltirish yo‘lidan borishmoqda va dunyoning boshqa davlatlarini ham bunga da’vat etishmoqda. Kelajak ta’limi muhiti sifatida e’tirof etilayotgan Yagona Yevropa universiteti loyihasi bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan salmoqli qadamlardan biridir.

Ma’lumki, uzluksiz ta’lim tizimida tashkil etiladigan o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish yuzasidan qabul qilingan me’yoriy hujjatlarda pedagogik va axborot texnologiyalaridan uyg‘un foydalanish muhim vazifa sifatida belgilangan. Darhaqiqat, axborotlar globallashgan davrda ta’lim-tarbiya jarayonida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitish samaradorligini oshirish dolzarb muammo sanaladi.

Uzluksiz ta’lim tizimida pedagogik faoliyat ko‘rsatayotgan tarbiyachi-pedagoglarning oldidagi muhim vazifalardan biri o‘quvchilarning fan asoslarini o‘zlashtirishga bo‘lgan qiziqishlarini orttirish, mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish orqali barkamolligini ta’minlash sanaladi. Ushbu muammolarni hal etishda axborot texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, STEAM texnologiyasi o‘quvchilarni tajribalar o‘tkazish, modellarni konstruksiyalash, musiqa va filmlarni mustaqil yaratish, o‘z g‘oyalarini amalga oshirish, biror mahsulot yaratishni rag‘batlantiradi. O‘qitishga bunday yondashuv o‘quvchilarga nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarni amalda samarali qo‘llash imkonini beradi. Shuningdek, o‘quvchilarning ijodkorligini oshiradi, yuqori malakali, zamon talabiga mos kadrlar tayyorlashda mustahkam poydevor bo‘ladi.

SMART texnologiyalarini mamlakatimiz ta’lim tizimiga joriy etish bo‘yicha quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo‘ladi:

– texnologik yangilanishga ajratilgan vaqt (2020-2025-yillar) juda qisqa. Shu bois, “tezkor start” usulini qo‘llash, ya’ni “SMART education” ta’lim muhiti talablarini o‘rganib chiqish va mamlakatimiz ta’lim tizimiga joriy etishni tezlashtirish;

– respublikamizda turli fanlardan yaratilgan elektron resurslarni dunyo andozalari, rivojlangan davlatlar ilg‘or tajribalariga muvofiqlashtirish;

– dunyo bo‘yicha yaratilgan ochiq resurslarni qayta yaratmasdan, ularning eng maqbullarini tarjima qilish va moslashtirish hamda ta’lim jarayoniga joriy qilish;

– ta’lim muassasalarini “SMART education” ta’lim muhiti texnik vositalari bilan ta’minlashni jadallashtirish.

Zamonaviy jamiyat kompyuter texnologiyalari va aloqa vositalarining rivojlanishi bilan ajralib turadigan, atrofdagi texnik qurilmalarni tobora “aqlli” qilib, hayotni yanada qulay, xavfsiz va qiziqarli qiladigan axborot jamiyatidir. Jamiyat va iqtisodiyotni rivojlantirishning ushbu bosqichi quyidagilar bilan tavsiflanadi:

– jamiyat hayotida zamonaviy axborot texnologiyalarining rolini oshirish;

– axborot texnologiyalari, aloqa va axborot mahsulotlari va xizmatlarini ishlab

chiqarish bilan shug‘ullanadigan kishilar sonining ko‘payishi;

– telefon, radio, televideniye, internet, an’anaviy va elektron ommaviy axborot vositalaridan foydalanib, jamiyatni axborotlashtirishni kengaytirish;

– odamlarning samarali axborot almashinuvini, ularning dunyo axborot resurslaridan foydalanishini, axborot mahsulotlarini va xizmatlar ehtiyojlarini qondirishni ta’minlovchi global axborot makonini yaratish.

Bugungi kunda bir qator davlatlar SMART ta’limni rivojlantirishga kirishdilar. SMART – jamiyatning modeli zamonaviy axborot va tashkiliy tizimlar yordamida intellektual, yuqori texnologiyali, inson uchun qulay muhitni yaratishni nazarda tutadi. Borgan sari inson yangi bilimlarni egallab boradi va u bu bilimlarni axborot texnologiyalarisiz qo‘llay olmay qoladi. Ta’limning asosiy maqsadlaridan biri – SMART texnologiyalari asosida zamonaviy ta’lim tizimini shakllantirish orqali sifatli ta’limga erishishdir.

Odatda, ko‘pchilik o‘qituvchilar darsga quyidagicha maqsad qo‘yishadi: masalan, mavzu “kompyuter qurilmalari” bo‘lsa, darsning ta’limiy maqsadi – o‘quvchilarga kompyuter tuzilishi, ichki tarkibiy tuzilmasi, qurilmalar va ularning funksiyasi, ishlash mexanizmi haqida tushuncha berish. Shu maqsadni ko‘zlab, o‘qituvchi darsda yangi mavzuni tushuntirib beradi, endi u ishonch bilan “men maqsadimga erishdim” deb ayta oladimi? Fan bo‘yicha davlat talabi yuzasidan o‘quvchilarda tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish bajariladimi? O‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashi, tanqidiy, tahliliy, ijodiy fikrlashi rivojlantirilishiga sharoit yaratilmadi-ku? Demak, aytish mumkinki, yuqoridagi kabi maqsadlar SMART maqsadlari mezonlariga to‘g‘ri kelmaydi. O‘qituvchi, avvalo, maqsadni o‘ziga yo‘naltirishi emas, o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarni shakllantirishga qaratishi kerak. Bunda SMART maqsadlari mezonlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Tarbiyaviy maqsadni belgilashda, ko‘pincha, “o‘quvchilarning kompyuter savodxonligini oshirish va texnik madaniyatni shakllantirish; axloqiy, estetik tarbiya berish va h.k.” degan jumlalar ishlatiladi. Biroq, 45 daqiqa davomida bu maqsadni amalga oshirish mumkin emas. Bunda “o‘quvchilarning texnik madaniyatni shakllantirishga sharoit yaratish, ahloqiy, estetik tarbiyalashni davom ettirish va h.k.” deyilishi lozim.

Yuqorida shakllantirilgan maqsadlar o‘quv dasturida keltirilgan kompetensiyalarning elementlariga mos keladi, ya’ni o‘quvchilarga qaratilganligi, o‘quvchilarning faoliyati bilan bog‘liqligini qayd etish mumkin. Maqsad aniq belgilab olingach, o‘qituvchi shu maqsadga erishish uchun zarur o‘qitish metodlari va vositalarini tanlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. Xalq so‘zi gazetasi, 2016-yil 15-dekabr.

2. SMART ta’lim texnologiyasi. http://uz.infocom.uz/2017/04/29/smart-ta’lim-texnologiyasi.

Malikaxon ISOMIDINOVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi magistratura talabasi

BO‘LAJAK TARBIYACHILARDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING AYRIM JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy komponentlik, pedagogik layoqatni shakllantirishning ayrim nazariy qirralari hamda amaliy jihatlari to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Ilg‘or xorijiy tajribalar, layoqat, bilim, pedagogik ko‘nikma, innovatsiya,kasbiy kompetentlik.

В статье рассмотрены некоторые теоретические и практические аспекты формирования профессиональной компетентности у будущих воспитателей дошкольных образовательных организаций.

Ключевые слова. Передовой зарубежный опыт, компетентность, знания, педагогические навыки, инновация, профессиональная компетентность.

In this article we will talk about some theoretical aspects and practical aspects of the formation of professional component, pedagogical competence in the educators of the future preschool organization.

Key words. Advanced foreign experience, merit, knowledge, pedagogy,innovation, professional competence.

Respublikamizda milliy ta’lim tizimining huquqiy asoslarinishakllantirishuchun keng sharoit yaratildi. O‘z navbatida, islohotlar ta’lim tuzilmasi va mazmunmohiyatini takomillashtirish imkonini berdi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek, “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barchabo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”.

Hozirgi davrda ta’lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarning kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Ta’lim – jamiyatni isloh qilish va uni tashqi dunyo uchun yanada ochiq hamda yangi texnologiya va bilimlarga yo‘naltirilgan jamiyatga aylantirishning asosiy omilidir. U nafaqat jamiyatning rivojlanish istiqboli, balki har bir insonning alohida faoliyatini oldindan aniqlaydi va belgilaydi.

Jamiyatda ta’lim tizimini rivojlantirishning strategik yo‘nalishi – bu insonning turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellekt va axloqiy rivojlanishidir. Jahonning rivojlangan davlatlarida bo‘lgani kabi mamlakatimizda ham ta’limdagi islohotlar jarayonida bo‘lajak mutaxassislarni amaliy faoliyatga kompetensiyaviy yondashuv va talablarga ko‘ra tayyorlashga pirovard maqsadi o‘laroq ustuvorlik qilmoqda.

Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik turlari, shakli va tizimi sirasida bo‘lajak MT tarbiyachisining kasbiy kompetentligini shakllantirish o‘ziga xos murakkabligi va bir qator obyektiv va subyektiv omillarga bog‘liq muammolar mavjudligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ta’limni modernizatsiyalash bilan bog‘liq islohotlarning joriy bosqichida kasbiy pedagogik faoliyatga moslashish muammosi yanada dolzarblik kasb etmoqda. Bo‘lajak tarbiyachilarni amaliy, psixologik, metodik, tadqiqotchilik kabi faoliyat turlariga tayyorlash ularning kasbiy kompetentligini shakllantirishning usullari hisoblanadi, lekin oliy ta’limda ana shu komponentlar uyg‘unligini ta’minlab, o‘qitish jarayoniga tatbiq etishning nazariy va amaliy jihatlarini ishlab chiqishga hozirgacha yetarlicha e’tibor berilgani yo‘q.

“Kompetentlik” (ingl. “competence” – “qobiliyat”) – faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish, kasbiy kompetentlik esa mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularning amalda yuqori darajada qo‘llay olinishi hisoblanadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borish, yangi axborotlarni o‘rganish, muhim ijtimoiy talablarni anglay olish, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Kasbiy kompetentlik murakkab jarayonlarda faoliyat ko‘rsata olish, noaniq vazifalarni bajarish, bir-biriga zid ma’lumotlardan foydalanish, kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega bo‘la olishda namoyon bo‘ladi.

Kasbiy kompetentsiyaga ega bo‘lgan mutaxassislar o‘z bilimlarini izchil boyitib boradi, yangi axborotlarni o‘zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o‘z amaliy faoliyatida samarali qo‘llaydi.[1]

Bu jihatlarni bo‘lajak tarbiyachining kompetetnligi bilan bog‘lsak, avvalo, uning bilish faoliyati ko‘p jihatdan o‘rganilayotgan narsalar (munosabatlar, psixologik vaziyatlar)ning murakkabligi, dinamikasi, nostandartligi, ijtimoiy hodisalarni ajratib turadigan chegaralarning ta’siri bilan belgilanadi, bu esa kuzatuvchanlik, suhbatdoshning ichki dunyosini modellashtirish malakasini nazarda tutishni talab qiladi. Mazkur holda o‘z-o‘zini tartibga solish xususiyatlari o‘z bilim va malakalarini doimo takomillashtirish zarurati, boshqa odamlar (ota-onalar, tarbiyalanuvchilar)ga qaratilgan o‘z xatti-harakatini qat’iy muvofiqlashtirish uquvi bilan tavsiflanadi.

Bo‘lajak tarbiyachining kasbiy tarbiyalanganlik layoqatliligini tadqiq qilishga bag‘ishlangan asarlarda uning quyidagi turlari farqlanadi:

maxsus tarbiyalanganlik – kasbiy faoliyatini yetarlicha, yuqori darajada egallaganlik, o‘zining kelgusi kasbiy rivojlanishini loyihalash qobiliyati;

Ijtimoiy tarbiyalanganlik – birgalikdagi kasbiy faoliyatni, hamkorlikni, shuningdek, kasbiy muloqat uslublarini egallaganlik, o‘z kasbiy natijalari uchun ijtimoiy mas’ullik.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetentligi, irodaviy sifatlar, intellektual salohiyat, hissiysifatlar, amaliy ko‘nikmalar, o‘z-o‘zini boshqara olish layoqatlarining o‘zaro bog‘liqligi va shaxsning ijtimoiy-madaniy faollik darajasini aks ettiruvchi individual sifatlar asosida shakllantiriladi.[2]

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tarbiyachisini tayyorlashda muhim pedagogik shart-sharoitlar sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

[1] Раҳимов З.Т. Замонавий таълим / Современное образование 2019, 7(80).

[2] SH. Sharipov, N.Muslimov, M.Ismoilova: “Kasbiy ta’lim pedagogikasi”.Metodik-qo’llanma. – T. 2005-y.

– zamonaviy talablarga javob bera oladigan me'yoriy va o'quv-metodik hujjatlar (Maktabgacha ta'lim tizimiga oid farmon, qaror va buyruqlar, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi, "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari", darsliklar, o'quv-qo'llanmalar, metodik tavsiyanomalar, qo'shimcha maxsus adabiyotlar, ko'rsatmali vositalar, dars ishlanmalari, loyihalar va boshqalar)ning mavjudligi;

– bilim, ko'nikma va malakalarining yuksakligi, kasbiy kompetentlik darajasining yetarlicha shakllanganligi hamda ilmiy salohiyatga ega bo'lishi;

– ta'lim-tarbiya jarayonining moddiy-texnik, axborot texnologiyalari (radio, televideniye, kompyuter, nusxa ko'chirish qurilmalari, audio, video, multimedia, trenajyorlar, kinoproyektorlar, diaproyektorlar, videoproyektorlar, texnik vositalar majmuining mavjudligi va hokazolar) jihatdan yetarlicha ta'minlanganligi;

–amaliyotda ijtimoiyvao'quv-texnologikjihatdanqulaymuhit (tarbiyachi, bolalar, MTT rahbarlarhamdabolalar, shuningdek, bolalarningo'zaromunosabatlari) yaratilganligi;

Tashkiliy hamda o'quv-amaliy faoliyatning izchil, uzluksiz hamda tizimli yo'lga qo'yilganligi.

Bo'lajak tarbiyachilarning talabalikdan bilishi lozim bo'lgan "tarbiyachining kasbiy kompetentligi" 3 tushunchasiga berilgan ta'rif va tavsiflarni umumlashtirib, uni quyidagicha talqin etish mumkin: tarbiyachining kasbiy kompetentligi – pedagog faoliyatida kasbiy kompetentlik muhim jihatlaridan biri bo'lib, pedagogning kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq barcha ehtiyoj, qobiliyat, mahorat, bilish va qiziqishlarini ifodalaydi.

Buning uchun u:

– ijodiy izlanishlar jarayonini boshqarishga moyil bo'lishi;

– ijodiy izlanishlarning samaradorligi tarbiyachining pedagogik, psixologik va nazariy tayyorgarligiga bog'liq bo'lishini esda tutishi lozim.

Demak, bo'lajak tarbiyachiga oliy ta'limdan kompetentlikka ega bo'lishda to'laqonli kasbiy-pedagogik shakllanishga intilishi, turli xarakterdagi pedagogik vaziyatlarni idrok etishi, kasbiy qiziqishlari doirasini kengaytira borib, shunga mos ko'lamdagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirib borishi singdirish muhim sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. –22-b.

2. Rahimov Z.T. Kasbiy kompetentlik omillari. "Zamonaviy ta'lim" jurnali. 2019, №7(80).

3. Turg'unov S.T. va boshqalar. O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari. – T.: 2011.

4. Sharipov Sh., Muslimov N., Ismoilova M. Kasbiy ta'lim pedagogikasi. Metodik qo'llanma. – T., 2005.

[3] S.T.Turg'unov va boshqalar: "O'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda ta'lim muassasasi rahbarlarining funksional vazifalari". T. 2011-y.

Muazzamxon O‘RINBOYEVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi magistratura talabasi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTI TARBIYACHISI NUTQ MADANIYATINI O‘ZLASHTIRISHDA KASBIY TAYYORGARLIK KO‘RSATKICHLARINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Ushbu maqola maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining nutq madaniyati muammosiga bag‘ishlangan. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan muloqotda nutq madaniyati masalalari yuzasidan fikrlar bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Muloqot, nutq madaniyati, muloqot qobiliyatlari, kasbiy tayyorgarlik, pedagogik faoliyat, o‘ziga xoslik, madaniyat.

В статье рассматривается вопрос о культуре речи у дошкольников. Общение с дошкольниками дает методические указания по требованиям речевой культуры.

Ключевые слова. Общение, культура речи, коммуникативные навыки, речь, педагогическая деятельность, самобытность, культура.

This article addresses the issue of speech culture in preschool educators. Communication with preschool children provides methodological guidance on the requirements of speech culture.

Key words. Communication, speech culture, communication skills, speech, pedagogical activity, originality, culture.

Maktabgacha ta’limning zamonaviy tizimi maktabgacha yoshdagi bolalari bo‘lgan oilalarga sifatli ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishga yo‘naltirilgan ochiq, o‘zgaruvchan shaklda rivojlanmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotining pedagogik faoliyatini tashkil etish, uning oila va maktab bilan o‘zaro hamkorligi bugungi kunda yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Biz ta’lim va tarbiya tizimining barcha bo‘g‘inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o‘zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz”.

Jamiyat taraqqiyoti jarayonida ijtimoiy faoliyatning har qanday shakliga qo‘yiladigan talablar doimo madaniyat bilan bog‘liqdir. Madaniyatning yuqori darajasi har qanday ish, ayniqsa, pedagogik ish samaradorligining zaruriy shartidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotining kasbiy-pedagogik madaniyati asosan uning pedagogik tayyorgarligi darajasi, kasbiy faoliyat sharoitida o‘zini o‘zi takomillashtirish istagi bilan belgilanadi. Bugungi kunda “…tarbiyachi faoliyati uchun raqobatbardosh manba bu shunchaki maxsus bilimlar, ma’lumotlarga oid bilimlar, o‘qitish va tarbiyalashning o‘zlashtirilgan texnologiyalari emas, balki shaxsiy rivojlanishni ta’minlaydigan umumiy va kasbiy-pedagogik madaniyatdir”.

Bolalarning rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar maktabgacha yoshning o‘ziga xos xususiyatlariga mos keladigan quyidagi yo‘llar orqali hissiy farovonlik ta’minlanadi:

– har bir bola bilan bevosita muloqot qilish;

– har bir bolaga, uning his-tuyg‘ulari va ehtiyojlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;

– tengdoshlari bilan ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishga imkon beradigan bolalarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish.

Shu munosabat bilan o‘zgaruvchan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni, ta’lim tizimidagi umumiy vaziyatni hisobga olgan holda, mustaqil ravishda mas’uliyatli qarorlar qabul qila oladigan va ularning yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlarini taxmin qiladigan, hamkorlik qilishga qodir bo‘lgan tarbiyachiga ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Bunda, eng avvalo, tarbiyachining nutq madaniyati uning pedagog sifatidagi saviyasini belgilab beradi.

Bolalarning rivojlanishida tarbiyachining nutq madaniyati muhim rol o‘ynaydi, chunki maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishi asosan kattalar bilan muloqot jarayonida shakllanadi. Ushbu yoshdagi bolalar tanqidiy fikrlay olmasliklari sababli ular atrofda ko‘rgan va eshitgan narsalariga taqlid qilishadi. Bunda aksariyat hollarda bevosita muloqotda bo‘lgan, o‘zlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo‘lgan odamlarga ergashadilar. Bolaga maktabgacha ta’lim tashkilotida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘langan bunday yaqin odam tarbiyachi hisoblanadi. U turli yoshdagi va turli xil psixologik-pedagogik xususiyatga ega bolalar bilan aloqa qilish texnikasini o‘zlashtirgan bo‘lishi kerak.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining pedagogik shaxslararo mahoratining yetakchi belgilari:

– bolalar bilan muloqot qilish zarurati;

– muloqotning ijobiy hissiy ohanglari;

– ta’lim va tarbiya jarayonidagi muloqotlarda o‘zgalarda qoniqish hissini uyg‘ota olish tajribasi;

– bolalarni tushunish, individual va guruhiy aloqalarni o‘rnatish qobiliyati;

– shaxslararo qarama-qarshiliklarni konstruktiv yechish qobiliyati;

– insonparvarlik va aloqa demokratiyasi;

– aloqa estetikasi.

Shaxslararo muloqot funksiyasini amalga oshirish tarbiyachining avtoritar pozitsiyasidan shaxsiy, teng hamkorlik va bola bilan birgalikda ijod qilishga o‘tishni talab qiladi. Bolalar bilan muloqot qilish, ularning o‘yinlarini kuzatish asnosida ulardagi ijobiy va salbiy nutq xatti-harakatlarini qayd etib borishi kerak. Korreksiyalash uchun bugungi kunda bizni kim ajablantirgani va bizni xursand qilgani haqida bolalarga aytib, o‘qituvchi ma’lum bir vaziyatda bir-birlariga (yoki kattalarga) nimani va qanday qilib yaxshiroq aytishni tushuntirishi kerak.

Har bir yosh guruhining bolalari o‘zlarining tarbiyachisi bilan o‘yin va mehnat faoliyatida muloqot qilishadi. Tarbiyachi o‘yinlarni tashkillashtiradi, dasturda ko‘zda tutilgan barcha mashg‘ulotlarda bolalar bilan suhbatlashadi, audial yoki vizual tarzda boshqalarning nutqi bilan tanishtiradi. Binobarin, maktabgacha ta’lim tashkilotida nutq muhitining rivojlanish salohiyati tarbiyachi nutqining sifatiga to‘liq bog‘liqdir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi uchun na’munali nutqni o‘zlashtirish uning kasbiy tayyorgarligining ko‘rsatkichidir. Shuning uchun o‘z nutqini takomillashtirish to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish har bir kelajak tarbiyachisining axloqiy va ijtimoiy burchidir. U o‘zida nutq qobiliyatlarini mukammal egallashni rivojlantirishga majburdir, keyin ularni bolalarga yetkazadi.

Nutq madaniyati deganda uning to‘g‘riligi, ya’ni adabiy til uchun an’ana bilan belgi-

langan orfoepiya, grammatika, lug‘at, stilistika, imlo normalariga muvofiqligi tushuniladi. Nutq madaniyatiga ega bo‘lish nafaqat tilning barcha elementlari (so‘zlar, asoslar, prefikslar, qo‘shimchalar, turli xil gaplar, intonatsiya) ning ma’nosini anglash, balki ularni adabiy nutqda ishlatish odati qandayligini ham anglatadi. Har bir insonning nutq madaniyati uning til tuyg‘usi yoki lingvistik qobiliyati qanchalik rivojlanganligiga bog‘liq.

Tarbiyachining pedagogik faoliyatida nutq texnikasini mukammal egallash muhim ahamiyatga ega. Zero, nutq vositasida u bolalar his-tuyg‘ularini tarbiyalaydi, ular bilan ongli muloqotni ta’minlaydi, ta’lim-tarbiyaga oid ma’lumotlarni tahliliy idrok etadi. Shuning uchun bo‘lajak tarbiyachi – talabadan, amaliyotdagi pedagoglardan avvalo nutq sirlarini, uning tarbiyalanuvchilar bilan bo‘ladigan muloqotdagi ta’sir kuchini puxta bilish talab qilinadi.

Nutqning eng yuqori madaniyati uslub tuyg‘usiga ega bo‘lishdir. Shuning uchun bo‘lajak tarbiyachilar hech bo‘lmaganda adabiy til uslublari haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lishlari kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda nutq uslubi tushunchasi, birinchi navbatda, nutq odob-axloqi tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, bu o‘z navbatida tarbiyachilardan muayyan xatti-harakatlarni talab qiladi (odob-axloq, hurmat, kamtarlik, xushmuomalalik, xayrixohlik, kabi shaxsiy fazilatlar). O‘z navbatida bolaning uslubiy instinktini takomillashtirish uning estetik tarbiyasining asosiy vositasidir.

Bildidirlgan fikrlardan kelib chiqadiki, tarbiyachining pedagogik faoliyatida nutq texnikasini mukammal egallash muhim ahamiyatga ega. Zero, nutq vositasida u bolalar his-tuyg‘ularini tarbiyalaydi, ular bilan ongli muloqotni ta’minlaydi, ta’lim-tarbiyaga oid ma’lumotlarni tahliliy idrok etadi. Shuning uchun bo‘lajak tarbiyachi – talabadan, amaliyotdagi pedagoglardan avvalo nutq sirlarini, uning tarbiyalanuvchilar bilan bo‘ladigan muloqotdagi ta’sir kuchini puxta bilish talab qilinadi. Bu esa pedagogik kompetentlikning muhim shartlaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O‘zbekiston, 2017. 22-b.

2. Курочкина И.Н. Современный этикет и воспитание культуры поведения. – М. Владос, 2001. .– С. 224.

3. Vahobova F., Nabixanova Sh., Karimova D. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim asoslari. O‘quv-qo‘llanma. –T.: 2015.

Valijon KODIROV,
Andijon davlat universiteti, pedagogika fanlari doktori,
“Maktabgacha pedagogika” kafedrasi dotsenti

MAKTABGACHA TA’LIM BOSQICHIDA NUTQIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim bosqichida tarbiyalanuvchilar nutqiy ko‘nikmalarga qo‘yilgan talablar hamda ularda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishning metodik asoslari yoritilgan.
Kalit so‘zlar. Lisoniy ko‘nikma, MT yosh guruhlari, intellektual rivojlanish, nutqiy kompetensiyalar, tinglab tushunish, og‘zaki nutq, o‘qish, yozish malakalari.

В статье освещаются требования к речевым навыкам дошкольников и методические основы формирования речевых компетенций.
Ключевые слова. Языковые навыки, возрастные группы дошкольников, интеллектуальное развитие, речевые компетенции, понимание на слух, устная речь, чтение, навыки письма.

In this article the demands for the speech practices to the pupils of pre-school stage and the metodical principles of forming speech competences on them are illuminated (given).
Key words. Language practices, pre-school junior groups, intellectual developing, speech competences, listening comprehension, oral speech, reading, writing skills.

Tinglab tushunish va og‘zaki nutq. Maktabgacha ta’limda tinglab va so‘zlash ko‘nikmalari o‘zaro bog‘liqlikda shakllantiriladi. Bu bosqichda ular bir-biridan, to‘g‘rirog‘i, so‘zlashni tinglashdan ayri tarzda tasavvur qilinmaydi deyish mumkin. Bolalar dastlabki axborot, bilim, ko‘nikmalarni eshitish, ya’ni tinglab tushunish orqali qabul qiladilar va bu borada asta-sekinlik bilan tajriba, malaka hosil qilib boradilar. Aslida “Inson bolasi homilalik davrida eshitishni boshlaydi. Psixolingvistik tadqiqotlarda yangi tug‘ilgan bola o‘z ona tilisini boshqa tillardan farqlashi isbotlangan. Inson tilni eshitib qabul qiladi, shu asosda inson ongida til tizimi shakllanadi”.[1] Lisoniy qobiliyat, dastlabki lisoniy ko‘nikma va malakalar oilada shakllanadi. Lekin oiladagi muhit, bolaga e’tibor, uning tarbiyasiga yondashuv, ota-onalarning pedagogik saviyasiga ko‘ra bu ko‘nikma va malakalar bolalarda turli darajada rivojlangan bo‘ladi. Shu bois uch yoshdan bolalarning maktabgacha ta’lim tashkiloti (MTT, ya’ni bog‘cha)ga borishi maqsadga muvofiq. U yerda mutaxassis tarbiyachilar kundalik ta’lim-tarbiya rejasi – jadvaliga muvofiq maxsus beshta faoliyat markazlarida bolalarni har tomonlama maktabga tayyorlash uchun davomli mashg‘ulotlar olib boradilar. Ulardan biri

[1] Azimova I.A. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi.// “Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: O‘TAU, 2019, 20-aprel, 219-bet.

– til va nutq faoliyat markazi mashg‘ulotlari aynan lisoniy ko‘nikmalarni rivojlantirshga yo‘naltirilgan. Qolaversa, boshqa markazlardagi mashg‘ulotlar ham bevosita qaysidir darajada bolalarning nutqiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘ladi. Ilk yosh davri, kichik yosh guruhidan oxirgi maktabga tayyorlov yoshi guruhiga qadar bolalardagi lisoniy birliklar (so‘z birikmasi, sodda gap, murakkablashgan sodda gap, qo‘shma gap, hajmiga ko‘ra turlicha bo‘lgan matnlarni tushunish va tushuntirish) tajribasi murakkablik darajasi va hajmiga ko‘ra tadrijiy rivojlantirib boriladi.

Dastlabki (**ilk yosh** – 3 yoshgacha) bosqichda bola nutqini rivojlantirishga e’tiborsizlik qilib bo‘lmaydi, chunki bu davrda bola miyasi jadal sur’atda o‘sib, rivojlanib boradi va uning vazifalari shakllanadi.[2] Fiziologik tadqiqotlar markaziy asab tizimi vazifalarini aynan ularning tabiiy shakllanish davrida osongina mashq qildirish mumkinligini aniqlagan. Mashqlarsiz ushbu vazifalarning rivojlanishi sekinlashadi va hatto umuman to‘xtab ham qolishi mumkin. “Nutq uchun rivojlanishning bunday “hal qiluvchi” davri bola hayotining dastlabki uch yili hisoblanadi: bu muddatga kelib miya nutqiy sohalarining anatomik o‘sib yetilishi asosan nihoyasiga yetadi, bola ona tilining asosiy grammatik shakllarini o‘zlashtirib oladi, katta so‘z zaxirasi shakllanadi. Agarda dastlabki uch yilda kichkintoy nutqiga yetarlicha e’tibor berilmagan bo‘lsa, bu holda kelgusida uning o‘rnini to‘ldirish uchun juda ko‘p mehnat qilishga to‘g‘ri keladi”.[3]

Bir yoshdan bola eshitgan, tinglaganlari va ko‘rganlari asosida ongli ravishda, yani ma’nosini bilgan holda ayrim so‘zlarni ayta boshlaydi. Bunda ko‘rgazmalilik yetakchi metod sanaladi, ya’ni bola muhitidagi eng ko‘p muloqot qiladigan, duch keladigan va qo‘llanadigan shaxs, narsa, harakat va holatlarni eshittirib va ko‘rsatgan holda kundan-kun lug‘at boyligi oshirib boriladi. Ayniqsa, rangli suratlardan foydalanish samarasi katta. Ikki yoshdan bolalar ikki so‘z (ega va kesim yoki to‘ldiruvchi va kesim) dan iborat yig‘iq gaplarni tuzib ayta oladi (dadam keldi, suv ichaman kabi). Ikki-uch yoshdagi bolada mana shunday konstruksiyali birliklar sonining imkon qadar orttirib borish bilan uning lisoniy ko‘nikmalarini rivojlanishiga diqqat qilish lozim. Buning uchun bola lug‘at boyligidan joy olmagan shaxs, narsa, harakat va holatlarni tushuntirib, gap tuzgan holda takrorlatib boriladi. Demak ilk yosh davrida:

– bolaning tinglab tushunishi va munosabat bildirishi to‘la holda dialogik muloqot asosida kechadi, bu muloqot tashabbuskori mutloq holda kattalar (ona, ota, buvi, buva, aka, opa v.b.) bo‘ladi;

– kattalarni tinglashi, ular o‘rgatmoqchi, tushuntirmoqchi bo‘lgan narsa, so‘zlarga e’tibor qaratishi uchun bola majburlanmaydi, balki unda bu obyektlarga ko‘rgazmalilik (jonli, tabiiy holatini yoki rasmlarini ko‘rsatish) asosida qiziqish uyg‘otib, eshitishi, tushunishi va javob qaytarishiga erishish lozim;

– bola tinglab, ko‘rish orqali o‘rgangan so‘z, birikma va gaplarni davomli tarzda takrorlanishiga erishish uchun vaqti-vaqti bilan bu shaxs, narsa, hodisa va harakat-holatga qayta murojaat etib turish maqsadga muvofiq:

– har qanday katta-kichik muvaffaqiyat rag‘batlantiriladi (maqtov, suyish bilan), shuningdek, bola unutgan, yodlolmagan, tushunmagan narsalari uchun tanbeh berilmaydi, aksincha, sabr, bosiqlik bilan boshdan tushuntirish, eshittirish, ko‘rsatish lozim bo‘ladi, eng asosiysi, metodikani almashtirish kerak;

– har bir bola o‘ziga xos bir dunyo, takrorlanmas yaratiqdir, uni qaysidir bola kabi qilishga, unga o‘xshatishga urinmaslik kerak; u qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul

[2] Qodirova F.R. Maktabgacha ta'limda zamonaviy yondashuvlar. https://giu.uz/wp-ontent/uploads/4.1.

[3] Кольцова М.М. Ребёнок учится говорить. Москва: 1973, – С. 5.

qilib, imkoniyati, qobiliyatiga ko‘ra yondashish kerak.

Davrlashtirishga ko‘ra, maktabgacha ta’limda 3-4 yoshli bolalar kichik yosh guruhi deb ataladi va shu yoshdan ommaviy ravishda MTTlarga jalb qilinadi. Boladagi jismoniy o‘sish, fiziologik o‘zgarishlar, intellektual rivojlanish tufayli uning atrof-muhit, voqelikni qabul qilish qobiliyati, ko‘nikma va imkoniyatlari kengayadi. Shundan uning tinglaganlarini tushunish jarayoni tezlashadi va osonlashadi. Bu yoshlardagi eng muhim ijobiy va ijodiy o‘zgarish – bola voqelikni ko‘rgani va tinglaganlari asosida syujetli tarzda tushunishi va idrok qilishlaridir. Tinglagan ertak, yoshiga mos hikoya, ko‘rgan multfilmlar voqeliklarini diqqat bilan tinglaydilar, tomosha qiladilar. Bu, ayniqsa, didaktik o‘yinlar vositasida amalga oshirilsa, samarasi yanada oshadi.

Kichik yosh davrida:

– bolaning tinglab tushunishi va munosabat bildirishi to‘la holda dialogik muloqot asosida kechadi, lekin bu muloqot tashabbuskori faqat kattalar bo‘libgina qolmay, bolaning o‘zi, shuningdek, uning tengdoshlari, o‘rtoqlari bo‘lishi mumkin;

– kattalarni tinglashi, ular o‘rgatmoqchi, tushuntirmoqchi bo‘lgan narsa, so‘zlarga e’tibor qaratishi uchun bola majburlanmaydi, lekin ko‘rgazmalilik metodi bilan birga izohlash, qiziqtirish, hissiy undash usullarini qo‘llab, unda diqqat bilan tinglash, tushunish va javob berishga rag‘bat uyg‘otish lozim;

– bolaning tinglab tushunganlarini imkon qadar to‘laroq ifodalashiga e’tibor qaratish lozim: bola tinglagan va ko‘rganlarini to‘la tushunmayaptimi yoki tushunsa ham ifodalab berolmayaptimi – bunda jiddiy e’tibor berish, aniqlab olish zarur. Bu asosan, dialog – savol-javob orqali amalga oshiriladi. Agar yaxshi tushunmagan bo‘lsa, qayta tushuntirish yoki boshqa bolalar javoblariga diqqat qildirish bilan bu bo‘shliqni to‘ldirish mumkin. Agar savol-javobda bola tinglaganlarini tushungan-u, ifodalashda qiynalayotgan bo‘lsa, undan kutilyotgan, talab qilinayotgan javob ifodasini tushuntirib, aynan takrorlash – qayta aytib berishni so‘rash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

– bola tinglab tushunganlari asosida javob berganda uning bir so‘z (so‘z gap), ixcham gap (ega va kesim, to‘ldiruvchi (hol) va kesim) shakllari bilan kifoyalanib qolishiga qanoatlanib bo‘lmaydi. Bu yoshda bola nutqining kengaygan sodda gaplar, qismlari ixcham bo‘lgan qo‘shma gaplar, ikki yoki undan ortiq gaplarning ketma-ketligidan iborat bo‘lishiga erishish lozim. Bola eshitgan ertagi, ko‘rgan multfilmini tushungani qadar qisqa tafsiloti bilan aytib bera oladi. Asosiy shartlardan biri – bu suhbat, ya’ni tinglash va so‘zlab berish erkin, bola xohishi, ixtiyori va qiziqishlaridan kelib chiqishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari. https://lex.uz/ru/docs/3805404.

2. Babayeva D.R. Nutq o‘stirish metodikasi. – T.: Fan-texnologiya, 2009, 22-b.

3. Kodirov V. Didaktik o‘yinlarning bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishdagi metodik imkoniyatlari. AnDU Xabarnomasi 2020-yil, 1-son.

4. Azimova I.A. Ona tili ta’limida lisoniy malakani rivojlantirishning psixolingvistik asosi.//“Global ta’lim va milliy metodika taraqqiyoti” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: O‘TAU, 2019,20-aprel, 219-bet.

5. Кольцова М.М. Ребёнок учится говорить. Москва: 1973.

Muzaffar QOSIMOV,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIMDA TABIAT BILAN TANISHISH MASHG‘ULOTLARINING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim hamda boshlang‘ich sinflarda tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarining pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish, ularni to‘g‘ri tashkil etish, bu yo‘nalishda pedagoglar kompetensiyasini rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Tabiat bilan tanishtirish, tarbiyachi, maktabgacha ta’lim, kompetensiya, uzviylik.

Освещаются вопросы улучшения педагогических условий природоведения в дошкольном образовании, его правильной организации, развития компетентности педагога.

Ключевые слова. Природа, воспитатель, дошкольное учреждение, компетентность, членство.

The issues of improving the pedagogical conditions of nature education in preschool education, its proper organization, the development of educator competence are covered.

Key words. Nature, educator, preschool, competence, membership.

Maktabgacha ta’lim jarayonida bolaning mantiqiy tafakkur qila olishi, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligi va o‘z-o‘zini anglash salohiyatini shakllantirish ko‘zda tutiladi. Maktabgacha ta’lim tarbiyalanuvchilari jismonan sog‘lom bo‘lishga, moddiy borliq go‘zalliklarini his eta olishga, go‘zallik va nafosatdan zavqlana olishga o‘rgatiladi. Milliy urf-odatlar, ularga rioya etish, ular bilan bog‘liq an’analarni ardoqlash, ajdodlar oldidagi mas’ullik tuyg‘ulari sungdiriladi. Tabiatshunoslik mashg‘ulotlarida tevarak atrofdagi tabiat bilan tanishtirish, unda olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida boshlang‘ich tasavvur hosil qilish, ilmiy dunyoqarash kurtaklarini shakllantirish, tabiatga muhabbat uyg‘otish va undan oqilona foydalanishni o‘rgatish ko‘zda tutiladi.

Maktabgacha ta’lim bosqichida tabiat bilan tanishtirishda, bilim berish, ko‘nikma va malakalarni shaklantirishda xilma-xil usullardan foydalanish bolalarning bilim olish qobiliyatlarini o‘stirish, ta’limni hayot bilan bog‘lash va mehnatga tayyorlashga qaratiladi. Mashg‘ulotlarni turli usulida tashkil etish tarbiyachidan ko‘p mehnat talab qilsa-da, bolalarni shijoatkorlikka undab, fikrlarni vaqtdan unumli foydalangan holda tez, aniq, lo‘nda va ixcham ifodalashga zamin yaratadi. Mashg‘ulotlarni ilg‘or ta’lim metodlari va usullarga tayanib tashkil etish orqali bolalarni faollashtirishga, mustaqil fikr yuritishga, yangi tushunchalarni matn ichidan topib, mazmunini anglab yetishga harakat qilishga yo‘llash mumkin. Agar bola yangilik sari intilmasa, unda qobiliyat, o‘z fikri, nuqtayi nazari ham shakllanmaydi. Buning uchun maktabgacha ta’limdagi barcha mashg‘ulotlar, ulardagi komponentlar va mavzulardan integrativ yondashuv asosida iste’foda etish lozim. Quyida bu boradagi ayrim tajribalar bilan o‘rtoqlashamiz.

“Atrofimizdagi olam” siklidagi qo‘llanma va kitoblar tabiat bilan yaqindan tanishtirishda birlamchi manbaa sanaladi. Tabiatga doir bilimlar ta’lim bosqichlaridagi uzviylik va uzluksizlik tamoyiliga tayanib davom ettiriladi. Atrof-muhit bilan tanishtirish bo‘yicha dastlabki mashg‘ulotlarda bolalarni kitoblar bilan ishlashga o‘rgata borib, tarbiyachi ularga ishdagi izchillikni tushuntirishi kerak: avval, rasmlar qarab chiqiladi va ularga izohlar o‘qib eshittiriladi, shundan keyin savollarga javoblar olinadi. Tayyorlov guruhi bolalari uchun tabiat to‘g‘risidagi she’rlar, maqollar, topishmoqlar, bilan mashg‘ulotni boshlash yaxshi samara beradi. “Men va atrofimdagi olam”, “Bizning bog‘cha”, “Xonamizda”, “Bizning mahalla”, “Ko‘chada yurish qoidalari”, “Transportda yurish qoidasi”, “Shaxsiy gigiyena qoidalari, “Quyosh”, “Yil fasllar”, “Ob-havo” mavzulari bo‘yicha savol va topshiriqlar berish mashg‘ulotni samarali bo‘lishini ta’minlaydi. Tabiat haqidagi she’rlarni albatta yod olish shart emas. Asosiy maqsad – mavzu, mazmunining mohiyatini tushunishdir. Mavzu bo‘yicha yangi atamalar va xulosalar mavzuni yaxshi o‘zlashtirishga yordam beradi.

Xalq ertaklarining har xil vaziyatlarda tasvirlangan qahramonlari ko‘pgina mavzularda bordir. Ular go‘yo bolalar bilan birga atrof-olamni bilib olishga o‘rganadi. Bunday uslub tarbiyachiga o‘yin vaziyatini o‘rgatishga va yaratishga, bolalarda tabiatga va o‘quv faniga qiziqishni oshirishga yordam beradi.

Rasmlar bolalarda kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, shunga ko‘ra ulardan ko‘rilayotgan rasmda ilgarigiga qaraganda nimalar vujudga kelganini so‘rash zarur. Bu o‘z Vatanining tabiati va odamlari mehnati to‘g‘risidagi bilimlarning keng doirasi to‘g‘risida tarbiyachiga maktabgacha ta’limni isloh qilishning asosiy yo‘nalishlari qo‘ygan eng muhim ta’lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirishga imkon beradi.

Tayyorlov guruhlarda bolalar ob-havoni muntazam kuzatishni davom ettiradilar: bulutlanishni, shamol kuchini (kuchli, kuchsiz, mo‘tadil) belgilaydilar. Fenologik kuzatishlar o‘tkazishni davom ettiradilar: kunning uzunligini (kalendar bo‘yicha), barglarning sarg‘ayishini, xazonrezgilikni, yil fasllari bo‘yicha o‘simlik va hayvonlar holatini belgilaydilar. Har oyning, ko‘pincha fasllarning oxirida umumlashmalar qilinadi va bolalarning kuzatuvchanligi, sinchkovligi kuzatiladi. Unda shu oyning fenologik xususiyatlari belgilanadi. Bolalar jonsiz tabiatdagi o‘zgarishlarning o‘simlik va hayvonlar hayotidagi o‘zgarishlar bilan qanday bog‘liq ekanligi haqida xulosa chiqaradilar. Bunday ish kuzatishlarga qiziqishni, ularning sifatini oshiradi, tabiatshunoslik tushunchalarini chuqurroq o‘zlashtirishga yordam beradi.

“Madaniy o‘simliklar ”, “Uy hayvonlari” mavzularini o‘rganishda bolalar kuzatish, tajriba, ekskursiya, amaliy ishlar o‘tkazish yo‘li bilan o‘simlik va hayvonot dunyosining mahalliy vakillari bilan, o‘z joyi yuzasining shakllari bilan, suv havzalari va suvning xususiyatlari bilan, tuproq hamda foydali qazilmalar bilan tanishadilar. Bolalar uchun “Bizning o‘lka” tushunchasi hammadan avval ularning uylari va bog‘chasi joylashgan joydir, chunki ular uchun jonli, hayotiy kuzatish, kashf qilish manbalari bo‘lib xizmat qiladi.

Bilimlarni mustahkamlash va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun maktabgacha ta’lim tashkiloti hududidagi bolalar uchun xavfsiz hamda qiziqarli bo‘lgan tabiiy obyektlarga sayohat o‘tkazish foydalidir, bu sayohat vaqtida bolalar yo‘lga nimalar kiyib olishlarini, yo‘lda nimalarni ko‘rishlarini, qanday o‘simlik va hayvonlar uchrashini aytishlari kerak bo‘ladi. O‘z hududlarining tabiiy sharoitlarini ta’riflashda bolalar o‘simliklar dunyosini tavsiflashga ko‘proq e’tibor berishlari kerak. Bunda o‘simliklarga bolalar yoshidan kelib chiqib xarakteristika berish, o‘simliklarning mavjud turlarini ta’riflash va ularning barglariga, barglarining tuzilishlariga e’tibor qaratish lozim. Shunga ko‘ra, o‘simliklarni

o‘rganishga bag‘ishlangan shunday sayohatdan so‘ng mashg‘ulotlarda undan olingan taassurotlar o‘rtoqlashiladi, xulosalar qilinadi. Sayohat davomida bolalar e’tibori tortilgan daraxtlar rasmi, ularning nomi yoki turli barglardan qilingan gerbariy ko‘rsatilib, qaysi daraxt yoki o‘simlikka tegishli ekani so‘ralishi maqsadga muvofiq.

Ayni paytda xuddi shu kabi sayohat davrida uchragan (yoki rasmlari orqali tanishtirilgan) hayvonlar, qushlar haqida suhbatlar uyushtirilishi mumkin. Kichik va o‘rta guruh bolalariga qaysi hayvon qanday ovoz chiqarishi, ularning tashqi ko‘rinishi, nima bilan oziqlanishi, ovqatni qanday topishi, ba’zi xulq-atvori, odam uchun foydalimi yoki zararlimi ekanligi tushuntiriladi. Bu hayvon yoki qushlarning rasmi ko‘rsatilib, ular bizning hududda yashashi yoki yashamasligi so‘raladi. Sayohat paytida uchragan jonivorlar, daraxt yoki o‘simliklarning nomidan tashqari bo‘yi, eni, soni haqida savollar berilishi o‘rinli bo‘ladi. Bularning bari tabiat bilan tanishtirishni til va nutq, matematik tasavvurlar, qurush va yasash faoliyat markazlaridagi mashg‘ulotlar bilan aloqasini ta’minlaydi. Bunda o‘yin unsurlari qo‘shilsa, samara bir necha marta ortishini mutaxassislar ta’kidlaydilar.

“Tabiat va inson” mavzusi bolalarga o‘z joylarining yuzasi to‘g‘risida aniq va tasviriy tushunchalar berish maqsadiga ega. Bolalar o‘z qishloq, mahallalaridagi ariq (agar bo‘lsa, ko‘l yoki boshqa suv havzalari, inshootlari) to‘g‘risida suhbatda ishtirok etadilar, ularning turli fasllardagi holati haqidagi savollarga javob beradilar. Shuningdek, mahalliy yerlarga ekiladigan ekinlar, bog‘lar va shu kabilar to‘g‘risida fikr almashinuvini yo‘lga qo‘yish darkor.

“Tabiat va inson salomatligi” mavzusini o‘rganish bolalarda egallagan sanitariya-gigiyena bilimlari va ko‘nikmalari asosida quriladi. Bolalarning xilma-xil hissiyot va qabul qilishlaridan to‘laroq foydalanish uchun ko‘rgazmali qurollarni namoyish qilish bilan birga ularni gigiyena qoidalarini amaliy jihatdan bajarishga o‘rgatish zarur. Gigiyenik bilimlarning muvaffaqiyatli singdirilishi mashg‘ulotlardagi xilma-xil metodlari hamda uslullarini qo‘llash bilan ta’minlanadi.

Yer va Quyosh to‘g‘risida tushuncha berilar ekan, matematik tasavvurlar bilan bog‘liq baland (tepa), past (quyi) kabi fazoviy yo‘nalishga bog‘lanish qilinadi. “Yer” atamasi bolalar uchun ularning yosh xususiyatidan kelib chiqib, joy yoki tuproq ma’nosinigina anglatishi mumkin. Quyoshga qarama-qarshi yoki yonma-yon qo‘yibgina katta yosh guruhlarida Yerni sayyora sifatida tanishtirsa bo‘ladi. Quyosh asli yerdan ancha kattaligi, u issiqlik va nur manbayi ekanligi, ana shu manbalar tufayli yerda butun tiriklik mavjudligi: insonlar va hayvonot dunyosi yashashi, o‘simliklar ko‘karishi, daraxtlar o‘sishi-yu mevalar berishi haqida dastlabki tasavvurlar hosil qilinadi.

Ayni paytda sutkaning bo‘linishi, kecha va kunduz (kun va tun) haqida tabiiy tasavvurlar quyosh, oy, yulduzlarga bog‘lagan holda shakllantirilishi maqsadga muvofiq. Katta yosh guruh bolalariga har oyning boshi va oxiridagi Oyning ko‘rinishlarini kuzatish hamda ular haqida ilg‘aganlarini topshiriq qilib berish mumkin. Maktabga tayyorlov guruhlarida yangi chiqqan oy “hilol” deyilishi, oy oxirida to‘lganda “to‘lin oy” deb atalishini tushuntirish mumkin. Bu orqali tabiat bilan tanishtirish bolalarning so‘z boyligini oshirish vazifasi bilan uyg‘unlashadi.

Maktabga tayyorlov guruhlarida bolalar bilimini mustahkamlash va mantiqiy tafakkurni rivojlantirish uchun bolalarning imkoniyatidan kelib chiqib, mamlakat (lar) bo‘ylab xayolan sayohat uyushtirish foydali. Bu sayohat paytida bolalar yo‘lga nimalar kiyib olishlarini, yo‘lda nimalarni ko‘rishlarini, qanday o‘simlik va hayvonlar uchrashini aytishlari kerak bo‘ladi. O‘z va o‘zga hududlarning tabiiy sharoitlarini ta’riflashda bolalar hayvonlar va o‘simliklar dunyosini tavsiflashga ko‘proq e’tibor berishlari kerak. Buning

uchun, avvalo, o‘simlik, meva yoki hayvon rasmini ko‘rsatib, nomi so‘raladi, so‘ng qaysi hudud yoki mamlakatda yashashi aytiladi. Masalan, yo‘lbarsni ko‘rsatib, bizning hududda yashash yoki yashamasligi, nima bilan oziqlanishi, uni bizning sharoitda qayerda ko‘rish mumkinligi (zooparkda), faydali yoki zararligi so‘raladi. Shuningdek, fil rasmi ko‘rsatilib, uning qaysi mamlakatda yashashi (Hindistonda) va boshqa tafsilotlar kiritiladi.

Tabiat muhofazasiga oid masalalar tabiat bilan tanishtirish mashg‘ulotlarining vazifasigina bo‘lib qolmay maktabgacha ta’lim tashkilotlarda o‘tkaziladigan barcha mashg‘ulotlarda e’tibor markaziga qo‘yiladigan muammodir. Barcha mashg‘ulotlar bilan untegratsiyani yo‘lga qo‘ygan holda ushbu maqsadni amalga oshirish lozim. Mavzuning asosiy masalasi - tabiat muhofazasi to‘g‘risidagi ilgarigi darslarda bayon qilingan ayrim ma’lumotlarni bildirish, tabiat muhofazasi bo‘yicha qanday tadbirlar o‘tkazilayotganligini ko‘rsatishdir. Tabiat muhofazasining ma’nosi va ahamiyatini bolalarga ocha borib, tarbiyachi bu mavzuning katta tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligini e’tiborda tutishi kerak. Tabiat faqat jamiyatning moddiy hayoti uchun boylik olish manbaigina bo‘lib qolmasdan, balki xalq ma’naviy boyligining asosi hamdir. Maktabgacha ta’limda bolalarni o‘zlarini o‘rab turgan olam, tevarak-atrofdagi tabiat bilan tanishtirish, ularda olam tuzilishi va tabiat hodisalari haqida tasavvur hosil qilish, ilmiy dunyoqarash kurtaklarini shakllantirish, o‘lkamizning go‘zal tabiati bilan tanishtirish orqali ona Vatanimizga muhabbat ruhida tarbiyalash, tabiatdan oqilona foydalanishni o‘rgatish “Tabiat bilan tanishtirish” mashg‘ulotlari orqali amalga oshiriladi.

Demak, mazkur yo‘nalishdagi mashg‘ulotlar, avvalo, bolalarda atrof borliq haqidagi tushunchalarni tizimli o‘rganish uchun dastlabki tamal toshini qo‘yadi; ikkinchidan, ular o‘zlarini o‘rab turgan jonli-jonsiz borliqlar o‘rtasidagi matniqiy izchillik va bog‘liqlikni idrok eta boshlaydilar; uchinchidan, kichkintoylarni vatanparvarlikning ibtidosi bo‘lmish tabiatni sevishga o‘rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Djabborova X.J. Tabiat bilan tanishtirish metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 2020.

2. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika (darslik). –T.: Fan va texnologiya, 2012.

3. Do‘stmuhamedova Sh.A., Nishonova Z.T. va boshqalar Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. – T.: Fan va texnologiyalar, 2013.

4. Крылова О. А. Знакомство с природой. https://nsportal.ru/detskiy-sad/okruzhayushchiy-mir/2016/02/07/znakomstvo-detey-s-prirodoy.

5. Карабанова Р. Н. Использование игровых обучающих ситуаций при знакомстве детей с природой. https://nsportal.ru/detskii-sad/vospitatelnaya-rabota/2016/10/02/moi-publikatsii.

Nilufar MAMADALIYEVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA’LIM TIZIMIDA BOLALARGA OG‘ZAKI HISOBNI O‘RGATISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak pedagoglarning bolalarda og‘zaki hisob tizimini takomillashtirish usullari, og‘zaki hisobga o‘rgatish bosqichlari va o‘yinlar haqida yoritilgan hamda mavzuga doir o‘yinlardan namunalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Og‘zaki hisob, raqam, ertak qahramonlari, natija, o‘yin, usul, misol, jadval.

В данной статье освещены методы совершенствования системы устного счета у детей, этапы обучения устному счету и играм будущих педагогов, а также приведены выдержки из тематических игр.

Ключевые слова. Словесный счет, число, сказочные герои, результат, игра, способ, пример, таблица.

In this article, the methods of improving the oral accounting system of future teachers in children, the stages of teaching oral accounting and games are covered, as well as the nuances of games on the topic are presented.

Key words. Sonorous calculation, number, fairy tale heroes, result, game, method, example, table.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Ana shu dalilning o‘zi bolalarimizning yetuk va barkamol shaxs bo‘lib voyaga yetishida bog‘cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol ko‘rsatib turibdi.

Bunga qo‘shimcha isbot qidirib uzoqqa borishning hojati yo‘q. Bog‘cha tarbiyasini olgan bola bilan bog‘chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlash darajasi o‘rtasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham biz maktabgacha ta’lim tizimini qayta ko‘rib chiqish masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tarib, bu borada katta ishlarni boshladik. Agar shu ishni har tomonlama puxta o‘ylab amalga oshirmasak, butun ta’lim tizimida sifat o‘zgarishiga erishishimiz, ta’limning uzluksizligini ta’minlashimiz qiyin bo‘ladi, deya ta’kidlagan edi prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Darhaqiqat, poydevor mustahkam bo‘lsa, imorat ham mustahkam bo‘ladi. Shunga ko‘ra maktabgacha ta’lim ham bolalarning bilim olishlarining poydevori hisoblanadi. Shu jumladan, boshlang‘ich ta’lim ham. Shuning uchun bu davrda bolaga qanchalik sifatli, samarali bilim olishlariga hissa qo‘shsak kam hisoblanadi. Ayniqsa, matematika fani to‘g‘risidagi fikrlariga e’tibor bersak, yoshlarda matematika faniga qiziqishni kuchaytirish,

iqtidorli bolalarni seleksiya qilib, ixtisoslashtirilgan maktablar va keyinchalik oliy ta'lim muassasalariga qamrab olish ishlarini to'g'ri tashkil qilish kerakligi ta'kidlandi. Bolalar uchun mazkur fandan oddiy va tushunarli tilda yozilgan ommabop darslik va o'quv qo'llanmalari yaratish, matematik ongni, kerak bo'lsa, bog'chadan boshlab shakllantirish vazifasi qo'ydi. Shuning uchun ham bolalarni matematika faniga qiziqtirishimiz, ularga sifatli ta'lim berishimiz kerak.

Bola tafakkurini ko'rsatmali-harakatli xarakterda ekanligi ularning ko'rsatma-qo'llanma bilan har xil harakatlarini tashkil qilish orqali matematik bilimlarni shakllantirish zarurligini asoslaydi.

Bilim, malaka, ko'nikmalarni o'zlashtirishga har xil usullardan foydalanish va ularni birga qo'shib ishlatish bilan erishiladi. Usullarni tanlash u yoki bu dastur masalasi mazmuni, shuningdek bolalarning tegishli bilim va ko'nikmalari darajalari, nihoyat, har qaysi yosh xususiyatlari bilan aniqlanadi.

O'qitish kattadan bolaga bilimlarni oddiy uzatilishiga keltirmasligi kerak. Tarbiyachi pedagog birichi navbatda bolalarning matematik bilimlarga qiziqishlarni, matematik qobiliyat-mustaqil fikrlash, umumlashtirish qobiliyatini, abstraksiyalashni, fazoviy tasavvur va hokazolarni, shuningdek, matematik bilim, malaka va ko'nikmalarni mustaqil egallash va qo'llay olish imkonini rivojlantirishi kerak.

Pedagog darsga (mashg'ulotga) tayyorlanar ekan, oldindan bolalarga nimani ko'rsatish, nimani tushuntirish va bolalar mustaqil ravishda nima qila olishlarini ham chuqur o'ylab, beriladigan savol va harakatlar rejasini tuza olishi kerak.

Bilim va ko'nikmalarni puxta o'zlashtirish uchun bolalar bevosita yangi material bilan tanishish jarayonida ham, undan keyingi darslarda (mashg'ulotlarda) ham, yetarli miqdorda bajarishlari kerak.

Bir xil narsaning o'zini ko'p martalab takrorlayverish istalgan samarani bermaydi va bolalarning charchashiga sabab bo'ladi. Ko'rgazmali qurollarni almashtirish va bolalar faoliyatini tobora murakkablashtirib, metodik usullarni o'zlashtirib turish muhimdir. Shu yo'l bilan bolalarning qiziqishlarini, fikrlashlarini aktivlashtirishni, charchashining oldini olish mumkin bo'ladi.

Ana shunday sharoitda yangi bilimlar o'zaro bir-biriga uzviy bog'lanadi. Natijada, ular kengayadi, aniqlanadi, umumlashadi va mustahkamlanadi.

Og'zaki hisobga tayyorgarlik matematikani o'rganishdagi birinchi qadamlardan boshlanishi kerak. Bolani raqamlar bilan tanishtirganda, uni har bir sonning muayyan miqdordagi obyektlarga ega bo'lgan guruhni ko'rsatishiga o'rgatish kerak. Masalan, uchtasini hisoblash va bolani 3 raqamini ko'rsatish yetarli emas. Unga uchta barmoqni ko'rsatishni, oldingizda uchta shaklni qo'yishni yoki uchta doirani chizishni tavsiya etish kerak.

Bolalar ertaklarni yaxshi ko'radilar, shuning uchun ertaklar orqali ham matematikani o'rgatish mumkin. Masalan, yuqoridagi "Sholg'om tortish" ertagi orqali maktabgacha ta'limda tarbiyalanuvchi bolalar uchun fazoviy tasavvurlarini ham shakllantirish mumkin. Buning uchun ertak qahramonlari maketi tayyorlanadi.

Cholni orqasida kampir, kampirni orqasida qiz yoki mushukni oldida kuchuk, Kuchukni orqasida mushuk va h.k.

Bolada har bir raqamga bog'langan aniq tasvirlar bo'lishi kerak. Ushbu bosqichda matematik dominolarda bolalar bilan o'ynash juda foydali. Asta-sekin, ular xotirada tegishli raqamlar bilan bog'liq bo'lgan nuqta bilan tasvirlangan.

Bundan tashqari, raqamlarni kublar qutisi bilan o'rgatish mumkin. Bunday

quti ikki qatorda joylashgan 10 hujayralariga bo‘linishi kerak. Har bir raqam bilan tanishib, bola kerakli hujayra sonini to‘ldiradi va tegishli kombinatsiyalarni eslab qoladi. Ushbu o‘yinlarning kublar bilan foydalari, shuningdek, bola sonni 10 ga to‘ldirish uchun qancha kub kerakligini bilib, eslab qoladi. Bu og‘zaki hisob uchun juda muhim mahoratdir.

Og‘zaki hisob-kitob ko‘nikmalarini shakllantirish boshlang‘ich maktabda ham alohida o‘rin tutadi va matematikani o‘qitishning asosiy vazifalaridan biridir. Ta’limning dastlabki yillarida aqliy faoliyatni faollashtiradigan, bolalarda xotira, nutq, eshitish qobiliyatini rivojlantiradigan og‘zaki hisoblashning asosiy usullari qo‘yiladi.

Boshlang‘ich maktabda barcha o‘quv davrida og‘zaki hisoblashning to‘g‘riligi va ravonligiga erishish uchun har bir darsda og‘zaki hisob-kitoblarda mashq qilish uchun 7-10 daqiqani ajratish kerak. Og‘zaki mashqlar nafaqat muntazam ravishda, balki boshlang‘ich maktab dasturi tomonidan belgilanadigan muayyan ketma-ketlikda ham amalga oshirilishi kerak.

Og‘zaki mashqlar nafaqat aqliy faoliyatni faollashtirish, balki ular ta’lim berishda tarbiyaviy rol o‘ynashlari bilan ham muhimdir – o‘quvchilarni tartibga solish, bolalarni sabr-toqat va orqada qolgan yo‘ldoshlarni kutish, ularga yordam berish qobiliyatini o‘rgatish.

Shu bilan bir qatorda, bunday mashq uchun Lego dizaynerining tafsilotlarini ishlatish mumkin. Raqamlar bilan tanishishning barcha usullarining asosiy natijasi ularning tan olinishi bo‘lishi kerak. Bir vaqtning o‘zida (qayta hisoblashsiz) narsalarning kombinatsiyasiga qarab, ularning sonini va tegishli raqamini chiqarishi mumkin.

Raqam tarkibini bilish asosida bola qo‘shib va olib tashlashi (ya’ni ayirishi) mumkin. Misol uchun, “besh ortiqcha ikki” qancha bo‘lishini aytish uchun 5 va 2 qo‘shilmasi 7 ekanligini esga olish kerak, “to‘qqiz minus uch” olti bo‘ladi, chunki 9 – 3 va 6.

Shuningdek, qo‘shish va ayirish uchun taqdimotlar. Ularning ko‘pchiligida raqamning tarkibi (“uy” mashqlari va boshqalar) asosida og‘zaki hisobni o‘qitish prinsipi qo‘llaniladi.

Ushbu usullarni o‘zlashtirib olgach, maktabgacha ta’limning tayyorlov guruh bolalarida 10 ichida sonlarni tarkibini, boshlang‘ich ta’limning quyi sinf bolalarida 100 va 1000 ichidagi sonlarni tarkibini og‘zaki hisoblash ko‘nikmalari takomillashadi.

Bundan tashqari, maktabda, aqlni tezda qanday hisoblashni o‘rganishning asosiy usuli-jadvallar va o‘yinlardir. Jumladan, maktabgacha yoshda o‘yin yetakchi faoliyat turi hisoblanadi. O‘yin faoliyati bu ruhiy o‘zboshimchalikning rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Bilimlarni mustahkamlashda didaktik o‘yinlar, ayniqsa, xalq didaktik o‘yinlari matryoshkalar, piramidachalar va boshqa o‘yinchoqlar bilan o‘ylanadigan o‘yinlar muhim rol o‘ynaydi. O‘yin davomida asta-sekin ta’lim faoliyati shakllanib, keyinchalik amalga oshiriladi.

Og‘zaki hisoblashni mashq qilish uchun quyidagi o‘yinlardan foydalanish mumkin:

1-o‘yin: Onang, buving yoki boshqa qarindoshlaring nechta bir xilda harakat qilishlarini topishga urinib ko‘r. O‘tirishlarni, egilishlarni, burilishlarni va boshqalarni ko‘rib, sana. Bunday zaryadka-hisoblash sen uchun ham, ular uchun ham foydali bo‘lishini uyingdagilarga tushuntir.

Darhaqiqat, bunday o‘yin orqali bolalar nafaqat sanashni o‘rganadi va jismoniy harakatlar ham qiladi. Demak, bugungi yosh avlodimiz sog‘lom va aqlli bo‘ladi.

2-o‘yin: Ko‘zingni yumgin va katta kishi necha marta piyolaga qoshiqni urishini, “ku-ku” deyishini yoki chapak chalishini hisobla! Aslo qarama! Faqat eshitib hisobla.

Bu o‘yin bolalarimizni ziyraklikka chorlaydi va hisoblashga o‘rgatadi.

3-o‘yin: Ko‘zingni yumib, qo‘llaringni oldinga uzat. Katta kishi kaftingga bir nechta mayda predmetni (qisqich, tugma, yong‘oq, tanga) qo‘yganda, ularni hisobla. Aslo qarama! Faqat paypaslab hisobla.

Bu o‘yin orqali bolalar nafaqat hisoblashni o‘rganadi, bundan tashqari, barmoqlarini ham mashq qildiradi.

4-o‘yin: Koptokni ko‘rsatkich barmog‘ingga qo‘ygin-da, uni ushlama. Koptok tushib ketmagunicha nechtagacha sanashga ulgurasan? Eslab qolgin-da, eng katta sonni yozib qo‘y.

5-o‘yin: Katta kishi tartibini buzib aytgan uchta sonni (sakkiz, ikki, to‘rt va b.) tingla. So‘ng kattasini takrorla.

6-o‘yin: Shaffof bo‘lmagan paketga yashirilgan predmetlar sonini aniq topishga urinib ko‘r.

Bu o‘yinlar ham bolalarga sanashni, hisoblashni o‘rgatadi.

O‘yin vaziyatlariga haddan tashqari berilib ketmaslik kerak, chunki o‘yin asosiy narsadan – matematik ishdan chalg‘itishi mumkin, natijada, bolalar mashg‘ulot rejasida nazarda tutilgan bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtira olmaydilar.

Shunday qilib, og‘zaki hisob-kitob tizimi nafaqat maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich maktab bolalarining hisoblash ko‘nikmalarini avtomatlashtirishni shakllantirishda, balki ta’limotning ijobiy motivatsiyasini yaratishda, bolaning shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishda ham ustuvor rol o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tkachenko T.A. Kuzdan yozgacha maktabga hozirlik ko‘ramiz. – T.: Davr nashriyoti, 2012.

2. Bikbaeyva N.U., Ibrohimova Z., Qosimova X.I. Maktabgacha yoshdagi bolalarda matematik tasavvurlarni shakllantirish. – T.: O‘qituvchi, 1995.

3. Актуальные проблемы методики обучения математике в начальных классах. / Под ред. М.И.Моро, А.М. Пышкало. - Москва: Педагогика, 1977. – С.248.

4. Бантова, М. А., Бельтюкова, Г. В. Методика преподавания математики в нач. классах: Учеб. пособие для уч-ся школ. отд-ний пед. уч-щ / Под ред. М. А. Бантовой. - 3-е изд. – Москва: Просвещение,1984. – С. 335.

5. Леушина А.И. Формирование элементарных математических представлений у детей дошкольного возроста. – Москва, 1974.

Olimjon QODIROV,
Andijon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

XORIJIY TIL O‘RGANISHDA REFLEKSIV YONDASHUV

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz tili o‘qituvchilarining o‘z darslariga refleksiv yondashuvlari, o‘z ishiga baho berish, kuchli va kuchsiz jihatlarini aniqlash orqali keyingi faoliyatlarini to‘g‘ri rejalashtirish hamda til o‘qitish samaradorligini oshirish masalalari bayon etilgan. Bunda nazorat va tahlil katta ahamiyatga ega ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Xorijiy til, maktab, o‘quvchi, o‘qituvchi, refleksiya, shartli refleks, kuzatuv, nazorat, dars tahlili, kundalik faoliyat.

В данной статье рассматриваются вопросы рефлексивного подхода учителей английского языка к своим урокам, правильного планирования своей будущей деятельности путем оценки своей работы, определения своих сильных и слабых сторон и, как следствие, повышения эффективности обучения языку. Установлено, что контроль и анализ уроков имеют большое значение.

Ключевые слова. Иностранный язык, школа, ученик, преподаватель, рефлексия, рефлексивный учитель, наблюдение, контроль, условные рефлексы, анализ урока, повседневная деятельность.

Thy article discusses the issues of English teachers’ taking a reflexive approach in their lessons, evaluating their work, planning their future activities correctly by identifying their own strengths and weaknesses, and consequently increasing the effectiveness of language teaching. It is shown that control and analysis of lessons are of great importance.

Key words. A foreign language, school, a language learner, teacher, reflection, reflexive teacher, observation, control, conditioned reflexes, lesson analysis, daily activities.

Aksariyat hollarda ta’lim jarayonida o‘qituvchi o‘z darsidan va o‘quvchilaridan kutilayotgan natija aslida erishilgan natijadan farq qilib qolishini kuzatish mumkin. O‘qituvchi dars jarayonida ko‘plab muammolarga duch keladi. Misol uchun, u darsini juda yaxshi rejalashtirib, puxta tayyorgarlik ko‘rsa-da, amaldagi natija kutilganiday bo‘lmay qolishi, rejalashtirilgan metodika mazkur darsda to‘g‘ri kelmay qolishi mumkin. Bunday hollarda o‘qituvchi ana shu darsdan so‘ng u haqda o‘ylashi, xatolikni topishi, dars jarayonini qayta tahlil qilishi, o‘tilgan dars haqida hamkasblarining fikrlarini o‘rganishi yoki o‘quvchilarning fikr-mulohazalari bilan qiziqishi lozim bo‘ladi. Ana shunday jarayonlarni boshidan o‘tkazadigan o‘qituvchini ta’lim jarayoniga “refleksiv yondashadigan o‘qituvchi” deb atashimiz mumkin. Lekin dars haqida o‘ylash, xatolikni topish va uni bartaraf qilishning o‘zi keyingi darslarning samaradorligini oshirish uchun yetarlimikin? O‘qituvchi dars jarayonini bosqichma-bosqich qayd etib, nazorat qilib borishi uning mahoratli o‘qituvchi sifatidagi kuchli va nisbatan zaifroq taraflarini ochib berishga yordam beradi.

Nazorat muammolarining mohiyati, hal qilinishi va amalda tadbiq etilishi birinchi navbatda nima uchun nazorat qilish – nazorat maqsadi, nimani nazorat qilish – nazorat

mazmuni, obyekti, qanday nazorat qilish – nazorat usuliga oid masalalarni qanday tushunishga va hal qilishga bog‘liq. Nazoratni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, o‘qituvchining refleksiv o‘qituvchi bo‘lishi juda muhimdir. Buning uchun esa u dars jarayonida amalga oshirgan ishlarini qayd qilib borishi katta amaliy ahamiyatga ega.

Maktab o‘quv fanlari ichida chet tilda nazorat obyektining farqi shundaki, nazariy bilimlar tekshirilmaydi, balki gapirish, tinglab tushunish, o‘qish va qisman yozuv ko‘nikma va malakalari tekshirib boriladi.

Muvaffaqiyatli dars jarayonida o‘qituvchida shakllangan bo‘lishi kerak bo‘lgan olti xil ma’lumot (bilim) mavjud:

Amaliy bilim borasidagi ma’lumot: o‘qituvchining dars o‘tishga oid metodik texnika va usullari.

Fan haqidagi ma’lumot: o‘qituvchining o‘tayotgan fani bo‘yicha bilimi.

Muhitga oid ma’lumot: o‘qituvchining maktab muhiti, o‘rnatilgan tartib-qoidalar va o‘quvchilarning umumiy munosabatlari (o‘g‘il-qiz, boy-kambag‘al) va madaniy (diniy) qarashlari.

Pedagogik ma’lumot (mahorat): o‘qituvchining berilgan materiallarni qayta tuzib chiqish, rejalashtirish, moslashtirish improvizatsiya qila olish mahorati.

Shaxsiy ma’lumot: o‘qituvchining shaxsiy qarashlari, tamoyillari o‘quv jarayoniga yondashuvi.

Refleksiv ma’lumot: o‘qituvchining o‘z faoliyatiga refleksiv munosabatda bo‘lish orqali xolis baho berishga oid ma’lumot.

Yuqorida ko‘rsatilganlardan ma’lum bo‘ladiki, tajribali va mahoratli o‘qituvchi bo‘lishning shartlaridan biri bu – o‘z faoliyatiga refleksiv yondasha olishidir. Akademik Pavlovning ta’kidlashicha, odatlar shartli (orttirilgan) reflekslardir va shartli reflekslar bir harakatni oldindan qayta-qayta amalga oshirish natijasida vujudga kelgan stimulga javoban avtomatik tarzda amalga oshiriladigan harakatdir.

O‘qituvchilarning o‘z-o‘zini kuzatishi (refleksivlik) va o‘z ishini baholab borishi uchun sharoitlar yaratib berilishi (o‘rgatilishi) kerak, chunki xorijiy til o‘qituvchilarining o‘z kasbiy faoliyatiga munosabat bildirishlari, uni baholab borishlari hamda o‘qitish amaliyoti va qarashlarini refleksiv munosabat orqali o‘zgartirishga qodir bo‘lishlari dolzarblik kasb etadi. Buni amalga oshirish uchun o‘qituvchilar ortga nazar solib, o‘z o‘qituvchilik amaliyotini, ta’lim jarayoniga munosabatlarini, oldiga qo‘ygan maqsadlarini, shuningdek, o‘quvchilar, hamkasblarining qarashlari hamda munosabatlarini o‘zgartirish uchun zarur bo‘ladigan qarorlar chiqara bilishlari lozim bo‘ladi.

Ta’lim jarayoniga refleksiv yondashuv har bir o‘qituvchidan tinimsiz harakatlarni – o‘zgarishlarni amalga oshirish uchun harakat, turli vaziyatlarni to‘laqonli tushunishga harakat va eng asosiysi doimiy kasbiy rivojlanishga bo‘lgan harakatni talab qiladi.

Bundan tashqari o‘qituvchilar o‘z oldilariga uzoq muddatli kasbiy maqsadlarni qo‘yishlari talab etiladi. Agar ular shu kasblarida salmoqli natijalarga erishmoqchi bo‘lsalar, vaqt o‘tishi bilan tobora murakkab vazifalar va majburiyatlarni bajarib borishi ahamiyatlidir. Shuningdek, yaxshi ta’lim jarayonini yo‘lga qo‘yishda bir qator vazifalarni amalga oshirish mumkin, lekin ta’lim jarayonida maqsadni amalga oshirishda muvaffaqiyatga erishishning eng birinchi omili o‘qituvchilarning o‘zlari bo‘lib qolaveradi.

Beyli o‘qitishga refleksiv yondashuvni o‘z qilayotgan ishlari, qarashlari hamda motivlarining mohiyatini anglab yetishga intilayotgan va o‘z faoliyatini takomillashtirishga harakat qilayotgan mutaxassislarning amalga oshirayotgan ishlariga aniq baho berish g‘oyasidir deydi. Uning fikriga ko‘ra, ta’lim jarayoniga refleksiv yondashuv jarayonini bir

nechta shakllarda olib borish mumkin, jumladan, dars ishlanmalarida notatsiya (qayd) qilib borish va saqlab qo‘yish, dars jarayonini video yoki audio shaklida yozib borish, o‘qituvchi jurnali tutish, o‘qituvchilik faoliyati haqida internetda blog yuritish va boshqalar.

Professional o‘qituvchi uchun darsda bajarilayotgan mashq (topshiriq) o‘quvchilarni jalb qilib olish nuqtai-nazaridan qanchalik samarali ekanini baholab borishga harakat qilish juda muhim masaladir. Dars davomida sodir bo‘ladigan voqea-hodisalar va maqsadlarga erishishning alternativ usullari haqida tanqidiy mushohada yuritadigan o‘qituvchi refleksiv o‘qituvchidir.

Suxerdining ta’kidlashiga ko‘ra, pedagogik mahoratni oshirishning, professional o‘qituvchi bo‘lishning samarali usullaridan biri bu refleksiv malakalarni shakllantirishdir. U refleksiv mahoratni o‘qituvchi o‘tadigan dars jarayonidagi o‘zining kuchli va nisbatan zaif tomonlari tashxis qila bilishidir deydi.

Soisangvarn va Vongvanichlar ham o‘z faoliyatini doimiy kuzatib, tahlil qilib boradigan o‘qituvchilar o‘z kasbiy mahoratlarini sifat jihatidan yaxshilab professional o‘sishga erishadilar, deydi.

Refleksiv ta’lim berish o‘qituvchilarning kasbiy malakalarini oshirishning usullaridan biridir. Shu sababdan, o‘qituvchilar o‘z faoliyatlari, xususan dars jarayoniga refleksiv yondashishlari talab qilinadi. Chunki refleksiv yondashuvning qator afzalliklari mavjud.

Refleksiv o‘qituvchi bo‘lish, o‘z kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlash uchun qaysi vositadan foydalanish u qadar katta ahamiyatga ega emas. Agar xorijiy til o‘qituvchilari o‘z faoliyatini sifat darajasidan yaxshilash uchun ushbu vositalarning barchasidan kerakli darajada foydalana bilsa bugungi kun talabi bo‘lgan xorijiy tillarni samarali o‘qitishda sezilarli natijalarga erishilgan bo‘lar edi.

Refleksiv jarayonlar va olingan natijalarni o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning o‘zaro munosabatlariga olib kirishni faol yo‘lga qo‘yishga qaratilgan harakatlarni inson faolligini ro‘yobga chiqaruvchi asosiy mexanizmlardan biri ekani bilan izohlash mumkin.

Umuman olganda, xorijiy til o‘qituvchilarida o‘z faoliyatini tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish – ular ta’lim jarayonining shunchaki ishtirokchilari emas, balki kommunikativ jarayonlarning yaratuvchilari ekanligini ham anglab yetishiga olib keladi. Amalda bu holat o‘qituvchilarni o‘zining kunlik faoliyati va natijalarini hamda ta’lim jarayoniga bo‘lgan umumiy qiziqishni kuzatib borishga turtki beradi, kerakli o‘zgartirishlar kiritishga undaydi va pirovard natijada sohada samaradorlikka erishishga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – T.: O‘qituvchi, 1996.

2. Е.В. Ильина. Рефлексивное управление обучением учащихся общеобразовательной школы: дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.01: Барнаул, 1998, 202 с. РГБ ОД, 61:99-13/805-б.

3. Saidaliyev S. Chet til o‘qitish metodikasidan ocherklar. – Namangan, 2004.

4. Bailey, Kathleen M. (2012). Reflective Pedagogy. In Anne Burns & Jack C. Richards (Eds.), The Cambridge Guide to Pedagogy and Practice in Second Language Teaching, (pp. 23–37). New York: Cambridge University Press.

5. Farrel, Thomas S. C. (2016). Does Writing Promote Reflective Practice? In Willy A. Renandya & Handoyo P. Widodo (Eds.), English Language Teaching Today: Linkin Theory and Practice (pp. 83–94). Switzerland: Springer.

Guldorxon MINGBOYEVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi magistratura talabasi

DIDAKTIK O‘YINLAR VOSITASIDA BOLALAR NUTQINI O‘STIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlari hamda oila muhitida didaktik o‘yinlar orqali nutq ko‘nikmalarini, fikrlash malakalarini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Didaktik o‘yinlar, lisoniy tafakkur, nutq o‘stirish, og‘zaki ijod namunalari, nutqiy ko‘nikmalar, lug‘at boyligi.

В статье рассмотрены задачи развития речевых навыков и умения критического мышления, обогащение словарного запаса с помощью дидактических игр в семье и дошкольных образовательных учреждениях.

Ключевые слова. Дидактические игры, языковое мышление, развитие речи, образцы устного творчества, речевые навыки, словарный запас.

The article focuses on the development of speech skills, thinking skills, vocabulary through didactic games in preschool and family atmosphere.

Key words. Didactic games, linguistic thinking, speech development, oral creativity samples, speaking skills, vocabulary.

Jahondagi har bir millat doimiy ravishda zamon bilan hamqadam, davr bilan hamnafas yashamas ekan, aql va tafakkur raqobati ustuvor bo‘lgan hozirgi davrda ilg‘or rivojlangan davlatlardan har sohada ortda qolib, ergashuvchi mamlakat maqomida qolib ketish hech gap emas. O‘z ertasini, istiqbolini o‘ylagan har qanday xalq bunga rozi bo‘lmaydi, bu kabi holat bilan kelishib yasholmaydi. Ortda qolish yoki mutelikning oldini olish chorasi, shubhasiz, ta’lim-tarbiya tizimiga e’tibordir. “2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi”ning to‘rtinchi yo‘nalishida ta’limga alohida urg‘u berilgani bejiz emas. Mamlakatimizda Maktabgacha ta’lim vazirligining tashkil etilishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, shu qarorga muvofiq Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinishi ham ustuvorlik maqomi berilgan ta’limga hukumat miqyosida ayricha e’tiborning bir ifodasidir. 2018-2019-o‘quv yilidan boshlab maktabgacha ta’lim tashkilotlari yangi – “Ilk qadam” o‘quv dasturi asosida faoliyatlarini olib bormoqda. Unda maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilab berilgan. Bolalarning har tomonlama yetuk bo‘lib shakllanishida har bir kompetentsiyaning o‘rni bor. Lekin ular orasida nutqiy kompetensiya mavqei o‘ziga xosdir. Chunki nutq lisoniy (til) tafakkur bilan bevosita bog‘liq, u (til tafakkuri) esa borliqni idrok etish, qabul qilish

asosi sanaladi. Til orqali rivojlangan tafakkur vositasida bolaning atrof-muhit bilan tanishish, matematik tasavvur, bilim olish, ijodiy rivojlanish va boshqa kompetensiyalari shakllanadi, tadrijiy o‘sib boradi. Lisoniy tafakkur va nutq o‘zaro ta’sir ko‘rsatib, bir-birini sayqallab boradi. Asosiysi, tarbiyalanuvchi maktab ta’limiga tayyor bo‘la boshlaydi. Bolani maktab hayotiga tayyorlash uning hayotida yangi bosqichga: o‘quvchi bo‘lish, maktabda o‘qish hissini shakllantirish, axloqiy sifatlarning ortishi, borliqni anglashga qiziqishining kengayishidir. Buning uchun esa uni bu yangi hayot va jarayonga moslashtirib borish talab etiladi. Bunda, ayniqsa, o‘zaro bir-birini taqozo qiluvchi aqliy va nutqiy rivojlanishi jihatdan bolalarni maktabga tayyorlash, bunda didaktik o‘yinlardan foydalanish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqotda muhim bo‘lgan jihatlar:

– bolalarning o‘zaro aloqa nutqini o‘stirish;
– kim bilan (tengdoshi yoki kattalar bilan) gaplashayotganiga qarab muomala qilishi;
– so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishi;
– so‘zlashganda fikrini aniq ifodalay olishi;
– so‘zlash tempiga rioya qilish;
– mazmunga muvofiq ohangni yarata olishi;
– savollarga to‘g‘ri javob berishi.

Yuqoridagi barcha jihatlarni yo‘lga qo‘yishda ularga mos didaktik o‘yinlarni tanlash tarbiyachi va ota-onalar e’tibor markazida bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, bolalarda nutq sifatini shakllantiradigan bir qator omillar mavjud. Maktabgacha ta’lim amaliyotida kuzatilgan, tajribalarda samarasi yuqori bo‘lgan ba’zi omillar haqida so‘z yuritamiz.

1. Oila muhitida nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish. Tarbiya tizimida oila beqiyos ahamiyatga va imkoniyatga ega maskan sanaladi. “Oiladagi tarbiya o‘zining chuqur emotsionalligi, intim xarakterdaligi, doimiyligi va davomiyligi bilan ajralib turadi”. Bolalar dastlabki nutq malakasi va muomala madaniyatini oilada o‘rganadi. Oila a’zolari bolani o‘z tilini hurmat qilishga, chiroyli, ma’noli so‘zlashga o‘rgatishlari ta’lim va tarbiya tizimida muhim ahamiyat kasb etadi. Oila a’zolarining so‘zlash tarzi, malakasi va madaniyati bolaga ta’sir etmay qolmaydi. Bolaning nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda maktabgacha ta’lim tashkiloti hamda oila hamkorligi zarur. Tarbiyachi zimmasiga bu borada katta mas’uliyat tushadi. Chunki u tarbiya bo‘yicha mutaxassis, hayoti va faoliyatini shu ishga bag‘ishlagan pedagog va psixologdir.

1) bolalarning xulqi, ta’lim-tarbiya olishi, nutqini rivojlantirish yuzasidan umumiy suhbatlar o‘tkazish (ota-onalar yig‘ilishi, “Onalar maktabi” faoliyatini yo‘lga qo‘yish…);

2) zaruratga qarab bolalarning ota-onasi bilan alohida suhbat tashkil etish, ta’lim-tarbiyasi, jumladan, nutq malakasi yuzasidan maslahatlar, tavsiyalar berib borish, ayrim masalalar bo‘yicha kelishib olish;

3) “Ota-onalar sizlar uchun” burchagini tashkil qilib, uni kerakli adabiyotlar, metodik jurnallar bilan ta’minlash, ularni o‘qishga tavsiya qilib borish;

4) oila muhitida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun qo‘llanadigan o‘yinlar haqida kelishib olish.

Nutq tarbiyasida ota-ona va oiladagi boshqa kattalar quyidagilarga rioya qilishlari shart:

1) bolani erkalatib sun’iy chuchuk tilda so‘zlamaslik (masalan, nonni nanna, suvni chu-chu kabi), balki har bir so‘zni aniq, tushunarli talaffuz etishlari lozim. Bunda, ota-onalar xalq og‘zaki ijodiga mansub quvnoq qo‘shiqlar, she’rlar aytib bolalar bilan birga nutqiy xarakterdagi didaktik o‘yinlarni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiq. Bular, asosan, erkalamalar bo‘lishi mumkin;

2) bolaning o‘ziga bo‘lgan murojaatini diqqat bilan tinglash, savollariga jiddiyat bilan javob berish, vaqt yoki kayfiyat yo‘qligini bahona qilib, muloqotdan qochish katta xato. Bolaning kayfiyati bo‘lmaganda esa ovunmachoqlar ishtirokidagi didaktik o‘yinlarni o‘tkazish lozim;

3) bolaning nutqidagi kamchiliklar, so‘z qo‘llashdagi xatolarga befarq bo‘lmaslik, xatolarni tuzatishda ham jiddiyat, ham g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish, bunda hech qachon jerkib, kamsitib, jazolab to‘g‘rilash yo‘lidan bormaslik. Bunda nutqiy kamchiliklarni bartaraf qilishga qaratilgan “Sen shunday deysan, men bunday deyman; men bunday desam, sen ham shunday deysan” didaktik o‘yini g‘oyat mos tushadi; (Sen shunday (bolaning noto‘g‘ri talaffuzdagi iborasi) deysan, men bunday (ota-onaning bola qo‘llagan noto‘g‘ri ifodani to‘g‘rilagan shakli) deyman; men bunday (to‘g‘rilangan ifoda) desam, sen ham shunday (to‘g‘rilangan ifoda) deysan.

4) bolaning oldida nutq madaniyatiga rioya qilgan holda o‘zaro muloqotda bo‘lish, muomala madaniyatiga zid holatlarga yo‘l qo‘ymaslik. Farzand muloqot madaniyatiga zid so‘zlaganda “Qara, opang nima deydi, boqqin, akang nima deydi” nutqiy didaktik o‘yinini oila a’zolari bilan o‘tkazish tavsiya qilinadi;

5) nutqiy muvaffaqiyatlarni rag‘batlantirib borish (Tushuntirding, so‘zing ajoyib, Shu so‘zning joyida g‘aroyib. Xo‘p so‘zni aytar bolam, Shu gapni qaytar, bolam). Shu rag‘bat she’rdan keyin bola o‘z muvaffaqiyatli ifodasini takrorlaydi;

6) badiiy adabiyot, multfilm, kinofilmlarni birga o‘qib, ko‘rib, birgalikda tahlil qilish, qahramonlar nutqidagi salbiy yoki ijobiy jihatlarga ularning e’tiborini tortish. Nutqiy malakalarni o‘stirish uchun o‘qilgan, ko‘rilgan asarlarni amalga oshirilgan tahlillar asosida sahnalashtirilgan o‘yinlarni yo‘lga qo‘yish mumkin;

7) pedagog olimlar ko‘rsatmalarida aytilganidek, 4-6 yoshli bolalar so‘z zaxirasi kattalar bilan muloqot jarayonida kuniga 5-10 ta yangi so‘zga ko‘payib borishi kerak. Bunda yuqorida qayd etilgan didaktik o‘yinlardan vaziyatga ko‘ra unumli foydalanilsa bo‘ladi.

2. Bolalarni maktabga tayyorlashda ularning fikrlash malakalarini rivojlantirish. Bunda bolalarning o‘zlashtirgan so‘z boyligidan to‘g‘ri foydalanish, eshitgani va ko‘rganlarini so‘zlab berish, rasmlar mazmuni bo‘yicha hikoya tuzish, nutqni aniq, to‘g‘ri ifodalashga o‘rgatiladi. Buning uchun tarbiyachi didaktik xarakterdagi nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida quyidagilarga ahamiyat berishi lozim: 1) bolalarning turli faoliyatlari haqida mazmunli, ijodiy hikoya tuzish, ertak to‘qish, uni obrazli hikoya qilishga o‘rgatish. Bunda “Kim qanday so‘zlab beradi?” didaktik o‘yini qo‘l keladi; 2) bolalarga 3-4 so‘zdan iborat gap tuzish, gapni so‘zlarga ajratish, so‘zni bo‘g‘inga ajratish va so‘zdagi tovushlarni aniq talaffuz qilish, tovushdan so‘z tuzishga doir mashqlarni bajarishga o‘rgatish. Har bir topshiriq turini qaysidir bolaga yoki bolalar kichik guruhiga biriktirib, “Doira” o‘yinini mashg‘ulotga kiritish mumkin; 3) badiiy asarlarni ifodali, obrazli hikoya qilishga o‘rgatish, asar qahramonlarining faoliyatini baholay olish, ularning ijobiy xususiyatlarini tavsiflash va nutqni ajrata olishga o‘rgatib borish. Buni sahnalashtirilgan o‘yinlarda amalga oshirilib, har bir nutqiy muvaffaqiyat yoki kamchiliklar aniqlanganda o‘sha paytda o‘yin to‘xtatiladi, yutuq rag‘bat oladi, kamchiliklar to‘g‘irlanadi.

3. Bolalar lug‘at boyligi oshirish ustida ishlash. So‘z boyligi ko‘p bolada so‘zlash ishtiyoqi kuchli, ayni paytda nutqi ravon va sifatli bo‘ladi. Joriy dastur va davlat talablariga ko‘ra maktabga chiqayotgan bola 3-5 ming atrofida so‘z bilishi kerak. Ammo bu so‘zlar tarkibi o‘rganilmagan: ularning qanchasi ot, qanchasi sifat, fe’l yoki ravish va son bo‘lishi ko‘rsatilmagan. Chunonchi, gap maktabgacha ta’lim talablari haqida borar ekan, bugungi kunda bu masalaga jiddiy qarash vaqti keldi deb hisoblaymiz. Muammoning

ayni shu tomonlariga e’tibor qaratib tajribalar olib borgan metodist S.Abdullaevaning kuzatishlari diqqatga sazovor. U amaliyotchilar bilan birga ona tili namunaviy lug‘ati ustida ish olib borgan. Bolalarning suhbatlar, mustaqil hikoyalari, turli predmet va o‘yinchoqlarni ta’riflashlari jarayonidagi nutqlarida ishlatgan so‘zlarini qayd etib, alifbo harflari sirasida hisobga olib borilgan. Alifbodagi har bir harf guruhiga 40-50 tadan so‘z jamlanganda bolalar jamlagan so‘z zaxirasi tahlil qilingan. Aniqlanishicha, ularning aksariyati ot va fe’l turkumiga kiruvchi so‘zlar bo‘lgan. Metodist S. Abdullayeva tajribalarini yaxlit umumlashtirib, ilmiy-amaliy xulosalamagan bo‘lsa-da, biz undan o‘zimizga shunday xulosalarni chiqarib olishimiz mumkin: ot va fe’l turkumidagi so‘zlar bola (umuman inson)lar uchun ehtiyoj sababli tug‘ilgan fikrni uzatish uchun zarur kommunikatsiya asosi bo‘lsa, qolgan turkumdagi (sifat, son, ravish va boshqalar) so‘zlar fikrni to‘liqroq ifodalash, uni “bezash”, o‘zi his qilib turgan modal munosabatlarni bildirish vositasi bo‘ladi.

Ayni paytda o‘zlashtirilgan leksik birliklarning faol yoki nofaol qo‘llanayotganiga ham diqqat qilinadi. So‘zlarga vaqti-vaqti bilan murojaat qilinib faollashtirilib borilmas ekan, bola ularni unutadi yoki ma’nosini chalkashtiradi. Tarbiyachilar mashg‘ulot, o‘yin va sayr davomida bolalar nutqini diqqat bilan tinglab, ular tomonidan o‘zlashtirilgan so‘zlarni faollashishiga erishishi lozim. Ayniqsa, badiiy adabiyot namunalarini o‘qish, yodlatish, qayta so‘zlatish bilan bog‘liq mashg‘ulotlarga tarbiyachi jiddiy yondashishi lozim, negaki ular vositasida bolalarga yangi so‘zlar tanishtiriladi, ma’nosi tushuntiriladi, takrorlatish orqali nutqda faollashtiriladi. Eng asosiysi, bolalar yosh xususiyatini e’tibordan chetda qoldirib, mashg‘ulotlarni jiddiylashtirib yubormaslik va doimo bolalar dunyoqarashi, qiziqishlariga mos didaktik o‘yinlar bilan uyg‘unlashtirib borishni unutmaslik. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida keng foydalaniladigan didaktik o‘yinlar bilish jarayoni bilan bevosita aloqador bo‘lib, ta’lim jarayoni takomiliga turtki beradi. Didaktik o‘yinlar maktabgacha ta’lim tashkiloti yoshidagi bolalarning imkoniyatlariga muvofiq keladigan ta’lim metodlaridan biridir”. Shu tariqa lug‘at hajmi tobora kengayib, belgilangan me’yorlarga yaqinlashtiriladi. Lug‘atni shakllantirishda bolaning hayotiy tajribasidan kelib chiqib, tevarak-atrof muhiti, tabiat va uy-ro‘zgor buyumlarining nomlarini bildiruvchi ismlar, keyin ularning harakat yoki holati, so‘ngra belgi, miqdor, hajm kabi ma’nolarni anglatuvchi so‘zlar qo‘shib boriladi. Albatta, multfilm, kino, televideniya ta’sirida bolalar nutqi va lug‘atga kirib kelayotgan zamonaviy so‘zlarni ham unutmaslik lozim. Lug‘at ustida olib borilayotgan ishlar jarayonida bolalar nutqining sof adabiy til shakliga muvofiqligi, nutqqa begona so‘zlar aralashmaganligi ham nazorat ostida bo‘lishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Карелина И.О. Дошколная педагогика: курс лектсий: учебно-методическое пособие. - Рыбинск: филиал ЯГПУ, 2012.

2. Nabiyeva S., Abdurahmonova M. Bolalarni maktabga tayyorlashning ta’limiy asoslari. Ta’lim samaradorligini oshirishning nazariy-amaliy asoslari. Ilmiy-uslubiy to‘plam. T.: FAN, 2007. 51-b.

3. Abdullayeva S. 6-7 yoshli bolalarning so‘z boyligini aniqlash meyorlari. “Til ta’limi bosqichlarida uzviylikni ta’minlashning ilmiy-amaliy muammolari” mavzusidagi O‘zbek tili doimiy Xalqaro anjumanining materiallari, Andijon, 2009-yil, 16-17-aprel. –T., 2009.

4. Kodirov V. Didaktik o‘yinlarning bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishdagi metodik imkoniyatlari. AnDU Ilmiy xabarnomasi, 2020-yil, 1-son.

Maftuna ABDUKARIMOVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi magistratura talabasi

BOLALARDA MATEMATIK TUSHUNCHALARNI SHAKLLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishga qo‘yiladigan davlat talablari va “Ilk qadam” dasturi asosida dastlabki matematik tasavvur va tushunchalarni boyitish, kichik yosh guruhlarida fazoviy yo‘nalishlarni farq qilishga o‘rgatish borasida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Matematik tasavvur, faoliyat, didaktik tamoyillar, ko‘nikma, shaxsiy xususiyatlar, mexanik xotira, guruhlash konstruktsiyalash, fazoviy tasavvur.

В статье изложены соображения по обогащению начальных математических представлений и понятий, обучению ориентация в пространстве в младших возрастных группах на основе государственных требований к развитию дошкольников и программы “Первый шаг”.

Ключевые слова. Математическое воображение, деятельность, дидактические принципы, умения, особенности личности, механическая память , групповое конструирование, пространственное воображение.

The article presents considerations for enriching the initial mathematical concepts and concepts, teaching orientation in space in younger age groups on the basis of state requirements for the development of preschoolers and the “First Step” program.

Key words. Mathematical imagination, activity, didactic principles, skills, personality traits, mechanical memory, group construction, spatial imagination.

Nutqning eng yuqori madaniyati uslub tuyg‘usiga ega bo‘lishdir. Shuning uchun bo‘lajak tarbiyachilar hech bo‘lmaganda adabiy til uslublari haqida umumiy tasavvurga ega bo‘lishlari kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan ishlashda nutq uslubi tushunchasi, birinchi navbatda, nutq odob-axloqi tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lishi kerak, bu o‘z navbatida, tarbiyachilardan muayyan xatti-harakatlarni talab qiladi (odob-axloq, hurmat, kamtarlik, xushmuomalalik, xayrixohlik, kabi shaxsiy fazilatlar). O‘z navbatida, bolaning uslubiy instinktini takomillashtirish uning estetik tarbiyasining asosiy vositasidir.

Bildirilgan fikrlardan kelib chiqadiki, tarbiyachining pedagogik faoliyatida nutq texnikasini mukammal egallash muhim ahamiyatga ega. Zero, nutq vositasida u bolalar his-tuyg‘ularini tarbiyalaydi, ular bilan ongli muloqotni ta’minlaydi, ta’lim-tarbiyaga oid ma’lumotlarni tahliliy idrok etadi. Shuning uchun bo‘lajak tarbiyachi – talabadan, amaliyotdagi pedagoglardan avvalo, nutq sirlarini, uning tarbiyalanuvchilar bilan bo‘ladigan muloqotdagi ta’sir kuchini puxta bilish talab qilinadi. Bu esa pedagogik kompetentlikning muhim shartlaridan biridir.

“Alhosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot – yo mamot , yo najot – yo falokat, yo saodat – yo razolat masalasidur” deya tarbiyaga berilgan ta’rif asrlar davomida tasdig‘ini

topgan bir haqiqtdir. Darhaqiqat, insonni ma’rifiy yuksaklik va ma’naviy komillikka erishishi uning bolalik chog‘laridan o‘rgangan dastlabki bilim va olgan ta’lim tarbiyasiga bo‘g‘liq. Ajdodlarimiz azal-azaldan bola tarbiyasiga alohida e’tibor qaratganlarki, xalqimizdan Imom Buxoriy, Iso Termiziy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Behbudiy kabi allomalar, ma’rifat darg‘alari bo‘lmish ajdodlarimiz yetishib chiqqan. Ularga munosib avlodlarni tarbiyalashda maktabgacha ta’limda o‘qitiladigan barcha fanlarning, ular sirasida aniq fanlarning ayricha o‘rni bor. Xususan, yosh avlodni intelektual salohiyatga ega, aqlan va ma’nan yetuk komil inson bo‘lib ulg‘ayishida matematik bilimlarni o‘zlashtirishlari, mustaqil va mantiqiy fikrlay olishlari, ijodiy bilim, ko‘nikmalarni egallashlari muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirish muammosi, ilmiy asoslangan metodik tizimga ega. Ularning asosiy elementlari maqsad, mazmun, metodlar, ishni tashkil etish shakl va usullari bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ular orasidagi asosiy maqsad matematik tasavvurni shakllantirishga qaratiladi.

Elementar matematik bilim va ko‘nikmalar rivojlantirish orqali bolada matematik bilimlarni ortirish, mantiqiy fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini, son-sanoq, miqdor, shakl, kattaliklar va o‘lchov birliklaridan foydalanish malakalarini rivojlantirishga erishiladi. Bola son-sanoq hisoblashga oid bilimlarini namoyon qilishi, predmetlarni toifalash, guruhlash va tartib bo‘yicha joylashtirish qobiliyatini namoyon qilishi lozim.

“Ilk qadam” dasturiga binoan, Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining turli yosh guruhlaridagi “qurish – yasash, konstruksiyalash+matematika” faollik markazlari bolalarni jamoa bo‘lib birgalikda hamda mustaqil ishlashga, raqamlar, shakl va vaqtni, elementar matematik hisoblashlarni bilishga qaratilgan.

Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish bir qator shartlarga bog‘liq: birinchidan, bola oldindan maqsadli singdirilgan bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishi muhimdir; ikkinchidan, matematik tushunchalarning mazmuni ketma-ketlikda bo‘lishi shart; uchinchidan, bola matematik tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonini o‘rganib, kelib chiqadigan muayyan xulosalarni bilishi lozim.

Mazkur vazifalarning bajarilishi boladagi bilim hajmi hamda aqlining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Shuning uchun birinchi bosqichda tarbiyachi bolalarga aqliy kuch va tirishqoqlikni ko‘p talab qilmaydigan masalalarni taklif etish kerak. Bunda bola sodda matematik tushunchani o‘zlashtirishi, keyin esa bora-bora u mustaqil ishlash ko‘nikmasini hosil qilgunicha matematik tushunchalarni tadrijiy rivojlantirib, murakkablashtirib borish kerak. Tarbiyalanuvchilarda matematik tushunchalarni shakllantirishda har bolaga alohida individual yondashish muhim ahamiyatga ega.

Tarbiyachi guruh bilan ko‘pincha frontal ish olib boradi. Ushbu faoliyat shaklining bir qator yutuqlar bilan birga bir muncha kamchiliklari ham kuzatiladi. Bolalar faoliyati uchun yaratilgan bir xil muhit va imkoniyat sharoitida berilgan vazifani bajarish imkoniyatlari har xil bo‘lganligi sababli yangi tushunchalarning o‘zlashtirilishi ham turlicha bo‘ladi. Frontal yondashish bolalarning axborot xazinasini boyitib borishni to‘laqonli e’tiborga olishga imkoniyat bermaydi, chunki ular turli bilim qiziqishlariga, qobiliyatlariga va layoqatlariga ega. Shu bois individual yondashuv muhim.

Bolalarda matematik tushunchalarni shakllantirishda ta’limning didaktik tamoyillarini hisobga olish kerak. Masalan, kichik guruh bolalari his-tuyg‘u (emotsiya) orqali idrok etilgan tushunchani ancha yaxshi o‘zlashtiradilar. Ularning xotirasi ataylab eslab qolish xususiyati bilan xarakterlanmaydi, ya’ni bu yoshda xotiraning mexanik turi ustunlik qiladi. Shuning uchun mashg‘ulotlarda o‘yin usullari va didaktik o‘yinlar keng

qo‘llaniladi. O‘yinlarni shunday tashkil etish kerakki, iloji boricha hamma bolalar navbat kutib qolmay o‘yinda bir vaqtda baravar ishtirok etsinlar.

Matematik tushunchalarni puxta o‘zlashtirishga o‘yin jarayonidagi mashqlarning bir necha marta takrorlash orqali erishiladi, so‘ngra ko‘rgazma material almashtirilib, ish usullar o‘zgartirilib turiladi. Bolalar faoliyatining xarakterini o‘zgartirib turish ularning mashg‘ulotda faolliklarini saqlashga va charchab qolishlarini oldini olishga imkon beradi.

Kichik guruhda fazoviy yo‘nalishlarni farqlashga o‘rgatish ham o‘ziga xos yondashuvni talab qiladi. Mazkur guruh dasturining shartlaridan biri bolalarni o‘zidan oldinda (oldinga), orqada (orqaga), chapda (chapga), o‘ngda (o‘ngga) kabi fazoviy yo‘nalishlarini ajrata olishga o‘rgatishdir. Fazoviy yo‘nalishlarni farq qilishda bolalarning o‘z gavda qismlarini aniq farq qilishi va o‘ziga ko‘ra tomonlarning nisbatini bilishi bu borada asos vazifasini o‘taydi. Masalan: “oldinda” deganda bola o‘zining yuzi tomonni, “orqada’’ (orqadan) deganda esa gavdasining orqa tomonini tushunadi.

Bolalarning yuvinishi va kiyinishi vaqtida tarbiyachi ular bilan erkin suhbatlashib, gavda va yuz qismlarini nomini aytadi. “Burningni, qulog‘ingni, yuzingni yuv, peshonangni art, boshingga qalpoq kiy, bo‘yninga sharf bog‘la”. Bolalarga o‘zining yuz va gavda qismlarining nomini aytishga undash muhim ahamiyatga ega. Bolalar yuz va gavda qismlarini qayerdaligini bilib olganlaridan so‘ng ularga o‘zlarining turli tomonlarini aniqlash o‘rgatiladi. Tarbiyachi boladan so‘raydi: “Sening orqangda nima bor?” “Oldingdachi?”, “Shkaf qayerda turibdi?” “Sening o‘rning qayerda ?”, “O‘ng qo‘ling qaysi?”, “Chap qo‘ling qaysi?” “Chap qo‘lingda ushla”... Bundan tashqari, “Koptokni qayerga tashladingiz?”, “Qo‘g‘irchoq Botirni kiyintiramiz”, “Qo‘g‘irchoq Lolani ovqatlantiramiz” kabi ta’limiy o‘yinlardan foydalaniladi. Bunday o‘yin mashqlarini 6-8 marta takrorlash lozim. Ular uchun taxminan 4-5 minut vaqt ajratiladi. Kichik guruhda bolalar qog‘oz betidagi har xil joyni bilish yuzasidan dastlabki ko‘nikmalarni hosil qiladilar. Mashg‘ulot 15 daqiqa davomida olib boriladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, matematik tushuncha va bilimlar hamma vaqt ham tug‘ma bo‘lmaydi, asta-sekin faoliyat jarayonida o‘zlashtirish darajasi va qiziqishlarning to‘g‘ri yo‘nalganligi, tizimlilik va izchillik asosida egallanadi. Matematik tushunchalar bir-biriga uzviy bog‘liqlik asosida hosil qilinadi. Ular orasidagi bog‘liqlikning buzilishi, ya’ni o‘zlashtirmay qolib ketishi yoki o‘zlashtirishga bo‘lgan layoqatning pastligi keyingi tushunchalarni o‘zlashtirishda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlanishda qo‘yiladigan davlat talablari” –T., 2018.

2. “Ilk qadam” davlat dasturi. –T.: TDPU nashriyoti, 2018.

3. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. –T.: O‘qituvchi, 1992.

4. Kodirov V. Didaktik o‘yinlarning bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishdagi metodik imkoniyatlari. //AnDU Xabarnomasi 2020-yil, 1-son. 117-123-betlar.

5. Qodirova F., Toshpo‘latova Sh. “Maktabgacha pedagogika ”. –T.: Tafakkur, 2019.

6. Jumayev M.E. Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. –T.: Ilm ziyo, 2010.

Dildora ABDULLAJONOVA,
Andijon davlat universiteti,
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

MAKTABGACHA TA'LIMDA MILLIY TARBIYANI YO'LGA QO'YISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada yosh avlod tarbiyasida, xususan, maktabgacha ta'lim bosqichida milliy tarbiyani yo'lga qo'yishning diniy, falsafiy hamda badiiy manbalarda aks etgan asoslari bilan bog'liq fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Yosh avlod tarbiyasi, milliy tarbiya, o'zlikni anglash, diniy manbalar, tajalli, komil shaxs.

В статье изложены идеи, связанные с религиозными, философскими и художественными основами становления национального воспитания в воспитании подрастающего поколения, в частности на этапе дошкольного образования.

Ключевые слова. Воспитание подрастающего поколения, национальное воспитание, самосознание, религиозные источники, тажалли, национальная совершенная личность.

The article presents the ideas related to the religious, philosophical and artistic foundations of the formation of national education in the education of the younger generation, in particular at the stage of preschool education.

Key words. Education of the younger generation, national education, self-consciousness, religious sources, tazhalli, perfect personality.

Ma'lumki, bashariyat tarixida turfa shakldagi, mazmun-mohiyati o'zgacha fikrlar, g'oyalar yuzaga kelgan, ko'plab ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'z maqsad, manfaatlarini ifoda etuvchi ta'limotlari bilan jamiyatga, insoniyatga xitob qilganlar. Ular ichida milliy negizga asoslanib, o'zgalar manfaati, qadriyatlarini ham hurmat qilishga da'vat etgan, ma'naviy tozarish, ma'rifiy yuksalishni o'z g'oyalari, mafkuralari markaziga qo'ygan ta'limotlargina asrlar osha nafaqat shu millatning, balki insoniyatning davrlar o'tsa ham kundalik hayotda amal qiladigan etalonga aylanadi. Bu borada o'zbek zaminida asrlar osha shakllanib, taraqqiy etgan, millatimizning tom ma'nodagi mafkurasiga aylangan, iste'foda etish orqali boshqa xalqlarning ham yuksalishiga omil bo'ladigan ta'limotlar borki, ular ta'lim-tarbiyada to'g'ri yo'nalish olish uchun mayoq vazifasini o'taydi.

Biz mazkur mafkurani yosh avlod ongiga singdirish orqali ularni barkamol etib tarbiyalash maqsadini ko'zlar ekanmiz, shuni yodda tutishimiz lozimki, qaysidir bir mafkura mazmunini to'la idrok etish uchun uning tarkibidagi g'oyalarnigina tahlil qilish kifoya qilmaydi. Buning uchun mafkura mohiyatini chuqur o'rganish lozim bo'ladi. Asrlar davomida umume'tirof etgan qonunning hammadan ustuvorligi, siyosiy plyuralizm, millatlararo totuvlik, dinlararo bag'rikenglik kabi tamoyillar dunyoviy jamiyatning asosini tashkil qiladi. Bu kabi tamoyillar yetakchi bo'lgan jamiyatda har bir inson huquqlari,

erkinliklari oliy qadriyat sifatida tan olinadi va bunga rioya qilinadi. Ba'zi mamlakatlarda jamiyatda hech qanday mafkura, yetakchi g'oya bo'lmasligi kerak degan aqidani ilgari surishadi. Holbuki, ular xohlaydimi yoki yo'q, ajdodlaridan o'tib kelgan an'ana, qadriyat, milliy urf-odat, o'zaro munosabat shakllariga rioya qiladilar va ularni keyingi avlod tomonidan o'zlashtirilishiga e'tibor qiladilar. Ajdodlardan o'tib kelayotgan fikrlar, g'oyalar ta'sirida yashaydilar, avlodlarini tarbiyalaydi. Aslida aynan shularning yig'indisi mafkura bo'lib, dunyodagi biror bir xalq mafkurasiz yashay olmasligini ko'rsatadi. Odamlarning bir jamiyat bo'lib shakllanishi, davlatning, xalqning to'laqonli taraqqiy qilishi uchun ham mafkuraga ehtiyoj tug'iladi.

O'zlikni bilish, tanish g'oyasi muqaddas Qur'on oyatlarida bandalar ustidagi muhim vazifa o'laroq vasf qilinadi. Chunonchi, "Haj" surasining 46-oyatida o'qiymiz: "Axir ular yer yuzida sayr qilmaydilarmi? (Ana o'shanda, ya'ni yer yuzini sayr qilganlarida) ular uchun idrokli qalblar, tinglaydigan quloqlar bo'lur edi. Zero, ko'zlar ko'r bo'lmas, balki ko'kraklardagi qalblar ko'r bo'lur". Bu yerdagi "sayr qilish" yer yuzida Alloh yaratiqlarini va ular ichida o'z maqomi, o'rnini idrok qilish, tafakkur bilan mulohaza yuritish, boshqacha qilib aytganda, borliq ichra o'zining kim ekanini, nima uchun yaratilganini bilish ma'nosini anglatadi. Mus'hafning yana bir qancha oyatlarida o'zlikni bilish, yaratilish g'oyasini idrok qilishga da'vat etilgan oyatlar bor. Bu oyatlarda da'vatga ijobat qilgan bandalar "aql egalari" deya vasf qilinib, "Ular turib ham, o'tirib ham, yotib ham zikr etadilar va osmonlaru yerning yaratilishi haqida fikr yuritadilar" deb ta'riflanadilar. Anglashiladiki, aql egalari bo'lgan insonlar har qanday holatda ham tabiat va jamiyatda o'zining kimligi, tutgan o'rni, odamiylik maqomiga ko'ra ish tutadi, chunki ularda eng asosiysi fazilat – kimligini bilish qobiliyati shakllangan bo'ladi.

Dinimizning ikkinchi mo'tabar manbasi hadislarda ham haqiqiy inson maqomiga yetishishda o'zlikni anglash asosiy shartlardan biri sifatida talqin qilinadi. Juda ko'p tasavvuf kitoblarida, axloq, tarbiyaga oid asarlarda o'zlik, ichki "men", "kimlik" tushunchalari "nafs" atamasi bilan berilgan hadislar keltiriladi: "O'z nafsini anglab yetish Yaratganning qudratini anglab yetishdir". Ya'ni o'zining kimligini, o'zligini anglagan odam Parvardigorning qudratini idrok qiladi. Demak, insonda Yaratganning qudratidan uchqunlar jo bo'lgan, maxfiy yashiringan. O'zlikni anglash orqali ana shu buyuk qudratni inson tafakkur qila boshlaydi va o'zining borliqdagi ayricha o'rni, ahamiyati borligini tushunib yetadi. O'zida ayricha ilohiy qiymat borligini anglagan, buning mohiyatini qalbdan his etgan inson bu qiymatga loyiq bo'lish taraddudiga tushadi va eng oliy ma'naviy mezonlar bilan yashash payida bo'ladi.

Buxoriy va Muslim kabi ulug' muhaddislar to'plamlarida keltirilgan hazrati Oysha tomonidan rivoyat qilingan quyidagi hadisda esa Payg'ambarimiz (s.a.v.) har bir xalqning milliy o'ziga xosligi, milliy o'zligi borligiga va unga monelik qilmaslikka dalolat bor: "Bir bayram kuni Alloh Rasuli (s.a.v.) uyga kelganlarida yonimda ikki joriya bor edi. Daf chalib, madinaliklarning Buos urushida qilgan ishlari haqida she'rlar aytishardi. Joriyalarni ko'rgani holda hech narsa demasdan orqasini bizga o'girib, yopinchiqqa o'ranib yotib oldi. Bir oz so'ngra otam hazrati Abu Bakr keldi. "Alloh Rasuli ning yonida shaytonning cholg'usini chalyapsizlarmi?" deya g'azablandi. Rasululloh (s.a.v.) yuzlarini ochib unga o'girildilarda: "Ularni o'z hollariga qo'y, ey Abu Bakr! Har millatning bir bayrami bordir, bu kun ham bizning bayramimiz" dedilar". Demak, dinimizda kishining milliy o'zligini bilish, unga hech qanday vosita bilan to'sqinlik qilmaslik ko'rsatmasi bor ekan.

Yuqorida keltirilgan birinchi hadis ma'no-mohiyatini ayni qasd etgan "O'zini tanigan Robbisini taniydi" hadisi ham juda ko'p adabiyotlarda keltiriladi. O'zini tanishlik,

o‘zni bilishlik Islomda komillik omili sifatida talqin qilinadi, ya’ni bu sifatga yetishgan odam komil inson, ma’rifatli shaxs maqomiga yetishadi. Bu g‘oya esa asr davomida Islom o‘lkalarida tajalli nazariyasi, tasavvuf ta’limotning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Adabiyot o‘qitish metodikasining yirik olimi, professor Qozoqboy Yo‘ldoshev yozadi: Tajalli olam hodisalarini anglatishda tasavvuf ta’limoti namoyondalari asoslanadigan nazariy qarashdir. Bu nazariyaga tayanadigan adabiy ta’lim o‘quvchilarda ma’naviy sifatlarning shakllanishiga, bolalarda Yaratuvchining qudratidan hayratlanish, qahridan qo‘rqish, go‘zalligidan zavqlanish singari xislatlarni barpo etishga ahamiyat beradi. O‘quvchilarning qalbini tarbiyalashga, tuyg‘ularini, hissiyotlarini noziklashtirishga diqqat qiladi. Bunday tamoyillarga tayanib ish ko‘radigan maktab talabalari o‘zgalarning g‘amiga sherik bo‘lishga, adolatsizlikka befarq bo‘lmaslikka, go‘zallikdan lazzatlanishga qodir kishilar bo‘lib tarbiyalanadilar. Tajalli asosida ish ko‘radigan adabiy ta’lim komil shaxs tarbiyalashni (ta’kid bizniki – D.A.) maqsad deb hisoblaydi”.

Ko‘rinadiki, metodist olim tajallini qalb tarbiyasi uchun vosita deb biladi. Mazkur munosabatni tarbiyalanuvchilar yosh xususiyatiga mos yondashuv bilan maktabgacha ta’limga tatbiq etish mumkin. Masalaga ayni shunday munosabat rakursidan qaraydigan olim, pedagogika fanlari doktori Valijon Qodirovning maqolasida o‘qiymiz: “Tajalliga asoslangan tasavvuf ta’limoti yeru osmonda Hazrati Insonning g‘oyat oliy maqomini tayin etadi. U Parvardigorning yerdagi xalifasidir, yuksak sharaf sohibidir. Xoliqi Biru Borning barcha yaratiqlari go‘zal, latif, ajib, lekin ular sirasida Odam zurriyotlarining qadri behad baland”. Bu ikki olim bunday ilmiy to‘xtamga kelishda Sharq mutafakkirlarining qarashlariga tayanganlar. Shu bois biz ham ularning qarashlarini yoqlagan holda buyuk mutafakkirlarimizning bu boradagi ayrim fikrlariga e’tibor qaratamiz.

Sharq mutafakkirlari, jumladan, Movarounnahr allomalari o‘z hayoti hamda faoliyatida tajalli nazariyasiga ayricha e’tibor bilan qaraganlar. Tajalli nazariyasi tasavvuf ta’limotidagi vahdat g‘oyasi bilan chambarchas bog‘liq. Abn Arabiy (1290-yilda vafot etgan) ilk bor vahdat ul-vujud ta’limotini o‘z asarlarida ilmiy asoslab bergan edi. Mazkur ta’limotning mohiyati, unda zot va sifat, Olloh va olam munosabatlari, vahdat ul-vujudning ahamiyati haqida Usmon Turarning “Tasavvuf tarixi” kitobida bayon etilgan. Ta’limotga ko‘ra biz yashab turgan olam, moddiy dunyo yagona biru bor Yaratuvchi zotining tajallisidir. “Undan tashqaridagi borliqlar Uning ismi, fe’l va sifatlarining tajallilaridan iborat bo‘lib, asli qoim borliqlari yo‘q, haqiqiy vujud Allohga oiddir”. Bu ta’rifdan kelib chiqadigan mavzumizga aloqador mohiyat shuki, Yaratganning ism, fe’l va sifatlari insonda ham aks etadi (tajalli qiladi), undagi ilohiy mohiyat o‘zagini tashkil etadi. O‘zida mana shunday bebaho va bemisl gavhar borligini bilgan inson o‘zligini anglash harakatida bo‘lishi, uni kashf etishi, ayni paytda shunday sharafga loyiq darajada yashashi lozim bo‘ladi.

Alisher Navoiy o‘zlikni bilish vositasi deb keng ma’nodagi ishqni biladi. Ulug‘ adibga ko‘ra, ishqning mohiyati “Mahbub ul-qulub”da shunday ta’riflanadi va u nafaqat shoir ijodi uchun, balki, butun Sharq, jumladan, o‘zbek mumtoz adabiyotida o‘zlikni anglash vositasi bo‘lmish ishqning qanday tushunish lozimligini uqtiradi: “Ul pok ko‘zni pok nazar bila pok yuzga solmoq va pok ko‘ngul ul pok yuz oshubidin qo‘zg‘almoq va bu pok mazhar vositasi bila oshiqi pokboz mahbubi haqiqiy jamolidin bahra olmoq”.

Bu ta’rif insoniylik mohiyati tabiatan pok ekanligi, har bir xatti-harakat, holatda, nigoh, eshitish va so‘zlashda faqat va faqat poklikka intilish, poklikka yetishish lozimligini, eng muhimi, o‘zlikni topish poklikka yetishishdan iboratligini tushuntiradi.

“Hayrat ul-abror”dagi quyidagi misralar alohida e’tiborga molik:

Gar falakiyotu anosirdurur,
Barcha saminqadr javohirdurur.
Koniyu hayvoniy, agar xud nabot,
Har biri bir gavhari oliysifot.
Barchasini garchi latif aylading,
Barchadin insonni sharif aylading.

Shu uch bayt orqali Navoiy insonning butun mavjudotlar ichida qanday maqomda turishini, uning qay darajada yuksak o‘zligi borligini bani basharga uqtiradi. O‘zining “sharif”ligini bilmagan kimsa, tuban, poklikdan (ma’naviyatdan) yiroq turmush tarziga o‘ralashib qoladi.

XIX asrda yashab ijod qilgan Ogahiy ham tajalli g‘oyasini g‘oyat ixcham ifodalardagi hamd g‘azallarida quyidagicha ifodalagan edi:

Chu mazhar aylading olamni husni bemisolingga,
Bu ko‘zgu ichra bo‘ldi necha naqshi bula’jab paydo.

Paydo bo‘lgan “necha naqshi bul a’jab” ichida albatta Yaratgan tomonidan sharif etib saylangan inson borliqqa alohida mazmun bag‘ishlaydi, aslida Parvardigorning murodi ham shu.

Ahmad Yassaviyning “Devoni hikmat”, Rabg‘uziyning “Qissai Rabg‘uziy”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibat ul-haqoyiq”, Navoiyning “Hayrat ul-abror”, Boburning “Mubayyin” va boshqa mumtoz adiblar asarlarida tajalliy nazariyasiga murojaatni kuzatamiz.

Yuqorida keltirilgan misollarda o‘zlikni anglash, milliy tarbiyaning bir nechta qirralari bor. Ulardan biri milliy o‘zlikni bilishdir. Millatga xos bo‘lgan eng yuksak qadriyat, an’analar, urf-odatlar milliy o‘zlikni idrok qilish, milliy tarbiyani yo‘lga qo‘yish vositasidir. Ular ichida eng nufuzli o‘rin tutuvchi qadriyat – bu ona tili.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur’oni Karim. Ma’nolarining tarjima va tafsiri. –T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2004.

2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun munosabati bilan O‘zbekiston xalqiga tabrik.

3. Navoiy Alisher. MAT. XV j. Mahbub ul-qulub. –T.: Fan, 1990.

4. Yo‘ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: O‘qituvchi, 1996.

5. Abdullah Kara, Hilal Kara. Aile reisi olarak Peygamber efendimiz. Istanbul, “Semerkand”, 2013.

6. Kadirov V.A. Mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishda metodologik asosning ahamiyati. Til, ta’lim, tarjima jurnali 2020, 2-son, 1-jild.

7. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. –T.: Istiqlol, 1999.

8. Nasafiy, Aziziddin. Zubdat ul-haqoyiq. –T.: Kamalak, 1995.

9. Xofiz Xorazmiy. Devon. 1-jild, –T.: O‘zbekiston, 1981.

10. Ogahiy. Ta’viz ul-oshiqin. –T.: FAN, 1960.

Umidjon AXUNOV,
Andijon davlat universiteti,
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

JISMONIY MADANIYATNING MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK TIZIMIDAGI O'RNI

Annotatsiya

Maqolada jismoniy madaniyatni maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash tizimidagi pedagogik mexanizm mohiyati haqida so'z yuritilgan va bu mexanizmni rivojlantirish masalalari yuzasidan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Jismoniy madaniyat, maktabgacha yosh davri, jismoniy faollik, sog'lomlashtirish, umumiy rivojlanish, mashqlar.

В статье говорится о сущности педагогического механизма в системе воспитания дошкольников физической культурой и излагаются мнения по вопросам развития этого механизма.

Ключевые слова. Физическая культура, период дошкольного возраста, физическая активность, оздоровление, общее развитие, упражнения.

The article deals with the essence of the pedagogical mechanism in the system of education of preschool children by physical culture and presents opinions on the development of this mechanism.

Key words. Physical education, preschool age, physical activity, health improvement, general development, exercise.

Jismoniy madaniyat jamiyatning, umuman, insoniyat rivojlanishining barcha bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Zamonaviy jamiyatda ham uning roli sezilarli darajada oshganligi haqiqat. Buning sababi shundaki, bugungi kunda og'ir jismoniy mehnatning ulushi sezilarli darajada kamaydi. Agar yuz yil oldin moddiy ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan energiyaning to'qson sakkiz foizi odamlar va uy hayvonlarining mushak harakatlari tufayli yaratilgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich ikki-uch foizni tashkil qiladi. Jismoniy faollikning yetishmasligi (gipokinesiya va jismoniy harakatsizlik) yangi, ilgari noma'lum bo'lgan kasalliklarning paydo bo'lishiga olib keldi (endokrin va onkologik) va yurak-qon tomir, nafas olish, tayanch-harakat va ovqat hazm qilish tizimlari kasalliklari kabi yanada keskin namoyon bo'lishi kuzatilmoqda. Mutaxassislar buni, avvalambor, motor faolligining sezilarli pasayishi bilan, hayotning neyro-emotsional tarkibiy qismi sezilarli darajada oshganligi bilan izohlanadi. Yuqoridagilar zamonaviy sivilizatsiyaning salbiy hodisalari o'rnini bosuvchi kompensator sifatida zamonaviy jamiyatda tizimli jismoniy mashqlarning o'rni tobora ortib borayotganidan dalolat beradi. Jismoniy tarbiya maktabgacha ta'lim muassasalarining yetakchi vazifalaridan biridir. Maktabgacha yoshdagi bolalar sog'lig'i insonning umumiy rivojlanishining asosidir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti butun insoniyat tarixidagi

eng insonparvar shiorni e'lon qildi: "2000-yilga kelib – sayyoramizdagi har bir insonga sog'liq!" Shu bilan birga "SALOMATLIK" tushunchasi jismoniy madaniyatning rolini butunlay yangi darajaga ko'taradi, u insonning sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Hayotning boshqa biron bir davrida jismoniy tarbiya dastlabki olti yildagidek umumiy ta'lim bilan chambarchas bog'liq emas. Maktabgacha davri bolada salomatlik, uzoq umr ko'rish, har tomonlama vosita tayyorligi va uyg'un jismoniy rivojlanish asoslarini yaratadi. V.A. Suxomlinskiy ularning ma'naviy hayoti, dunyoqarashi, aqliy rivojlanishi, bilimga bo'lgan kuchi, o'z kuchiga bo'lgan ishonchi bolalarning sog'lig'iga, xushchaqchaqligiga bog'liqligini ta'kidlagan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi jismoniy tarbiya tizimining butun tizimi, avvalambor, organizmning yurak-qon tomir, nafas olish va immun tizimini rivojlantirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Ushbu rivojlanishning asosiy vositasi harakatlardir. Shuning uchun bolalik davrida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etish o'ta muhimdir, bu tanaga kuch to'plash va kelajakda shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Ammo aksariyat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari hali ham bu borada nomutaxassis bo'lgan tarbiyachilar tomonidan olib boriladi. Bu esa bu mashg'ulotlarning sifat va samarasiga ta'sir etmay qolishi mumkin emasligi barchaga ma'lum. Shu bois mashg'ulotlarni jismoniy tarbiya yo'riqchisi tomonidan tashkil etishi o'ta muhim. Davomli tarzda sifatli, samarali olib borilgan mashg'ulotlar bola uchun tanaga kuch to'plash va kelajakda shaxsning har tomonlama barkamol rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. Jismoniy madaniyatni shakllantirish jarayoni katta maktabgacha yoshdagi bolalar uchun nafaqat jismoniy barkamollik, ayni paytda faol bilim olish faoliyati, intellektual, hissiy sohani jadal rivojlantirish, o'z-o'zini anglashni shakllantirish, umuminsoniy qadriyatlarni rivojlantirish imkoniyati bilan ayricha ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari paytida ularning harakatga bo'lgan tabiiy ehtiyojini qondirish diqqat markazida bo'lmog'i lozim. Bunda "mushak quvonchi hissi" kabi metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga bolalarning sport faoliyatiga qiziqishini, ularda qatnashish istagini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bolalarni an'anaviy mashg'ulotlar doim ham qiziqtiravermaydi, bu holda ular tezda zerikishashadi va chalg'iy boshlaydilar.

Har bir yoshdagi bolaning potensial qobiliyatlari qonuniyatlarini anglash va hisobga olish jismoniy tarbiya nazariyasi, jismoniy tarbiya amaliyoti butun o'quv-tarbiyaviy kompleksining ilmiy asoslangan dasturining talablarini (vosita mahorati va ko'nikmalari, jismoniy fazilatlar, ba'zi bir boshlang'ich bilimlar) ta'minlaydi, ularning o'zlashtirilishi bolalarga zarur jismoniy darajani beradi, maktabga kirish uchun qanot bo'ladi. Shu bilan birga hayotining har bir davrida bolaning yosh xususiyatlari va imkoniyatlarini, asab tizimining holatini va umuman hisobga olgan holda bolalar tomonidan dasturni assimilyatsiya qilishda qat'iy ketma-ketlikni kuzatish ko'zda tutilgan. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini rejalashtirishda biz quyidagi omillarni hisobga olamiz:

– mashqlar bolaning yoshi va funksional imkoniyatlariga mos kelishi kerak;

– yelkama-kamar, orqa, qorin, oyoq mushaklariga ta'sir o'tkazish;

– dars oxirida tanaga doimiy ravishda ortib boradigan yukni va uning kamayishini ishlatish;

– bolalarni yosh imkoniyatlari bilan tashkil etish usullarini bilish va ularni muvo-

fiqlashtirish;

– mashqdan so‘ng ochiq o‘yinlar tinch yurish bilan yakunlanishi kerak;

– motorli faoliyatni tashkil qilish bolada ijobiy his-tuyg‘ularni uyg‘otishi lozim.

Jismoniy tarbiya bir vaqtning o‘zida aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi muammolarini har tomonlama hal qiladi. Bolalarning jismoniy tarbiyasini tashkil etishning barcha shakllarida (mashg‘ulotlar, ochiq o‘yinlar, mustaqil jismoniy faollik va boshqalar) tarbiyachining e’tiborini ongli ravishda o‘z yosh qobiliyatlariga qarab harakat qiladigan, fikrlaydigan bolani tarbiyalashga qaratiladi. Ana shu jihatlarning diqqat markazida bo‘lishi pedagog kompetentligining ko‘rsatkichlaridan biridir. Bunda dvigatellik qobiliyatini muvaffaqiyatli egallash, atrofdagi dunyoda qanday harakatlanishni bilish, yuzaga kelgan qiyinchiliklarni faol ravishda yengib, ijodiy izlanishlarga intilish ko‘zlanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya nazariyasi doimiy ravishda rivojlanib, bolalar ta’limining turli qirralarini qamrab olgan izlanishlar natijasida olingan yangi bilimlar bilan boyib boradi. Bolalar muassasalarining ommaviy amaliyotida tasdiqlangan tadqiqot ma’lumotlari dasturlar, o‘quv-qo‘llanmalari, darsliklar va bolalar bilan amaliy ishlarga kiritilib, butun o‘quv jarayonining rivojlanishiga xizmat qiladi. Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy tarbiya nazariyasi jismoniy tarbiyaning butun tizimini takomillashtirishga yordam beradi.

Bolalarning jismoniy tarbiyasini amalga oshirish uchun bu quyidagilarni anglatadi:

1. Bolalarning jismoniy salomatligi va motor rivojlanish darajasini tahlil qilish va baholay olish.

2. Jismoniy tarbiya vazifalarini ma’lum bir davr uchun (masalan, o‘quv yili uchun) shakllantirish va bolalarni har birining xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning eng muhimlarini aniqlash.

3. Ta’lim jarayonini muayyan sharoitlarda eng maqbul vosita, shakl va usullarini tanlab, ma’lum bir tizimda tashkil etish.

4. Maqsadlarga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni oldindan bilib, yakuniy natijaning kerakli darajasini loyihalash.

5. Erishilgan natijalarni dastlabki ma’lumotlar va qo‘yilgan vazifalar bilan taqqoslash.

6. O‘ziga tegishli kasbiy mahoratni o‘z-o‘zini baholash, uni doimiy ravishda takomillashtirish.

Bolalarning motor faolligi darajasi va ularning so‘z boyligi, nutqni rivojlantirish, fikrlash o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri munosabatlar o‘rnatiladi. Jismoniy mashqlar ta’siri ostida tanadagi jismoniy faollik uyquni yaxshilaydigan, bolalarning kayfiyatiga foydali ta’sir ko‘rsatadigan va ularning aqliy va jismoniy ish faoliyatini oshiradigan biologik faol birikmalar sintezini kuchaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tadjiyeva M., Xusanhodjayeva S. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – T., 2017.

2. Sodiqova Sh. Maktabgacha pedagogika (darslik). –T.: Fan va texnologiya, 2012.

3. Haydarov F., Muslimov N. Pedagog kadrlar tayyorlash istiqboli. Pedagogik ta’lim jurnali. 2009, 6-son. 8-9-betlar.

4. Kodirov V. Didaktik o‘yinlarning bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishdagi metodik imkoniyatlari. AnDU Ilmiy xabarnomasi, 2020-yil, 1-son.

Jumagul MAMAXONOVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

YEVROPA VA OSIYO MAMLAKAT XALQLARI VA O‘ZBEK MILLATIGA XOS TANA HARAKATLARINING QIYOSIY TAHLILI

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek ilm-fanida yangi yo‘nalish bo‘lgan kenisika haqida tushuncha, uning obyekt, predmeti haqida qisqacha ma’lumot beriladi. Yevropa va Osiyo mamlakatlari xalqlari hamda o‘zbek millatiga xos tana harakatlari orqali milliy urf-odatlari qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Kenisika, tarbiya, muloqot, tana harakatlari, yuz mimikasi, ko‘z ifodasi, qo‘l harakatlari, psixologik baho.

В статье дается краткий обзор концепции кенисики, нового направления в узбекской науке, ее объекта, предмета, проводится сравнительный анализ национальных традиций через физические движения народов Европы и Азии, а также узбекской нации.

Ключевые слова. Кенисика, дисциплина, общение, движения тела, мимика, выражение глаз, движения рук, психологическая оценка.

The article gives a brief overview of the concept of kenisika, a new direction in Uzbek science, its object and subject. It provides a comparative analysis of national traditions through the physical movements of the peoples of Europe and Asia, as well as the Uzbek nation.

Key words. Kenisika, discipline, communication, body movements, facial expressions, eye expression, hand movements, psychological assessment.

Respublikamiz mustaqil bo‘lgandan keyin ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida buyuk o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Islohotlar ijtimoiy hayotni hamma sohalarida o‘z natijasini bermoqda. Ayniqsa, xalq ta’limi va fan sohasida ‘‘Ta’lim to‘g‘risida’’gi Qonuni va Davlat ta’lim standartlarini joriy qilinishi, dunyo mamlakatlari bilan iqtisodiy, siyosiy aloqalarni kengayishi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish inson omilini yanada chuqurroq o‘rganishni taqozo qiladi. Insonga ta’sir qilish, tarbiyalash va boshqarish turli madaniyat vakillari bilan suhbatlashish, muzokaralar olib borishga mutasaddi shaxslar avvalo, insonni har tomonlama bilishi lozim, aks holda ularning barcha xatti-harakatlari yaxshi samara bermasligi mumkin. Bu muammoni hal qilishda kenisika (qad. yunon. – harakat) muhim rol o‘ynaydi.

Bu soha bo‘yicha to‘plangan ilmiy ma’lumotlar odamlar bilan bevosita ishlaydigan kasb egalariga muloqot jarayonini to‘g‘ri tashkil qilish va boshqarishda amaliy naf keltirishi muqarrar. Kinesika fan sifatida XX asrning 2-yarmida paydo bo‘ldi. Lekin odamlarni ushbu xususiyatini o‘rganish va anglashga bo‘lgan qiziqish bir necha ming yillar avval paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Bunga sabab, insoniyatni o‘zligini anglashga va o‘zaro muloqot jarayonida suhbatdoshning

ruhiy holatini (kayfiyati, ichki kechinmalarini) bilishga bo‘lgan qiziqishidir. Tana harakatlari tili – unikal noverbal axborot kanali bo‘lib, u orqali biz atrofga (suhbatdoshga) o‘zimiz haqidagi axborotlarni ongli va ongsiz ravishda imo-ishoralar, tana harakatlari va yuz mimikasi orqali yetkazib turamiz. Bunday aloqa muloqot vositasi beixtiyor nutqni o‘rnini bosish, aytilgan so‘zni kuchaytirish, shuning bilan birga odamni haqiqiy kayfiyatini yashirish yoki namoyon qilishi mumkin. Tana harakatlari noverbal signallardan tashkil topadi. Ko‘pchilik signallar tug‘ma yoki orttirilgan bo‘ladi.

Eng muhim tana harakatlaridan biri yuz ifodasidir. Yuz va ko‘z tananing shunday bir qismiki, biz bunga eng ko‘p e’tibor beramiz. Odamlardagi yuz muskullari soni har qanday hayvonlarnikiga nisbatan ko‘proq. Unda juda nozik, ilg‘ab olish oson bo‘lmaydigan harakatlar borki, ular muloqot jarayonida odam uchun muhim ma’nolarni anglatadi. Bunday yuz haraktlari juda tez o‘zgaradi, ba’zi birlari 0,2 sekund davomida namoyon bo‘ladi, shunday bo‘lsa-da, uning ma’nosi shu vaqtning o‘zida suhbatdoshga yetib ulguradi. Olimlar uzoq yillardan beri yuz mimikalarini o‘rganishga qaramay, odamning yuzi shunchalik ko‘p axborotlarni beradiki, hozirga qadar biz faqat umumiy tendensiyalarnigina gapira olishimiz mumkin xolos. Masalan, qoshning sakkiz xil holati, ko‘zimiz, yuzimiz pastki qismining esa o‘ndan ortiq holati mavjud ekanligini hammamiz ham bilmaymiz. Ularning har biri ma’lum ma’noni anglatadi. Bunday holatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi va qo‘shilishi juda ko‘p yuz ifodasini keltirib chiqaradi. Odamning yuz ifodasi aytilgan so‘ziga nisbatan ham ko‘proq ma’no beradi. Ya’ni tana harakatlari insonni doimo ‘‘sotib’’ turadi. U o‘zining ‘‘rostgo‘y’’ tiliga ega bo‘lib, o‘tirish, imo-ishoralar, gavdani turish holati doim nimalarnidir anglatadi.

Shuningdek, imo-ishoralar milliy xarakterga ega bo‘ladi. Lekin muloqotda foydalanadigan asosiy imo-ishoralar tana harakatlari barcha xalqlarda deyarli bir xil bo‘ladi yoki bir-biriga yaqin bo‘ladi. Odam xursandchilikda kuladi, g‘am tashvishda xafa bo‘ladi. Jahli chiqqanda ko‘zidan chaqmoq chaqnaydi. Boshini oldiga qimirlatishi tasdiq, yoki ‘‘ha’’ degan tushunchani ifodalasa, boshini ikki tomonga navbatma-navbat harakati ‘‘yo‘q’’ degan ma’noni anglatadi. Ba’zan ma’lum xalq uchun xos bo‘lgan ishoralar boshqa millat uchun tushunarli bo‘lmasligi yoki boshqacha idrok qilinishi ham mumkin. Masalan, bolgar xalqining ‘‘yo‘q’’ degan ma’nodagi bosh qimirlatishi, o‘zbeklarda ‘‘ha’’ degan ma’noni anglatadi, yoki otasi o‘lgan yapon ta’ziyaga kelganlarga tabassum qilib turadi. Buning boisi, o‘z g‘am-tashvishlarini o‘zgalarga o‘tmasligini xohlaydi. Tasavvur qiling, otasi vafot etgan o‘zbek yigiti motamga kelganlarga kulib tursa, odamlar qanday xulosa chiqarishi aniq. Bizning jamiyatimizda birovga tupirish unga nisbatan nafrat belgisi bo‘lsa, Masai qabilasida ushbu ishora muhabbat va sharaflashni anglatadi. Amerika hindulariga esa doktorni kasalga nisbatan shifo tilash ishorasi hisoblanadi. Bizning millatga xos bo‘lgan ‘‘ketaver’’ degan qo‘l ishorasi Buenos-Ayres restoranlarida ofitsantni chaqirish, buyoqqa kel ma’nosini anglatadi. O‘zbeklarda jag‘ini barmoqlari bilan silash ‘‘sen hali shoshmay tur’’ yoki o‘ch olish ma’nosini ifodalasa, Italyada bu ishora suhbatdosh gapni cho‘zib yuborganligini yoki soqoli o‘sib ketganligini anglatadi, yoki barmoqlar bilan V shaklidagi belgi ko‘pchilik Yevropa va Osiyo mamlakatlarda ikki ma’nosini anglatadi. Angliya va Avstraliyada esa, kaftini ichki yoki tashqi tomonga qaratishga qarab turli xil belgilar ifodalanadi. Agar kaftni ichkariga, yani o‘ziga qaratilsa, ‘‘g‘alaba’’ ma’nosini anglatadi. Kaftni gapirayotgan odamga qaratish ‘‘jim bo‘l’’ ma’nosini ifodalaydi.

Lekin bu muammoni o‘rganish va tadqiq qilishga mamlakatimiz psixolog olimlari nimagadir qiziqishmayapti. Ma’lumki, psixologiya bo‘yicha darsliklarda va qo‘llanmalarda

odatda, nutq mavzusida muloqot vositalarini verbal (og‘zaki va yozma nutq) hamda noverbal, ya’ni nutqsiz muloqot vositalariga bo‘lib o‘rganish odat tusiga kirgan bo‘lsada, ko‘proq e’tibori verbal muloqot vositasiga qaratilgan. Noverbal muloqot vositalarini o‘rganishda imo-ishoralar mimika va pantamimikalarni e’tirof etish bilangina chegaralanib qolingan. Biz tadqiqot jarayonida boshqa madaniyat vakillari bilan bevosita muloqotda ishtirok etib, ularni o‘rganish imkoniyati ega bo‘lmaganligimiz sababli asosan ilmiy adabiyotlar, televideniya, video va internet ma’lumotlaridan foydalandik. Lekin kelib chiqishi Rossiya, Tatariston, Koreya mamlakatlarida bo‘lib, O‘zbekistonda yashayotgan rus, tatar, koreys millat vakili bilan tadqiqot olib bordik. Ularni o‘zbek kishilari bilan muloqot jarayonida tana harakatlarini namoyon bo‘lishini kuzatdik.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, shunday yuz ifodalari borki, ularning ma’nosi yer sharining har qanday nuqtasida ham bir xil ma’noni anglatadi. Masalan, birorta odam bilan birinchi marta salomlashganimizda, qoshimizni tezlik bilan yuqoriga ko‘tarib, yana shunday tezlikda tushuramiz. Bunday harakat nafaqat turli madaniyat vakillarida, balki odamsimon maymunlarga ham xos ekan. Ko‘pchilik asosiy yuz ifodalari ko‘rinishi irsiy xarakterga ega bo‘lib, turli madaniyat vakillarida tarbiya tufayli turli darajada namoyon bo‘lar ekan. Ba’zilari bizning millatga xos bo‘lgan tana harakati boshqa millatlarda umuman namoyon bo‘lmaydi. Masalan, o‘zbeklarda ‘‘maxfiy, sir’’ yoki ‘‘hazil’’ tushunchasini ifodalovchi bir ko‘zini tez qisib qo‘yish Yevropa mamlakatlari xalqlarida deyarli uchramaydi. Agar ular ushbu ko‘z, qovoq harakatini idrok qilishsa, suhbatdoshni ko‘ziga bir nima kirib ketibdi, deb tushunadi.

Har bir millatda odat tusiga aylangan salomlashishni turli millatlarda namoyon bo‘lishini kuzatsak, o‘zbeklarni qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib so‘rashishi yevropaliklar uchun g‘alati tuyulishi mumkin. Yaponlarning o‘zbeklarning ‘‘kelin salom’’ini eslatadigan ta’zimidan ularni xayratlanishi ehtimoldan holi emas. Yevropalik lotin amerikalik bilan qo‘l cho‘zib ko‘rishmoqchi bo‘lganda, lotin amerikalik uni bag‘riga bosib quchoqlab olganda, yevropalik o‘zini yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Milliy mentalitetdan kelib chiqib boshqa millat vakillari bilan uchrashganda yoki xayrlashganda turli imo-ishoralar orqali do‘stona munosabatlarimizni namoyon qilamiz.

Xulosa qilib aytganda, instinktiv kelib chiqishiga xos bo‘lgan emotsiyani ifodalovchi tana harakatlari barcha madaniyat vakillarida bir xil namoyon bo‘ladi. Boshqa barcha tana harakatlar bir biridan millatning madaniyati, qadriyatlari, urf-odatlari ta’sirida bir-biridan farq qiladi. Bir-biriga yaqin madaniyat vakillarida bunday tana harakatlar deyarli o‘xshash bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anekeyeva N.P. Jamoadagi ruhiy muhit. –T.: O‘qituvchi, 1992. – 256-b.

2. Axloq-odobga oid hadis namunalari. –T.: Fan, 1990. –172-b.

3. Ахунджанова С.А. Влияние ролевой позиции ребенка в родной семье на формирование его характера (O‘zbek oilasining etnopsixologik muammolari. – Respublika ilmiy-amaliy anjuman ma’ruzalarining qisqa bayoni. –T.: 1993. –70-72-betlar.

4. G‘oziyev E. Psixologiya. –T., 1994.

5. Vohidov M. Psixologiya. –T., 1984.

Abdurahim ISROILOV,
Andijon davlat universiteti,
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi katta o'qituvchisi

BAXSHICHILIK SAN'ATI: MUSHTARAK ILDIZLAR ("YOZI BILAN ZEBO" DOSTONI MISOLIDA)

Annotatsiya

Maqolada baxshilar ijodining o'ziga xosligi, o'zbek dostonchilik san'atining qadimiy an'analari, qardosh xalqlar eposlari bilan, xususan, tojik xalq dostonlari bilan mushtarak jihatlari borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Baxshichilik san'ati, doston, an'analar, xalq eposi, voha dostonchiligi, ijro, ko'p variantlilik.

В статье речь пойдет об особенностях творчества Бахши, древних традициях узбекского эпического искусства, об общих чертах с эпосами братских народов, в частности, с таджикскими народными эпосами.

Ключевые слова. Искусство Бахши, эпос, предания, народный эпос, оазисный эпос, исполнение, многовариантность.

The article talks about the originality of Bakhshis ' creativity, ancient traditions of the Uzbek art of friendship, common aspects with EPOS of fraternal peoples, in particular with the Tajik people's epic.

Key words. The art of giving, epic, traditions, folk epic, oasis friendship, execution, multilingualism.

Prezidentimizning 2019-yil 14-may sanasidagi "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4320-qarorida xalqimiz madaniyatining hayotbaxsh sarchashmasi bo'lgan baxshichilik san'atining yanada rivojlanishi, uning milliy madaniyat va san'atimizdagi ulkan o'rni va ahamiyatini yuksaltirish, bu orqali yosh avlodni milliy an'analarga sadoqat ruhida tarbiyalash ona-Vatan, tarixiy merosga hurmat tuyg'ularini shakllantirish vazifasi aniq tamoyillar asosida belgilab berilgan.

Baxshichilik Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston bilan chegaradosh qardosh xalqlarning mushtarak noyob ma'naviy qadriyatlaridandir. Mamlakatimizda yashayotgan ko'plab millat va elatlarning ijtimoiy hamjihatlik rishtalari bevosita mana shu qadriyatdan quvvat oladi. Baxshichilikning qadimiy tarixga egaligi ulug' muarrix, "Zafarnoma" dostoni muallifi Sharafiddin Ali Yazdiyning ma'lumotlaridan ayon. Uning yozishicha, Sohibqiron bobomiz Amir Temur hukmronligi davrida Davlatshoh baxshi, boshqa kitobda esa Mirbaxshi ismli baxshilar yashab ijod etganlar. Ahmad Yugnakiyning "Hibat ul haqoyiq" asarida:

Qani amri ma'ruf, qani yaxshilar,
Qani haqni aytgan haqgo'y baxshilar

satrlarini uchratamizki, bu hol baxshilarning haqqo‘yligi, el dardini kuylarida, o‘lanlarida izhor etganini ko‘rsatuvchi faktdir. Tarixiy taraqqiyot jarayonida bir-biriga tutashib ketgan o‘zbek-tojik xalqlari orasidagi o‘zaro do‘stlik va qo‘shnichilik aloqalari bugun ham mustahkamlanib bormoqdaki, bu ushbu xalqlar og‘zaki ijodining qadimdan payvast bo‘lib kelgani sababidandir. O‘z navbatida, yozma adabiyot ham mushtarak rivojlangan bu xalqlarda – uzoqqa bormay, Alisher Navoiy bobomiz bilan Abdurahmon Jomiy do‘stligini misol keltirish kifoya.

Baxshichilik haqida gapirganda esa, masalan, So‘g‘d viloyatida azaldan yonmayon yashagan o‘zbek va tojiklar orasida ijodiy an’analar o‘zaro qorishib, ikki qardosh xalq ijodida mehnat, maishiy va marosim qo‘shiqlarining mushtarak rivojlanishiga olib kelgan. Bugina emas, qozoq, qoraqalpoq, turkman, tatar, ozarbayjon, gruzin, turk xalqlari orasida keng tarqalgan baxshichilik an’analari qalblarni qalblarga bog‘lab kelayotgani bilan ahamiyatlidir.

Shuningdek, bir qator Sharq xalqlari adabiy merosida baxshi Chig‘atoy ulusining Oltin O‘rda, Qozon va Qrim xonliklarida kotiblar, boburiylar saltanatida hisob-kitob ishlarini olib boruvchilar, va ularga maosh to‘lovchi amaldorlarni, Buxoro amirligida me’moriy ishlarga mablag‘ sarfi hisobini yurituvchi kishilar sifatida ko‘rsatilgan. Albatta, xonlik mansabdori bo‘lgach, haqiqatni aytishi turgan gap, mansabdagi shaxs past-balandni ko‘rgan, issiq-sovuqdan xabardor shaxs bo‘lishi tayin.

Bizning davrga kelib esa baxshi deganda, soz chalib, o‘lanlar kuylovchi san’at ahli baxshi deb nomlanadi. Ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Po‘lkan shoir, Yodgor baxshi Is’hoqovlarning nomlarini xalqimiz qadrlaydi va hurmat bilan tilga oladi. Ular ijrosidagi ko‘plab xalq dostonlari xalq boyligi, milliy folklorimizning tengsiz durdonalaridir. Ustoz-shogird an’nalari avloddan-avlodga o‘tib kelayotganligi bu qadriyatlarning o‘lmasligidan nishonadir. Yuqorida biz tilga olgan qaror esa ushbu an’anaga yanada teran umrboqiylik ato etadi.

Xalq og‘zaki ijodining saromadi bo‘lgan dostonchilik tarixini o‘rganish 1929-yildan boshlangan bo‘lib, ikki voha dostonchiligini ilk bor tadqiq qilgan Hodi Zarif kabi bilgich olimlarning maydonga chiqishlariga oltin pillapoya bo‘ldi. Chiroqchilik Boysari, Rajab baxshi, kitoblik Abdulla shoir Nurali o‘g‘li, boysunlik Xoliyor yuzboshi Abdukarim o‘g‘li kabi mahoratli baxshilar aynan Hodi Zarif tomonidan aniqlanib, ular repertuaridan boy ma’noli asarlar yozib olingan.

Ijodiy shakllanish jarayonida baxshilarning ayrimlari o‘zlari ham she’rlar mashq qilganlar. Masalan, Yodgor baxshi tomonidan yozilgan va hozirgacha ko‘plab xonandalarimiz kuylab kelayotgan qo‘shiqlar o‘zining dostonlardagi kabi insoniy g‘oyalarni o‘zida mujassamlashtirgani, chuqur hayotiy falsafa bilan yo‘g‘rilgani bilan e’tiborga molik. Jumladan, baxshi o‘zining bir she’rida yozadi:

Qo‘zi-qo‘chqor peshonasi do‘ng bo‘lur,
Mard odamning doim ishi o‘ng bo‘lur,
Ishing tushib borsang, nomard gung bo‘lur,
Nomardlarga aslo ishing tushmasin.

Bu satrlar yuqorida aytilganidek, teran ma’noga ega, aniq xulosalar bayon etilgani bilan ahamiyatli, ravon, sodda, ichki musiqiyligi bilan xuddi xalq dostonlari kabi qalbga yaqin.

Biz yuqorida o‘zbek-tojik xalqlarining xalq og‘zaki ijodi mushtarakligini ta’kidladik. Tojiklarda ham bizdagi “Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” dostonlarining ayrim shakllari uchrashi fikrimiz dalili. I. S. Braginskiy (1905-1989) “Go‘ro‘g‘li” dostonini Qurbon Safar o‘g‘li nomli

tojik baxshisidan 1933-1935-yillarda yozib olgan. Yana bir “Yozi bilan Zebo” dostoni nafaqat yurtimiz, balki qo‘shni Qirg‘iziston va Qozog‘istonning ham ayrim hududlari xalqlari orasida ommalashgani, ushbu xalqlar madaniy hayoti mushtarakligini isbotlaydigan dalildir.

Ushbu doston o‘zbek xalq og‘zaki ijodining nodir namunasi sanaladi. U ko‘pvariantlilik va keng tarqalganligi bilan ham qardosh millatlar orasida birdamlik, yakdillik, muhabbat va vafoning go‘zal fazilatligi ulug‘langani bilan xarakterli. Yangiqo‘rg‘on tumanida ushbu doston 14 kishilik jamoa bo‘lib ijro qilingani e’tiborga molik. Ayniqsa, mazkur tumandagi Ko‘lbuqon dostonchilik maktabi vakillari Haydar Boycha o‘g‘li, Razzoq Qozoq o‘g‘li, Usmon Mamatqul o‘g‘li, Bo‘ri baxshi, Mallaboy Hoshimovlar ijodida Bulung‘ur dostonchilik maktabi ta’siri seziladi. Mana shu jihat bilan ham qadimdan shakllangan xalq ijodiyotining aynan ko‘plab millat va elatga birday mansubligi umumbashariy qadriyatlarni o‘zida mujassamlashtirgani bilan e’tiborga molikdir.

Doston ko‘pgina xalq termalari tarkibiga kirib ham ketgan:

Daradan kelgan shamolning gardi bor,
Soyada yotgan yigitning dardi bor,
Qorayib kelgan bulut qor keltirar,
Kelmayin ketgan yigit or keltirar.

Voqealarning hayotiyligi, dialoglarining ohangdoshligi, ma’no teranligi, qofiyaviy originallik, ifoda, sheva bezaklarining tovlanishi bilan qahramon kayfiyati, uning ichki dunyosini ta’sirchan bayon etilishi Markaziy Osiyo xaqlari baxshilarining iste’dodini uyg‘unlashtiradi.

Dostondagi ko‘pgina bandlar qayta-qayta kuylanganidan quyma holga kelib, sayqal topgan. Shuning uchun 1922-1925-yillarda jurnalist Rafiq Mo‘min tomonidan to‘plangan variantlar parchalari yarim asrdan so‘ng yozib olingan variantlarga solishtirilganida juda ko‘p bandlar o‘zgarmay kuylab kelinganiga guvoh bo‘lganlar. Bu esa asarning xalqchil va hayotiyligidan nishonadir.

Doston yuksak insoniy fazilatlar, sevgi va vafo, or-nomus, samimiyat, fidoyilik kabi xislatlarni ulug‘lagani bilan ahamiyatga loyiq.

Xulosa qilib aytish mumkinki, tarixan mushtarak xalqlar hayotiga uyg‘unlashib ketgan qadriyatlarimizni asrab-avaylash, kelajak vorislarga yetkazish, dostonchilik, baxshichilik maktabini taraqqiy toptirishda yurtimizdagi qardosh millat vakillari bilan yakdillik zamon taqozosidir. Mustaqil diyorimizning tarixiy an’analari ham ko‘z-ko‘z qilishga arzigulikdir. Bu an’analar Yurtboshimiz ta’kidlagan buyuk kelajakni, uchinchi renessansni qurishimizda bizlarga juda asqotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sharafiddin Ali Yazdiy. “Zafarnoma”, –T.: Sharq NMAK, 1997, 40-bet.

2. Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. –T., 2012-yil, 20-bet.

3. Жирмунский В.М, Зарифов Ҳ.Т. – Узбекский народний героический эпос.– Москва: Наука, 1947.

4. Razzoqov H, Mirzayev T, Sobirov O, Imomov K. O‘zbek xalq poetik ijodi. –T.: O‘qituvchi, 1980.

5. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 1-jild –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi nashriyoti, 2005.

6. Yozi bilan Zebo (doston). –T.: Yangi asr avlodi, 2010. 6-10-betlar.

Ziyodaxon AZIMOVA,
Andijon davlat universiteti, pedagogika fanlari doktori,
"Maktabgacha ta'lim" fakulteti dekani

MONTESSORI TAMOYILLARIGA AMALIY TAVSIYALAR

Annotatsiya

Maqolada italyan olimasi Mariya Montessori pedagogik tizimi tamoyillari yoritilgan bo'lib, ushbu tamoyillarning mazmun-mohiyati hayotiy misollar va amaliy tavsiyalar yordamida ochib berilgan

Kalit so'zlar. Xalqaro Montessori-assotsiatsiyasi, senzitiv davr, ichki motivatsiya, multisensor yondashuv, sensor materiallar, faol harakatlanish, konsentratsiya qobiliyati.

В статье описаны принципы педагогической системы итальянской ученой Марии Монтессори, суть которой раскрывается с помощью реальных примеров и практических рекомендаций.

Ключевые слова. Международная Монтессори-ассоциация, сензитивный период, внутренняя мотивация, мультисенсорный подход, сенсорный материал, активное действие, способность концентрации

The article describes the principles of the pedagogical system of the Italian scientist Maria Montessori, the essence of which is revealed with the help of real-life examples and practical recommendations.

Key words. International Montessori Association, sensitive period, internal motivation, multisensory approach, sensory materials, active movement, ability to concentrate.

Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash, maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, turli shakldagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarini barpo etish, ularni yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan pedagoglar bilan ta'minlash, tizimning metodik ta'minotini takomillashtirish, ta'lim va tarbiya jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da[1] "...hayot uchun zarur ijtimoiy ko'nikma va fazilatlarni yoshiga mos bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli barkamol avlodni voyaga yetkazish" asosiy maqsad etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablarida belgilangan vazifalar bo'yicha sifatli ta'lim berish kelajakda katta imkoniyatlarni yaratadi va mamlakatning ijtimoiy hamda iqtisodiy farovonligiga muhim hissa qo'shadi. Dunyo miqyosida maktabgacha ta'lim va tarbiya berish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha chuqur ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda.

Shu kunga qadar o'zining samaradorligi bilan nom qozongan Mariya Montessorining pedagogik tizimi bo'yicha ish olib borayotgan bog'chalarni dunyoda rivojlangan

[1] O'zbekiston Renspublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1053-sonli qarori // Xalq so'zi 2020 yil 4-yanvar.

mamlakatlarning barchasidan topish mumkin. Montessori o‘yinchoqlari, Montessori bog‘chasi, Montessori pedagogikasi, Montessori metodikasi, Montessori o‘yini, Montessori tamoyili, Montessori bolasi kabi atamalar allaqachon maktabgacha soha vakillarining kundalik iste’moldagi so‘zlariga aylangan. Yuz yildan ko‘proq vaqt davomida Mariya Montessorining falsafasi o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi va uning pedagogik tizimi samaradorligi ilmiy izlanishlar natijalari bilan tasdiqlandi. Butun dunyo bo‘ylab xalqaro Montessori-assotsiatsiyasi faoliyat ko‘rsatmoqda. “Mening metodim”, “Menga buni o‘zim bajarishimga yordam bering”, “Bolalar boshqacha”, “Chaqaloqlar uyi”, “Bolalar tarbiyasining to‘la kursi”[2] kabi o‘nlab asarlar muallifi, italiyalik shifokor va pedagogning bolalar psixologiyasiga oid murakkab mavzulardagi yo‘l-yo‘riqlari va maslahatlarini ota-onalar, bo‘lajak tarbiyachilar, pedagog-xodimlar uchun hayotiy misollar va amaliy tavsiyalar yordamida mazmun-mohiyatini ochib berganmiz. Muallifning so‘zlari ota-onalarni bolalarni barkamol qilib tarbiyalashda hammasi o‘z-o‘zidan iziga tushib ketishini kutmasdan, bolalar bilan o‘zaro munosabatlar ustida ishlashga undaydi. Quyida Montessori ilgari surgan tamoyillarga asoslanib tavsiya va yo‘l-yo‘riqlar berishga harakat qilamiz.

1. Bolangizga rivojlanishning sezgir davrlarida hamroh bo‘ling:

Rivojlanishning sezgir(nozik) davri – bu inson hayotidagi muayyan psixologik xususiyatlar va xulq-atvor turlarini shakllantirish uchun eng qulay sharoitlarni yaratadigan davr. Psixikaning har qanday tomonini samarali rivojlantirish uchun eng yuqori imkoniyatlarning nozik davri. Biz bolaga yurishni, gapirishni, yozishni, o‘qishni, odob-axloqni o‘rgatar ekanmiz, bu jarayonlar bizga juda oson bo‘ladi va muvaffaqiyatli natija olamiz, agar biz tabiat tomonidan berilgan o‘lchov va sur’at bilan bir vaqtda harakat qilsak. Qulay fursatlarda o‘qitish eng ko‘p foyda keltiradi va ajoyib natija beradi. Tabiat tomonidan belgilangan davrda o‘rgatilgan xuddi shu yoshdagi bir bola bilim va ko‘nikmalarni shimgich kabi o‘ziga singdirib oladi, ikkinchisi esa o‘zidan itaradi. Mana nima uchun biz rivojlanishning sezgir davrlarini bilishimiz darkor. Senzitiv nozik (yoki sezgir), sezgir degan ma’noni anglatadi. Bola rivojlanishining senzitiv davrlari nima degani? Bu davrlar atrof-muhit omillarining ta’siri uchun eng qulay davrlar hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, sezuvchanlik kuchayishining bir pog‘onasi. Aytaylik tomorqamizda bodringdan ko‘proq hosil olish uchun, biz ekish vaqtini, unga qachon ozuqa berishni, qachon chopishni hisobga olamiz. Xuddi shunday, bolani tarbiyalashda ham rivojlanishning sezgir davrlari chegaralari va xususiyatlarini hisobga olish zarur.[3] Tabiat qonuniyatlari oqimiga qarshi emas, balki shu oqim bilan suzgan yaxshiroq. U bilan bir vaqtning o‘zida harakat qilish kerak. Shundagina biz bolajonlarimizning eng samarali rivojlanish imkoniyatlarini oshiramiz. “Bola hech qachon rivojlanishning sezgir davriday tez, to‘liq va quvonchli muvaffaqiyat qozonmaydi”, – deydi Mariya Montessori. Bunday har bir davrlarda bola turli ko‘nikmalarni osonlikcha egallaydi va ko‘p harakat qilmasdan o‘rganadi. Barcha bolalar o‘zlarining rivojlanishlarida atrof-muhitning ayrim jihatlariga o‘z-o‘zidan qiziqishni namoyon qiladilar va qiziqishning bir necha bosqichlaridan o‘tadilar. Rivojlanishning sezgir davrlari:

→ Tug‘ilgandan 6 yoshgacha – nutqni rivojlantirishning sezgir davri.
→ Tug‘ilgandan 5 yoshgacha – hissiy rivojlanishning senzitiv davri.
→ 1 yoshdan 2 yoshgacha – kichik narsalarni idrok etishning sezgir davri.
→ 1 yoshdan 3 yoshgacha – tartibni idrok etishning sezgir davri.

[2] Мария Монтессори. Школа Монтессори.. Москва,АСТ, 2007. –С. 53
[3] O. Sodiqovava b.,Bolalar psixologiyasi. T:Noshir -2013, –103-b.

→ 1 yoshdan 4 yoshgacha – harakatlanishning sezgir davri.

→ 2,5 yoshdan 5 yoshgacha – ijtimoiy rivojlanishning senzitiv davri.

Neyrobiologiya sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 0 dan 6 yoshgacha bo‘lgan bolalarda miyaning maksimal plastikligi turli vaqtlarda pishib yetiladi, bu esa oson o‘rganish davrlariga to‘g‘ri keladi.

2. Farzandingizda ichki motivatsiyani hosil qilish uchun qayg‘uring:

Mariya Montessori amalda bolaning manfaat va ehtiyojlariga javob beradigan o‘rganish oson, tez, quvnoq bo‘lishiga amin bo‘ldi. Shuning uchun Montessori muhitida bolalar o‘z qiziqishlariga ergashadilar va hamma narsa ular xohlagan paytda va kerak bo‘lganda sodir bo‘ladi. Agar topshiriq qiziq bo‘lsa, qiziqishni uyg‘otsa, bola kashfiyotlardan zavqlanadi. Bu, o‘z navbatida, ichki motivatsiya va ko‘proq o‘qish va o‘rganish xohishini keltirib chiqaradi. Vaqt o‘tishi bilan, agar bola muntazam ravishda o‘quv jarayonining o‘zi tomonidan rag‘batlantirilmasa, aksincha, bola kattalarni rozi qilish, roziligini olish, sovg‘a yoki yaxshi belgini olish uchun topshiriqni bajarganda, u o‘z manfaatlariga amal qilmaydi, balki o‘zi uchun yot bo‘lgan sabablarga ko‘ra harakat qiladi.

3. Farzandingizni dunyoni his qilish orqali kashf etishga ruxsat bering:

Mariya Montessori o‘qitish amaliyotida yosh bolalarni maktabda o‘qitishni boshlashdan oldin multisensorli yondashuv asosida ularning har bir hissiyotini mashq qilishga va chiniqtirishga undagan. Darhaqiqat, bola hayotining birinchi yillari hissiyotlarni tarbiyalash uchun juda muhimdir. Bu miyaning sensor ta’sirlarga qo‘zg‘aluvchan, ayniqsa, sezgir bo‘lgan va uning yetilishi atrof-muhit bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan davrdir. Farzandingiz qanchalik sifatli hissiy tajribaga ega bo‘lsa, u shunchalik ko‘p hislarni birlashtira oladi va o‘rganishda undan foyda ko‘radi. Bolalar g‘irchillagan, sharaqlagan, tiqirlagan ovozlarni yaxshi ko‘radi. Ularga ushlab ko‘rishga, paypaslab ko‘rishga, hidlab ko‘rishga, totib ko‘rishga ruxsat bering. Ko‘rish, eshitish, hidlash, ta’m bilish, teginish bilan bog‘liq mashqlarni bajarishga o‘rgating. Undan ko‘zlarini yumib nimaning hidi kelayotganini, nimaning ovozi kelayotganini so‘rang. Har xil jismlarni peshonasiga, qorniga, qo‘liga qo‘yib nima ekanligini aniqlashga o‘rgating. Unga fonar, durbin sovg‘a qiling. Bular yordamida bitta narsaga diqqatini jalb qilish bolajonlarga juda yoqadi.

4. Farzandingizning o‘rganishdagi faolligini rag‘batlantiring:

Mariya Montessori yosh bolalar biror nima qilishga qiziqqanlarida uzoq vaqt davomida shu narsalarga diqqatini jamlashi va o‘rganishi osonligini alohida ta’kidlaydi. Xususan, o‘rganishlarning ko‘pi qo‘llar va hissiy organlarni ishlatishga qanchalik bog‘liqligini isbotlab beradi.Montessori maktablarining asosida turli xil sensor materiallar bilan ishlash yotadi. Bu bolalarni passiv emas, aksincha, mavzu haqida faol ma’lumot olish imkoniyatini beradi; bolaning qilayotgan ishiga ishtiyoqmandligini rivojlantiradi. Biror narsaga ishtiyoqmand bo‘lsak, barcha sezgilarimiz o‘tkirlashadi va nima qilayotganimizni yaxshiroq eslab qolamiz. Hissiy bilish va harakatni uyg‘unlashtirish, ayniqsa, yosh bolalarga bu yoqimli. 6 yoshdan boshlab atrof-muhitni bilishda tana harakatlarining faol roli susayadi, bola bilish jarayonlarini osonroq boshdan kechira boshlaydi, chunki u bu haqda o‘ylaydi. Biror narsa bilan faol shug‘ullanganimizda, miyamiz turli xil sensor va uch o‘lchovli ma’lumotlarni to‘liq o‘zlashtiradi va olingan bilim samaraliroq bo‘ladi.“Nima uchun?” savollar berish yoshi boshlanadi. Agar bola tugmachalarga qiziqsa, bir qutiga

kalkulyator, buzilgan televizorning masofadan boshqaruv pulti, singan telefon to‘plab bering. Ular bilan kichik-kichik tadqiqotlar o‘tkazing. Muz bo‘lakchalariga tuz seping; drojjaga shakar sepib ozgina suv qo‘shing va uning ko‘tarilishini bola bilan kuzating. Ovqat tayyorlash, uy tozalash, tomorqada ishlash kabi ishlarga jalb qiling. Chunki bu narsalar bilan shug‘ullanish bolaga nafaqat qiziqarli, balki ta’limiy xarakterga ega.

5. Bolangizning faol harakatlanishiga ruxsat bering:

Mariya Montessori harakat bolalar uchun hayotiy ahamiyatga ega ekanligini alohida e’tirof etadi. Shuning uchun Montessori guruhlarida bolalar erkin harakat qilishadi, ammo barcha harakatlar maqsadga erishishga qaratilgan va ta’lim bilan integratsiyalashgan bo‘lishi ayni muddao: narsa va buyumlarni olib kelish va javonga olib borib joylash; tana ko‘nikmalarini egallash uchun harakatlar qilish: bolaning qo‘li xarflarni yozadi, har xil kattalikdagi kubiklar yoki o‘yinchoqlarni ko‘taradi va u narsalarning vazn farqini tushunadi va hokazo. Darhaqiqat, harakatlanish erkinligi va o‘rganish bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va shu o‘rinda harakat juda foydali: neyronlar orasidagi bog‘lanishning o‘sishi uchun tanani va miyani yaxshi kislorod bilan ta’minlaydi; vestibulyar apparat va miyani faollashtirish orqali e’tiborni qayta ishga tushiradi.

6. Bolangizga tanasini yaxshi egallashiga yordam bering:

Mariya Montessori asta-sekin bolalarni tanasini boshqarishga o‘rgatadigan mashqlar tizimini ishlab chiqdi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqning miyasi tezroq yoki sekinroq shakllanishi va asta-sekin kamol topishi – bola tug‘ilgan muhitga bog‘liq ravishda sodir bo‘ladi. Tanamizni boshqarishga imkon beradigan miyaning sohalari juda sekin shakllanadi. Kattalar ish-harakatlarni avtomatik tarzda bajarishadi. Chunki bu ish-haraktlar allaqachon malakaga aylangan. Bolalar esa buni qanday bajarishni bilishmaydi. Shuning uchun bolajonlarga u yoki bu harakatlarni qanday bajarishni sekin bajarib ko‘rsatib bering. Zinadan sekin tepaga ko‘tarilishni va pastga tushishni, qoshiq va sanchqilarni qanday ushlashni, kichik jismlarni olishni, paltoning tugmasini yoki kurtkangiz yolqinini qanday qadalishini o‘zingiz ko‘rsatib tushuntiring. So‘ng bu harakatlarni takrorlashini so‘rang. Zarur holatlarda o‘zingiz yana ko‘rsatib bering. Bola mashq qilishi kerak. U qancha ko‘p murakkab ish-harakatlarni bajarsa, shuncha tez o‘z tanasini o‘zi egallaydi va nazorat qiladi.

7. Bolangizga tanaffus qilishga ruxsat bering:

Montessori uslubiga ko‘ra, bola o‘z ritmiga amal qilishi lozim. Ya’ni, agar kerak bo‘lsa, tanaffus qilishi, biroz to‘xtashi, u yoki bu narsalarni aniqlashi va keyin ishiga qaytishi mumkin. Miya hech qachon dam olmaydi. Hatto uxlash paytida yoki bizga hech narsa qilmayotgandek kabi tuyulganda ham, miya juda ko‘p zarur va muhim ishlarni bajaradi. Dam olish paytida u butun hayoti davomida olingan ma’lumotlarni qayta ishlaydi, umumlashtiradi, qarorlar qabul qiladi, tahlil qiladi. Tabiiy, ba’zida shunday holatlar ro‘y beradi, fikrlarimiz qayerdadir uzoq-uzoqlarda, o‘zimiz “osmonlardamiz” va shunday bo‘lgani ham yaxshi! Chunki bu bizga samaraliroq ishlashimizga imkon beradi. Aynan shunday damlarda to‘plangan bilimlarni o‘zlashtirish amalga oshiriladi.

8. Farzandingizga diqqatini jamlashni o‘rgating:

Montessori tizimi bolada chuqur konsentratsiya qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Diqqatni jamlay olish har qanday ishda muhim ahamiyatga ega, ammo o‘quv

jarayonida bu mutlaq birinchi o‘rinda turadi.Hozirgi paytda juda ko‘p chalg‘itadigan narsalar mavjudligini inobatga olsak, ushbu ko‘nikmalarni rivojlantirishni ilk bolalik davridan boshlash dolzarb masala ekanligiga shubha qolmaydi. Diqqatni bir narsaga jamlash qobiliyati miyaning rivojlanishi bilan bog‘liq. Chalg‘imaslik va muammoni hal qilishda qat’iyatli bo‘lish uchun (nima uchun qilayotganimizni esda saqlash va harakatlar ketma-ketligini bilish) ba’zi ma’lumotlarga e’tibor bermaslik (cheklash) kerak. Bolangiz yakuniy maqsadni xotirada saqlab qolishi va doimiy ravishda to‘g‘ri harakatlarni bajarish uchun maxsus mashqlar talab qilinadi. Diqqat konsentratsiyasi miyaning prefrontal qobig‘i bilan bog‘liq bo‘lib, bu bosh miyaning eng so‘nggida yetiladigan sohalaridan biridir. Demak:

→ Har bir bola o‘zini qiziqtirgan vazifani bajaradi.

→ Bolalarning sukut saqlaydigan vaqtlari bor.

→ Ular hech qanday ovoz chiqarmasdan bir chiziq ustida yura olishadi.

→ Ular uzoq vaqt davomida uzilishlarsiz mashq qilishlari mumkin.

→ Ular o‘zlarining hissiyotlarini rivojlanishiga hissa qo‘shadigan materiallardan foydalanadilar.

9. Bolangizga tanlov qilishga o‘rgating:

Ba’zilar bolani to‘ldirish kerak bo‘lgan oq qog‘oz sifatida ko‘rgan bir paytda, Mariya Montessori bolaga katta imkoniyatlar berilganligi va uning to‘laqonli shaxs sifatida shakllanishi kamolot jarayonida sodir bo‘lishini ta’kidlaydi. Bolaning o‘z faoliyatini erkin tanlashi Montessori pedagogik tizimining asosidir. Tanlash erkinligi bilan ushbu tanlov uchun javobgarlik paydo bo‘ladi – bola shu tarzda ongli harakat qilishni o‘rganadi. Biz miyaning qaror qabul qilish tizimi tufayli doimo ataylab yoki avtomatik ravishda nimanidir tanlaymiz. Tanlash va unga javobgar bo‘lish hayotimizning, erkinligimizning muhim jihati. Buni o‘rganish mumkin, ammo bu ko‘p vaqt talab etadi.Tanlash qobiliyati balog‘at yoshiga yetganda yetilishdan to‘htaydigan miya sohasiga bog‘liq.

10. Bolangizda takrorlashlarni rag‘batlantiring:

Mariya Montessori bolalarda takrorlanishning tug‘ma zavqini kuzatdi. Uning metodikasi bo‘yicha bolalar o‘z templarida erkin o‘rganishlari mumkin, ya’ni ba’zi bir harakatlarni o‘zlari xohlamaguncha ularni o‘zlashtirmaguncha takrorlashlari mumkin deb taxmin qilinadi. Farzandingizga bir xil kitoblar yoqadi. Biron bir hazilni u bir necha marotaba takrorlashingizni iltimos qiladi va har safar kuladi. U doimo bir xil o‘yinchoqlarni o‘ynaydi yoki bitta o‘yinni o‘ynashni yoqtiradi. O‘rganish davomida bir nechta neyronlar o‘rtasida aloqalar o‘rnatiladi. Ushbu aloqalar tezda paydo bo‘lishi mumkin, ammo ularni faqat shu faoliyatni takrorlash orqali mustahkamlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1053-sonli qarori // Xalq so‘zi 2020-yil, 4-yanvar.

2. Sodiqova O. va b., Bolalar psixologiyasi. –T.: Noshir -2013, – 103-b.

3. Axunov U. Maktabgacha yoshdagi bolalar jismoniy tarbiyasi. –T.: Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi, 2021.–48-b.

4. Мария Монтессори.Школа Монтессори. – Москва,АСТ, 2007. –С. 53

Muhayyo ARTIKOVA,
Andijon davlat universiteti, pedagogika fanlari doktori,
“Maktabgacha pedagogika” kafedrasi dotsenti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MEHNATGA ONGLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishning ustuvor jihatlari, bu borada tarbiyachilarga qo‘yiladigan talablar, mavjud tajribalar, jamoaviy mehnat va u orqali tarbiyalanuvchilarda shakllanadigan axloqiy sifatlar xususida fikr yuritiladi.
Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, maktabgacha yosh davri, tarbiyachi, mehnat, mashg‘ulot, sayr, ekskursiya, ajdodlar tajribasi, jamoaviy mehnat.

В статье рассматриваются приоритеты формирования осознанного отношения к труду у дошкольников, требования к воспитателям имеющийся опыт в этой области, работа в коллективе и нравственные качества, которые формируются у учащихся.
Ключевые слова. Дошкольное образование, дошкольный возраст, воспитатель, труд, занятие, прогулка, экскурсия, опыт предков, работа в коллективе.

The article discusses priorities of the formation of preschool children’s conscious attitude to work, the requirements for educators in this regard, existing experience, teamwork and the moral qualities that can be formed in students by the help of teamwork.
Key words. Preschool education, preschool age, educator, labor, training, travel, excursion, ancestral experience, teamwork.

Har bir mamlakatning iqtisodiy qudrati, ijtimoiy-ma’naviy hayot darajasining yuksalishi ta’lim tizimining raqobatbardoshligi, ilm-fan taraqqiyoti bilan belgilanadi. Hozirgi globallashuv sharoitida yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga oid muammolar va ularning yechimi masalasi davlat siyosatining asosiy masalasi sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Ma’lumki, inson hayotining eng beg‘ubor damlari, albatta, bolalik yillariga to‘g‘ri keladi. Dunyo, turmush tashvishlaridan holi kechadigan ushbu davr maktabgacha yosh davrini o‘z ichiga oladi. Bola rivojlanish jarayonida kishilik jamiyati tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan munosabatga kirishadi. U insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli, 2017-yil 9-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3261-sonli Qarori, shuningdek, Maktabgacha ta’lim vazirligining 2018-yil 18-iyundagi 1-mh sonli “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” hamda “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturini amalda joriy etish, shu asosda, maktabgacha ta’lim tashkilotlari o‘quv-tarbiya jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini muntazam

oshirib borishni nazarda tutadi.

Ana shunday mas'uliyatli vazifalarni amalga oshirish maqsadida O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standartini tasdiqlash to'g'risida" Qarori ishlab chiqildi. Davlat standartini amalga oshirishda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturini, maktabgacha yoshdagi bolalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya berish sohasidagi o'quv-metodik qo'llanmalarni, metodik tavsiyalarni ishlab chiqish, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini loyihalashtirish, qurish, jihozlash va ularning faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi.

Respublikamizdagi barcha sohalarda kechayotgan islohotlar ta'lim tizimida yangicha yondashuvlarni taqozo qilgan holda o'ziga xos ravishda imkoniyat ufqlarini ochmoqda. Barcha fan va predmetlar bo'yicha ta'lim-tarbiya berishda yosh avlodni hayotga tayyorlash, amaliy faoliyatga yo'naltirish, jumladan, mehnat ta'limiga bo'lgan ongli munosabatni shakllantirish zamonaviy ta'lim oldida turgan ustuvor vazifalardan biridir. Bu esa ta'limning birlamchi poydevori bo'lmish maktabgacha ta'lim davridan bolalarni mehnatsevarlikka o'rgatishda tarbiyachilar zimmasiga ma'suliyatli vazifalar yuklaydi. Me'yoriy hujjatlarda bu vazifani amalga oshirishning mexanizmlari, vositalari hamda mazmuni belgilab berilgan. Bolalarni individual ehtiyojlarni hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga oid Davlat talablari hamda Davlat o'quv dasturiga muvofiq:

– bolalarni har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

– maktabgacha yoshdagi bolalarning o'quv-tarbiyaviy faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish;

– bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida ota-onalar va jamiyatga tegishli bilimlar berishni tashkil etish va amalga oshirish;

– bolalarning ilk rivojlanishi masalalarida oila va jamiyat bilan o'zaro hamkorlikni tashkil qilish va amalga oshirish masalalari ochiqlab berilganiga guvoh bo'lamiz.

Maktabgacha ta'limning bosh maqsadi – bolaning individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama va barkamol rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, faoliyat markazlarida maqsadli o'quv-tarbiyaviy ishlarini tashkil etishdan iboratdir.

Nima uchun dunyo tajribasida ham bolalarni maktabgacha yosh davridan har tomonlama rivojlanishiga e'tibor qaratiladi? Tadqiqotchilar bu borada bolalarni erta yoshdan rivojlantirish, ularning ta'limiga sarmoya sarflashning 4 ta foydasini keltirib o'tadilar,

– birinchidan**,** turli ijtimoiy toifaga mansub bolalarning erta yoshda rivojlanishida paydo bo'lgan farq ular kelajakda erishadigan muvaffaqiyat va yutuqlar orasidagi tafovut ortishiga sabab bo'ladi. Ammo maktabgacha yosh davridagi ta'lim orqali buning oldini olish mumkin. Bolalarni erta yoshdan rivojlantirishga mablag' sarflash keyinchalik ular orasidagi rivojlanish farqi darajasini "yopish"dan ko'ra ancha samaralidir.

– ikkinchidan**,** bu bolalarning sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Kam daromadli oilalarda tug'ilgan bolalar uchun erta yoshdan boshlab ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, ularning sog'lom va to'laqonli ovqatlanishiga ko'maklashish sog'lig'iga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

– uchinchidan, bu kelajakda fuqarolarning daromadi oshishiga olib keladi.

– to'rtinchidan, Hyekmanning aytishicha, bu − "mantiqiy chora". Maktabgacha

yoshdagi bolalar dasturlariga mablag‘ ajratish ahamiyatli ekani dunyoning ko‘plab mamlakatlarida e’tirof etilmoqda.

Ma’lumki, tarbiyalanuvchilarni puxta bilim asosida ijodiy faoliyatga pedagogik va psixologik jihatdan tayyorlash – Davlat talablari va uning ijrosini ta’minlashga qaratilgan “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida belgilangan 5 ta rivojlanish sohasidagi vazifalar tarkibida zamon talabi darajasida dastlabki mehnat ko‘nikmalarining shakllanishiga zamin hozirlangan. Bejiz “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”da “bilish jarayonining rivojlanishi”, “ijodiy rivojlanish” alohida rivojlanish sohalari sifatida belgilab o‘tilmagan. Darhaqiqat, maktabgacha yosh davridan bolada mehnatga munosabat tarkib topa boshlaydi, mehnat qilishga qiziqish uyg‘onib, ijtimoiy foydali ishlarda ishtirok etish hissi shakllanadi. Zero, mehnatsevarlik bilan bog‘liq axloqiy sifatlar ilk bor bolalikda bajargan mehnat jarayonida namoyon bo‘ladi. Ongli ravishda bajarilgan mehnat esa shaxs kamolotiga ijobiy ta’sir etadi. Mazkur jarayonda shaxsning barcha sifatlari, psixologik xususiyatlari va fiziologik rivojlanishi ko‘zga tashlana boshlaydi.

Yosh avlodni ongli va yuksak bilimga tayangan mehnatga ruhiy tayyorlash esa avvalo, uning o‘zi, pirovardida jamiyat rivoji uchun astoydil mehnat qilishiga bo‘lgan ichki tayyorgarligini yuzaga keltiradi. Buning uchun mehnatga har tomonlama ijodiy yondashuvni shakllantirish lozim. Chunki shu ijodiy yondashuv orqali bolada mustaqillik va tashabbuskorlik kabi xislatlar tarkib topadi.

Bolalarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishda tarbiyachilardan quyidagilar talab etiladi:

– mehnat orqali faqat ijobiy sifatlarni o‘stirishni ko‘zlash;

– bolaning mehnat faoliyatini ijodkorlik jarayoni deb bilish va shu asosda ish tutish;

– mehnat qurollari bilan ishlashda dastlab bu borada ilk bilim va tushunchalarni hosil qilish va mustahkamlash;

– mehnat mavzulari, uning tarbiyaviy ahamiyati haqida suhbatlar uyushtirish, har bir bolaning dunyoqarashini rivojlantirish;

– mehnatga ongli munosabatni shakllantirish orqali har bir bolada ijtimoiy javobgarlik hissini singdirib borish.

Bola mehnatga o‘z-o‘zidan moyil bo‘lib qolmaydi. Unda qiziqish, har bir ishning mazmun-mohiyatini anglab yetish shakllanmas ekan, mehnatga muhabbat ham bo‘lmaydi. Mehr bilan bajarilmagan ishning samaradorligi ko‘rinmaydi. Shuningdek, bolalar mehnati kattalar tomonidan noto‘g‘ri uyushtirilsa, vazifalar taqsimoti har tomondan hisobga olinib shakllantirilmasa, mehnatdan bezib qolish holatlari ham uchraydi. Bola mehnatni o‘ziga yuklatilgan majburiyatgina emas, balki bu vazifani ugina qoyillatib bajarishiga ishonch sifatida qaralishiga erishish lozim.

Bolalarni ijodiy mehnatga tayyorlash asosan quyidagi ikki yo‘nalishda olib boriladi:

1) mehnat mashg‘ulotlari orqali shakllangan ko‘nikmalar mazmunan bola ruhiyatiga, qobiliyatiga va kasb tanlashiga mos kelishi, shuningdek, ularda ijodkorlikni shakllantirishga asos qilib olinishi lozim. Masalan, o‘zlari uchun bayram o‘yinchoqlari yasash, rasm chizish mashg‘ulotlari bolalarning ijodiy qobiliyatlarini, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bola o‘ziga va o‘zgalarga yoqqan mehnat mahsulidan mamnun bo‘lib, ayni vaqtda boshqalar mehnatini ham qadrlashga, e’zozlashga odatlana boradi. Bu esa ularda foydali, manfaatli ish qilganliklarini his etib, ijtimoiy motivlarning shakllanishi uchun dastlabki zamin hozirlaydi;

2) mehnatning ahamiyati tushunib yetish uchun kattalarning mehnati, bolalarning

o‘zlari bajargan mehnat turlarini kuzatish yuzasidan ekskursiyalar uyushtirish. Bolaning turli mehnat jarayonida ishtirok etishi, kattalar mehnati bilan tanishishi – tevarak-atrof, ijtimoiy hayot, narsalar va ularning xususiyatlari, asbob-uskunalar to‘g‘risida muayyan taassurotlarga ega bo‘lishlariga yordam beradi.

Bolalarda jamoa mehnati haqida tushunchalarni shakllantirib borish orqali fidoyilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, daxldorlik kabi fazilatlari shakllantirilib boriladi. Jamoaviy mehnat bolalarga o‘z oldiga vazifalar qo‘yish va ularni hal etish imkonini beribgina qolmay, hamjihatlik hissi, o‘zaro yordam, o‘z-o‘zini nazorat qilishga yo‘naltiradi. Ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etishdan o‘zini chetga oladigan ayrim bolalarga jamoa yaxshigina tarbiyaviy ta’sir o‘tkaza oladi. Shu boisdan, individual va jamoadagi mehnatning bola shaxsini rivojlantirishga bo‘lgan ta’siri katta.

Har bir bola yoshligidanoq mehnatni sidqidildan bajarishga odatlanish, o‘zining ijtimoiy ma’suliyatini to‘g‘ri idora qilishga o‘rganish lozim. Aks holda uning mehnati faqat o‘zi yoki o‘z oilasi uchungina foydali bo‘lishi mumkin xolos. Bu esa bolada salbiy illatlarni tarkib topishiga zamin hozirlaydi. Shuning uchun ham tarbiyachi har bir bolaga alohida e’tibor berib, ular bilan individual tarbiyaviy ishlar olib borishi maqsadga muvofiq.

Ajdodlar tajribalaridan ma’lumki, “mehnatga o‘rgatish uchun bolaga halol kasb bilan kun ko‘rish haqida nasihatlar qilinadi, mehnatga muhabbat uyg‘otish uchun bolaligidan unga turli mayda yumushlar buyurib turiladi. Turli kasb-hunarlar o‘rgatiladi, agar bunga o‘zi qodir bo‘lmasa, biror ustozga beriladi”. Mehnatning ijtimoiy ahamiyati haqida taassurotli suhbatlar o‘tkazish ham bolalarda mehnat tarbiyasiga muhabbat hissini uyg‘otadi. Shuni ham unutmaslik kerakki, bolalar o‘zlari bajargan ijtimoiy-foydali mehnatning natijasi uchun rag‘bat kutadi. Bajargan ishi ko‘pchilik tomonidan qadrlansa, nihoyatda quvonib, o‘zini go‘yo “qo‘lidan ish keladigan”dek his etadilar.

Umuman olganda, kishilar tomonidan bajariladigan har qanday mehnat yuksak bilimga asoslanganidagina u puxta va samarali bo‘lishiga erishiladi. Real hayotimizda biz duch keladigan har bir buyum, jihoz, asbob-uskunadan tortib zavod fabrikalargacha, ko‘kka parvoz qilayotgan raketalardan tortib sun’iy yo‘ldoshlargacha, bir so‘z bilan aytganda, insonlar tomonidan yaratilgan barcha narsalar mukammal va yuksak bilimga asoslangan mehnat mahsulidir.

Xulosa sifatida aytish joizki, bolalarda mehnatga ongli munosabatni shakllantirishda ulardagi qobiliyatlarni hisobga olish, sabr-toqatli bo‘lishga o‘rgatish, tirishqoq bo‘lishga undash, bajarayotgan ishining ma’suliyatini his etish, o‘z mehnatidan zavqlanish kabi jihatlarga alohida e’tiborni qaratish lozim. Bejiz xalqimiz mehnatni bosh tarbiyachi deb atamaydi. Inson tarbiyasi mehnatga bo‘lgan munosabatlarga qarab ham belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2018-yil 18-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarini tasdiqlash haqida”gi Buyrug‘i / Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018-y., 10/18/3032/1450-son.

2. “Maktabgacha ta’lim faoliyatini takomillashtirish: innovatsiya va istiqbollar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Navoiy, 2019.

3. Bolalar erta yoshdan rivojlanishiga sarmoya kiritish qanchalik muhim? https://uzanalytics.com/jamiyat/5258/

Yayraxon UMAROVA,
Andijon davlat universiteti,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, o‘qituvchi
Dilafro‘z MAHMUDOVA,
Andijon davlat universiteti o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM VA OILA HAMKORLIGI TA’LIM SIFATI GAROVIDIR

Annotatsiya

Yosh avlod tarbiyasi jamiyat vakillarining burchi, vazifalari hisoblansa-da, biroq har bir ota-onalar qatorida pedagoglar, tarbiyachi-murabbiylar zimmasiga ulkan ma’suliyat yuklaydi. Oila tashvishlari sababidan farzandlariga yetarlicha ta’lim-tarbiya berishlikda ayrim ota-onalar bir qator muammolarga duch keladilar. Maqolada mazkur muammolar xususida mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar. Tarbiya, oila, pedagog, maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, ilk tasavvurlar.

Несмотря на то, что воспитание подрастающего поколения является обязанностью, обязанностью представителей общества, педагоги, воспитатели и тренеры несут огромную ответственность перед каждым родителем. Из-за семейных забот некоторые родители сталкиваются с рядом проблем, связанных с недостаточным образованием и воспитанием своих детей. Встатьеизложенысоображенияподаннымпроблемам.

Ключевые слова. Образование, семья, педагог, дошкольное образование, первичное образование, первый крест-секций.

Although the education of the younger generation is considered the duty, duties of the representatives of society, but among each parent there is a huge responsibility on the part of educators, educators-trainers. Some parents face a number of problems in providing adequate education to their children because of family concerns. The article gives feedback on these problems.

Keywords. Education, family, pedagogy, preschool education, primary education, first cross-sections.

Insoniyat tarixida bola tarbiyasi hamisha muhim sanalgan. Negaki, yosh avlodning tarbiyasi, bilimi, ma’rifati jamiyat taqdirini belgilaydi. Shunday ekan, jamiyatning kelgusi istiqboli uchun ham bugungi kunda o‘sib kelayotgan har bir millat farzandi yetuk tarbiya va yuksak bilimga ega bo‘lishi muhim sanaladi. Tarbiya – insonning ma’naviy qiyofasini, qolaversa, butun taqdirini belgilovchi omildir. Ta’lim va tarbiya masalasi har bir davr buyuklari tomonidan ta’riflangan. Ulug‘ mutafakkir Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” kitobida “Alloh taolo insonlarni asl hilqatda iste’dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish – tarbiya bilan bo‘lur”[1] – deb yozadi. Belinskiy esa “Tarbiya – buyuk ish, u insonning taqdirini” hal qila olishini uqtirgan. “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat

[1] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018-yil, 24-bet.

– yo falokat masalasidir”.[2] ekanligini ta’kidlagan.Shunday ekan, jamiyat istiqboli zimmasiga yuklanayotgan yosh avlodni yetuk tarbiya va yuksak bilimlar bilan tarbiyalashimiz joiz. Farzandga to‘g‘ri tarbiya berish oiladan boshlanadi. Oila “Avlodlar davomiyligini ta’minlaydigan ma’naviyat qo‘rg‘oni”, jamiyatning kichik bir bo‘lagi ekan, har bir oilada tarbiya topayotgan farzand tabiiyki, ta’lim maskaniga boradi, ta’lim-tarbiya oladi.

Yosh avlod tarbiyasi jamiyat vakillarining burchi, vazifalari hisoblansa-da, biroq har bir ota-onalar qatorida pedagoglar, tarbiyachi-murabbiylar zimmasiga ulkan ma’suliyat yuklaydi. Haqiqatki, har bir ota-onalar ham oila tashvishlari sababidan farzandlariga yetarlicha ta’lim-tarbiya berishlikda ayrim muammolarga duch keladilar. Shuning uchun ham bugungi kunda bolalar tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e’tibor berilmoqdaki, oilalarda yo‘l qo‘yilayotgan ayrim muammoli vaziyatlarni mutaxassislar tomonidan bartaraf etib borish va, albatta, farzand tarbiyasi mukammal bo‘lishini ta’minlashga erishish ustuvor vazifa bo‘lib bormoqda. Ta’limning har bir bosqichiga oid qarorlarning ishlab chiqilishi hamda uning ijrosini ta’minlash maqsadida olib borilayotgan islohotlarni fikrimiz isboti sifatida e’tirof etishimiz mumkin. Bugungi kunda ta’limning ikkinchi bosqichi umumta’lim maktablariga barcha oila farzandlari to‘liq qamrab olingan, biroq uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’limga esa umumta’lim maktablari darajasida bolalarni qamrab olish holati kuzatilmaydi. Ta’lim sifatini yuqori darajaga olib chiqish uchun ta’limning barcha bo‘g‘inlarida oila va pedagoglar hamkorlikda ish tashkil etishi darkor. Buning uchun maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ish-faoliyatlarida ta’lim-tarbiya ishlarini yuqori saviyada, zamon talablariga mos holatda olib borish talab etiladi. Hozirda ota-onalar oiladagi farzandlarining maktab yoshiga yetishi bilanoq to‘liq ma’suliyatni bo‘yniga olgan holda bolaning hujjatlarini tayyorlaydi va ularning ta’lim olishi uchun barcha sharoitlarni yaratishga harakat qiladilar. Haqiqatki, ushbu masalada ota-onalar hech kimning talablarisiz o‘z xohishlariga ko‘ra ish tutadilar, farzandi uchun barcha o‘quv qurollarini bisyor qiladilar. Mazkur holat, albatta, quvonarlidir, biroq achinarlisi shundaki, kechagina ko‘cha changitib yurgan erkatoy bola hech qanday tayyorgarliksiz maktabga, dars mashg‘ulotiga olib kirilsa, u o‘zini qanday tutadi, darsda qanday o‘tira oladi, o‘qituvchiga qanday munosabatda bo‘ladi bu kabi savollar ayrim ota-onalar tomonidan mutloq o‘ylanilmaydi! Jamiyat kelajagi vorislarining ta’lim maskanidagi datlabki qadami shunday boshlanar ekan, uning qanday davom etishini tasavvur etish mushkul emas. Ota-onalar farzandlarini maktab yoshiga to‘lishi bilan, ayrimlari maktab yoshiga yetar-yetmas berishga oshiqadilar. Ajablanarlisi shuki, farzandlarining ta’lim olishida duch kelishi aniq bo‘lgan muammolarni bartaraf etishga harakat kuzatilmaydi. Aksincha, bolaning ta’lim olishidagi oqsoqlanishlarini, qiyinchiliklarga uchrashini ko‘rib, o‘zlari mutaxassis bo‘lmaganliklari uchun ham yetarli darajada ko‘mak bera olishmaydi, natijada, aybdor o‘qituvchi, pedagog bo‘lib chiqadi! Farzandlarimizning maktab ta’limida qiynalayotgan vaziyatlarida ular bilan birga shug‘ullanishda ota-onalarga qanday omillar to‘sqinlik qilyapti? Aksariyat ota-onalarimiz farzandining dastlabki boshlang‘ich ta’limni o‘zlashtirish davrida butun ma’suliyatni faqat o‘qituvchi zimmasiga yuklab qo‘yishlari, shuningdek, maktabgacha ta’limni o‘zlashtirmagan bolani maktab ostonasiga yetaklab borishlari shu kabi muammolarni keltirib chiqarayotgani ayni haqiqatdir.

Nima uchun ayrim ota-onalar farzandini maktab yoshiga yetganda astoydil tayyorgarliklar bilan olib boradi-yu, maktabgacha ta’lim yoshiga yetganda maktabgacha ta’lim tashkiloti ta’limidan bosh tortadi? Maktablardagi ta’lim samaradorligini ta’minlash

[2] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018-yil, 25-bet.

uchun ham ta’limning birinchi bosqichi sanalmish maktabgacha ta’limni izchil yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Tasavvur qilaylik, birinchi sinfga qabul qilingan bolalar uchun darsni olib borish uchun o‘qituvchi tayyor, sinfxona talab darajasida, o‘quvchilar to‘liq o‘quv qurollari bilan ta’minlangan, ming afsuski, sinfda ayrim bolalar maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyalangan, ayrimlari oilada, kattalarimiz ardog‘ida tarbiyalanib kelgan. Mazkur sinfdagi darsning 100 foiz talab darajasida o‘tilishini mahoratli o‘qituvchi ham yo‘lga qo‘ya olmaydi. Sababi turli oilalardagi bolalar endigina sinfxonaga kirib, o‘quv qurollarini tomosha qilyapti, tengdoshlari orasida o‘zini erkin tuta olmasliklari, onasidan ajralishni xohlamasdan dilxiraliklar qilishi kabi qator muammolar ko‘ngdalang turibdi. Ota-onalar buni farzandini maktabga berganda, shu kabi muammolarga duch kelganda fahmlashadi, o‘zini go‘yoki oqlagandek bolasini “bog‘chaga bormagan-da” – deya vaziyatini oddiy holdek tushuntirishga harakat qiladi. Bu o‘rinda “bog‘chaga bormaganda emas, bog‘chaga bermaganman” degan haqiqatni baralla ayta olishlari kerak. Maktabgacha ta’lim tarbiyasini olgan bola ota-onasi bilan osongina xayrlashadi, darsda o‘zini qanday tutishni biladi, tengdoshlari bilan oson til topisha oladi, asosiysi o‘qituvchi uchun muammoli vaziyatlarni keltirib chiqarmaydi. Ta’limning birinchi bosqichida ta’lim olmagan bolajon esa nafaqat o‘qituvchini, ota-onasini ham qiynaydi, qolaversa, tengdoshlarining sifatli dars olishlariga ham to‘sqinlik qiladi.

“Ilmiy kuzatish va tadqiqotlar inson o‘z umri davomida oladigan barcha ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda faol qabul qilishini, bolaning ongi, asosan, 5-7 yoshda shakllanishini ko‘rsatgan. Bu esa jamiyatga kirib kelayotgan shaxsning ma’naviy-ruhiy olami, dunyoqarashi, bilim-u salohiyati uning maktab yoshigacha bo‘lgan yillarda olgan ta’lim-tarbiyasiga uzviy bog‘liqligidan dalolat beradi”[3]. Aytish mumkinki, har bir bolaning ta’limiy-tarbiyaviy ilk tasavvurlari nafaqat oilada, balki maktabgacha ta’lim muassasalarida shakllanadi. Shuning uchun ham bugungi kunda prezidentimizning 2016-yil 29-dekabrda qabul qilingan “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”[4]gi qarori bu borada dasturulamal bo‘lmoqda. Mazkur chora-tadbirlarning ijrosini yuqori darajada bajarish uchun, albatta, soha vakillari bilan birgalikda ota-onalar ham jiddiy yondashishlari maqsadga muvofiqdir. Har bir farzand oila tarbiyasi bilan birgalikda maktabgacha ta’lim tarbiyasini paralel ravishda olib borsa, umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinflaridagi ta’lim sifati samaradorligiga erishiladi. Ota-onalar farzandlarining yoshi maktab yoshiga yetganda o‘z ixtiyorlari bilan ongli ravishda olib borishlari odatiy holat darajasida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. –T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018-y.

2. Kenjaev D. Uzluksiz ta’limning muhim bo‘g‘ini. Xalq so‘zi. 2-may, 2017.

3. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 01.01.2020 y., 07/20/4555/4257-son.

[3]Kenjayev D. Uzluksiz ta’limning muhim bo‘g‘ini. Xalq so‘zi. 2-may, 2017.

[4]O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 1-son, 11-modda, 35-son, 923-modda; Qonunhujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 31.07.2018-y., 06/18/5483/1594-son; 01.01.2020-y., 07/20/4555/4257-son

Tursunoy XUDOYBERDIYEVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi
Shahnoza IBROHIMOVA,
Andijon davlat universiteti, “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi talabasi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING KUNDALIK FAOLIYATIDA ERKALATMA VA OVUTMACHOQLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanishning ahamiyati to‘grisida fikr yuritilgan. Farzandlar tarbiyasida, ularning so‘z boyligini oshirishda xalq og‘zaki ijodining o‘rni va ahamiyati so’z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Xalq pedagogikasi, ovutmachoq, olqishlar, erkalatma, urf-odat, yangi avlod, tarbiya, ta’sir kuchi.

В данной статье была высказана мысль о важности использования образцов устного народного творчества в воспитании детей дошкольного возраста. Речь идет о роли и значении устного народного творчества в воспитании детей, расширении их словарного запаса.

Ключевые слова. Народная педагогика, поговорки, аплодисменты, баловство, традиции, новое поколение,воспитание, сила влияния.

In this article, the idea was expressed about the importance of using samples of oral folk art in the education of preschool children. We are talking about the role and significance of oral folk art in the education of children, expanding their vocabulary.

Key words. Folk pedagogy, sayings, applause, pampering, traditions, new generation, education, the power of influence.

Maktabgacha ta’lim tizimi uzluksiz ta’limning birlamchi, eng asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi. Mutaxassis va pedagoglarning ilmiy xulosalariga ko‘ra, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborot va ma’lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan davrda oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelgusida maktab bilimini yaxshi o‘zlashtirishi, maktabga oson moslashishi uchun bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarning oldini olish, qiyinchiliklarni bartaraf etishni amalga oshirishda bolalarning maktabgacha ta’lim muassasasiga jalb etilganligi, ta’limga qamrab olinganligi alohida ahamiyatga egadir.

Vatan taqdiri, xalq ravnaqi, mustaqil yurtimizning kelgusidagi boshqaruvchisi – yangi avlod tarbiyasi birinchi o‘ringa chiqdi. Ushbu vazifani amalga oshirishda asosiy ko‘makchi sifatida xalqimizning milliy ma’naviy tarixi, milliy qadriyat, an’ana va urf odatlariga tayanish kutilgan samaraga erishishning omillaridan sanaladi. Xalq og‘zaki ijodi insoniyatning bir necha asrlik turmush tajribalari asosida yuzaga kelgan bo‘lib, mehnat jarayoni bilan chambarchas bog‘langan. Xalq og‘zaki ijodi juda qadim

o‘tmish tarixga ega. Asrlar mobaynida yaratilgan xalq og‘zaki ijodining mavzulari boy va rang-barangdir. Xalqimiz tomonidan yaratilgan asarlarning aksarida xalqning o‘z hayoti, kurashi, orzu umidlari ko‘tarinki tarzda tasvirlangan. Bolalar tarbiyasida xalq pedagogikasi, xalq og‘zaki ijodidan foydalanish hamisha yaxshi samara bergan. Shuning uchun ham xalqning tarbiyaga oid bilimlarini chuqur o‘rganish, tarbiya natijalariga asoslanib, xalq og‘zaki namunalaridan foydalanish, ularning asliy manbalariga, tarbiya sirlariga nazar tashlash bugungi kunda ham o‘z ahamiyatiga ko’ra dolzarbdir. Har bir xalq o‘zining milliy an’analariga asoslangan tarixiy madaniyati va turmush tarziga egadir. An’ana xalqimizning asrlar osha to‘plagan milliy boyligi bilan, shuningdek, uning yangi sharoitda yangi mazmun bilan boyitilishi, yangidan-yangi an’analarning vujudga kelishi bilan qimmatli va hayotbaxshdir. Bu ijodning xazinasi bo‘lgan doston, ertak, qo‘shiq, lapar, maqol, erkalatma va ovutmachoqlar, turli-tuman ayrim-olqishlarni xalq yaratgan, u og‘izdan-og‘izga o‘tib asrlar osha yashab kelmoqda. Agar biz o‘tmishimizga nigoh tashlasak, xalq og‘zaki ijodi bizning ko’hna tarix va bugungi kunimizni, kelajagimizni birlashtirib, yaqqol namoyon bo‘layotgan bir oyna misolida ko‘rishimiz mumkin. Bizning xalqimiz bolajon xalq, azal-azaldan farzandlariga bo‘lgan mehrini turli xil erkalatma va ovutmachoqlar, ayrim-olqishlar orqali ifoda etishgan. Jumladan:

Chaqaloqni beshikdan olayotganda aytiladigan aytimlar.

Chaqaloqqa choponcha,
Olib keling dadasi,
Yoqasiga ko‘zmunchoq,
Taqib keling, dadasi.
Yoqasi moyli bo‘lsin,
Etagi loyli bo‘lsin.

Bolalaning ilk tishi ko‘ringandan aytiladigan aytimlar.

Bahor keldi, qish chiqdi,
Chaqaloqqa tish chiqdi.
Kichkintoy deb o‘ylamang,
Unga ham yumush chiqdi.
Ovqatini chaynashga,
Har kuni yumush chiqdi.

Qizaloq sochini birinchi marta yuvib taraganda foydalaniladigan aytimlar.

Qizim-qizim qizomadi,
Qisqa sochi uzaymadi.
Yumolmaydi-tarolmaydi,
Shuning uchun uzaymaydi.
Oyda-quloch,
Kunda – tutam.
Senga-kuyov,
Menga – palov.

Xalq pedagogikasi hayotning, odob-axloq, ta’lim-tarbiyaning hamma jabhasini, barcha muammolarini qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Xalq pedagogikasi tarixan tarkib topgan, bolalarni xalqning ijodiy an’analari ruhida tarbiyalash tajribasidir. Xalqning

ko‘p asrlar mobaynida to‘plagan, sayqal bergan ijodiyoti durdonalarining tarbiyadagi roli bebahodir. Xalq donishmandligi ildizidan bahra olib tarbiya ko‘rgan, eng ezgu tilaklari ma’naviy kamolot, madaniyatga borib taqaladigan xalqimiz ruhida bu donishmandlikka hurmat bilan qarash hali hanuz o‘z qadr-qimmatini saqlab kelmoqda. O‘zbek xalqining ermak va ovutmachoq, turli aytim-olqish o‘yinlari bilan, asosan, bolaning ilk yosh davridan boshlab shug‘ullanib boriladi. Bu o‘yinlar asosan, kattalarning bevosita rahbarligida harakat va so‘zlarning uyg‘unlashuvi bilan o‘ynatiladi. Masalan: “Barmoqlar”, “Sichqon – sichqon” o‘yinlari orqali bolalarda xushchaqchaqlik kayfiyatlari hosil qilinib tasavvurlari o‘sib boradi. Xalqimizda “Bolaning ilonni changallaydigan davrida” iborasi bor. Bu hikmat hali qo‘rqish hissini bilmaydigan davrida, ya’ni yaxshi-yomonni ajrata olmaydigan vaqtida qo‘llaniladi. Xuddi shu davrida “Sichqon-sichqon” o‘yini qo‘l keladi. Ilk yoshdagi bolalar dastro‘moldan yasalgan “Sichqon”ning harakatlanishidan qattiq zavqlanib, qiyqirib yayraydilar. “Sichqon”ni harakatlantiruvchi katta odam uning juda chaqqonligini namoyish etishi kerak. Bu ovutmachoq go‘dakka sichqon shakli va uning asli to‘g‘risida tasavvur hosil qilishga ko‘maklashadi. Ermak o‘yinlardan “Oymoma”, “Bog‘ga kirsam maylimi”, “Alla”, “Aji-aji”, “Boylandi”, “Chapakka-xochapakka” orqali bolalarni muloqotga o‘rgatib boriladi. Bu jarayonda bolalarning eshitish, ko‘rish, sezish, his qila olish kabi sensor qobiliyatlari faollashadi. Ma’lumki maktabgacha yoshdagi bolalarda odatlar va ko‘nikmalarni shakllantirish ota-onalar, kattalar va butun atrof muhitning bevosita ta’siri ostida amalga oshiriladi, bolalar oilada ham, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ham bir necha bor yuvinishlari talab etiladi. Tozalikka, yuzni, tanani, sochni, kiyimni, poyabzalni toza saqlash zarurligi nafaqat gigiena talablari, balki inson munosabatlarining me’yorlari bilan ham belgilanadi. Bolalar shuni tushunishlari kerakki, agar ular ushbu qoidalarga muntazam ravishda rioya qilsalar, ular boshqalarga hurmat ko‘rsatgan bo‘ladi va o‘ziga, tashqi qiyofasiga va harakatlariga ahamiyat bermasa o‘zining bu ko‘rinishi atrofdagi odamlar tomonidan ma’qullanmasliklarini seza bilishlari lozim. Maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab yuqoridagi malaka va odatlarni o‘z vaqtida bajarishga odatlantirishimiz kerak. Shunday paytlarda bolalarni xursandchilik bilan yuvinishlari uchun quyidagi she’r iy erkalatmalardan iste’foda etish mumkin. Biz amaliyotda o‘zimiz yozgan quyidagi she’rlardan foydalanamiz.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida ertalabki qabul qilishda quyidagilardan foydalansak bo‘ladi.

Shirintoy bolajonlar,
Gulg‘uncha, lolajonlar.
Tongdan kulib boqdingizmi,
Bog‘chamizga chopdingizmi.
Tili shirin qizlarim,
Yuzlari qirmizlarim.
Sizlarni ko‘p sog‘indim,
Ko‘zlari qunduzlarim.
Polvon sho‘x o‘g‘illarim,
Toychoqday norg‘ullarim.
Sizlarni ham sog‘indim,
Ey toza ko‘ngillarim.
Yoniq ko‘ngil o‘chog‘im,
Sizga ochiq quchog‘im.

Sizlar meni soddadil,
Pok ko‘ngil ovunchog‘im.

Bolajonlarni uxlatish davomida quyidagi she’rlardan foydalanish mumkin.

Orom oling, qaqajon,
Sizga gullar teraman.
Esli bo‘lib yotsangiz
Ertak aytib beraman.

Bolalarni uyga kuzatish jarayonida ham turli-tuman erkalatmalardan foydalanish mumkin. Bularga quyidagilarni misol qilib aytishimiz mumkin.

Asaltoy shirintoylar,
Uyingizga xush boring.
Mehribon oyingizga,
Mendan salom olvoling.
Uyda yaxshi dam oling,
Ularga yordam bering.
Sizni intiq kutaman,
Tongda sog‘-omon keling.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol hamda komil inson etib tarbiyalash xalqimizning azaliy orzusi bo‘lib, farzandlarni ma’naviy-axloqiy, milliy, madaniy, tarixiy an’analariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslanib, zamonaviy insonni shakllantirish maktabgacha ta’lim tizimida, ota-onalar oldida turgan eng asosiy ma’suliyatli vazifalardan biri sanaladi. Maktabgacha yoshdagi farzandlarimizni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodidan foydalanish o‘rinli. Kichkintoylar bilan bo‘lgan har bir suhbatni ibratli xulosa bilan, ya’ni turli erkalatma, ovutmachoq, ayrim-olqishlardan foydalanib tugatishi ijobiy natija beradi. Zero, so‘z boyligi, lug‘at zaxirasi xalq og‘zaki ijodi namunalari bilan boyigan bolajonning fikrlash dunyosi kengayadi, dunyoqarashi o‘sadi. Qalbiga faqat ezguliklar, yaxshiliklar joylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni. https://www.lex.uz › docs.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta’lim tizimini tubdan isloh qilish masalasida. 2017-yil 16-avgustdagi yig‘ilish materiallaridan.

3. O‘zbekiston Respublika Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 19-oktabr kuni maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilish materiallaridan.

4. Mirzayeva T, Safarov O, O‘rayeva D. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xrestomatiyasi.– T.: Aloqachi nashriyoti, 2008.

5. Qodirova F.R., Toshpo‘latova SH.Q, Kayumova N.M, A’zamova M.N. Maktabgacha pedagogika. –T.: Tafakkur nashriyoti. 2019.

6. Jalolov F. O‘zbek folklorida janrlararo munosabat. –T.: Fan nashriyoti, 1979.

Mahmudaxon ISLOMBOYEVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi magistratura talabasi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TAYYORLOV GURUHLARIDA BOLALARNI MAKTABGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashning pedagogik va psixologik jihatlari, bunda tarbiyachiga yuklanadigan mas’uliyat hamda u tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.
Kalit so‘zlar. Maktab ta’limiga tayyorlash, kompetentsiya, muloqot, jamoada ishlash, kommunikativ qobiliyat, bilim, ko‘nikma.

В статье рассматриваются педагогические и психологические аспекты подготовки детей к школе, в том числе обязанности воспитателя и выполняемые им задачи.
Ключевые слова. Подготовка к школе, компетенция, общение, работа в команде, коммуникативные навыки, знания, умения.

The article discusses the pedagogical and psychological aspects of preparing children for school, including the responsibilities of the educator and the tasks performed by him.
Key words. Preparation for school, competence, communication, teamwork, communication skills, knowledge, skills.

Qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino “Har bir kishini uning borligi va qobiliyatiga ko‘ra o‘qitish kerak. Aks holda ta’lim-tarbiya ko‘zlangan natijani bermaydi” deb o‘git berganda, avvalo, inson (bola)da shakllangan yosh xususiyati, shuningdek, uning genida tabiiy ravishda mavjud bo‘lgan qobiliyatini nazarda tutgan. Bu ko‘rsatma, ayniqsa, maktab yoshidagi bolalarni ta’limning keyingi bosqichiga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Bugungi kunda tayyorlov guruhlarida mashg‘ulotlarni tashkil qilishda, bu kabi mashg‘ulotlarni didaktik jihatdan ta’minlashda bolalarga ta’lim va tarbiya berish vazifalari, mazmuni, shakl va uslublari, shuningdek, pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga qat’iy amal qilish lozim. Bu talablar “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida ham soha xodimlari oldiga ko‘ndalang qo‘yilgan. Bu o‘quv dasturi “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlantirish borasidagi Davlat talablari”ga muvofiq ishlab chiqilgan me’yoriy-huquqiy hujjat bo‘lib, unda maktabgacha ta’lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o‘quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g‘oyalari, maktabgacha yoshdagi bolalarni ta’limning keyingi bosqichiga o‘tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilab berilgan.

Maktab yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiy muhim kompetensiyalari sifatida quyidagilar belgilangan:

– kommunikativ kompetentsiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi;

– o‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi;

– ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me’yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati;

– bilish kompetentsiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish .

Maktabga tayyorlov guruh bolalarining maktab ta’limiga o‘tishi hamisha ularning hayoti, axloqi, qiziqish va munosabatlarida jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlarda yoki oilada maktab ta’limiga tayyorlashda ularga tadrijiy tarzda – oddiydan murakkabga tamoyili asosida bilim, ko‘nikma va malakalar singdirib, yangi tushuncha, bilimlar bilan tanishtirib borilishi kerak bo‘ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo‘lishga yordam beradi.

Maktabga borish – bu bola hayotidagi burilish davri. Bolaning turmush tarzi, uning faoliyati shartlari, kattalar va tengdoshlari bilan munosabatlari o‘zgarib boradi.

Bolaning maktabga o‘tishi uning rivojlanishidagi sifat jihatidan yangi bosqichdir. Ushbu bosqich “rivojlanishning ijtimoiy holati” o‘zgarishi va shaxsiy yangi shakllanishlar bilan bog‘liq bo‘lib, L.S. Vigotskiy buni “yetti yoshlik inqiroz””deb atadi. Tayyorgarlik natijasi maktabga tayyor bo‘lishdir. Ushbu ikki atama sabab-oqibat munosabatlarida o‘zaro bog‘liq: maktabga tayyorgarlik to‘g‘ridan-to‘g‘ri tayyorgarlik sifatiga bog‘liq.

Olimlarning fikriga ko‘ra, bolaning maktabga o‘qishga tayyorligini, avvalambor, uning umumiy tayyorgarligi, shu jumladan, jismoniy, shaxsiy va intellektual tayyorligi deb hisoblash kerak. Jismoniy tayyorlik - bu salomatlik holati, bola tanasining ma’lum bir morfo-funksional yetukligi, harakat qobiliyatlari va fazilatlarini, ayniqsa, nozik harakatlarni muvofiqlashtirish, jismoniy va aqliy ish faoliyatini rivojlantirishning zarur darajasi hisoblanadi.

Tarbiyachi bolaga maktab hayotining rasmiy emas, balki mazmunli tomonlarini anglashga yordam beradi. Biroq, tarbiyachi ushbu funksiyani bajarishi uchun bola tarbiyachi bilan yangi turdagi munosabatlarni o‘rnatishga tayyor bo‘lishi kerak. Bolaning kattalar bilan munosabatlarining ushbu shakli vaziyatdan tashqaridagi, ya’ni shaxsiy muloqot deb ataladi. Ushbu aloqa shakliga ega bo‘lgan bola kattalarni shubhasiz boshqaruvchi, ko‘mak beruvchi hamda xatti-harakatlarini namuna sifatida qabul qiladi.

Tarbiyachiga nisbatan hozirgi munosabat bilan bolalar mashg‘ulotda o‘zini “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari”ga muvofiq tuta olishlari muhim: chalg‘imaslik, tarbiyachi bilan begona mavzularda suhbat boshlamaslik, hissiy tajribalarini tashlamaslik va h.k. Shaxsiy tayyorgarlikning muhim jihati bolaning boshqa bolalar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishida namoyon bo‘ladi. Quyida mashg‘ulotlarni taxminiy miqdori berilgan:

6 dan 7 yoshgacha bo‘lgan guruhlarda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarning taxminiy miqdori

T/r	Mashg‘ulotlar nomi	O‘quv yili mobaynida			Sog‘lomlashtirish davri mobaynida		
		hafta mobaynida	oy mobay-nida	o‘quv yili mobay-nida	hafta mobay-nida	oy mobay-nida	sog‘lomlash-tirish davri mobaynida
1.	Atrofdagi olam bilan tanishish Eksperiment-lar – ilm-fan	2	8	72	1	4	12
2.	Tabiat bilan tanishish	1	4	36	1	4	12
3.	Nutqni rivoj-lantirish	1	4	36	1	4	12
4.	Savodxonlikka o‘rgatish	1	4	36	o‘yinlar	1	3
5.	Badiiy adabi-yot	1	4	36	Viktori-nalar	1	3
7.	Ikkinchi tilni o‘rganish	2	4	36	1	4	12
8.	Elementar matematika Mantiqiy fikrlash	2	8	72	mantiqiy o‘yinlar	1	3
9.	Rasm chizish	2	8	72	1	4	12
10.	Applikatsiya	1 navbat-ma-navbat	2	36	1	4	12
11.	Konstruktsi-yalar tuzish va qo‘l mehnati						
12.	Plastilin, loydan yasash	1	4	36	1	4	12
13.	Jismoniy tarbiya (undan bittasi toza havoda)	2	8	72	sport o‘yinlari	1	3
14.	Musiqa	2	8	72	Hordiq	1	3
Jami:		18	68	612	7	33	99

Mashg‘ulotlarning ushbu 14 turi maktabgacha ta’lim tizimida bajaradigan funksiyalar orasida bolalarning har tomonlama rivojlanishi bilan bir qatorda ularni maktabga tayyorlashda muhim o‘rin tutadi. Keyingi bosqichdagi ta’limning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan maktabgacha yoshdagi bolani qanchalik yaxshi va o‘z vaqtida tayyorlanishiga bog‘liq. Bolalarni MTTda maktabga tayyorlash ikkita asosiy vazifani o‘z ichiga oladi: har tomonlama ta’lim va maktab fanlarini o‘zlashtirish uchun maxsus tayyorgarlik.

Tarbiyachining bolalarni maktabga tayyorlash ishiga quyidagilar kiradi:

– bolalarda bilimlarni egallashning muhim faoliyati sifatida sinflar g‘oyasini rivojlantirish. Ushbu g‘oya asosida bolada sinfda faol xatti-harakatlar rivojlanadi (vazifalarni diqqat bilan bajarish, tarbiyachining so‘zlariga e’tibor berish);

– qat’iylik, mas’uliyat, mustaqillik, mehnatsevarlikni rivojlantirish. Ularning shakllanishi bolaning bilim, ko‘nikmalarni egallashga intilishi, buning uchun yetarli harakatlarni amalga oshirishda namoyon bo‘ladi;

– maktabgacha yoshdagi bolada jamoada ishlash tajribasini va tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirish; umumiy faoliyat ishtirokchilari sifatida tengdoshlariga faol ta’sir o‘tkazish usullarini o‘zlashtirish (yordam ko‘rsatish qobiliyati, tengdoshlarning ishi natijalarini adolatli baholash, kamchiliklarni xushmuomalalik bilan qayd etish);

– ko‘nikmalarning mavjudligi bola shaxsini axloqiy shakllantirishning umumiy jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi, maktabgacha yoshdagi bolani qiziqishlariga ko‘ra mashg‘ulot tanlashda mustaqil bo‘lishga o‘rgataradi.

Tarbiya va ta’limni tashkil etishda hayotning yuqori talablari bizni o‘qitish uslublarini hayot talablariga moslashtirishga qaratilgan yangi, yanada samarali psixologik va pedagogik yondashuvlarni izlab topishga majbur qiladi. Shu ma’noda maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabdagi o‘qishga tayyorligi muammosi alohida ahamiyatga ega. Maktabgacha tarbiya tashkilotlarida ta’lim va tarbiyani tashkil etishning maqsadlari va tamoyillarini tayin etish undagi muammolar yechimi bilan bog‘liqlikni ko‘zda tutadi.

Bolalarni maktabga tayyorlash – bu bola hayotining barcha sohalarini qamrab oladigan murakkab, ko‘p qirrali vazifadir. Ular ichida ikki jihatini alohida urg‘u bilan ta’kidlash odat tusiga kiradi. Birinchidan, kelajakda muvaffaqiyatli o‘quv faoliyati asosida yotadigan bola shaxsi va bilim jarayonlarining doimiy rivojlanishi bo‘lsa, ikkinchidan, yozish, o‘qish, hisoblash elementlari kabi boshlang‘ich maktab ko‘nikmalarini o‘rgatish zarurati. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, hamma bolalar ham maktab ta’limiga kirishganlarida tizimli o‘qishga muvaffaqiyatli o‘tishlari uchun imkon beradigan psixologik yetuklik darajasiga yetishmaydi. Bunday bolalarda tarbiyaviy motivatsiya yetishmasligi, diqqat va xotiraning past darajadagi o‘zgaruvchanligi, og‘zaki va mantiqiy fikrlashning rivojlanmaganligi kuzatiladi. Bu esa o‘z navbatida, pedagogikada, psixologiya va metodika fanlarida hali yechimini kutayotgan masalalar talay ekanligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi. – T.: 2018.
2. Elektron saytlar: https://lex.uz/docs/4646908
3. Выготский Л.С. Вопросы детской психологии. Москва: Педагогика, 2016.

Zumrad HAMROYEVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi magistratura talabasi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARI TARBIYACHILARINING OILA BILAN HAMKORLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan hamkorlik madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari yoritilgan va uslubiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Tarbiyachi, kasbiy mahorat, maktabgacha ta’lim, hamkorlik, oila, tarbiya.

В статье описаны педагогические и психологические основы формирования культуры сотрудничества педагогов дошкольного образования и семье. Даны методические рекомендации.

Ключевые слова. Педагог, профессиональное мастерство, дошкольное образование, сотрудничество, семья, воспитание.

This article describes the pedagogical and psychological basis for the formation of a culture of cooperation of preschool educators with the family. Methodological recommendations are given.

Key words. Educator, professional-personal, preschool education, cooperation, family, upbringing.

Farzand tarbiyasida oila bilan o‘quv muassasalari hamkorligi ta’lim-tarbiya samaradorligi va sifatini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Bu muammo mumtoz pedagogikamizda ham markaziy nuqtalardan biri bo‘lib kelgan. Chunonchi, Rizouddin ibn Faxruddinning “Oila” nomli risolasida ota-ona va ustozlarga birdek ko‘rsatma sifatida bola tarbiyasi yomon niyat va qo‘pollik bilan emas, balki sabr toqat, matonat, mehribonlik, chidamlilik, shavqat-u sezgirlik bilan bo‘lishi kerakligi, zarar bilan foydani ayira olmagan yosh go‘dakni nazoratsiz tutish ulug‘ xatolik ekanligi, uni qattiqlik bilan yumshoqlik o‘rtasida adolat bilan tarbiya qilmoq kerakligi haqida fikrlar berilgan. Ana shunday qattiqlik va yumshoqlik borasida oila va MTT hamfikr hamda hamkor bo‘lishi lozim. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan hamkorlik madaniyatini shakllantirishda ba’zi muammolar borki, ular bu borada hal qilishi lozim bo‘lgan tizimli ishlarni amalga oshirish kerakligiga dalolat qiladi. Shu bilan bog‘liq holda tarbiyachilarning kasbiy mahorati ularda umumiy madaniyat va aql-zakovatning yuqori darajada rivojlanganligi, pedagogika va psixologiya fanlari sohasidagi bilimlar bilan qurollanganligi, ta’limiy va tarbiyaviy ishlar tajribasidan erkin va ustalik bilan foydalana bilishi, ilg‘or metodikalarni mukammal egallaganligi, mutaxassisligiga doir keng va chuqur bilim sohibi bo‘lishi bilan birga oila bilan aloqasi, oilaviy munosabatlarning o‘ziga xosligidan o‘rinli foydalana olishiga ko‘ra e’tirof etiladi.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishda mahoratli tarbiyachi bolalar va ularning xatti-xarakati yuzasidan oilalar bilan samimiy aloqada bo‘lishi nihoyatda muhim. Maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila bir-biri bilan mustahkam bog‘liq hamda ular o‘rtasida aloqa qanchalik yaxshi yo‘lga qo‘yilsa, bola shuncha ko‘p yordam oladi hamda uning dastlabki ta’lim tajribasi muvaffaqiyatli bo‘lishining ehtimoli ortadi. Tig‘iz ish sharoitida oila bilan doimiy aloqa uchun vaqt topish hamisha ham oson emas, lekin tarbiyachilar bolaning muvaffaqiyatlari uchun uning juda muhimligini ota-onalarga amaliy singdira olsalar, bu ikki tomon uchun ham kundalik hayotining dolzarb masala hisoblana boshlaydi va asta-sekin ularning hayoti, faoliyatlarining odatiy shakliga aylanadi. Shunda vaqt yo‘qligi yoki yetishmasligi kabi bahonalar o‘z-o‘zidan barham topadi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining oila bilan hamkorlik madaniyatini shakllantirishda bola yordamida muloqot qilish murabbiylar jamoasi majburiyatlarining muhim qismi hisoblanadi. Barcha oilalar o‘z bolalarining baxt-saodat bo‘lishidan manfaatdor va ularning yaxshi ta’lim va tarbiya olishlarini istaydilar. Shuning uchun oila a’zolari uning yutuqlaridan xabardor bo‘lishni xohlaydilar. Tarbiyachilar ota-onalar bilan bola hakidagi tasavvurlarini chuqurlashtirish va imkon qadar samarali ishlash uchun bolaning uydagi va MTTdagi holati, uning kuchli va zaif tomonlarini, tashvish tug‘diradigan barcha jihatlarni uhokama qilishlari kerak. Muloqotlar ochiqcha va ishonchli bo‘lishi uchun albatta vaqt talab qilinadi. Ayrim ota-onalar MTTda bo‘lish borasida o‘z yetarli bo‘lmagan, aytish mumkinki, salbiy tajribalariga ega bo‘lib, tarbiyachilar davrasida ba’zan o‘zlarini noqulay xis qilishadi. Boshqalar esa tarbiyachilar “qanday bo‘lishi kerak”ligini hamisha biladilar, deb o‘ylaydilar va ular bilan muzokara olib borishga ehtiyoj yo‘q deb hisoblaydi. Shuningdek, tarbiyachilarda ham ba’zan bolalarni qanday tarbiyalash to‘g‘risida maslahat beradigan ota-onalar bilan aloqada bo‘lishga nisbatan salbiy munosabat kuzatiladi. Bu kabi holatlar mo‘tadil aloqa o‘rnatishga xalaqit berishi mumkin. Oiladan olinadigan ma’lumot qanchalik muhimligi haqida avval boshdan ota-onalar bilan gaplashib olish va buni ularga tushuntirish zarur.

Tadqiqotlarda diqqat bilan eshita bilish - ochiqcha muloqotning muhim sharti ekanligi isbotlangan. “Said uyda nima bilan shug‘ullanishni yaxshi ko‘radi?” yoki “Dildora bolalar bog‘chasi haqida sizga nimalarni aytadi?” kabi ochiq savollarni berish bilan mahoratli tarbiyachi ota-onalarga o‘z bolalari to‘g‘risida hikoya qilishlari uchun imkon yaratadi. Muloqotga kirishar ekan, tarbiyachilar ota-onalar uchun tushunarli, ravshan bo‘lgan tildan foydalanishlari va ularga savol berish imkoniyatini berishlari kerak.

Mahoratli MTT tarbiyachisi oilalar bilan hamkorlik qilishda quyidagi qoidalarga rioya qiladi:

– vaqt topadi, imkoniyat yaratadi hamda ota-onalarning o‘z fikr- mulohazalari, quvonchlari, tashvishlari va niyatlarini gapirib berishlarini qo‘llab-quvvatlaydi;

– ko‘z-ko‘zga tushib suhbat qilish mumkin bo‘lgan joyni tanlaydi va ma’lumotlarga hamisha maxfiy sir sifatida munosabatda bo‘ladi;

– ota-onalar tarbiyachilar bilan eng shaxsiy ma’lumotlarni o‘rtoqlashadilar, bino-barin, ularning sir saqlaydi;

– doimo ota-onalarga farzandlari haqida ma’lumot berayotganda samimiy yondashadi;

– ijtimoiy kelib chiqishidan qat’iy nazar o‘zaro suhbatda adolatli bo‘ladi;

– farzandlari kelajakdagi yutuqqa zrishishda qobilyatlari, qiziqishlari yuzasidan tashkiliy-uslubiy tavsiyalar beradi.

“..Tarbiyachi − rasmiy shaxs, biroq u o‘z faoliyatida oila hayotining maxfiy to-

monlariga, “boshqalar”dan sir saqlanadigan tomonlariga ham daxldor bo‘ladi. Yaxshi tarbiyachi oila uchun begona bo‘lmaydi, ota-onalar yordam qidirganlarida ularning bu vaziyatdan chiqishlariga ishonadi, maslahat beradi”.

Ishlaydigan ota-onalarda ko‘pincha bo‘sh vaqtlari juda kam bo‘ladi. Shuning uchun tarbiyachilar oilalar bilan suhbatlashishi mumkin bo‘lgan tabiiy norasmiy vaziyatlar MTT va oila o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun juda muhim.

Yetakchi psixologlarning e’tirof etishlaricha, ko‘pgina tarbiyachilar ota-onalar bilan aloqa qilish uchun ular bolalarini MTTga olib kelgan yoki MTTdan olib ketayotgan vaqtdan foydalanishga harakat qiladilar. Bu vaqtda ular ota-onalarga kun mobaynidagi voqealar, bolaning muvaffaqiyatlari to‘g‘risida xabar berishlari, o‘tkazilishi rejalashtirilgan majlis va boshqa narsalar haqida eslatishlari mumkin (lekin bunda bolaning qandaydir muammolari (agar ular bo‘lsa) to‘g‘risida so‘z ochmagan ma’qul). Kunning avvali va oxirida ota-onalar bir-birlari bilan muloqot qilishlari, tarbiyachilarga savollar berishlari, uchrashuv haqida so‘rashlari, bolalar bilan o‘ynashlari, ularga kitob o‘qib berishlari mumkin.

Ota-onalarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, muloqot uchun norasmiy vaqt belgilanganda uchrashuv jadvali o‘zgaruvchan qilib tuzilishi hamda kun avvali va oxiridagi erkin suhbatlashish sharoitiga muvofiqlashtirilishi kerak. Ota-onalarning MTT ostonasini xatlab o‘tar-o‘tmas bolalarini shosha-pisha tashlab ketishlaridan iborat holatlarni kamaytirish uchun shunday tartib o‘rnatish kerakki, unga muvofiq ota-onalar bolani guruh turgan yergacha kuzatib kelishlari va uning boshlanayotgan kunni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rishiga ko‘maklashishlari kerak bo‘ladi.

Yana shuni ham e’tirof etish kerakki, tarbiyachilar va bolalar o‘rtasida o‘zaro hurmat bo‘lishi kerak. Tarbiyachilar o‘zlari bolalardan kutadigan o‘zaro bir-birini tushunish, hurmat qilish va bir-biriga g‘amxo‘rlik ko‘rsatishda namuna bo‘ladi. Bolalar o‘rtasida ijodiy, o‘zaro samimiy munosabatlarning mustahkam poydevorini yaratadi.

Tarbiyachilar guruhdagi har bir bolaga hurmat ko‘rsatsalar, bolalar qolgan barcha bolalarni (sekin yuguruvchilarni ham, a’lo darajada rasm chizuvchilarni ham va hatto kam uchraydigan yoki ziddiyatli fe’l atvorli bolalarni ham qabul qilishni o‘rganadilar. Bolalar boshqalar tomonidan o‘zlarni har qanday holatda ham) qabul qilishlari va hurmat qilishlarini ko‘rganlarida o‘zlarini qulay his qiladi va erkin tutadi, shu bilan birga o‘zlarining shaxsiy qiziqishlarini namoyon qiladi, amalga oshiradi.

Tarbiyachilar shuni tushunib yetishlari kerakki, bolalar ham kattalardek o‘zlariga bildirilgan samimiyatni his etadi va sezadi. Bolalarni ular bajargan ish natijalari uchun maqtash samimiyatni talab etadi, o‘zaro ta’sir tabiiy holda va majbur etmaslik tarzida bo‘lishi lozim.

O‘z ustida ishlaydigan va mahoratini uzluksiz oshirib boradigan tarbiyachi maktub va kundaliklardan foydalanishi ham mumkin. Shuningdek, bola orqali ota-onalarga maktub (aloqa xati) jo‘natish yo‘li oilalar va tarbiyachilar jamoasi o‘rtasidagi yaqinlikni ta’minlashga yordam beradi. Bu bolaning yangi muvaffaqiyatlari to‘g‘risidagi qisqagina xabar yoki rahmatnoma bo‘lishi ham mumkin. Odatda ota-onalar bunday maktublarni qiziqish bilan o‘qiydilar va javob yo‘llashga harakat qiladilar.

Bundan tashqari, aloqalar rivojida tarbiyachilardan ota-onalarga yuboriladigan, ulardan yana tarbiyachilarga qaytariladigan kundaliklar (yoki aloqa daftari) katta rol o‘ynaydi. Xususan, ota-onalarning vaqti juda cheklangan yoki oilada telefon bo‘lmaganda bu o‘zaro aloqaning juda yaxshi usuli hisoblanadi. Agar bolada qandaydir shikoyat yoki muammolar bo‘lsa, kundalik doimiy aloqani ta’minlaydi hamda ota-onalar yoki

tarbiyachilar jamoasini u yoki bu o‘zgarishlardan xabardor qiladi. Bu usul, ayniqsa, ota-onalar uchun qo‘l keladi. Chunki ular o‘z fikrlarini yozma shaklda oson ifodalaydi.

Maktabgacha ta’limga oid me’yoriy hujjatlarda ham mazkur hamkor oid bir qator ko‘rsatma, tavsiyalar bor: “Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining ota-onalari bilan o‘tkaziladigan yig‘ilishlari rejasi tuziladi. Umumiy ota-onalar yigilishlari ta’lim tashkiloti Kuzatuv kengashi bilan ishtirokida o‘quv yili davomida ikki marta (sentabr, may) o‘tkaziladi. Ehtiyojga ko‘ra, navbatdan tashqari yig‘ilishlar o‘tkazilishi mumkin. Kun tartibiga uchtadan ko‘p bo‘lmagan asosiy dolzarb masalalar kiritiladi”. Albatta, bu dolzarb masalalar sirasida MTT va oila hamkorligi tez-tez kun tartibiga qo‘yilib turilishi lozim.

Shu o‘rinda, tarbiyachi va oila o‘rtasidagi hamkorlik madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari haqida to‘xtalamiz:

– oila bilan hamkorlik shaxsni ilk tarbiyalash tizimi sifatida bolaning dunyoqarashi, ma’naviy olamining rivojlanishida muhim o‘rin tutishi;

– yosh tarbiyalanuvchilarni milliy ruhda Vatanni sevish, ota-ona va atrof-muhitga bo‘lgan hurmat, o‘zligini anglash kabi tuyg‘ularni shakllanishi;

– ularning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini oila va ta’lim tizimining eng quyi bosqichidan boshlash, o‘zbekona tarbiyaning isbot talab qilinmas va eskirmas qonuniyatining ustuvorligi;

– maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi, oila, mahalla va maktab hamkorligini yanada oshirilishi;

– ota-onalar o‘rtasida psixologik va pedagogik fanlarning eng so‘nggi yutuqlarini keng targ‘ib etishi;

– ota-onalar va maktab o‘qituvchilari bilan turli mavzularda katta-kichik noan’anaviy yig‘ilishlar, tadbirlar, sohaning taniqli vakillari bilan uchrashuvlar tashkil etishi;

– badiiy kechalar o‘tkazib turish, bolalar ko‘z o‘ngida ma’naviy boy shaxslarni gavdalantirish, avlodlardan faxrlanish va ularga mos farzandlar bo‘lish hissini uyg‘otish lozim.

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirligining “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida ota-onalar va MTT o‘rtasida bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun hamkorlik shakllari berilgan:

– ota-onalarning maktabgacha ta’lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;

– ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;

– ota-onalarni o‘quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalb etish;

– ota-onalarning MTT hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyachi tarbiyalanuvchi va uning ota-onasi bilan jamoaviy va yakka tartibda ish olib borishi, har narsada shaxsiy namuna ko‘rsatishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim muassasasining davlat o‘quv dasturi. – T., 2018.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim Vazirligining “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 30-sentabrdagi 155-sonli buyrug‘i. Lex.uz.

3. Sodiqova Sh. “Maktabgacha pedagogika” (darslik). – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2013. 268-b.

4. Rizouddin ibn Faxriddin. Oila. –T.: Mehnat, 1991.

Sayyora ABDURAHMONOVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasi o‘qituvchisi

OTA-ONALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH FARZANDLAR TARBIYASI OMILI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada oilada farzand tarbiyasida kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning pedagogika fanida o‘rganilishi, bu muammoni oila muhitida hal etishning shart-sharoitlari borasidagi izlanish bilan bog‘liq dastlabki natijalar bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Kitobxonlik madaniyati, kitob mutolaasi, oilaviy kitobxonlik, ota-ona ibrati, milliy an’analar, umuminsoniy qadriyatlar.

В статье представлены предварительные результаты исследования формирования культуры чтения при воспитании детей в семье в сфере педагогики, исследования условий решения данной проблемы в семейной среде.

Ключевые слова. Культура чтения, чтение, семейное чтение, родительский пример, национальные традиции, общечеловеческие ценности.

The article presents the preliminary results of the study of the formation of a culture of reading in the upbringing of children in the family in the field of pedagogy, the study of the conditions for solving this problem in the family environment.

Key words. Reading culture, reading, family reading, parental example, national traditions, universal values.

Ma’lumki, bolalarda bo‘y ko‘rsatib boradigan ma’naviy fazilatlar, yuksak insoniy xislatlar aksar holda bevosita oila tarbiyasiga bog‘liq holda shakllanadi. Demak, kitobxonlik ham, avvalo, oila a’zolari ko‘magi va ta’sirida yuzaga keladi, rivojlanadi. Kitobxonlikning darajasi va saviyasida oiladagi boshqa a’zolarning kitobga, o‘qishga munosabati katta ta’sir ko‘rsatadi. Ota-ona har bir ishda, jumladan, kitobga munosabat va uni o‘qishda ham bolalariga o‘rnak bo‘lishlari lozim. Oilada bola kitobxonligining faollashuvida shaxsiy kutubxonadagi kitoblarni birgalikda o‘qish va ularni muhokama qilish, ota-onaning boladan o‘qilgan asar haqidagi shaxsiy tushuncha va fikrini so‘rash, bu fikrni bildirish uchun bolaning kitob haqida mushohada yuritishini o‘rganishi muhimdir.

Dunyo miqyosida bugungi kunda yoshlar o‘rtasida kitob o‘qishni targ‘ib qilish, ularning faol kitobxon bo‘lishiga davlatning faol aralashuvi, ijtimoiy ishtiroki asosida bu yo‘nalishda dasturiy-loyihaviy faoliyatni rivojlantirish, internet texnologiyalardan faol foydalanish hamda kitobxonlik faolligini oshirishga yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik mexanizmlarni izlab topish an’ana tusini olmoqda.[1]

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrda “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik

[1] Хафизов Д.М. Социокультурные практике повышения читательской активности молодежи: стимулирующие возможности моды: Автореф. дисс…канд.наук. культурологии. – Челябинск. 2017. –С. 27.

madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishda ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil qilish bo‘yicha e’lon qilingan beshta muhim tashabbus bilan uyg‘unlikni, bir butunlikni hosil qildi. To‘rinchi tashabbus “Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish” bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirildi hamda mazkur faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab me’yoriy-huquqiy hujjatlarning qabul qilinishi aholi o‘rtasida kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish, ilmiy-amaliy, umumnazariy asoslarini chuqurroq tadqiq etishning dolzarbligini bildiradi.[2]

Darhaqiqat, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek: “…kitobsiz taraqqiyotga, yuksak ma’naviyatga erishib bo‘lmaydi. Kitob o‘qimagan odamning ham, millatning ham kelajagi yo‘q. …Eng muhimi, farzandlarimizni yoshlik chog‘idan kitobga mehr qo‘yish, mustaqil fikr yuritish, murakkab hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri javob topish ko‘nikmasini shakllantirish, buning uchun tegishli tashkiliy ishlarni amalga oshirishimiz darkor”.[3]

Kitob o‘qish, kitobxonlikni shaxs va jamiyat oldidagi ahamiyati, oilada kitobxonlikni targ‘ib qilish masalalari bo‘yicha bir qator ishlar olib borilgan.

Aholi va ota-onalar o‘rtasida kitobxonlikni shakllantirish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, aynan oilada ota-onalar o‘rtasida kitobxonlikni shakllantirish orqali farzand tarbiyasiga jiddiy e’tibor berish bo‘yicha muammolar yetarlicha hal qilinmagan.

Oilada ota-ona ibrati aksar hollarda hal qiluvchi rol o‘ynashini e’tiborga olsak, ularning kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, doimo yuksaltirib borish dolzarb muammo sifatida o‘rtaga chiqadi. Bu esa kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning keng ma’no va qamrovdagi amaliy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini ko‘ndalang qo‘yadi. Zero, kitob o‘qish farzandlar tarbiyasida milliy qadriyatlar tizimini ularning ongiga singdirish, umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishda muhim omil ekanligi barchaga birdek ayondir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni oilada tarbiyalash jarayonida kitobxonlik ibrati ularda ijobiy fazilatlarni, xususan, bolalikdan kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishini shakllantirishda amaliy xarakterga ega bo‘ladi.

Oilada kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish mazmuni, usullari va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Bu borada bolalar kitobxonligini shakllantirishda ota-onalar zimmasiga nihoyatda murakkab va mas’uliyatli vazifa yuklanadi. Buning uchun ota-onalarning o‘zi ham yuksak didga ega va ma’rifatli, bilimli bo‘lishlari kerak. Oilada kitobxonlikni shakllantirish orqali bolalar ta’lim-tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatar ekan, buning uchun ota-onalar oilada kitobxonlik muhitini yaratish lozim. Birinchidan, kunning ma’lum qismida kitob mutolaasi bilan shug‘ullanish va bu jarayonni tizimli yo‘lga qo‘yish lozim, odatda, kechki ovqatdan keyin bo‘lishi maqsadga muvofiq. Sababi, oila a’zolarining jam bo‘lishi, bolalarni jismonan va ruhan charchatib qo‘ymasligini inobatga olish lozim. Ikkinchidan, mutolaa qilgan kitobni bolalarga aytib berish va oila davrasida muhokama qilish, bunda bolalarni shaxsiy fikrlarini bilish juda muhim hisoblanadi, chunki yaxshilik va yomonlik, ezgulik va razillik o‘rtasidagi qarashlar shakllanadi. Hayot haqidagi tasavvurlari boyib, umuminsoniy fazilatlar tarkib topadi. Uchunchidan, oilada to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilgan pedagogik sog‘lom muhitni tashkil qilish. Kitob o‘qigan, kitobga

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2019-yil 19-martdagi videoselektorda Ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy, sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilgari surgan “5 ta muhim tashabbus” // http://www.uzdaily.uz/uz/post/5328

[3] Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. –114-bet

do‘st bo‘lgan kishi nafaqat o‘zining ma’naviy go‘zal qalbga, balki, atrofdagilarga ham kuch-quvvat manbai bo‘lib xizmat qiladi. Oilada bir-birlariga bo‘lgan o‘zaro hurmat va xayrixohlik shakllanadi.

Oilada bolalarni kitob o‘qishga rahbarlik qilishda tavsiyalar va o‘qilgan kitoblar haqidagi tavsiyaviy suhbat katta ahamiyatga ega. Tavsiyaviy suhbat bolaning kitobga bo‘lgan muhabbatini rivojlantirishga yordam berishni, kitobga qiziqish uyg‘otishni o‘ziga maqsad qilib qo‘yadi. Ota-onalar iloji boricha farzandlarning har qanday so‘rog‘iga tayyor javobi bo‘lgan holda tavsiya suhbati o‘tkazsa, bolaga mos keladigan kitoblarni tavsiya etsa, kitobxonlik ko‘nikmalari shakllanishiga poydevor vazifasini o‘taydi. Bunda, albatta, kitob do‘konlariga borib kitob xarid qilishda bolalar diqqatini jalb etadigan, rang-barang tasvirli kitoblarni tanlashi kitobga bo‘lgan qiziqishini orttiradi. Tavsiyaviy suhbatning qiymati shundaki, u bolalarni tartibli ravishda ko‘proq mustaqil kitobni tanlash va dunyoqarashini kengaytirishga olib keladi. Ota-ona va bola kitob tanlashi yuzasidan o‘tkaziladigan suhbatda amal qiladigan qoidalar borki, ularni quyida keltiramiz.

Suhbat bola qiziqishlariga, yoshiga mos bo‘lish kerak, agar shunday bo‘lmasa, kitob tavsiyasi va ota-onalarning maslahati zo‘rma- zo‘raki, g‘amxo‘rligi keraksiz bo‘lib qoladi.

Suhbat doimo bir maqsadga qaratilgan bo‘lib, bolaning qobiliyatini takomillashtirishga yordam berish lozim. Bolani suhbatlashishga majbur qilmasdan unda suhbatlashishiga moyillik uyg‘otish kerak.

Tavsiya etilayotgan kitobning to‘liq mazmunini aytib bermaslik lozim, unda bolaning kitobga bo‘lgan qiziqishi yo‘qoladi.

Tavsiya etilayotgan kitobning qisqa, qiziqarli qilib bayon etilishi kitobga bo‘lgan qiziqishni orttiradi.

Kitob haqida suhbatlashayotganda kitobni ko‘rsatish, uning muallifi, rasmlari ba’zi joylarida o‘qib berish ham mumkin, bu esa suhbatini jonli o‘tishiga yordam beradi. Ko‘pgina bolalar qiziqarli kitoblar olib berishini so‘raydilar.

Ota-ona bolalar bilan qiziqarli sarguzashtlar haqida suhbatlashish orqali qiziqishiga asoslanib, unga mos keladigan kitobni tavsiya etadi. Buni nazarda tutib bola bilan suhbatini, “Kitobda nimalar bayon qilingan ekan?” − degan umumiy savoldan emas, balki kitobdan uning uchun eng qiziqarli narsa nimaligini so‘rashdan boshlaydi va asta-sekin undan kitobni qanchalik tushunganini bilib oladi. Zarur bo‘lgan taqdirda unga muallif fikrini anglashga, qahramon xarakterini tushunishiga yordam beradi, muhimi ,epizodni bola bilan birgalikda tasvirlaydi, berilgan rasmlarni ko‘rib chiqadi, bolaga asar g‘oyasini tushuntiriga yordam beruvchi suhbatini davom ettiradi.

Ota-onalar kitob tavsiya etar ekan, bolalarga mustaqil ravishda kitob tanlash malakasini ham singdirib borishi zarur. Shuning uchun oilada kitob javonidagi kitoblarning doimiy joyi bo‘lsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har bir oilada kichik kutubxonani tashkil qilish, kitobxonlikga ilk qiziqishlarini oshishiga turtki bo‘ladi.

Bolaga ertak kitoblar tavsiya qilinayotganda, u shu kitobning boshdan ozgina o‘qib berib, kitob qahramonini xarakterlab beradi. Ertaklarda ko‘rsatilgan rasmlar ham muhim rol o‘ynaydi. Bunda rasmlarning hammasini birdan ko‘rsatish maqsadga muvofiqmas. Rasmlar bolaning hayajonini kuzatgan holda asta-sekin ko‘rsatish kerak. 1-2 ta asosiy rasmlarni ko‘rgan bola kitob bilan birga shu kitobdagi epizodlarga, qahramonlarga, voqealarga, qahramonlarning xarakteriga qiziqib qoladi. Masalan, Qadim Saidmurodovning “Men opamdan kattaman” kitobini tavsiya qilayotib, unda rassom Qambarov chizgan rang-barang, chiroyli rasmlarga bolalar va tabiat tasviriga e’tibor beriladi. Bolalarga kitob tavsiya qilayotganda rasm ko‘rsatish usuli ayniqsa muhimdir. Ular o‘quv texnika-

sini yaxshi bilishmaydi, kitobdagi rasmlar ularni shu kitobga qiziqtiruvchi asosiy kuch bo‘lib hisoblanadi. Tavsiya suhbati bolalarni kitobdagi rasmni va matnni chuqur qabul qilishga tayyorlaydi. Suhbat davomida bolaga kitob matni uchun chizilgan rasmni, kitob muallifining va rassomning familiyasini, voqea sodir bo‘lgan vaqti va joyini ko‘rsatib, bola diqqatini kitobning asosiy tomonlariga tortadi.

Hamma narsada o‘lchov bor bo‘lgani kabi bolalar bilan kitobxonlik daqiqalarini o‘tkazishda ham me’yorlar bor. Biz olib borgan tajribalarimizga ko‘ra, bolalar yosh xususiyatiga mos quyidagi vaqt meyorini tavsiya qilamiz:

№	Bolaning Yoshi	Kitob o‘qishning kunlik davomiyligi
1	1 yoshdan 2 yoshgacha	5 daqiqa
2	2 yoshdan 3 yoshgacha	5-10 daqiqa
3	3 yoshdan 4 yoshgacha	10-15 daqiqa
4	4 yoshdan 5 yoshgacha	15-20 daqiqa
5	5 yoshdan 6 yoshgacha	20-25 daqiqa
6	6 yoshdan 7 yoshgacha	25-30 daqiqa

Bolalarni kitob o‘qishga sarflanayotgan shaxsga xos psixologik xususiyatlari, fiziologik – jismoniy imkoniyatlari mos kelmasligi zo‘riqish, toliqish natijasida, qiziqishni, ehtiyojini pasayishiga olib keladi. Shu sababli, kitob o‘qish jarayonida ota-onalar bolalarning psixologik, feziologik, jismoniy imkoniyatlarini hisobga olish lozim.

Oilada bolalarda kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllantirish murakkab jarayon bo‘lib, ota-onalar ushbu jarayonga tizimli, maqsadli yondashishi talab etiladi. Bu borada ota-onalar kitobxonlik ko‘nikmalarini shakllatirishning pedagogik-psixologik asoslarini, tashkiliy metodik talablari va shart-sharoitlaridan xabardor bo‘lishi kerak. Mazkur jarayonni samarali kechishiga xizmat qiladigan omillari haqida bilimlarni egallashlari farzand tarbiyasida yetakchi o‘rin tutishiga zamin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 19-mart-dagi videoselektorda ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy, sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ilgari surgan “5 ta muhim tashabbus” // http://www.uzdaily.uz/uz/post/5328

2. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. –114-bet.

3. Хафизов Д.М. Социокультурные практике повышения читательской активности молодежи:стимулирующие возможности моды: Автореф. дисс… канд. наук. культурологии. – Челябинск. 2017. –С. 27.

4. “Infolib” Axborot kutubxona xabarnomasi – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasining madaniy, ma’rifiy, ilmiy-ommabop jurnali № 4 (8) 2016-yil. 39 bet.

Oyqiz LATIPOVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi magistratura talabasi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI BADIIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISH YUZASIDAN MULOHAZALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirish va buning pedagogik-psixologik jihatlari yoritib berilgan.
Kalit so‘zlar. Badiiy adabiyot, nutq, og‘zaki nutq, muloqot, tafakkur, tasavvur, psixologik jarayon, bilim, ko‘nikma, qobiliyat.

В статье освещены педагогические и психологические основы повышения интереса детей к дошкольному образованию к художественной литературе.
Ключевые слова. Художественная литература, речь, устная речь, общение, мышление, воображение, психологический процесс, знания, навыки, умения.

This article highlights the pedagogical and psychological basis of increasing the interest of children in preschool education in fiction.
Key words. Fiction, speech, oral speech, communication, thinking, imagination, psychological process, knowledge, skills, abilities.

Bugungi kunda ta’lim tizimining poydevori bo‘lgan maktabgacha ta’lim tashkilotlardagi ta’lim-tarbiya jarayonida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish, tashkilotlarni zamonaviy bilimlarga ega tarbiyachilar bilan to‘ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish uzluksiz ta’lim tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirish jarayonida malakali tarbiyachi va pedagog kadrlar bugungi kunda uzluksiz innovatsion izlanishda bo‘lishlari, fikrlashi, shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlarda ham innovatik g‘oyalarni shakllantirish asosida faoliyat ko‘rsatishi zarur. Pedagog kadrlarning uzluksiz ta’lim olishini tashkil etish muammolari bir qator xalqaro tashkilotlarda, jumladan, Jahon ta’limini rejalashtirish instituti (Parij), YUNESKOning ta’lim bo‘yicha instituti (Gamburg), Oliy ta’limning Yevropa Markazi (Buxarest), Yevropa Muallimlar ta’limi Assotsiatsiyasi (ATEE) va boshqa qator ilmiy muassasalarda tadqiq etilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maktabgacha ta’lim tizimini yaxshilash va takomillashtirishga oid bir qancha farmon qaror va buyruqlari, 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-sonli “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinishi sohaga berilayotgan e’tibordan darak beradi.

Ilmiy tadqiqotlar va yo‘nalishlar tahlili maktabgacha yoshdagi bolalarda badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishni rivojlantirish xususiyatlari hamda ularning ilmiy adabiyotda o‘rganilganlik darajasini aniqlash imkonini beradi.

Badiiy adabiyot bolaga jamiyat va tabiat hayotini, odamlarning his-tuyg‘ulari va munosabatlari dunyosini ochadi va tushuntiradi. Adabiyot bolaning tafakkuri va tasav-

vurini rivojlantiradi, his-tuyg‘ularini boyitadi, ayni paytda, o‘zbek adabiy tilining imkoniyatlari, jozibasini uning ong-u shuuriga singdiradi. Uning tarbiyaviy, kognitiv va estetik ahamiyati beqiyosdir, chunki bolaning atrofdagi dunyo haqidagi bilimlarini kengaytiradi, shakllanayotgan shaxsiyatiga ta’sir ko‘rsatadi, nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Maktabgacha ta’lim tizimining yangi shakl va mazmunda qayta tashkillanishi o‘sib kelayotgan avlodning har tomonlama samarali rivojlanishi uchun barcha pedagogik resurslardan foydalanish zaruriyatini namoyon qiladi. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining ta’lim jarayonini tashkil etishning ustuvor yo‘nalishi bolaga individual yondashish, maktabgacha yoshdagi bolalikning ichki qiymatini va maktabgacha yoshdagi bolaning tabiatini saqlab qolishdir”. Bu esa o‘z navbatida, zamonaviy tarbiyachiga bolalar faoliyatini tashkil etish shakllari va usullarini tanlashda erkinlik beradi. Mazkur tanlovning asosiy natijasi uning bilimlari, ko‘nikmalari va qobiliyatlari yig‘indisigina emas, balki uning shaxsiy fazilatlari bo‘lishi kerak. Shu sababli bugungi kunda pedagogik faoliyat sifat jihatidan yangi, yanada moslashuvchan, innovatsion, ya’ni ta’lim jarayonining rivojlanishini ta’minlash sifatlariga ega bo‘lmoqda. Tarbiyachi o‘z faoliyatini tashkil etar ekan, uni zamon talablariga javob beradigan va ko‘zlangan natijaga erishishga zamin hozirlaydigan tarzda tashkil qilishi lozim.

Tarbiyachilarning bu boradagi asosiy vazifalaridan biri – bolalarni kitob dunyosiga yaqinlashtirish, badiiy adabiyot bilan tanishtirishda yangi yondashuvlarga murojaat qilish, samarali ish shakllarini izlab topish, ayni paytda, bolalar kitobxonligini rivojlantirishda ularning ota-onalarini ham jalb qilishidir.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi quyidagi omillarni hisobga olishi lozim:

– bolalarda badiiy adabiyotga qiziqishni rivojlantirish;

– badiiy so‘zdan ta’sirlanish hissini shakllantirish, adabiy nutq me’yorlarini singdirish;

– kitob qahramonlarini tushunish, didaktik tahlil qobiliyati tarbiyalash;

– insoniy his-tuyg‘usini rivojlantirish;

– she’rlarni o‘qishda, dramatizatsiyalashda bolalarning badiiy va nutqiy ijro mahoratini oshirish.

Bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish ularning o‘rtasida keng tarbiyaviy vazifalarini amalga oshirishga va bola shaxsini har jihatdan kamol toptirishga yordam beradi. U bolaning kishilar hayoti haqidagi bilimlarini emotsional taassurotlarini boyitadi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asarlar bilan tanishtirar ekan, bolalarda quyidagi malakalarni shakllantiradi.

1. Badiiy asarni tinglash va tushunish.

2. Asar qahramonlarini xatti-harakatini baholaydi.

3. Insonlardagi axloqiy sifatlar va nuqsonlarni ta’riflab beradi.

Badiiy asarni tinglash va tushunish ham o‘z ichiga quyida izohlanadigan bosqichlarni oladi. Ularning birinchisi badiiy asarni tinglashga tayyorgarlikdir. Aytaylik, tarbiyachi qaysidir ertak bilan bolalarni tanishtirmoqchi. Bu bosqichda bolalarni ertakni to‘laqonli qabul qilishlari uchun o‘qib (aytib) berishdan oldin ham aqlan, ham ruhan tayyorlab olish maqsadida kichik kirish suhbati o‘tkazadi. Kirish suhbat ertakning mazmunidan kelib chiqib uyushtiriladi, lekin minba’d ertak mazmunini to‘la ochiq ifodalamasligi kerak. Chunki bu keyingi bosqichda ertak syujeti tahlil qilinganda bolalarning aqliy izlanish samarasini susaytirib qo‘yadi. “Bo‘ri va echki bolalari” ertagi o‘rganilyapti deylik. Bolalar oldiga “Yovuzlik nima?”, “Yovuzlar hujumidan qanday qutulish mumkin? kabi savollar beriladi. Yoki yana “Tadbir nima?”, “U qachon ish beradi?” savollari atrofida 3-4 daqiqalik suhbat o‘tkazib olinadi.

Adabiy asarning mazmuniga doir savollarga javob qaytarish kichik hajmdagi she'rlarni intonatsiyaga rioya qilib yodlab olish va ta'sirchan qilib aytib berish kabi ko'nikmalar shakllantirilib biriladi. Bola hikoya, she'r, ertak tinglayotganida quvonadi, huzurlanadi. Bu emotsional ta'sirlanish bolada badiiy adabiyotni estetik idrok etish, ya'ni uni san'at asari sifatida his qilish qobiliyatini paydo bo'lishiga, unda axloqiy sifatlarning shakllanishiga yordam beradi. Tarbiyachi bolalarni badiiy asar bilan tanishtirar ekan, har bir bolada kitobga nisbatan qiziqish va muhabbat tuyg'ularini shakllantiradi.

Tarbiyachi nutqining samimiy bo'lishida quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishi lozim:

– ona tilidagi barcha tovushlarni to'g'ri talaffuz etishi, nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishi;

– Sof, aniq, ravon nutqqa ega bo'lishi, ya'ni diksiyasi talabga javob berishi;

– bolalar bilan nutqiy muloqotda bo'lganda yengil, sekin tempdagi o'rtacha baland ovozdagi nutqdan foydalanish;

– bolalar bilan so'zlashganda baland tonda gapirmaslik, qo'pol so'zlardan, adabiy til normalariga to'g'ri kelmaydigan mantiqsiz birikmalardan foydalanmaslik.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni birgina mashg'ulot orqali barcha rivojlantiruvchi markazlarda nutqiy vazifalarni amalga oshirib bo'lmaydi. Masalan, ma'ishiy faoliyatga tabiat hodisalariga, qo'l mehnati va tabiatdagi mehnatga taalluqli so'zlar faqat tabiiy holda bolalarning shaxsan ishtiroklari jarayonidagina (ovqatlanish, yuvinish, kiyinish, o'simliklarni parvarish qilish, tabiatda mehnat qilish va hokazolar) ular lug'atiga kiritiladi.

Yuqorida bayon qilinganlar asosida shunday xulosaga kelish mumkinki, maktabgacha yoshda bola eng oddiy notiqlik sirlarini o'rgana boshlaydi, o'z fikrlarini mantiqan va ifodali bayon qiladi, u nafaqat so'zlarni to'g'ri talaffuz qilish va gap tuzishni, balki so'zlar qaysi tovushlardan va gaplar qaysi so'zlardan tashkil topishini anglab olishni o'rganadi. Bularning barchasi maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olish, bola shaxsini har tomonlama kamol toptirish uchun zarurdir.

"Ota-onalarning vazifasi esa farzandi nutqining to'g'ri rivojlanishi uchun g'amxo'rlik qilish va ijtimoiy – voqeliklar asosida badiiy adabiyotga qiziqisini shakllantirishdan iborat".

Tarbiyachi bolalarda badiiy adabiyotga qiziqishini jalb etishdan avval har bir bola haqida qandaydir yaxshi so'z aytishga, ularni dadillashtirishga harakat qilishi kerak. Masalan: ''Quyonlarni boqishni Alisherga ishonib topshiraman. U jonivorlarni yaxshi ko'radi''; ''Odina g'amxo'r va mehribon, u topishmoqlarni topishda ziyrak qiz'', ''Madina ertak va hikoyalarni ifodali aytib beradi'', ''Iroda – mehnatsevar va so'zlari dona-dona'' va shunga o'xshash bolalarga berilgan baholar ularda o'ziga ishonchni, xatti-harakatlariga baho bera olishni vujudga keltiradi. Bu sifatlar qaysidir ertak, hikoya yoki boshqa asar qahramonlariga qiyosan aytilsa, yanada ta'sir kuchi ortadi. Bu kabi maqtovlar ta'sirida bolalar o'zlarining faol ishtiroki va a'lo xulqlari bilan javob berishga, o'z tengdoshlariga nisbatan samimiy bo'lishga harakat qiladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirova F., Toshpo'latova Sh., A'zamova M. "Maktabgacha pedagogika" O'quv-qo'llanma. – T.: Ma'naviyat, 2013.

2. Babayeva D. Nutq o'stirish metodikasi. –T., 2009.

Sharobiddin HASANOV,
Andijon davlat universiteti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, o'qituvchi

OLIY TA'LIMDA BO'LGUSI TARBIYACHILARNING ANALITIK TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada tafakkurning ilmiy tavsifi, asoslari; analitik tafakkurning o'ziga xos jihatlari, oliy ta'limda bo'lgusi tarbiyachilarning tafakkuriy sifatlarini takomillashtirib borish zarurligi xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Tafakkur, analitika, analitik tafakkur, mustaqil fikrlash, tafakkurni shakllantirish, maktabgacha ta'lim, tadqiq, analiz, sintez.

В статье рассматривается научное описание, особенности аналитический мышления, необходимость совершенствования мыслителных качеств будущих воспитателей в высшем образовании.

Ключевые слова. Мышление, аналитика, аналитического мышления, эрудиция, умственная деятельность, анализ, способность, квалификация, сообразительность.

The article discusses the scientific description, features of analytical thinking, the need to improve the mental qualities of future educators in higher education.

Key words. Thinking, analytics, analytical thinking, erudition, mental activity, analysis, ability, qualifications, quick wit.

Sir emaski, uzoq yillar davomida bolalar bog'chasi – maktabgacha ta'lim tashkilotlariga maktabgacha yoshdagi bolalar bilan o'yin, ovqatlantirish, uxlatish kabi mashg'ulotlarnigina olib boriladigan bir maskan, ish joyi sifatida qarash yetakchilik qilib kelindi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy qismi bolalar bog'chasini ko'rmay maktabga borishi odatiy hol sifatida baholandi. Yangilanayotgan, tobora taraqqiy etib borayotgan, uchinchi renessans davriga qadam qo'yilgan O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bo'lgan e'tibor, g'amxo'rlik davlat siyosatining eng ustuvor masalalaridan biriga aylandi. Endilikda maktabgacha ta'lim tashkilotlari bola shaxsi kamolotida ilk tarbiyaviy, ta'limiy poydevor quriladigan, bolalarning eruditsion qobiliyatlarini shakllantiradigan, tafakkur va tasavvurini rivojlantiradigan, milliy g'urur, faxr, iftixor tuyg'usini uyg'otadigan, ezgu fazilatlarni mustahkamlaydigan pedagogik dargoh sifatida yuksalib bormoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori o'sib kelayotgan yosh avlodni barkamol etib tarbiyalash yo'lida qo'yilgan istiqbolli qonuniy asosdir. Qarorda "...ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish; maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga jahon amaliyotida

keng qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini joriy etish” asosiy maqsadli vazifalar sifatida belgilab berilgan.

Qarorda belgilangan pedagogik maqsadlarni amalga oshirish, birinchi navbatda, kasbiy kompetentliligi yuqori bo‘lgan malakali mutaxassislar tayyorlashni taqozo etadi. Qachonki, zamonaviy bilimlarga ega, intellektual salohiyatli, axborot kommunikatsiya vositalari bilan ishlash malakasini egallagan, bolalar bilan ta’limiy-tarbiyaviy faoliyat olib borishni hayotining mazmuniga aylantira oladigan haqiqiy mutaxassis tayyorlanmas ekan, ko‘zlangan maqsadga erishish muammo bo‘lib qolaveradi.

Bugungi oliy ta’lim oldida keskin dilemma turibdi: diplomga ega kadr tayyorlash kerakmi yoxud o‘z ishini yaxshi biladigan mutaxassis? Albatta, shiddat bilan rivojlanayotgan sharoitda, tobora kuchayib borayotgan raqobat vaziyatida qiynalmay samarali faoliyat yuritishi mumkin bo‘lgan mutaxassis tayyorlash kerak. Bu shunday mutaxassis bo‘lishi lozimki, u har qanday vaziyatda o‘ziga yo‘l topa olishi, har qanday sharoitga moslasha bilishi, har qanday foydali yangilikni o‘z kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, har qanday masalaga tanqidiy hamda turli tomondan qaray olishi zarur. Bu talablarga javob beradigan mutaxassis bo‘lish uchun odam analitik tafakkurga ega bo‘lishi lozim. Analitik fikrlay oladigan talabani shakllantirish uchun ularda har qanday axborotning mohiyatini tez ilg‘ash, unga tanqidiy yondashish, talqin eta bilish, axborotni muayyan qismlarga ajrata olish, uni to‘ldirish va boyitish, undagi muhim va nomuhim jihatlarni ajratish, uning qismlari o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash ko‘nikmalarini tarkib toptirish lozim bo‘ladi.

“Falsafa. Qomusiy lug‘at”da “analitika” atamasi haqida: “Analitika – tahlil qilish san’ati muhokama, isbotlash xarakteriga ega bo‘lish uchun tushuncha va elementar tamoyillarni ajratish san’ati. Analitika mantiq fanining bo‘limi hisoblanadi. Aristotel “Topika” va “Ikkinchi analitika” asarlarida analitikani qat’iy, isbotlangan muhokama sifatida ta’riflaydi”, – deb izoh berilgan.

“Analitika” atamasi ilk marta Aristotel tomonidan mantiqiy tahlil texnikasiga berilgan nom sifatida qo‘llanilgan. Aristotel o‘zining “Analitika” nomli asarida fikrlashning bu yo‘sini to‘g‘risida alohida to‘xtaladi. “Organone” asarida mutafakkir “analitik tafakkur” mantig‘i bo‘yicha fikrlashda ikki muhim jihat: murakkab butunlik bo‘lgan obyektni dastlab oddiy qismlarga ajratish va ularni tekshirish asnosida tafakkur yuritish tobora murakkablashib borish kerakligini aytadi.

Nemis faylasufi Immanuel Kant analitikani insonning anglash qobiliyati, deb atab, “Sof ong tanqidi” asarida birinchi bo‘lib bilish kechimini analitik va sintetik fikrlash singari ikki bosqichga ajratishni taklif etadi. Uning ta’kidlashicha, analitik tafakkur aprioridir, ya’ni tajribada tasdiqlanishga muhtoj emas. Shu bois u: “analitik tafakkur mavjud bilimni yanada yorqinroq anglab yetishga yordam beradi”, – deb yozadi. Tafakkur – fikr yuritishga oid berilgan ilmiy ta’rif-tavsiflar, tasniflar, munosabatlar, shubhasiz, bir-birini to‘ldiradi.

Dunyo tamaddunida odamni fikrlashga o‘rgatish doimo dolzarblik kasb etib kelgan. Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy “Xamsa” asarida: “Har ishki qilmish odamizod, Tafakkur birla bilmish odamizod”, – deya ta’kidlaydi. Amerikalik ixtirochi va tadbirkor Tomas Alva Edison: “Sivilizatsiyaning buyuk vazifasi odamni fikrlashga o‘rgatishdir”, – deb aytadi. Shayx Muhammad Sodiq o‘zining “Ruhiy tarbiya” kitobida shunday yozadi: “Tafakkur nafsni poklaydigan va axloqni sayqallaydigan eng muhim omillardan biridir. Tafakkur “fikr” o‘zagidan olingan bo‘lib, bir narsa haqida chuqur fikr yuritish ma’nosini anglatadi. Allohning kitobida tafakkur qilishga o‘n yettita oyat targ‘ib qilingan”. Ushbu qarashlar

tafakkurning ma’no qatlami qanchalik chuqur ekanini anglatadi. Shu ma’noda, talabalarni, ayniqsa, bo‘lg‘usi tarbiyachilarni mustaqil va analitik tafakkur qilishga o‘rgatish ta’lim tizimidagi eng ustuvor masalalardan hisoblanadi.

Yurtimizdagi barcha oliy o‘quv yurtlarida bunga muayyan ijtimoiy, psixologik, texnologik va pedagogik sharoit mavjud. Ijtimoiy sharoit borligi shundaki, jamiyatning ma’naviy-madaniy va iqtisodiy taraqqiyoti tezlashdi, odamning kasbiy va shaxsiy-ijodiy imkoniyatlari ortdi. Jamiyat a’zolarining umumiy intellektual saviyasi, bilimdonligi, ishga ijodiy yondashuv yo‘sini bir qadar yuksalgani bo‘lajak mutaxassisni analitik tafakkur qilishga yo‘naltirishning psixologik sharoit borligini ko‘rsatadi. Bo‘lajak tarbiyachilarni analitik tafakkurga o‘rgatishning texnologik asosi esa sun’iy aql, dunyodagi bor intellektual qudratni o‘zida birlashtirgan internet tizimi mavjudligida namoyon bo‘ladi. Analitik tafakkurga o‘rgatishning pedagogik omili borligi shunda oydinlashadiki, har bir oliy o‘quv yurtida analitik fikrlaydigan va buni bo‘lajak tarbichilarga o‘rgatishning yo‘lini biladigan mutaxassislar bor. Buning ustiga, internet tizimida bu yo‘nalishda turli tillarda tayyorlangan juda katta miqdordagi materiallar mavjud. Bularning barchasi tobora taraqqiy etib borayotgan mamlakatimizdagi istalgan oliy o‘quv yurtida analitik tafakkur yurita oladigan mutaxassislar tayyorlashga to‘la imkoniyat borligini ko‘rsatadi.

Tafakkur inson shaxsi kamolotida shakllanish, rivojlanish, takomillashib borish sifatida kuzatiladi. Inson o‘sib-ulg‘ayib borgani sayin uning fikrlash qobiliyati dinamikasi ham o‘zgarib boraveradi. Maktabgacha ta’lim muassasasi tarbiyasini ko‘rgan bola tafakkurining shakllanganligi bu jarayonni o‘tamagan bolaning fikrlash darajasidan jiddiy farq qiladi. Shuning uchun ham oliy ta’lim tizimida bo‘lajak tarbiyachi mutaxassislarning aniq fikrlay olishi va o‘z fikrini lo‘nda ifodalay bilishiga erishish katta ahamiyat kasb etadi.

Bo‘lajak mutaxassislarda olam hodisalari va odamlararo munosabatlarga kasbiy va ilmiy nuqtayi nazardan analitik yondasha olish ko‘nikmasini tarkib toptirish har bir oliy o‘quv yurtining ilmiy mavqeiga bog‘liqdir. Bugungi oliy maktabgacha ta’lim oldida ikki yirik maqsad turadi. Birinchisi – bo‘lajak tarbiyachilarda kasbiy gumanistik dunyoqarash va mutaxassisligiga monand odamiylik yondashuvini qaror toptirish, ya’ni ularda komil insonga xos bo‘lgan ma’naviy sifatlarni rivojlantirish. Ikkinchi maqsad esa – tarbiyachilarga kasb madaniyati va faoliyatining texnologik asoslarini o‘rgatish. O‘zida yuqori darajada analitik tafakkur tarkib toptirmagan tarbiyachi samarali faoliyat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lmaydi. Chunki analitik tafakkurgina tarbiyachi mutaxassisga ham shaxs, ham kasb egasi sifatida o‘zgalarga ta’sir ko‘rsata olish, o‘z dunyoqarashini boshqalarga tushunarli tarzda yetkaza bilish imkonini beradi. Analitik tafakkur egasi o‘z ustida tinimsiz ishlaydi, o‘z bilimlarini to‘xtovsiz ravishda boyitib boradi. Bunday mutaxassis faqat ish joyi va ishlayotgan vaqtda emas, balki hamma joyda va hamma vaqt o‘z malakasini oshirib borish zaruriyatini his qilib yashaydi. Zero, analitik tafakkurning tabiati shuni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil, 29-dekabrdagi “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2707-sonli Qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni. // Xalq so‘zi. 2017. 8-fevral № 28.

Ilhomjon OXUNOV,
Andijon davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA IJTIMOIY ONGNI RIVOJLANTIRISH MAZMUNI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy ongni shakllantirish tizimi haqida so‘z yuritiladi, bu borada o‘qituvchiga qo‘yiladigan mezonlar bayon etiladi.

Kalit so‘zlar. Maktab ta’limi, ijtimoiy ong, motiv, “Men” konsepsiyasi, pedagogik mezonlar, tahlil qilish.

В статье рассказывается о системе формирования общественного сознания у младших школьников, излагаются критерии, предъявляемые к учителю в этом отношении.

Ключевые слова. Школьное образование, общественное сознание, мотив, понятие “Я”, педагогические критерии, анализ.

The article talks about the system of formation of social consciousness in primary school students, the criteria for which the teacher is laid down in this regard.

Key words. School education, public consciousness, motive, the concept of “I”, pedagogical criteria, analysis.

Ma’lumki, yuksak ma’naviyatli, bilimli, mustaqil fikrlaydigan, dunyoqarashi keng, ruhan sog‘lom, axloqan yetuk fazilatlarga ega bo‘lgan avlodni tarbiyalash asrlar davomida tarbiyachi-pedagoglarning zimmasidagi asosiy vazifalardan biri hisoblangan. Ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, yangicha dunyoqarash hayotimizda toboro chuqur ildiz otib borishi ta’lim tizimidagi islohotlarning mazmunini yanada boyitmoqda. Ta’lim-tarbiya tizimining har bir bo‘g‘ini muayyan maqsadga yo‘naltirilgani kabi boshlang‘ich ta’lim – o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatish, mustaqil mutolaaga rag‘bat uyg‘otish va ijtimoiy ongini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Bunga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmonida alohida urg‘u berilgan. Darhaqiqat, boshlang‘ich ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining eng muhim va murakkab bo‘g‘ini hisoblanadi. Bolalar bu bosqichda dastlabki o‘qish va yozish, hisoblash va tabiat bilan tanishish, o‘zligini anglash, voqelikni idrok qilish, unga munosabat bildira olish, mustaqil fikrlash kabi ko‘nikma va malakalarni egallashga muvaffaq bo‘ladilar. Zero, bugungi globallashuv jarayoni intellektual salohiyati rivojlangan, kuchli bilimga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi.

Boshlang‘ich sinfdanoq o‘quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishga kirishish bu boradagi olib boriladigan ishlar samarasini ta’minlaydi. Bu davrda o‘quvchilarda ruhiy va hissiy o‘zgarishlar sodir bo‘lib, ular har bir narsa, hodisa, tabiat va jamiyat haqida to‘laqonli tushunchaga ega bo‘lmaydilar. Zamonaviy ta’lim esa nafaqat o‘quvchilarga bilim berish, balki ularni o‘rab turgan olamga moslashish qobiliyatini ta’minlaydigan shaxsiyat xususiyatlarini rivojlantirish uchun mas’uldir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy ongni rivojlantirish tizimi quyidagi jihatlar bilan bog‘liq:

1. Bolaning atrof-muhit voqea-hodisalarini sezishi, idrok etishi, diqqatini qaratishi, xotirasiga saqlashi, tafakkur eta olishi muhim. Bu esa insonning bilish jarayonlariga kiradi. Inson ana shu bilish jarayonlari yordamida o‘z bilimlarini doimo boyitib boradi.

2. Bolaning subyekt bilan obyekt o‘rtasidagi farqni anglashi, ya’ni “men” degan tushuncha bilan “mendan boshqa” degan tushunchani anglab yetishi muhimdir.

3. Bolada ong yordami bilan motiv (faoliyatga undovchi ichki turtki) – maqsadni ko‘zlash faoliyati ta’minlanadi. Faoliyat maqsadlarini yaratish esa ongning vazifasiga kiradi.

4. Bolalar tevarak-atrofimizda sodir bo‘layotgan voqealarni va o‘zining harakatini, aniq dunyo obyektlarini har xil baholaydilar. Oilada tashkil etiladigan muloqot jarayonida obyektiv borliqni to‘g‘ri baholash, tarbiyada “Men konsepsiyasi”, o‘zi haqida va atrof-muhitning borligi haqida butun xabarlarni bola ijtimoiy ong yordamida ajratib oladi.

O‘quvchilarda ijtimoiy ongni rivojlantirishda ta’lim tizimi tafakkurning empirik darajasidan mavhum tafakkurga o‘tishni nazarda tutadi. M. Donaldson samarali ta’lim jarayonida o‘quvchining tafakkurini ifodalaydigan bir nechta shartlarni ajratadi:

– aniqlikdan tashqariga chiqa olishni bilish va tafakkurning rasmiy tizimlaridan foydalangan holda vazifani yecha olish. Aniqlik chegarasidan ozroq bo‘lsa ham chiqishni o‘rganmasdan turib, hech qanday rasmiy tizimni egallab bo‘lmaydi;

– til va tafakkurdan foydalana olish o‘z yo‘liga; o‘quvchi o‘z fikrlash jarayonlarini o‘z-o‘ziga yo‘naltirishni bilishi kerak, u faqatgina so‘zlashi emas, balki aytmoqchi bo‘lganlarini tanlab olishi va faqatgina tushunishi emas, balki tushunchalarni solishtirishi kerak;

– belgilarni manipulyatsiya qilishni bilish;

– maqsadga erishishga olib keluvchilar sifatida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar to‘g‘risida fikrlashda namoyon bo‘luvchi faoliyatni rejalashtirishni bilish;

– tashqi harakatni to‘xtatib turish va diqqatni aqliy xatti-harakatlarga ko‘chirish ko‘nikmasi. Aynan mazkur holat ichki hodisalarni anglashga yordam beradi, bolaning tafakkurini ma’lum insondan (tashqariga yo‘naltirilgan tafakkur) o‘ziga, o‘z harakatlariga yo‘naltirilgan tafakkurga o‘tkazishga yordam beradi.

so‘zlarning ko‘p ma’noliligi muammosini hal qila olishni bilish.

Shu tariqa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy ongni rivojlantirishda tafakkur yuritish, uning rivojlantiruvchi omili bo‘lgan fikr yutirishda onglilik, tizimlilik va faollikni hisobga olish lozim. Asosiy vazifa o‘quvchilar tomonidan bajariladigan xatti-harakatlarda refleksiv yondashuvni shakllantirishdan iboratdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jamiyatda insonlar bilan muloqotda o‘zini qanday boshqarishi, odob-axloq me’yorlariga rioya qilishi, o‘zgalar fikrini eshitish va hurmat qilishi, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlarga intilishi va unga erishishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada mustaqil fikr yuritish ham ustuvor ahamiyat kasb etadi. U yoki bu muammo, vaziyat, holat yuzasidan fikr yuritishdagi mustaqillik – o‘quvchining muayyan narsa, voqea-hodisa, jarayonga aniq ma’lumot yoki dalil-ashyo keltirish, shaxsiy munosabat bildirish, biror natijaga mustaqil erishishga harakat qilish, o‘z aql-zakovati, ongiga tayangan holda faoliyat yuritishi ko‘zda tutiladi. Fikrlash jarayonidagi erkinlik o‘quvchilarning mustaqil ijodiy faoliyati uchun muhim bir omil bo‘lib xizmat qiladi. Darhaqiqat, o‘quvchining fikrlashi o‘z-o‘zidan tug‘ilmaydi. Buning uchun unda ma’lum bir tushunchalar, ma’lumotlar bazasiga ehtiyoj seziladi. U qanchalik boy bo‘lsa, fikrlashning istiqboli shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu bois, o‘quvchilarda boshlang‘ich ta’limdanoq ijtimoiy ongni rivojlantirish orqali o‘qish bilan birga uqishni ham shakllantirib borish lozim. Ahamiyatli jihati shundaki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy

ongni rivojlantirish rag‘batlantirilsa, ehtiyojlarni va o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri sarhisob qilish, zarur axborotni topish va qo‘llash, o‘z ishini rejalashtirish va yuzaga kelgan masalalarni hal qilish, o‘z faoliyatini baholash va tuzatish ko‘nikmalari shakllanadi.

Darhaqiqat, davr barcha sohalarda jadallashuvni talab etmoqda. Fan-texnika tez sur’atlar bilan rivojlanib, kishilar mehnati tobora yengillashmoqda. Ommaviy axborot vositalari, global internet tarmog‘i insonlar dunyoqarashini o‘zgartirib, ruhiy-ma’naviy olamiga kirib borish bilan birga yosh avlod kamolotiga, ijtimoiy ongiga ham ta’sir etmoqda. Bolalar har sohada qiziq narsalarga duch kelmoqdalar. Ularning kelib chiqish sabablarini, natijalarini anglamoqdalar. Biroq, ijtimoiy munosabatlarda fikrlarni erkin, mustaqil bayon etish sustligi ko‘zga tashlanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida dunyoqarash elementlari – burch, axloqiy qoidalar, nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini farqlashga alohida ahamiyat beriladi. Farobiy ta’kidlaganidek, “Har kimki ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog‘-salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi odob va axloqli bo‘lsin, bilimli va notiq bo‘lsin”. Bu talablarning mas’uliyati tarbiyachi va o‘qituvchining zimmasiga tushadi. O‘quvchilarda narsa va hodisalarga nisbatan qiziqish, e’tibor hissini uyg‘otish, ijtimoiy ongini rivojlantirish o‘qituvchilardan alohida mahorat, kasbiy kompetentlilikni taqozo etadi. Shuningdek, ayrim o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilmay qolingan materiallarni aniqlash imkonini beradi. Natijada, o‘quvchilarda ijtimoiy voqeliklarga mustaqil yondashish, sog‘lom fikrlash tuyg‘usini shakllantirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, o‘quvchilarida ijtimoiy ongni rivojlantirish – voqelikni bevosita aks ettirishdir. O‘quvchilar avvalgi tajribalariga tayangan holda atrofni kuzatish, tahlil qilish va taqqoslash bilan birga fikrlash jarayonida alohida obyektlardagi umumiylikka e’tibor qaratadi. Zero, ijtimoiy ongni rivojlantirish natijasida, o‘quvchi tomonidan qabul qilinayotgan real hayot obrazi, jumladan, bolaning tashqi muhitni to‘g‘ri qabul qilish darajasi, bolani jamiyat taraqqiyotiga o‘zi ulushini qo‘shishga ishtiyoq uyg‘onadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni.

2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. –T., 1993.

3. Abduvaliyeva D. Rivojlantiruvchi ta’limda tafakkurni rivojlantirishning o‘ziga xosliklari // “Boshlang‘ich ta’limda integratsiyaviy-innovatsion yondashuvlar” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. –TDPU, 2019.

4. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. J.Hasanboyev va boshqalar. –T.: Fan va texnologiyalar, 2008.

Zuhraxon BOZOROVA,
Andijon davlat universiteti,
"Maktabgacha pedagogika" kafedrasi o'qituvchisi

TARBIYALANUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA TA'LIM VA O'YIN UYG'UNLIGIDAGI XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada xorijiy tajribaga asoslangan mashg'ulotlarda ta'lim va o'yin uyg'unligini ta'minlagan holda o'rta va katta yosh guruh tarbiyalanuvchilari nutqini o'stirish bo'yicha tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Xorijiy tajriba, ta'lim va o'yin uyg'unligi, nutqiy malaka, tinglab tushunish, so'z zaxirasi, orfoepik me'yor, ta'limiy vazifa.

В статье даны рекомендации по совершенствованию речи воспитанников средних и старших групп взаимосвязи обучения и игры на занятияхс учетом зарубежного опыта.

Ключевые слова. Зарубежный опыт, сочетание обучения и игры, разговорные навыки, восприятие речи на слух, лексика, орфоэпические нормы, учебное задание.

The article provides recommendations for improving the speech of pupils of middle and senior groups of the relationship between learning and playing in the classroom, taking into account foreign experience.

Key words. Foreign experience, combination of learning and playing, conversational skills, listening comprehension, vocabulary, orthoepical norms, educational task.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiya berishda har bir xalq, mamlakatning o'ziga xos xususiyatlari bo'lgani kabi barcha davlatlarning ta'lim tizimi uchun umumiy, o'xshash jihatlar mavjud. Ana shunday o'xshashlik bilim va tarbiya berishdagi o'yin usulidan foydalanishda namoyon bo'ladi.

Dunyo mamlakatlarining barchasida maktabgacha bo'lgan ta'lim va tarbiya jarayonining asosiy shakli o'yin bo'lgani kabi u mamlakatimizda ham bu bosqichdagi "o'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi".[1] Umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ham yetakchi mavqe tutgani holda mazkur faoliyat turi umumta'lim maktablarning o'rta va yuqori sinflarda mavzular mohiyatiga ko'ra, xilma-xil shakl hamda darajalarda fan asoslarini singdirishning samarali vositasi o'laroq qo'llab kelinmoqdi.

"O'yin zavqlanish, qiziqarli vaqt o'tkazish uchun ketma-ketlikda amalga oshirilgan harakatlardir. O'yin bolalarni qiziqtirish, ularning aqliy va jismoniy rivojlanishlarini tezlashtirishda beqiyos vosita sanaladi. Ta'lim o'yin bilan uyg'unlashganda bola dunyosi va tabiatiga to'g'ridan-to'g'ri kirib boriladi".[2] Ta'limsiz o'yin bo'lmaganidek, o'yinsiz ta'lim

[1] "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi. –T., 2018.

[2] Oxunov I. Ta'lim va o'yin uyg'unligi orqali nutqni mustahkamlash. "Til va adabiyot ta'limi", 2019-yil, 12-son.14-b.

ham bo‘lmaydi. Muhimi, Disterveg Adolf aytganidek, o‘yin orqali bolalarga “haqiqatni topish o‘rgatiladi”.[3]

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilar nutqiy malakasini rivojlantirish, shuningdek, ushbu tizimdagi ta’lim boshqa tilda olib boriladigan muassasalar hamda guruhlarida o‘zbek tilini o‘qitish, davlat tilida ravon so‘zlashga o‘rgatish jarayonida yuqori samaraga ega bo‘lgan ayrim o‘yin shakllari borki, quyida ularning ayrimlari bilan tanishtirib o‘tamiz. Bu texnologiya Turkiya ta’lim tizimida faol qo‘llaniladi, biz undan ijodiy foydalandik.

Tarbiyachi, avvalo, o‘yinni tanlashda o‘tkazilayotgan mashg‘ulot mavzusiga, bolalarning qiziqishi va saviyalariga diqqat qilishi lozim. Mavzuga bog‘liqligi bo‘lmagan, ishtiyoq uyg‘otmagan o‘yindan tarbiyalanuvchilar zerikadi. Oqibatda mashg‘ulot nomigagina o‘tkaziladi.

Darslar, mashg‘ulotlar o‘yin tarzida o‘tkazilganda ularda mavjud imkoniyat va qobiliyatlari yuzaga chiqa boshlaydi. Hatto nutqida qandaydir kamchilik yoki yetishmovchilik sezilib tergan bolalar o‘yin davomida o‘zidagi ushbu kemtiklarni “unutadilar”. Ham ona tili, ham ikkinchi tilni o‘rganishda, nutqiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda bolalarning qobiliyatlari yuzaga chiqar ekan, ularning o‘zlariga bo‘lgan ishonchlari ortadi. Bu shaklda til va nutq ko‘nikmalari ustida ishlashning ahamiyati quyidagilarda ko‘rinadi:

a) amaliy jihatdan o‘g‘zaki so‘zlashuv ko‘nikmalari rivojlanadi;

b) tinglab tushunish va tushuntira bilish qobiliyatlari shakllanadi;

d) so‘z zahiralari ortadi;

e) orfoepik me’yorlarga rioya qilishni o‘rganadilar;

f) eshitib yoki ko‘rib taqlid qilish, takrorlash malakasi shakllanadi;

g) yodlash qobiliyati o‘sadi.

Mavzu: Biz bilgan narsalar.

O‘yin nomi: “Nima belgisi bor?”

O‘yin uchun bolalardan biri tanlanadi, u mashg‘ulot o‘tayotgan xonadan qo‘shni xonaga yoki koridorga chiqib turadi. Qolgan boshqa bolalar muayyan narsa (yoki kishi) ni maslahatlashib belgilab olishadi, keyin o‘rtoqlarini chaqirishadi. U kirib o‘rtoqlaridan nomi yashirilayotgan narsa haqida “Nimasi bor?” (qanday belgisi bor?) deb so‘raydi. O‘rtoqlari nazarda tutilgan narsa (kimsa)ning belgi yoki xususiyatlaridan birini aytishadi. Sinalayotgan bolaga besh martaga so‘rash imkoniyati va ikki yoki uch bor taxmin qilish haqqi beriladi.

Masalan: nomi yashiringan narsa olma bo‘lsin.

Qanday belgisi bor? – U dumaloq ko‘rinishda.

Qanday belgisi bor? – Hidi shirin.

Yana nimasi bor? – Ta’mi mazali.

Yana nimasi bor? – Ichida mayda urug‘i.

Yana-chi? – Yupqa archiladigan po‘sti.

Ikki yoki uch marta urinishda topa olganlar “bilag‘on” deb e’lon qilinadi.

Bolalar lug‘at boyligini oshirish maqsadida javoblardagi ba’zi so‘z yoki so‘z birikmasining sinonimini berib, izohlash maqsadga muvofiq. Masalan, “hidi shirin” o‘rniga “isi xushbo‘y” birikmasini qo‘llasa bo‘lishini aytish o‘rinli bo‘ladi.

Mavzu: Odam organizmi a’zolari.

O‘yin nomi: “Bu qaysi a’zo?”.

Tarbiyachi (o‘qituvchi) bolalardan birini yoniga chorlab, o‘yinni tushuntiradi: Men

[3] Disterveg Adolf. Qarang: https://ru.wikipedia.org/wiki/

qulog‘imni ushlayman va “Bu – mening qulog‘im”, desam, sen ham burningni ushlab, “Bu – mening burnim”, deb aytasan. Shu tariqa men qaysi organizmdagi a’zomni ushlab ko‘rsatsam, sen esa xuddi shu a’zoga yaqin a’zongni ushlaysan va uning nomini aytasan, deydi. Oldiniga o‘yin tarbiyachi rahbarligida bir marta mashq qilib olinadi. Keyin bolalar qo‘shilishadi. O‘yin maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi kichik yoshdagi bolalar, ikkinchi til o‘rgatilayotgan guruhlarga kishi tana a’zolarini tanishtirish, eng asosiysi, bolalarning so‘z boyligini oshirishda samarali usul sanaladi.

Mavzu: Raqamlar, sonlar.
O‘yin nomi: “Davom ettir”.

Bolalar yoki tarbiyachi tomonidan bir xonali son aytiladi. Bolalar shu sondan boshlab keyingi sonni bittadan aytib ketma-ketlikda sanaydi. Uch yoki to‘rt raqamdan keyin oxirgi son yoki uning qo‘shilmalariga kelganda navbatdagi sonni emas, uning o‘rniga “davom ettir” deydi. To‘xtab aytilmagan sondan keyin yana davom etib sanash kerak bo‘ladi. Masalan, to‘rt sonini tanlangan bo‘lsin. Sanash boshlanadi: bir, ikki, uch – davom ettir; besh, olti, yeti, sakkiz – davom ettir; to‘qqiz, o‘n, o‘n bir, o‘n ikki – davom ettir ... kabi. Adashib ketgan bola o‘yinni tark etadi. O‘yinni uch, to‘rt yoki oltining qo‘shilmalari tarzida o‘tkazsa ham bo‘ladi. Sonni tanlashda guruh tarbiyalanuvchilarining yoshi, saviyasi va darajasiga ko‘ra ish ko‘riladi. Bu o‘yin orqali bolalar sanashni va qo‘shishni o‘zlashtiradilar.

Mavzu: Tushunchalar berish.
O‘yin nomi: “Sirli jumla”.

Guruhdagi bolalar teng miqdorda bir nechta qatorga bo‘linadi. Har qaysi guruhning oldida turgan bolani tarbiyachi yoniga chaqirib, qandaydir bir jumlani boshqalarga eshittirmay aytadi. Tarbiyachining ishorasi bilan oldinda turgan bolalar keyingilarning qulog‘iga shu jumlani asta aytishadi. Shu yaxlit jumla aytish oxirgi bolalarga borib tugagach, ular bu jumlalarni ovoz chiqarib eshittiradi. Bunda tezlikka e’tibor qilinadi: boshqa qatorlardan oldin va bexato aytgan bolalar kichik guruhi g‘olib sanaladi. Tarbiyalanuvchilarning xotirasini, yod olgan so‘zlarni mustahkamlash, ularning nutqini rivojlantirish o‘yindan ko‘zlangan maqsaddir.

Mavzu: Kasb-hunar nomi.
O‘yin nomi: “O‘ylab top”.

Guruhdagi bolalar ichidan biri o‘yinchi etib tanlanadi. Unga eshittirmay qaysidir bir kasbning, hunarning yoki o‘simlik, hayvon nomi belgilab olinadi. Sharti shuki, bu o‘simlik toki hayvon qaysidir kasb (hunar)ga ishora qilishi kerak. O‘yindagi bola yashirilgan so‘zni biladigan istalgan guruhdoshiga so‘roq berib, tanlangan kasb yoki qaysidir kasb-hunarga aloqador o‘simlik yoki hayvonni aniqlashga, olgan javoblarni o‘ylab, mushohada qilib nomini topishga urinadi. Masalan: “Uy” so‘zi tanlangan bo‘lsa, “Ko‘rinishi qanday?”, “Joni bormi yo jonsiz?”, “Balandmi yoki past?”, “Kim unga qaraydi?” qabilidagi savollar berilishi mumkin. Ushbu o‘yin vositasida bolalar qaysidir hunar, kasb yoki ularning mashg‘uloti bilan bog‘liq voqeliklar to‘g‘risida tushuncha oladilar, lug‘at boyligi oshadi.

Mavzu: Hayvonlar.
O‘yin nomi: “Taqliddan taniyman”.

Guruhdan bir o‘yinboshi saylanadi. O‘rtaga chiqarilib, uning ko‘zlari boylanadi.

Yoniga kelgan boladan: “Ot nima qiladi – shuni ayt” so‘raydi, kelgan bola: “Ot kishnaydi” deb, otning kishnashini qiladi. O‘yindagi bola taqlidchi sherigining ovozidan uning kimligini aytishi lozim. Boshqasiga “Xo‘roz nima deydi – shuni ayt” deb so‘raydi yoki “Qo‘ydek ma’rab ber” deya taqlid qilishni aytadi. O‘yinchi uch martada ham taqlid qildirganda bolani tanimasa, u boshqasiga o‘zgartiriladi, tanisa, taqlid qilgan bola navbatdagi o‘yinboshi bo‘ladi.

Mavzu: So‘z.
O‘yinning nomi: “Dadam bozorga bordi”.
Istalgan bir bola o‘yinni boshlab berishi mumkin. U:
Dadam bozorga bordi, olma oldi, olmani Ahmadga berdi, – deydi.
Ahmad o‘rnidan turib davom ettiradi:
Dadam bozorga bordi, anor oldi, olmani Doniyorga berdi. “Olma” “A” harfi bilan tugagani uchun Ahmad “anor” so‘zini tanlagan. Doniyor esa o‘rnidan turib ”r” harfi bilan boshlanadigan meva, buyum yoki ko‘kat nomini keltirib, davom ettirishi kerak bo‘ladi. Tugagan harfga so‘z topolmagan yoki uzoq o‘ylab qolgan ishtirokchi o‘yinni tark etadi. Shu bois ham bolalar o‘yindan chetda qolmaslik uchun so‘z boyliklarini ko‘paytirishga davomli tarzda harakat qiladilar.

Keltirilgan didaktik o‘yinlar ta’limiy vosita sifatida bir qator vazifalarni ado etishda qo‘l keladi. Jumladan:

• ta’limiy: bolalarning umum o‘quv ko‘nikmalarni shakllantirish, ularning nutqiy qobiliyatini o‘stirish, tinglab tushunish malakasini oshirish;

• rivojlantiruvchi: o‘g‘zaki nutqni, mantiqiy fikr yuritishni, atrof-muhit sharoitini idrok qilish qobiliyatini rivojlantirish;

• qiziqish uyg‘otuvchi (motivatsiyali): bolalarni o‘quv faoliyatiga undash, mustaqil xulosalar chiqarishni rag‘batlantirish;

• tarbiyaviy: o‘ziga nisbatan va guruh oldidagi mas’uliyatni, fikr almashish madaniyatini shakllantirish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida didaktik o‘yin shaklidagi mashg‘ulotlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshiriladi: birinchidan, didaktik maqsad bolalar oldiga vazifa ko‘rinishida qo‘yiladi; ikkinchidan, ta’limiy faoliyat o‘yin qoidalariga bo‘ysundiriladi; uchunchidan, o‘quv materiallari o‘yinni ado etish vositasi sifatida qo‘llanadi; to‘rtinchidan, ta’lim-tarbiya jarayoniga didaktik vazifani o‘yinga aylantiradigan musobaqa komponenti kiritiladi; beshinchidan, bolalar oldiga qo‘yilgan ta’limiy vazifani muvaffaqiyatli bajarish ham o‘yin natijalariga bog‘lanadi.

Amaliyotda bunday mashg‘ulotlardan olingan samara metodist olimlardan birining quyidagi fikrini tasdiqlaydi: “O‘yin kichkintoylar tomonidan xayolan yaratilgan uydirma emas, aksincha, bolalar xayolotining o‘zi o‘yin jarayonida yuzaga kelib, rivojlanadigan hodisadir”.[4]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi. –T., 2018.

2. Oxunov I. Ta’lim va o‘yin uyg‘unligi orqali nutqni mustahkamlash. “Til va adabiyot ta’limi”, 2019-yil, 12-son. 14-b.

[4] Qodirov V.A. Didaktik o‘yinlarning bolalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltirishdagi metodik imkoniyatlari. Andijon davlat universitetining Ilmiy xabarnomasi, 2020-yil, 2-son. 129-bet.

Odinaxon SODIQOVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi magistratura talabasi

MAKTABGACHA TA’LIMNING FRANSIYA TAJRIBASI

Annotatsiya

Maqolada Fransiyada maktabgacha ta’limning tarixi, ta’lim-tarbiya tizimidagi o‘ziga xos tomonlari haqida so‘z yuritiladi hamda mamlakatimiz maktabgacha ta’lim tizimi bilan taqqoslanadi.

Kalit so‘zlar. Maktabgacha ta’lim, Fransiya tajribasi, “Onalar maktabi”, ta’lim-tarbiya mazmuni, mashg‘ulot turlari, iqtisodiy tarbiya, rivojlanish markazlari.

В статье рассказывается об истории дошкольного образования во Франции, его особенностях в системе образования и воспитания, а также сравнивается с системой дошкольного образования нашей страны.

Ключевые слова. Дошкольное образование, опыт Франции, “Школа матерей”, содержание воспитания и обучения, виды занятий, экономическое воспитание, центры развития.

The article tells about the history of preschool education in France, its features in the system of education and upbringing, and also compares it with the system of preschool education in our country.

Key words. Preschool education, the experience of France, ‘‘School of mothers”, the content of education and training, types of classes, economic education, development centers.

Fransiya maktabgacha ta’limining o‘ziga xos tarixi. 1770-yilda Fransiyada birinchi bolalar bog‘chasi paydo bo‘lgan. 50-yildan keyin Parijda ishchilar guruhi uchun maktabgacha tarbiya muassasalari ochilgan, u ommabop va arzon edi. Bog‘chalar 1830-yilda davlat tomonidan moliyalashtirilgan. Mashhur pedagog Pauline Kergomar (1838-1925) Fransiyada maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan. U bolalar uchun eng mashhur ota-onalar va ta’lim dasturlarini yaratdi. Shuningdek, u yangi turdagi “Onalar maktabi” bolalar bog‘chasini yaratdi. Bolalarni tarbiyalash sohasidagi uning yangiliklari: a) o‘yin – o‘qish va rivojlanishning asosiy shakli; b) har bir bola – bu shaxs; v) jismoniy tarbiya usullari prinsipial jihatdan amaliyotdan chetroq.

Maktabgacha ta’limni tashkillashdagi o‘ziga xoslik. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– bolasini tarbiyachilarning qaramog‘iga topshirish yoki topshirmaslik to‘g‘risida qaror faqat ota-onalar tomonidan qabul qilinadi, ya’ni bola maktabgacha ta’lim muassasalariga borishi majburiy emas;

– mamlakatda maktabgacha ta’lim bepul – davlat tomonidan moliyalashtiriladi;

– Fransiyadagi diniy jamiyatlar bolalarni tarbiyalashda faol ishtirok etadi, ko‘plab fransuz bolalar maxsus maktabgacha tarbiya muassasalariga qatnaydilar, bu yerda katolik cherkovi barcha xarajatlarni qoplaydi;

– biron bir og‘ish yoki nuqson bilan tug‘ilgan chaqaloqlarga kelsak, maktabgacha ta’lim dasturi bolalarni o‘z tengdoshlarining jamiyatiga to‘g‘ri integratsiyalashni o‘z ichiga

oladi. Ularning to‘g‘ri rivojlanishiga, ayniqsa, intellektual va jismoniy rivojlanishida ba’zi qiyinchiliklarga duchor bo‘lganlarga alohida e’tibor beriladi;

– bolalar 2-3 yoshdan boshlab bolalar bog‘chalariga yuboriladi, bolalar bog‘chalari “Onalar maktablari” deb nomlanadi. U yerda guruh yoshi bo‘yicha uch qismga bo‘linadi: 1) ikki yoshdan to‘rt yoshgacha (bu yerda bolalar vaqtni faqat o‘yinlarda o‘tkazadilar); 2) to‘rt yoshdan besh yoshgacha (bolalar haykaltaroshlik qilishadi, rasm chizishadi, bir-biri bilan aloqa qilishadi); 3) olti yoshgacha bo‘lgan katta guruh (yozishni, o‘qishni o‘rganadi);

– kichik shaharchalarda yoki qishloqlarda haftada 5 kun ochiq. Kundalik jadval: tushlikdan 3 soat oldin va tushlikdan keyin 3 soat;

– katta shaharlarda (jumladan, Parijda) kechqurungacha va dam olish kunlari ham ishlashlari mumkin. Shuningdek, yozda maktab ta’tillarida ishlaydigan bog‘chalar ayniqsa mashhur;

– bolalar bog‘chasidagi kun tartibi ertalab soat 9 da boshlanadi, ammo ota-onalar bolani ilgari olib kelishlari mumkin, chunki nonushta qilishdan oldin ularga o‘ynashga vaqt bor.

Ta’lim-tarbiya tizimidagi o‘ziga xoslik. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

– Fransiyadagi maktabgacha ta’lim bolalarning qat’iy intizom va erkin fikrlashiga e’tibor berishadi. Ammo boshqalarning fikriga ko‘ra, xuddi shu haqiqat fransuz maktabgacha ta’limini AQSh, Buyuk Britaniya, Ispaniya va boshqa mamlakatlardagi o‘xshash tizimlardan yaxshiroq farq qiladigan afzalligidir.

– Fransuz an’analariga ko‘ra, ota-onalar chorshanba kuni o‘z farzandlariga diniy ta’lim berishadi. Bu bog‘chaning aksariyati chorshanba kuni ishlamasligining sababidir.

– Fransiyadagi barcha muassasalar yagona davlat ta’lim dasturini amalga oshirishlari shart. Ta’lim vazirligi “Ona maktablari” ishini diqqat bilan kuzatib boradi. Shuningdek, nodavlat bog‘chalarning bolalarning huquq va manfaatlariga rioya qilinishi ustidan nazorat olib boriladi. Umumiy dasturni amalga oshirishning o‘ziga xos usullari metodistlar tomonidan ishlab chiqilgan va shuning uchun ular doimo o‘zgarib turadi.

Guruhlarda 10 tadan 18 tagacha bolalar bo‘lib, 4 ta tarbiyachi ishlaydi. Ular bilan birga o‘quv o‘yinlari o‘ynaydilar, ertaklar o‘qiydilar, qo‘shiqlarni o‘rganadilar, modellashtirish va rasm chizish bilan shug‘ullanadilar. Kichkintoylar yoshiga qarab ko‘p marta ovqatlanishadi va odatdagiday uxlashadi.

Mamlakat maktabgacha ta’lim tizimi iqtisodiy tarbiyani ham nazarda tutib, u iqtisodiy tafakkurni shakllantirishni nazarda tutadi va birinchi navbatda iqtisodiy bilim, ko‘nikma va ikkinchidan, iqtisodiy ahamiyatga ega axloqiy qadriyatlarni aks ettiruvchi shaxsiy fazilatlar to‘plamini shakllantirishni o‘z ichiga oladi.

“Onalar maktablarida” odatda, 25-30 tagacha bola bo‘lishi mumkin. Mashg‘ulotlar haqiqiy maktabda bo‘lgani kabi o‘tkaziladi: haftasiga 4 marta (chorshanba umumiy dam olish kuni), kuniga ikki blokdan (ertalab va kechqurun), ular orasida o‘quvchilar tushlik va yurish paytida ikki soatlik tanaffus mavjud. Agar kerak bo‘lsa, chet ellik bolalar uchun qo‘shimcha fransuz tili darslari o‘tkaziladi.

Ta’lim-tarbiya mazmunidagi o‘ziga xoslik. Bu borada ham o‘z yo‘l va uslublari bor:

– fransuz bolalariga bolaligidan boshlab tashabbus ko‘rsatishga o‘rgatiladi. Bu pedagoglar erishmoqchi bo‘lgan asosiy narsa va shundan keyingina: ijtimoiylashuv, o‘z nuqtayi nazarini himoya qilish, muammolarni yengish, o‘ziga xizmat qilish, mustaqillik va boshqalar shakllantiriladi, shuningdek, jismoniy qobiliyatlarni rivojlantirishga ham e’tibor qaratiladi;

– Fransiya ko‘p madaniyatli mamlakat, shuning uchun bolalarga jamoada teng-

likni qadrlashga, boshqalarning huquqlarini hurmat qilishga o‘rgatiladi. Boshlang‘ich guruhlarda mayda motorika ko‘nikmalarini egallab, o‘z his-tuyg‘ularini ifoda etishni o‘rganishlari kerak. Ularga harflarning shakllari, ularning ovozidan zavqlanish o‘rgatiladi. Bolalarga chizish o‘rgatiladi. Bu o‘z-o‘zini anglashni rivojlantiradi, ularning harakatlarini muvofiqlashtirishga yordam beradi, deb ishoniladi;

– bola fan asoslarini, mehnat ko‘nikmalarini o‘rganishi kerak. Ular barmoqlarda raqamlar nimani anglatishini so‘zma-so‘z aytib berishadi va har safar bolada savol tug‘ilsa, tarbiyachi uni rag‘batlantiradi: bolaga fikrlash zarur va to‘g‘ri ekanligi ko‘rsatiladi;

– nonushtadan keyin birinchi mashg‘ulot – nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish, nonushtadan so‘ng, bolalar yomon ob-havoda ham sayr qilishadi. Bu ozgina fransuz odamlariga o‘zini tutishni o‘rgatishdir. Yurishdan keyin mashg‘ulotlar guruhlarga bo‘linadi. Bolalarga musiqa, rasm chizish o‘rgatiladi;

– Fransiyadagi bolalar bog‘chasiga maxsus joziba qo‘g‘irchoqlar tomonidan beriladi, ularning yordami bilan tarbiyachilar ikki yoshdan to‘rt yoshgacha bo‘lgan bolalar bilan muloqot qilishadi. Ularning yaratilishida bolalarning ham mehnati bor, qog‘oz, karton, arqonlar va bezaklar ishlatiladi;

– javonlarda har doim juda ko‘p kitoblar, albomlar, rangli jurnallar va plakatlar mavjud. Plakatlar kesish, o‘lchash, o‘xshashlik va farqlarni topish matematik qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq. Stol o‘yinlari o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlanishiga yordam beradi;

– faol mashg‘ulotlardan so‘ng bolalar ertaklarni o‘qiydilar. Kun odatda sizning xohlagan o‘yinlaringiz bilan yakunlanadi;

– 4 yosh uchun dastur murakkablashadi, guruhdagi har bir bolaning o‘z vazifalari bor. Kimdir ma’lum kun gullarni sug‘oradi, kimdir bog‘chadagi uy hayvonlariga qarashadi, kimdir changni artib chiqadi. Bolalarga obyektlardagi masofani aniqlashga o‘rgatiladi. Bundan tashqari, har kim to‘satdan paydo bo‘lgan mavzuni do‘stona muhokama qilish mumkin. Masalan, kimnidir tug‘ilgan kuni bo‘lsa, tug‘ilgan kun mavzusi bo‘yicha va h.k. O‘zbekiston va Fransiya maktabgacha ta’lim tizimidagi uyg‘un jihatlar. Mavjud adabiyotlar bilan tanishib shunga amin bo‘lish mumkinki, O‘zbekiston va Fransiya maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiya va o‘quv jarayonini tashkil etish va rejalashtirishda o‘xshashliklar bor. Xususan, rivojlanish markazlari tomonidan amalga oshirilgan:

“Qurilish va dizayn”;

“Til va nutq”;

“Fan va tabiat”;

“San’at” kabi dasturlar O‘zbekistonda ham tatbiq etilgan.

Endigi vazifa ana shu o‘xshashliklar negizida o‘ziga xosliklarni o‘rganib, o‘zaro tajriba almashish, mavjud tajribalarni o‘rtoqlashishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abidov B. Maktabgacha ta’lim (xorijiy mamlakatlar tajribasi). Zamonaviy ta’lim jurnali, №11, 2017. 35-bet.

2. Sazonova D.S. Chet elda maktabgacha ta’lim tizimlari: ularning pedagogik salohiyati / D.S. Sazonova, V.A. Zebzeeva // XXI asrda jamiyat va sivilizatsiya: tendensiyalari va rivojlanish istiqbollari. - № 8-12, 2014. 161-166-betlar.

Gulchiroy HAYDAROVA,
Andijon davlat universitet,
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

TARBIYACHILARNING NUTQIDA NUQSONI BOR BOLALAR BILAN ISHLASH KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarning nutqida nuqsoni bor bolalar bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari haqida so'z yuritilgan, nutqiy nuqsonlarni bartaraf qilish bilan bog'liq tavsiyalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Til, nutqiy nuqsonlar, nutqiy intellekt, xotira, tasavvur, bog'lanishli nutq, nutqning tovush tomoni, pedagogik tamoyillar.

В статье рассказывается об особенностях формирования у воспитателей дошкольной образовательной организации компетенций работы с детьми с нарушениями речи, излагаются рекомендации, связанные с устранением дефектов речи.

Ключевые слова. Язык, речевые дефекты, речевой интеллект, память, воображение, связная речь, звуковая сторона речи, педагогические принципы.

The article describes the features of the formation of preschool educational organization teachers competencies for working with children with speech disorders, and provides recommendations related to the elimination of speech defects.

Key words. Language, speech defects, speech intelligence, memory, imagination, coherent speech, the sound side of speech, pedagogical principles.

Mustaqil taraqqiyot yo'lidan dadil borayotgan, huquqiy demokratik jamiyat qurishga intilayotgan respublikamizda har bir insonning ozod va erkin, farovon yashashini ta'minlovchi jamiyat barpo etilmoqda. Yoshlarning ilm-ma'rifatli bo'lishiga barcha imkoniyatlar yaratilmoqda. Ayniqsa, uzluksiz ta'lim tizimining birinchi bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim tizimi yosh avlodning kelajakda kim va qanday shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi. Maktabgacha ta'limning asosiy vazifasi bolalarni maktabda ta'lim olishga tayyorlash, ularga ma'naviy-axloqiy va estetik ta'lim-tarbiya berishdan iborat bo'lib, bu faoliyat pedagog-tarbiyachilardan katta mas'uliyat va bilim talab qiladi.

So'nggi yillarda pedagog-tarbiyachilar bilim salohiyatini yanada oshirish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo maktabgacha ta'lim tashkilotlarida hali yechimini kutayotgan kamchiliklar talaygina. Xususan, davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarda uchrayotgan nutqiy nuqsonlari ularning bilim olishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, nutqiy buzilishlar bois bolalarda ta'lim-tarbiya jarayonidan o'zini olib qochish, o'zini yakkalash, nutqiy buzilish kamchiliklarini yashirish orqali so'z boyligini keskin kamayishi va mustaqil fikr bildira olmaslik kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda. Nutqi to'liq rivojlanmagan maktabgacha yoshdagi bolalari bor ota-onalar va ular tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan pedagoglar, psixologlar boladagi bu nuqsonni bartaraf etish

uchun erta yoshdanoq logopedik ish tizimini tashkil etishsa, ta’lim jarayonining sifat va samaradorligi yanada oshishi mumkin. Lekin bugungi kunda bunday nutq nuqsonlari bilan nafaqat logoped, balki bolalar bilan har kuni ta’lim-tarbiya faoliyatini olib borayotgan pedagog-tarbiyachilar ham shug‘ullanib borsa, salbiy natijalarga olib keluvchi nutq nuqsonlarini kamaytirish va boshqa asoratlarning oldini olishga muvaffaq bo‘ladi.

Nutq tug‘ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan bir qatorda shakllanib boradi. Nutq buzilishlarini o‘rganish, tushunish uchun tarbiyachi bola nutqining normal rivojlanish yo‘lini, bu jarayonning o‘ziga xos xususuyatlarini, nutqning muvaffaqqiyatli shakllanishi omillarini bilishi lozim.

Mazkur muammo qadimdan yosh avlod tarbiyasi bilan, jumladan, bolalar nutqi, ulardagi nutqiy buzilishlar bilan shug‘ullangan pedagoglar e’tiborini tortib kelgan. Xususan, Sharqning XI-XII asrda yashagan buyuk allomasi, qomusiy olim Burhoniddin Zarjuniy bu borada dastlabki tamal toshini qo‘ygan. U nutqiy defektlarni bartaraf etishda suhbat usuliga urg‘u beradi.

Nutqqa nisbatan ilmiy tadqiqot obyekti sifatidagi umumiy yondashuvlarni tahlil qilish psixik rivojlanishning barcha jihatlarini tushunish uchun o‘rganilishi favqulodda muhim bo‘lgan ushbu hodisaning o‘ta murakkabligi va ko‘p qirraliligi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. “Nutq o‘ziga xos faoliyat sifatida boshqa faoliyat turlari bilan bir qatorda turmaydi, u psixologik rivojlanish jarayonida markaziy o‘rinni egallaydi… ”(A.N.Leontyev).[1] Rus pedagoglarining XIX asrdan boshlab olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovor. Ushinskiy 6 yoshgacha bo‘lgan bolalar nutqini tavsiflar ekan, uning ayrim xususiyatlarini, masalan, tovushning tushunarsizligi, lug‘at boyligining yetarli emasligini, o‘zaro bog‘liqlikning yo‘qligini alohida ta’kidlagan. U bolalar bilan mashg‘ulot o‘tkazishning turli shakllarini taklif qilgan. A.N.Leontev bola nutqi shakllanishi davriga o‘ziga xos yondashadi va bu borada uchrab turadigan nuqsonlarga ham to‘xtaladi.

O‘zbekiston Respublikasida pedagog-olimlar L.R.Mo‘minova, E.A. Babayeva, M.Y. Ayupova va X.M. Po‘latovalar tomonidan nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarda nuqsonlarning kelib chiqish sabablari tadqiq qilingan. Bu tadqiqotlarda leksik, grammatik, fonetik-fonematik tomondan nutqning rivojlanmasligi ochib berilgan va korreksion-pedagogik tuzatishlar, usullarning ahamiyati o‘rganilgan. Lekin hozirgacha nutqida nuqsoni bo‘lgan bolalar bilan ishlashda maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagog-tarbiyachilari kasbiy kompetentligini shakllantirish alohida muammo sifatida tadqiq etilmagan. Shu nuqtayi nazardan bolalar nutq nuqsonlarini aniqlash va uni bartaraf etish tarbiyachilar oldida turgan muhim vazifa deb hisobladik. Tarbiyachi bolaning so‘z boyligini aniqlaydi, boyitib boradi va faollashtiradi, bolalarni tovushlarni to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rgatadi, og‘zaki nutqning turli shakllariga – monolog (aytib berish, qayta hikoya qilib berish) va dialogga (so‘zlashuv yoki savol – javob nutqiga), so‘zlarni grammatik jihatdan to‘g‘ri o‘zlashtirish va to‘g‘ri tuzishga o‘rgatadi.

Tarbiyachilar tomonidan tarbiyalanuvchilar artikulyatsion apparatining tuzilishi va harakatchanligi obdon tekshirilib, tahlil qilib chiqiladigan bo‘lsa, bolaning nutqi va ayniqsa, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini ko‘pincha aniqlab olish mumkin.

Tovushlar talaffuzi har xil darajada buzilgan bo‘lishi mumkin. Bolaning aksari taqlidchan bo‘lgani tufayli, u barcha tovushlarni tarbiyachi yoki o‘qituvchi ketidan to‘g‘ri talaffuz etadi. Bolalar nutq nuqsonlarini o‘rganish jarayoni amaliyotida asosan

[1] Maktabgacha ta’lim kafedrasi bolalarning nutqini o‘stirish fanidan o‘quv uslubiy-qo‘llanma. Buxoro davlat universiteti.

sirg‘aluvchi, sonor, yollashgan unlilar ayniqsa ko‘p talaffuz etiladi. Shuning uchun bu tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar quyidagi tartibda tekshiriladi: sirg‘aluvchi – s, z, sh, ch, s; sonor – m, n, l, r, ng; til orqa – k, g, h; chuqur til orqa – q, g‘; frikativ – h; jarangli-jarangsiz tovushlarning almashtirilishi; yolashgan unlilar – ye, yo, yu, ya. Ko‘p hollarda bola tovushni alohida olingan holda to‘g‘ri talaffuz eta oladi, biroq bo‘g‘in, so‘z va gaplarda uni boshqa tovushlar bilan adashtirib yuboradi. Shuni hisobga olib tarbiyachi har bir tovushni tekshirish uchun shu tovush so‘z boshida, o‘rtasida, oxirida keladigan sodda va murakkab strukturali so‘zlar ifodalangan predmetli va sujetli rasmlar kartochkalari ishlatgan holda mashg‘ulotlarni olib borsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.[2]

Bitta so‘z turli birikmalar tarkibidagi bir necha tovush talaffuzini tekshirishga xizmat qiladi, masalan, sholg‘om so‘zi sh, l, g‘ tovushlari talaffuzini tekshirishda ishlatiladi. Lekin shuni alohida ahamiyatga olish kerakki, foydalanilayotgan mashg‘ulot usullari va ishlatilayotgan har bir so‘z bolalar yosh xususiyatlaridan kelib chiqishi zarur. Bu jarayon nutqida kamchiligi bo‘lgan bolalar nutqini sistemali va har tomonlama tekshirish va ularni bartaraf etishda alohida o‘rin tutadi. Masalan:

sirg‘aluvchi – s, z, sh, ch, s: sabzi’ sarimsoq, sartarosh;

sonor – m, n, l, r, ng: mallavoy, mushukvoy, non, lola, arra;

til orqa – k, g, h; ko‘klam, gullar, hashar bolalarga qulay va tushunarli bo‘lishi uchun har bir so‘z rasmi bilan ko‘rsatiladi.

Xulosa qilib aytganda, moddiy dunyodagi narsa va hodisalar ongimizda aks etib, bularning in’ikosi so‘z shaklida ifodalanadi, til hodisalari vositasida namoyon bo‘ladi. Inson o‘zi ko‘rgan va ta’sirlangan buyum yoki voqealarni so‘z yordamida nomlab, ularning mazmuni haqidagi taassurotlarni obrazlar, fikrlar, tushunchalar, tasavvurlar ko‘rinishida anglash, ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Har qanday hodisaning miyada aks etishi va ongda mustahkam o‘rnashib qolishida nutq yetakchi vosita hisoblanadi. Modomiki, shunday ekan, nutq aloqa bog‘lash jarayonida tafakkur yuragi bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga aloqa jarayonida nutq – ifodalash, biror narsani bildirish, anglatish va ta’sir ko‘rsatish vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida” 2020-yil 6-noyabr PF-6108-son Farmoni.

2. Avezov S.S., Sharipova M.B., Nizomova Sh.Sh., Hamroyeva N.N. Maktabgacha ta’lim kafedrasi bolalarning nutqini o’stirish fanidan O‘quv uslubiy-qo‘llanma Buxoro davlat universiteti. 2019-yil. Korreksion pedagogika va Logopediya; Raxmanova V.S. 51-b.

3. Svetlana Gogareva “Nutq terapiyasining dolzarb muammolari” Maktabgacha ta’lim muassasalarida nutq terapiyasini tashkil etish 27.02.2019.

4. G. Rahmatullayeva “Nutqi to‘liq rivojlanmagan bolalarning nutqiy xotirasini logopedik ish tizimida shakllantirish”. –T., 2014.

[2] Korreksion pedagogika va Logopediya; Raxmanova V.S. 2019-yil, 51-b.

Foziljon KIYIKBOYEV,
Andijon davlat universiteti, filologiya fanlari nomzodi,
"Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi dotsenti

BOBURIYLAR SHAJARASIDA OTALAR VA BOLALAR MUAMMOSI (PIRIMQUL QODIROVNING TARIXIY ROMANLARI ASOSIDA)

Annotatsiya

Maqolada tarixiy romanda tasvirlangan boburiylar shajarasida ota va o'g'illar munosabatining badiiy talqini, ular o'rtasidagi munosabatlarga oilaviy muhit, shuningdek, ijtimoiy va siyosiy omillarning ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Boburiylar shajarasi, tarixiy roman, oilaviy muhit, otalar va bolalar muammosi, ijtimoiy omil, muammolar, yechim.

В статье анализируется художественная трактовка отношений отца и сына, отношение семейной среды между ними, а также влияние социально-политических факторов на династию Бабурия, описанную в историческом романе.

Ключевые слова. Династия Бабуридов, исторический роман, семейная среда, проблема отцов и детей, социальный фактор, проблемы, решение.

The article analyzes the artistic interpretation of the relationship between father and son, the relationship of the family environment between them, as well as the influence of socio-political factors on the Baburid dynasty described in the historical novel.

Key words. Baburid dynasty, historical novel, family environment, problem of fathers and children, social factor, problems, solution.

Inson faoliyatida ma'naviy-axloqiy muammolar turli ko'rinishlarda mavjud bo'lib, ular maishiy va ijtimoiy hayotda hamisha yetakchi o'rinni egallab kelgan. Ba'zi axloqiy kategoriyalar bashariyatning doimiy hamrohi sifatida yashovchandir. Shunday abadiy kategoriyalardan biri – ajdodlar va avlodlar almashinuvi, otalar va bolalarning o'zaro munosabatlari masalasidir. Odamzod yaralgandan buyon otalar va bolalar muammosi bor va u hamisha dolzarbligicha qoladi. Hayotda bor muammolar esa badiiy adabiyotda o'z in'ikosi va inkishofini topadi. Buyuk Britaniyaning tarixiy-etnografik muzeyida saqlanayotgan, bundan olti ming yil muqaddam yozilgan yodgorlikda aytilishicha, "Hozirgi yoshlar ota-bobolaridek emas, ular axloqsiz, hayot qadrini bilmaydilar". Yoki Bobil xarobalaridan topilgan to'rt ming yil avvalgi yodgorlikda aytilishicha, "Hozirgi yoshlar badniyat, beg'am, umrini bekor o'tkazishga moyil toifadir". Yunon faylasufi Suqrotning e'tiroficha, "Yoshlar hayotni qadrlamaydilar".

Ko'rinadiki, ota-bobolar o'z farzandlarining faoliyatidan hech qachon qoniqmaganlar va bu o'z-o'zidan ular o'rtasida ma'lum ziddiyatlarni keltirib chiqargan. O'z navbatida o'sib-unib, yangicha tafakkur bilan voyaga yetayotgan farzandlar ham otalarining xatti-harakatlaridan, turmush tarzidan to'la qoniqmaydilar va ularni inkor etib, o'z qarashlarini

hayotga tadbiq etishga intilishadi. Jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri ham shu munosabatlardir.

Hayotda ro‘y beradigan otalar va bolalar o‘rtasidagi azaliy muammo badiiy adabiyotda aks etmasligi mumkin emas. Chunki, hayotda ajdodlar va avlodlar almashinuvi o‘z izini u yoki bu darajada qoldiradi. Bu hayotning badiiy ko‘zgusi bo‘lgan adabiyotda, shubhasiz, aks etadi. Shu bois adabiyot paydo bo‘libdiki, otalar va bolalar muammosi ham badiiy asarlarda aks etib kelmoqda.

Binobarin, F.Kafka aytganidek, “O‘g‘ilning otaga isyoni adabiyotning eng qadim mavzusi va dunyoning eng ko‘hna muammolaridandir”.

Shu jihatdan otalar va bolalar muammosi asrlar mobaynida o‘zbek adabiyotining ham doimiy mavzusi bo‘lib kelayotir. Ming yillik tarixga ega mumtoz adabiyotimizda ham mazkur muammo tajalli nazariyasi[1] vositasida o‘ziga xos ifoda etilgan. Bu o‘rinda Navoiy “Xamsa”sidan Chin xoqoni va uning dilbandi Farhod, hukmdor Xusrav va o‘g‘li Sheruya munosabatlarini eslash kifoya. Keyingi davrlar adabiyotida, xususan, o‘tgan asrda shakllangan romanchilik an’analarida ham mazkur muammoning badiiy talqini turli shakl va mazmunda ifoda etildi.

Ma’lumki, o‘zbek tarixiy romanchiligi salkam yuz yillik tajriba va malakaga egadir. Janrning bir asrlik taraqqiyotida tarixnavis adiblarning bir necha avlodi dunyoga keldi va adabiyotimiz rang-barang mavzulardagi tarixiy asarlar bilan boyidi. Muammolarning ko‘pchiligi otalar va bolalar munosabatlari doirasida hal etildi.

Biz quyida azaliy avlodlar mojarolariga sabab-otalar va bolalar muammosi talqinini P. Qodirov tarixiy romanlari misolida ko‘rib o‘tamiz.

Bobur Mirzoning qariyb 36 yillik hayoti va faoliyatini qamrab olgan P. Qodirovning “Yulduzli tunlar” romanida otalar va bolalar o‘rtasidagi samimiy munosabatlar yuksak mahorat bilan tasvirlanganligini kuzatamiz. Bobur Mirzoda o‘z farzandlariga nisbatan otalik tuyg‘usi, ishonchi doimo ustun turganligi tarixiy haqiqat.

Bobur Mirzo boshidan hayotida nechog‘lik dahshatli kunlar o‘tgan bo‘lmasin, oilasi va farzandlari oldidagi burchini sharaf bilan bajardi, bolalarining biridan ikkinchisini afzal ko‘rmadi. Boburning farzandlariga sadoqati “Yulduzli tunlar” tarixiy romanidagi o‘g‘li Humoyunga jonini sadaqa qilishi sahnasida aniq ko‘rinadi.

“Bobur farzandlarining diyonatli, ilm-fazilatli bo‘lib o‘sishi uchun ularga kitob tanlab yuborishni, ularning o‘rganishi uchun ularga kitoblar yozishni otalik burchi deb hisoblagan. Ularni o‘qish, o‘rganishga targ‘ib qilib, imlo va insho xatolarini to‘g‘rilab, bexato, sodda, ravon va betakalluf yozishga chorlagan. Albatta, Boburning bunday sa’y-harakatlari zoye ketmadi. Uning to‘rttala o‘g‘li, qizi, nabiralari va ularning farzandlari ilmu san’at, she’ru adabiyotda nom qozondilar’’.[2]

Bobur Mirzoning temuriylar saltanati odatiga zid o‘laroq toj-u taxtni o‘zi hayotligida, inon-ixtiyori bilan taxt vorisi – o‘z farzandiga topshirishi ham otalar va bolalar o‘rtasidagi ijobiy va samimiy munosabatlarga asos bo‘ladi. Bobur Mirzodagi el-yurt manfaati uchun fidoyilik, ezgulik fazilatlari keyingi avlodlarida vorisiylik kasb etadi. Bu haqda atoqli fransuz tarixchisi E.Renan buyuk temuriy tojdorlar – Bobur, Humoyun, Akbar, bobo, o‘g‘il, nabira orasidagi munosabatlarga “Ular o‘rtasidagi oqilona vorisiylik tarixda faqat bir bor sodir bo‘lgan nodir hodisa”[3] deya baho beradi.

[1] Kodirov V. Mumtoz adabiyot namunalarini o‘qitishda metodologik asosning ahamiyati. Til, ta’lim, tarjima (xalqaro jurnal). – Samarqand, 2020. – №2, 1-jild. 97-106-betlar.

[2] Doktor Shafiqa Yorqin. Bobur oilasida farzand tarbiyasi // O‘zbekiston adabiyoti va san’ati. – T., 2006. – №7

[3] Ренан Э. Марк Аврелий и конец древнего мира. Терра-Терра. – Ярославль, 1993. – С. 10.

Yozuvchining navbatdagi “Avlodlar dovoni” romanida ota-onasining suratini ham, siyratini ham o‘zida jam etgan o‘g‘li Akbar bilan otasi Humoyunning iliq va muhabbatli suhbatlari, bir-birini tushunishi, ota vasiyatini sidqidildan amalga oshirgan shoh Akbarning mamlakatdagi obro‘-e’tibori o‘z ifodasini topgan. Ayni chog‘da Akbarning hind ayolidan tug‘ilgan o‘g‘li Salimdan kutgan niyatlarining amalga oshmaganligi, murabbiyi Farid Buxoriydan olgan saboqlari evaziga manfaatparast, xudbin va taxt ishqibozi bo‘lib o‘sgan Salimning xurmacha qiliqlari hamda qolgan ikki o‘g‘li Murod bilan Doniyolning ichkilik va ma’jun iste’mol qilishga berilib, bevaqt olamdan o‘tishlari tufayli otaning tortgan azoblari tasvirlanadi. Yozuvchi kitob so‘nggida “Ota bilan o‘g‘il orasida paydo bo‘lgan adovat jari tobora chuqurlashib, kengayib” borayotganligi, ammo, Akbarshohning bag‘rikengligi, donishmandligi tufayli bu nizolar barham topganligi to‘g‘risida xabar beradi. Garchi, ota-bola o‘rtasidagi ziddiyatlar O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanidagidek keskin, shiddatli va yuzma-yuz to‘qnashuvlar tarzida tasvirlanmasa-da, “Avlodlar dovoni” romanida P.Qodirov o‘g‘il – Salimning ortida ota – Akbarshohga qarshi qayrayotgan katta ijtimoiy kuch borligiga, bu manfaatdor kuchlar “Salimning otasiga qarshi isyonini tezlatish” ni talab qilayotganligiga alohida urg‘u beradi. Angliya, Fransiya, Portugaliya o‘rtasida talash bo‘layotgan Hindistonni ichki nizolar bilan kuchsizlantirib, mustamlakaga aylantirishni ko‘zlayotgan chet ellik kuchlar timsoli sifatida Salimning “sadoqatli” navkari qiyofasida namoyon bo‘lgan Alibek – Albert Pereyro timsoli xarakterlidir. Romanning oxirgi boblariga kelib ota-bola o‘rtasidagi ana shu siyosatdonlar tufayli nish urayotgan nizolar “yechib bo‘lmaydigan tugunlar”ga aylanadi. Ota Akbar bu tugunlarni aql-farosat bilan yechishga qanchalik urinmasin o‘g‘il Salim sirtdan ham, zimdan ham bu tugunlarni yanada chalkashtirishga urinaveradi. Akbarni “Shunday ulkan davlatni boshqargan odam tilab olgan o‘g‘illarimni yo‘limga sololmasam-a...” (538) degan og‘ir iztirob ezib adoi tamom qiladi. Uning nevaralari Xisrav hamda Hurramga aytgan mana bu vasiyati otalar va bolalar o‘rtasida paydo bo‘ladigan muammolarni yechishga eng munosib kalit bo‘lib xizmat qiladi: “Ota-bobolaringdan faqat yaxshi fazilatlarni olinglaru, nuqsonlarimizga zinhor ergashmanglar!..” (540). Bu har ikki romanda ko‘tarilgan muammolarning bosh xulosasidir.

Pirimqul Qodirovning navbatdagi “Ona lochin nidosi” nomli tarixiy romani avvalgi ikki tarixiy romanlarini mantiqan to‘ldiradi. Unda Shohruh Mirzoning suyukli xotini, Mirzo Ulug‘bekning onasi Gavharshodbegim asosiy qahramon hisoblanadi. Ma’lumki, ayrim ilmiy manbalarda (ayniqsa, sovet davrida yaratilganlarida) Gavharshodbegim g‘oyat xudbin, o‘zbilarmon, eriga ham, beku amaldorlarga ham o‘z hukmini o‘tkaza oladigan, davlat ishlariga aralashib, ko‘p masalalarni o‘z manfaati nuqtayi nazaridan hal etadigan, taxtparast, ota-bolalar o‘rtasiga nifoq soladigan ustomon, ayrim bolalari va nevaralariga bemehr ayol sifatida ayon bo‘lgan. Ona hatto o‘z o‘g‘li Ulug‘bekka qarshi ham fitnalar uyushtirib, nabirasi Abdullatifni tayyorlagani ham ko‘p qayd etiladi. Romanda esa yozuvchi haqiqiy tarixiy dalillarga tayangan holda Gavharshodbegimning chinakam suratiyu siyratini ochib berishga urinadi. Unda ko‘proq o‘g‘il Abdullatifning tabiatidagi xudbinlik, taxtparastlik, betgachoparlik kabi illatlarni ochishga e’tibor beriladi.

Romanda bunday muammolar tugunining paydo bo‘lishi va yechimi asosan, Gavharshodbegim nuqtayi nazari orqali ayon bo‘ladi. Masalan, asarning boshlanishida Amir Temur bilan Shohruh Mirzo o‘rtasidagi ota-bolalik munosabatlari juda iliq va ochiq bo‘lganligi xotira shaklida ochiladi. Amir Temur bolalarining tarbiyasiga alohida e’tibor bergan, ularga eng sofdil, sadoqatli, bilimdon kishilarni murabbiy qilib qo‘ygan. O‘g‘illarining tarbiyasini asosan, oqila va tadbirkor xotini Saroymulkxonimga ishonib

topshirgan. Shohruh Mirzo bilan Gavharshodbegimlar ham ana shu an'anani davom ettiradilar. Ular ham "o'z o'g'illarini bunyodkorlik ruhida tarbiyalagan, ularning har biriga yaxshi ko'rgan ilmiy-ijodiy ishini qilish uchun imkon yaratgan edilar. Shohruh Mirzo va Gavharshodbegim bir yoqadan bosh chiqarib, hokimiyat jilovini mahkam tutganliklari, o'g'illarini insof va adolat ruhida tarbiyalaganliklari uchun to'rt o'g'ildan birortasi – na Ulug'bek, na Ibrohim, na Boysunqur, na Jo'qiy Mirzo – bir-biri bilan yovlashgan emas, ota-onalariga qarshi bosh ko'targanlari ham yo'q" (20, 21). Ammo tarbiyaning qanday samara berishi murabbiylarning kimligi va qandayligiga ham bog'liq. P.Qodirov masalaning bu tomoniga ham e'tibor beradi. Abdullatif buvisi Gavharshodbegim qo'lida Alouddavla, Abdulqosim Bobur bilan birgalikda tarbiyalansa-da, fikri xayoli "faqat toj-u taxtni egallash, jangda o'lja olish va ayshu ishrat qilish" bilan band edi. Bunga uning otalig'i bo'lmish Junayid Bo'tabek o'rgatadi, ko'ngliga g'ulg'ula soladi, shahzodani har doim otasiga, buvisiga qarshi gij-gijlaydi.

Romanda ota-bolalar o'rtasidagi ziddiyatlarning oqibatidan ko'ra ko'proq muammoning ildizlarini yoritishga e'tibor beriladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiyotni hayot in'ikosi o'laroq ta'riflash oldindan bor bo'lgan munosabatdir. Bu in'ikosning o'ziga xos qonuniyatlari, tamoyillari mavjud. Ulardan biri asarda tasvirlanayotgan voqelik orqali ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan boshqa baqamti (parallel) hodisa, voqealarni ham talqin qilish imkoniyatidir. Bu faqat ochiq ifodalanmagani bois o'quvchi-kitobxonning tayyorgarlik darajasi, adabiyot ilmiga xos bilimlardan xabardorligiga, saviyasiga bog'liq bo'ladi. Yuqorida tahlilga tortilgan asarlarda ota-bola munosabati asosan hokimiyat, toj-u taxt doirasida, siyosiy maqsadlar bilan asoslangan munosabatlar fonida yoritilgan. Lekin bu kabi munosabatlar kundalik hayotda, maishiy turmush tarzida ham shunday ziddiyatlar girdobida o'ziga xos muhit va shakllarda yuz berishi mumkin va yuz berib kelmoqda ham. Hamma gap asarni qanday talqin qilish va unga yondashuvda. Badiiy adabiyotning tagma'no orqali ijtimoiy, siyosiy hayotni tasvirlashdagi universalligi ham shundadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kodirov V. Mumtoz adabiyot namunalarini o'qitishda metodologik asosning ahamiyati. Til, ta'lim, tarjima (xalqaro jurnal). – Samarqand, 2020. – №2, 1-jild.– 97-106-betlar.

2. Doktor Shafiqa Yorqin. Bobur oilasida farzand tarbiyasi // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – T., 2006. – №7 (3836).

3. Ренан Э. Марк Аврелий и конец древнего мира. Терра-Терра. – Ярославль, 1993. – С. 10.

4. Qodirov P. Ona lochin nidosi. Tarixiy roman. – T.: Sharq, 2001.

(Bundan keyingi misollar shu manbadan olindi va sahifasi qavs ichida ko'rsatildi)

Zulfizar AZIZOVA,
Andijon davlat universiteti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
“Maktabgacha pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi

ERTAKLAR – QADIMGI QADRIYATLAR NAMUNASI, MADANIY MEROS SIFATIDA

Annotatsiya

Mazkur maqolada inson shaxsini har tomonlama uyg‘un rivojlantirishda axloqiy tarbiyaning o‘rni beqiyosligi, bu borada ertaklar yetakchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi fikrlar bildirilgan, shuningdek, metodik yordam sifatida o‘zbek xalq ertagi asosida tarbiyalanuvchilar uchun mo‘ljallangan ertak tomoshasi ssenariysining namunasi ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Ertak, ta’lim-tarbiya, axloqiy tarbiya, axloqiy sifatlar, farzand, tarbiyachi, ota-ona.

В данной статье обсуждается уникальная роль нравственного воспитания в гармоничном развитии человеческой личности, тот факт, что сказки являются ведущим средством в этом отношении, а также приводится пример сценария сказки для дошкольников по мотивам узбекских народных сказок.

Ключевые слова. Сказка, воспитание, нравственное воспитание, нравственные качества, ребенок, воспитатель, родитель.

This article discusses the unique role of moral education in the harmonious development of the human personality, the fact that fairy tales are the leading means in this regard, and also provides an example of a fairy tale scenario for preschoolers based on Uzbek folk tales.

Key words. Fairy tale, education, moral education, moral qualities, child, educator, parent.

Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilishi, bunda bolalarda Vatanga muhabbat hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilishi lozimligi maktabgacha ta’limning me’yoriy asoslarida ham e’tirof etilgan. Jumladan, “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarorida: “Yoshlarda Vatanga sadoqat, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas’uliyatlilik, tolerantlik, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi muhim fazilatlarni go‘daklikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish; bola tarbiyasida milliy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalanish shakllarini belgilab berish” kabi vazifalar belgilab qo‘yilgan.

Ertakning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri bolalar uchun sodda va ravonligi, obrazliligi bilan ularning qalbiga yaqin turadi. Bolalar dastlab o‘zlari tinglagan ertaklari yordamida asta-sekin atrof-muhit, borliq-olam bilan tanishib boradilar. Ertakda ifoda etilgan g‘oyalar bola tomonidan tez o‘zlashtiriladi, bolaning fikr va tasavvurini boyitadi. Bola ertakni tinglar ekan, uning g‘oya-mazmunini xayolida taqqoslaydi, fikrlaydi, nima

yaxshi-yu, nima yomonligini fahmlaydi.

Xalq tabiatan hamisha adolatni yoqlaydi, himoya qiladi. Ertaklar yaratilish jihatdan miflarga asoslansa, mavzuning tanlanishi, obrazlar tizimidagi yo‘nalishlar, hayot muammolarini aks ettirishda adolat mezoniga bo‘ysunadi. Qalloblik, vijdonsizlik, xiyonat, yolg‘onchilik, ma’naviy nopoklik kabi illatlar doimiy ravishda qoralanadi. Mardlik, to‘g‘riso‘zlik, mehnatsevarlik, iymonlilik, poklik fazilatlari hurmat bilan tilga olinadi. Voqeaning tuguni ham hamisha ana shu fazilatlarni ulug‘lash bilan yechimini topadi. Mohir xalq farzandlari tomonidan o‘ylab topilgan fantastik hodisalar, uydirma lavhalar, sehrli narsa-buyumlar, jodular, g‘ayritabiiy hodisalar esa tom ma’noda yovuzlikning qoralanishi, ezgulikning maqtalishida poetik xomashyo sifatida foydalaniladi.

Ertaklarda bolalarning yosh xususiyatlari alohida e’tiborga olinadi. Voqealar qiziqarli, sodda, ixcham, izchil, qisqa bayon etilishi talab qilinadi. Ba’zan bu maqsad kulgili mazmunga ega holda bayon etiladi. Tulki bilan bo‘riga bag‘ishlangan ertaklarning birida go‘sht tishlab ketayotgan bo‘ridan tulki: “Bo‘rivoy, qayerdan kelayapsan?” – deb so‘raydi. Bo‘ri: “Popdan”, – deb javob beradi va og‘zidagi go‘shtini tushirib yuboradi. Ikkinchi marta xuddi shunday vaziyatda tulki yana so‘raydi. Shunda bo‘ri: “G‘ijduvondan”, – deb javob beradi. Kulgili vaziyat ifodalangan bunday ertaklarda, bir tomondan, shunchaki hazil nazarda tutilgandek tuyiladi. Ammo ularning zaminida odamlarning bir-biriga bo‘lgan munosabati aks etadi.

Xalq ongida insonning biron yaxshiligi, albatta, taqdirlanishi lozim. Asar qahramoni semurg‘ga, ayiqqa, laylakka ko‘rsatgan yordami evaziga mushkullari oson bo‘ladi. Uning yordamidan foydalangan hayvonlar keyinchalik sehrli imkoniyatlari bilan qahramon hamrohiga va biron olijanob maqsadni qo‘lga kiritish vositasiga aylanadilar. Ayrim ertaklarda esa adolat aynan ana shu yaxshilik evaziga g‘alaba qozonadi. Xususan, “Ur to‘qmoq” ertagidagi chol davolagan laylak unga bir martagina lutf ko‘rsatib qolmaydi. Balki o‘z sehri ta’sirini oxirigacha amalga oshirib, uning qo‘shnisi qilgan xiyonatni oxirigacha fosh etadi va jazolaydi. Bunday ertaklarda adolat tasodifiy emas, qonuniy ajrim ekani voqealar mohiyatiga singdirib yuboriladi.

“Uch og‘a-ini botirlar” ertagida mo‘ysafid ota o‘z o‘g‘illarini qo‘rqmas, jasur qilib o‘stiradi. O‘z farzandlarini baxt topish safariga otlantirar ekan, ularga uchta maslahat beradi: “To‘g‘ri bo‘ling, bexavotir bo‘lasiz. Maqtanchoq bo‘lmang, uyatga qolmaysiz. Dangasa bo‘lmang, baxtsiz bo‘lmaysiz”. Bu pand mohiyatini tahlil qilsak, hayotga tayyorlanishi lozim insonning haqiqiy amal qilishi kerak hisoblangan fazilatlar aks etganiga ishonch hosil qilamiz.

Ertaklarda juda boy va turli-turli o‘xshatish, sifatlash, mubolag‘alar majmuasiga duch kelamiz. Shuning uchun ham og‘zaki ijodimiz tarkibidagi bu asarlar haqiqiy ma’noda qadriyatlar namunasi, madaniy merosimizning noyob gavhar – injulari darajasida e’zozlanadi.

Bir so‘z bilan aytganda, ertaklarga xalqning orzu-umidlari va dunyoqarashlari singdirilgan bo‘lib, kishini yaxshilikka yetaklaydi. Ertaklarda doimo ezgulik g‘alaba qozonadi, yovuzliklar mag‘lub bo‘ladi. Bu esa, albatta bolaning axloqiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi.

Tarbiyachi va ota-onalar uchun maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda “Do‘stlik sinovda chiniqar”, “Egrivoy va To‘g‘rivoy”, “Yaxshivoy bilan yomonvoy”, “Ur to‘qmoq”, “Ayyor bilan sodda” kabi ertaklardan foydalanishni tavsiya sifatida keltirib o‘tmoqchimiz. Quyida biz “Egrivoy va To‘g‘rivoy” ertagining ssenariysini keltirib o‘tamiz.

“Egrivoy va To‘g‘rivoy”

(O‘zbek xalq ertagi asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilari uchun mo‘ljallangan ertak tomoshasi)

Qatnashuvchilar: Ertakchi, To‘g‘rivoy, Egrivoy, Arslon, Yo‘lbars, Bo‘ri, Tulki, Qashqir, Ayiq, Podshoh, Cho‘pon.

(Mayin musiqa fonida, sahnaning bir chetiga ertakchi chiqib keladi)

Ertakchi – Assalomu alaykum, aziz bolajonlar! Men bugun sizlarga egrilik va to‘g‘rilik haqida ertak aytib bermoqchiman. Xo‘sh, ertak eshitib, tomosha qilishga tayormisizlar. Unday bo‘lsa ertagimizni boshladik.

Qadim zamonda bir qishloqda To‘g‘rivoy ismli bir yigit bo‘lgan ekan. Uning bittagina ozg‘in otidan bo‘lak narsasi yo‘q ekan. Bora-bora qishloqda ish topilmaydigan bo‘lib uning ahvoli og‘irlashibdi. Kunlardan bir kun oti bilan mardikor bo‘lib ishlash uchun ikkinchi bir tomonga jo‘nab ketibdi. Yo‘l yuribdi, yo‘l yursa ham mo‘l yuribdi va yo‘lda unga bitta piyoda yigit (Egrivoy) uchrab qolibdi.

To‘g‘rivoy – Xo‘sh, yo‘l bo‘lsin, birodar?

Egrivoy – Mardikorchilik qilish uchun uzoq shaharga ketayotibman.

To‘g‘rivoy – Ismingiz nima birodar?

Egrivoy – Ismim Egrivoy, o‘zingni isming nima?

To‘g‘rivoy – Mening ismim To‘g‘rivoy. Birodar, qarang hatto ismlarimiz ham birbiriga mos ekan. Keling, yaxshisi ikkimiz do‘st bo‘laylik.

Egrivoy – Shu yoshga kirib ham hech kim bilan do‘st bo‘lmagan edim. Do‘stlashsak do‘stlasha qolaylik.

To‘g‘rivoy – Do‘stim piyoda yurib charchagan ko‘rinasan. Hali uzoq yo‘l yuramiz shekkili, endi otni ham galma-gal minaveramiz.

(Sahna qorong‘ulashib, ertakchi chiqib keladi)

Ertakchi – To‘g‘rivoy otini Egrivoyga beribdi. Egrivoy bo‘lsa egarga o‘tirishi bilan, otga bir qancha urib ko‘zdan g‘oyib bo‘libdi. To‘g‘rivoy esa hayronu-lol bo‘lib qolaveribdi va piyoda o‘z yo‘liga ravona bo‘libdi. Kech kirib atrofga qorong‘ulik tushibdi. Osmonu falakda yulduzlar ham ko‘rina boshlabdi. To‘g‘rivoy yo‘lda bir eski tandirga duch kelibdi va tunni shu yerda o‘tkazishga axd qilibdi, uxlash uchun tandir ichiga kirib olibdi. Taqdirni qarang-ki, o‘rmonda yashovchi Arslon, Yo‘lbars, Bo‘ri, Tulki, va Qashqirlarning bazmgohi ekan. Yarim tun mahali hayvonlar tandir atrofiga yig‘ilishib o‘zaro majlisni boshlabdilar.

Tulki – Aziz yoronlar, shu o‘rmon orqasidagi tog‘da bir g‘or bor, men o‘n yildan beri o‘sha g‘orda yashayman va odamlarning uyida nimaiki bo‘lsa, mening g‘orimda muhayyo.

Qashqir – Ey Tulkivoy, sening joying qiziq emas ekan. Mana bu tepa ostida mening bir sichqonim bor, har kuni tush vaqtida shuni tomosha qilaman. Uning 41 – tillosi bor. Shu tillo tangalarini inidan olib chiqib o‘ynab – o‘ynab, yana olib kirib ketadi.

Ayiq – Birodarim Bo‘rivoy, seni bu hikoyang ajabtovur emas ekan, mana shu mamlakat podshohining qizi yetti yildan beri – kasal yotibdi qanchadan qancha tabiblar ham tuzata olmabdi. Ammo lekin qizning dardini qanday davolashni men bilaman. Mana shu o‘rmonimizdagi yagona chashma yonida kattagina sada qayrag‘ochning yaprog‘i malikaning dardiga shifo bo‘ladi.

Bo‘ri – Eng qiziq hikoya meniki bo‘lsa ajab emas. Shu o‘rmonning narigi chekkasida bir boyning 40 000 ta qo‘yi bor. Men har kuni o‘sha boyning ikkitadan qo‘yini yeyman, meni qo‘lga tushirmoqchi bo‘lib, nima xiylalarni o‘ylab topishmadi-ya. (Kuladi)

Sher – Xo‘sh bo‘rivoy, mobodo sir bo‘lmasa bu masalaning yechimi qanday?

Bo‘ri – yechimi oddiy. Mana shu yaqin oradagi qir boshida turuvchi chol boboning bir iti bor, agarda shu itni sotib olsalar bo‘ldi.

Yo‘lbars – Sening so‘zlaringga ishonaman Bo‘rivoy. Chunki men ham o‘sha boyning yilqi podasidan har kuni bittadan yilqi o‘g‘irlayman.

Sher – Senga juda havasim kelyapti.

Yo‘lbars – Olampanoh, meni ham dardim ichimda. Chunki o‘sha yilqi podani ichida ola ayg‘ir bor, kunda o‘sha ola ayg‘irni minib bo‘ynimga qirq qildan eshilgan “Kamand” solib, qo‘lida katta xoda bilan urib meni ta’zirimni berib qolishi mumkin-da.

(Sahna qorong‘ulashib, ertakchi chiqib keladilar...)

Ertakchi – O‘rmon jonvorlari, suhbatga qiziqib ketganlaridan tong otganini ham sezmay qolishibdi. Bizning qahramonimiz To‘g‘rivoy esa tandirdan chiqib, to‘g‘ri tulki yashaydigan g‘or tomon yo‘l olibdi va qornini yaxshilab to‘ydirib, qashqir aytgan tepalikka borib, sichqondan tillo tangalarni tortib olib, Ayiq aytgan sada qayrag‘ochning yaproqlaridan olibdi. Shundan so‘ng Bo‘rivoy aytgan podaning cho‘ponini oldiga boribdi.

To‘g‘rivoy – Assalomu alaykum, otaxon! Ahvollar qalay?

Cho‘pon – Ahvolim yomon o‘g‘lim. Anchadan beri bir bo‘ri har kuni ikkitadan qo‘yni yeb ketyapti, hech ilojini qilolmayapman.

To‘g‘rivoy – Men shu bo‘ridan qutqarsam, menga nima berasiz?

Cho‘pon – Voy, 40 ta qo‘y olib beraman.

To‘g‘rivoy – Kelishdik otaxon. Ishqilib labzingizda tursangiz bo‘ldi.

(To‘g‘rivoy chiqib sahna qorong‘ulashib sahna yorishganda esa ertakchi chiqib keladilar)

Ertakchi – Shunday qilib, To‘g‘rivoy cho‘ponga Bo‘ribosar itni olib kelib beribdi, evaziga Cho‘pon ham va’dasiga binoan 40 ta qo‘y beribdi. Undan so‘ng esa Yo‘lbars o‘zi aytgandek qilib adabini beribdi va yilqibon ola ayg‘irni sovg‘a qilibdi. Va oxirgi niyati bo‘lmish malikani ham uch kun ichida davolab oyoqqa turg‘azibdi. Qizini sog‘ayganini ko‘rgan podshoh To‘g‘rivoydan so‘rabdi...

Podshoh – Endi siz menga o‘g‘il bo‘ldingiz! O‘g‘lim, agar rozi bo‘lsangiz eng katta shaxarlarimdan biriga hokim etib tayinlayman!

To‘g‘rivoy – Otajon, menga hokimlik kerak emas. Agarda malol kelmasa, o‘rmon etagidagi tog‘ ustiga uy solishimga yordam bersangiz bo‘lgani. Men o‘z mehnatim bilan kun kechirmoqchiman.

(Sahna qorong‘ulashib, sahnaning bir chetiga ertakchi chiqib keladi)

Ertakchi – Podshoh ko‘zimning oq-u qorasi bo‘lmish qizi ya’ni malika va kuyoviga atab, tog‘ning eng baland joyiga qasr qurdiribdi. Kunlardan bir kun, To‘g‘rivoy yo‘lda ketayotib, o‘zining qadimgi otini minib ketayotgan do‘sti Egrivoyni ko‘rib uni uyiga olib kelib mehmon qilibdi.

Egrivoy – Meni kechir, do‘stim! Birovga xiyonat qilgan kishining kosasi oqarmas ekan. Do‘stligimizga xiyonat qildim, qayerga borsam ishim chappasidan ketdi. Sening otingni olib qochib ketganimdan beri qornim to‘yib non yemadim.

To‘g‘rivoy – O‘z aybingni tushinib yetganingni o‘zi katta gap. Endi men senga aytsam, mana shu o‘rmon o‘rtasida tashlandiq hovlida bir eski tandir bor. Men o‘sha tandir ichida bir kecha yotib, mana shularga erishdim, do‘stim!

Egrivoy – Sadag‘ang ketay do‘stim! Menga ham ko‘rsatib qo‘y, men ham o‘sha tandirda bir kecha tunab chiqay.

(Sahna qorong‘ulashib, yana ertakchi chiqib keladi)

Ertakchi – O‘z do‘stini kechirgan To‘g‘rivoy, uni tandir oldiga olib borib yirtqich hayvonlar kelgach, qo‘rqmay ovoz chiqarmay o‘tirishini tayinlabdi. Yarim tunda o‘rmon hayvonlari yana yig‘ilishibdi va o‘rmon shohi Arslon so‘z boshlabdi.

Arslon – Nimagadir oramizda birodarimiz Tulki ko‘rinmayapti.

Qashqir – Olampanoh, bizning sirlarimizdan kimdir xabardor shekilli, avvalgi mashvaratimizdan so‘ng – birodarimiz tulki ko‘rinmayapti.

Tanga egasi sichqonvoyimiz g‘oyib bo‘lib qoldilar.

Ayiq – Sada qayrag‘ochning barglaridan kimdir olib malikani davolagan emish.

Bo‘ri – O‘sha yaramasni topib jazolang, shohim, qarang bizlarni qanday ahvolga solib qo‘yganini!

Yo‘lbars – Ha olampanoh, axir siz doim har joyda adolat bo‘lmog‘i kerak, der edingiz.

Arslon – Endi mening farmonimni eshitinglar! Ertagayoq, hamma yoqqa jar solinglar. Kimda kim bizning sirlarimizdan boxabar odamni topib bersa katta mukofot kutayotir.

(Tandir ichida yotgan Egrivoy sabri chidamay, sakrab chiqadi)

Egrivoy – Men bilaman o‘sha odam kimligini, men topib beraman.

(Sahna qorong‘ulashib, sahnaga ertakchi chiqib keladi)

Ertakchi –Tandirni ichidan otilib chiqqan yigitni ko‘rib, yirtqichlar hayron bo‘lib qotib qolishibdi va: “Chaqimchining jazosi – o‘lim!”, – deb Egrivoyni tilka pora qilib tashlashibdi.

Mana bolajonlarim, o‘z do‘stiga xiyonat qilgan, o‘g‘irlik va chaqimchilik qilganlarning jazosi mana shunaqa yakun topgay.

O‘z do‘stining xiyonatini kechirgan insonlarga doimo yordam qo‘lini cho‘zgan To‘g‘rivoyimiz esa o‘z malikasi bilan baxtli-saodatli hayot kechiribdi.

Mana shuning bilan sizlarga aytib bermoqchi bo‘lgan To‘g‘rivoy bilan Egrivoy haqidagi ertagim ham o‘z nihoyasiga yetdi.

Xullas, ertaklarning bolani atrof-muhit, borliq-olam bilan tanishtirib borishda, uning fikr va tasavvurini boyitib borishda, umuman dunyoqarashini tarkib toptirishdagi va bola tarbiyasidagi ahamiyati kattadir. Ertak bolalarning axloqiy tarbiyasida ota-onalar, tarbiyachilar uchun muhim vosita bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi”ni tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Qarori.

2. Do‘stxo‘jayeva. I.N. O‘zbek sehrli ertaklarining struktural tahlili. fil. fanl. nomz. diss. avt. – T., 1999.

3. Abdurahimova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish. Ped. fanl. nomz. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. –T., 1998.

4. Azizova Z.F. Qo‘g‘irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. Ped. fanl. bo‘yicha falsafa doktori lmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – Andijon: 2020.

Otabek MIRZAYEV,
Andijon davlat universiteti, tayanch doktoranti

BO‘LAJAK MAKTABGACHA TA’LIM MUASSASASI TARBIYACHISINING KASBIY-MA’NAVIY FAZILATLARINI SHAKLLANTIRISHDA ISLOMIY MANBALARNING O‘RNI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy-ma’naviy fazilatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillar sifatida islomiy manbalarning o‘rni va ahamiyati bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Fazilat, kasb, islomiy manba, Qur’on, hadis, ma’naviy sifat, go‘zal xulq.

В данной статье рассматривается роль и значение исламских источников как факторов, влияющих на развитие профессионально-нравственных качеств будущего воспитателя дошкольного образовательного учреждения.

Ключевые слова. Добродетель, профессия, исламский источник, Коран, Хадис, духовные качества, красивое поведение.

This article examines the role and significance of Islamic sources as factors influencing the development of professional and moral qualities of the future teacher of a preschool educational institution.

Key words. Virtue, profession, Islamic source, Qur’an, Hadith, spiritual qualities, beautiful behavior.

Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng jamiyat ma’naviy hayotini sog‘lomlashtirish va rivojlantirish, inson omiliga katta e’tibor berish asosiy vazifa sifatida kun tartibiga qo‘yildi. Bu jamiyat oldida turgan vazifalarni oqilona hal etish ekanligi shubhasizdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida butun jahondagi 2 milliarddan ortiq yosh avlod vakillarining insoniyat taraqqiyotida muhim o‘ringa ega bo‘layotgani va yoshlar omilining alohida e’tiborni talab qilayotgani haqidagi fikri nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Yoshlarga e’tiborning kuchayishi ayni paytda ularning ma’naviy qiyofasiga diqqat qilishni ham taqozo etmoqda. Mazkur jarayonda kasbiy-ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Chunki insonning, jumladan, yoshlarning ma’naviy dunyosi ularning o‘z kasbiga, mehnat jarayoni hamda samarasiga bo‘lgan munosabatida aks etadi. Bo‘lajak mutaxassislarning ham shaxsiy, ham kasbiy fazilatlarini uyg‘un holda shakllantirish, rivojlantirib borish g‘oyat muhim vazifa sanaladi.

Islomga ko‘ra, “fazilat” so‘zining ma’nosi yaxshiliklar sohibi, yaxshi xislatli, boshqalardan yaxshi sifatlari bilan ajralib turuvchidir. Darhaqiqat, muqaddas dinimiz asoslaridan oziqlangan ajdodlarimiz qadim zamonlardan “g‘ayratlilik”, “hamiyatlilik”, “shirinsuxanlik”, “rostgo‘ylik”, “vijdonlilik”, “omonatga xiyonat qilmaslik”, “qanoat qilish”, “ahdga vafodorlik”, “g‘azabni yuta olish”, “ixlos”, “qalbni nafrat-adovatdan poklash”, “muloyim va kechirimli bo‘lish”, “saxiylik va oliyhimmatlik”, “sabrli bo‘lish”, “tejamkorlik va to‘g‘rilik”, “tozalik va

sog‘lomlik”, “hayo”, “birodarlik”, “birlashish”, “do‘st tanlash”, “qadr-qimmat”, “rahmdillik”, “ilm izlash”, “vaqtdan unumli foydalana olishlik” kabi fazilatlarni tarbiyachi-ustoz bilan bog‘liq kasbiy-ma’naviy fazilatlar qatoriga qo‘shishgan.

Bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi tarbiyalanuvchilar uchun “rahbar” emas, avvalo, “inson” sifatida hurmat qozonishi, kishilar o‘rtasida obro‘-e’tibor topishida uning go‘zal fazilatlari asosiy o‘rin tutadi. Adolatlilik, muloyimlik, saxiylik, kattaga hurmat, kichikka izzat, kengfe’llilik kabi fazilatlar, insonni, qolaversa, bo‘lajak maktabgacha ta’lim tashkiloti xodimini chinakam bezaydi. Albatta, yumshoq, shirin so‘zli tarbiyachi bolalar mehrini, ishonchini qozonadi, hatto, tarbiyalanuvchilar uni o‘z onalaridek yaxshi ko‘rib qolishadi.

Har qanday insonni bezaydigan, uni jamiyatda mamnuniyat bilan qabul qilinishiga sabab bo‘ladigan omil “kirishimlilik”, “birlashish” va “yakdillik” fazilatidir. Hadisi sharifda shunday marhamat qilinadi: “Odamlarga aralashmagan, ularning ozorlariga sabr qilmagan mo‘mindan, odamlarga aralashgan, ularning ozorlariga sabr qilgan mo‘min afzalroqdur” deyilgan. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi ham jamoada doim yakdil va kengfe’l bo‘lib faoliyat olib borsa, o‘z xatti-harakatlari orqali qo‘l ostidagi tarbiyalanuvchilariga o‘rnak bo‘la oladi.

Hadisda keltirilishicha, Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) Ashaj ismli sahobaga qarab dedilar: “Senda Alloh va Rasul yaxshi ko‘radigan ikkita xislat bor: halimlik (g‘azab tez kelmaslik), sabrlilikdir”. Yana bir hadisda Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi vasallam) bir kuni sahobalaridan: “Xo‘sh, kimni eng kuchli odam deb o‘ylaysizlar?” – deb, so‘radilar. Sahobalar: “Raqibini tezlik bilan yengadigan, yiqitadigan kishi eng kuchli polvon bo‘ladi”, deb javob berdilar. Shunda u zot (sollallohu alayhi vasallam): “Yo‘q, unday emas, jahli chiqqanda g‘azabini ichiga yuta oladigan kishi eng kuchlidir”, dedilar. Shu sababdan Alloh taolo ham g‘azabini ichiga yuta oladigan kishilarni o‘z Qur’oni Karimida maqtagan: “U taqvodor zotlar yaxshi-yomon kunlarda infoq-ehson qiladigan, g‘azablarini ichiga yutadigan, odamlarning (xato-kamchiliklarini) avf etadigan kishilardir. Alloh taolo bunday yaxshilik qiluvchilarni sevadi”.

G‘azabni yuta olish mavzusidagi hikoyada keltirilishicha, ulug‘lardan birining xizmatkori xo‘jayiniga taom keltirayotib, oyog‘i chalishib, yiqiladi va qo‘lidagi taom gilamga to‘kiladi. Xo‘jayinning jahli chiqadi. Shunda xizmatkor: “Ey taqsirim, Alloh taoloning so‘zini eslang”, deydi. “Alloh nima degan?” – so‘raydi xo‘jayin. “Alloh taolo “G‘azabni yutuvchilar” – degan”, javob beradi xizmatkor. Shunda xo‘jayin, “Mayli, men ham g‘azabimni ichimga yutdim”, deydi. “Alloh taolo yana: “Yaxshilik qiluvchilarni Alloh sevadi”, degan” davom etadi xizmatkor. Shunda xo‘jayin: “Alloh taolo uchun seni ozod qildim”, deb xizmatkorni qullikdan ozod qiladi hamda ming dinor hadya beradi.

Hamiyatlilik ham g‘ayrat singari insonning yuksak fazilatlaridandir. Hamiyat or-nomusini, qadr-qimmatini pok saqlash tuyg‘usi, oriyat hisoblanadi. Xalqimizda hamiyatli sifati o‘z g‘ururi, or-nomusi, o‘z oilasi va yurti uchun kurashadigan, uni osoyishta, pok saqlashga harakat qiladigan, vijdonli insonlar uchun ishlatiladi. Hamiyatli inson o‘z qadr-qimmati, oilasi va yurti sha’ni uchun qayg‘uradi. Or-nomusi, g‘ururi toptalishiga yo‘l qo‘ymaydi. Hamiyat sohiblari doimo insonlar orasida hurmat-e’tiborga sazovor bo‘ladi. Bu haqda ulug‘ hakimlarimiz va shoirlarimiz o‘zlarining asarlarida to‘xtalganlar.

Hamiyat sohiblari izzatda bo‘lgay, doimo xurram.
Hamiyatsiz bo‘lsa har kim, kuni qolgay nadomatga!

Barxurdor ibn Mahmud

Albatta, dinimizda ham “hamiyatsizlik”, “oriyatsizlik” va “behayolik” kabi illatlarni

qattiq qoralaydi. Imom Buxoriy hazratlari ham rivoyat qilgan hadislarda ushbu sifatni qoralagan. Rosululloh sollallohu alayhi vasallam marhamat qilgan hadislarining birida aytiladiki, “Qiyomat kunidagi odamlarning eng yomoni – behayoligi, hamiyatsizligi sababli nazardan chetda qoldirilgan odamdir”.

Bobokalonimiz Imom Buxoriy asarlaridagi, qolaversa, u zotning siymosidagi “g‘ayrat”, “shijoat”, “hamiyat”, “hayo” singari fazilatlar ibrat va namuna hisoblanadi.

Imom Buxoriy hazratlari ham g‘ayrat va hamiyat kabi ulug‘ fazilatlar bilan sifatlanganlar. Ayniqsa, u zotning hadis jamlashdagi g‘ayrat va shijoatlari tahsinga sazovordir. U zot to‘g‘risida ko‘p ulamolarimiz maqtovlarni izhor qilishgan. Ulug‘ allomalardan Al-Muborakfuriy aytadiki, “Imom al-Buxoriy mashaqqatlarga chidamli, ishda tirishqoq bo‘lib, o‘z qo‘lidan keladigan yumushni birovga yuklashni xushlamas ekan”. Tarbiyachining hamiyatliligi, avvalo, uning o‘z ishi natijalariga mas’uliyatida namoyon bo‘ladi, chunki hamiyatli inson noto‘kis ishni o‘zi uchun or deb biladi. Avvalo, bolalar, shuningdek, jamiyat oldida yuksak tarbiyaviy samara uchun g‘ayrat va shijoat ko‘rsatadi. Uning bu sifati tarbiyalanuvchilarning uyda va maktabgacha ta’lim tashkilotidagi harakatlari orqali ma’naviyatida iz qoldiradi.

Shuni ta’kidlash lozimki, yurtimiz tinch, hayotimiz osuda va farovon bo‘lishiga qaramasdan, bugungi kunda jamiyatimizda turli huquqbuzarliklarning sodir bo‘lishi, yoshlar orasida jinoyatchilikning ortib borishi, shuningdek, oilaviy kelishmovchiliklar va ajrimlarning ko‘payishi, shuningdek, o‘z kasbidagi moddiy va ma’naviy muammolar tufayli kasbidan voz kechish yoki o‘z lavozimiga befarq qarashi aksar hollarda qanoatsizlikdan kelib chiqayotgani bor haqiqat. Demak, ana shunday noxushliklarning muolajasi va oldini olish chorasini qanoat deb atalmish ko‘ngil boyligini hosil qilishdan izlashimiz zarur.

Yuqorida zikr qilingan fazilatlarni bo‘lajak va amaliyotda faoliyat ko‘rsatayotgan tarbiyachilar ongu shuuriga singdirish, kasb etikasiga aylantirish uchun quyidagi tavsiyalarni taklif etamiz:

1. Mazkur fazilatlarga asos bo‘ladigan diniy, ilmiy, falsafiy va badiiy manbalar bilan tanishtirib borish, ularning mazmun-mohiyatini tushuntirish.

2. O‘rganilgan manbalar faqat bo‘lajak va amaliyotdagi tarbiyachilar xotirasida saqlanadigan ma’lumot sifati qolib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik darkor. Buning uchun mazkur manbalar mohiyatini ularning ma’naviyatini shakllantirish bo‘yicha mexanizmlarini tadqiq etish va amaliyotga tatbiq qilish zarur.

3. Oliy ta’lim muassasalari, qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari dasturida, shuningdek, tarbiyachilarning o‘z ustlarida ishlash rejasida ushbu manbalarni o‘rganish joy olishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur’oni Karim. Alouddin Mansur. – T.: Movarounnahr, 2007.

2. Muhammad Payg‘ambar qissasi. Hadislar. – T.: Kamalak, 1991.

3. Doniyor F. Jannatga yetaklovchi amallardan biri. minoruz. 15:21, 02.06.2017.

4. Do‘stmatov A. Chiroyli xulq – insoniy fazilat. muslim.uz. 09:20, 11.06.2019.

5. Xurshid D. Mashriq zamin – hikmat bo‘stoni. muslim.uz. 12:56, 08.05.2019.

6. Alimov U. Imom al-Buxoriy barokati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti. – T., 2007. 183-b.

Shaxnozaxon MAMASOLIYEVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi magistratura talabasi

MAKTABGACHA TAYYORLOV GURUHLARIDA XALQ ERTAKLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada maktabga tayyorlov guruh bolalariga ertaklar orqali tarbiya berishning mazmuni va ahamiyati haqida so‘z yuritilgan. Bolalarda ijobiy sifatlarni shakllantirishda o‘zbek xalq ertaklarining ta’siri borasida mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Ertak, islohot, fantaziya, kechinma, insonparvarlik, xalq og‘zaki ijodi, mult-film, audioertaklar.

В статье рассматривается содержание и важность воспитания детей в дошкольных группах через сказки. Подчеркивается роль узбекских народных сказок в формировании у детей положительных качеств.

Ключевые слова. Сказки, исправления, фантазия, переживания, человечность, фольклор, мультфильмы, аудиосказы.

The article discusses the content and importance of educating children in pre-school groups through fairy tales. The role of Uzbek folk tales in the formation of positive qualities in children is highlighted.

Key words. Fairy tales, reform, fantasy, experience, humanity, folklore, cartoons, audio tales.

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha sohalarda islohotlar olib borilib, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo‘shilish imkoniyatlarimiz ortib bormoqda. Bu jarayonlarning samarali bo‘lishi yo‘lida uzluksiz ta’lim tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimini tubdan isloh qilishni yanada takomillashtirish masalalariga davlatimiz tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi taraqqiyotning jadalligi, hali maktabga chiqmagan bolaning sanashni, o‘qish va yozishni, yangiliklarni tezkorlik bilan fikrlayotgani maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi o‘quv-tarbiya dasturlarini izchil va tizimli tarzda takomillashtirishni talab etmoqda.

Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda xalq og‘zaki ijodi ahamiyatini bolalar dunyosining ajralmas bo‘lagi sifatida e’tirof etish mumkin. Jumladan, bolalarga ertaklarni oshno qilishning muhim jihatlaridan biri shuki, bu janr namunalari tarbiyalanuvchilar pedagogik-psixologik rivojlanishi va tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rstadi. O‘ziga xos tarbiya vositasi bo‘lgan ertaklar bolajonlar uchun juda qiziqarli va qadrliligi bilan alohida o‘rin tutadi.

Bilamizki, ertak bolalar fantaziyasi va ichki kechinmalari mahsuli sifatida dunyoga keladi. E’tiborli jihati, har doim ularda insonparvarlik, Vatanga muhabbat, rostgo‘ylik, halollik tuyg‘ulari ustuvor bo‘ladi va har bir ertak yaxshilikning yomonlik ustidan qilgan g‘alabasi bilan tugaydi. “…Shunday qilib, ular murod-maqsadiga yetibdi” degan iboran-

ing deyarli hamma ertak yakunida uchrashi fikrimizni tasdiqlaydi.

Har bir ertakning o‘z g‘oyasi bor. “Sehrli sholg‘om” ertagi bolalarni fikrlashga, voqealarni ketma-ket aytishga undab, “Kuch birlikda” degan g‘oyani anglab yetishini ta’minlasa, “Zumrad va Qimmat” ertagida Zumradning mehnatsevarligi ulug‘lanadi. Qimmat esa dangasa, ishyoqmas sifatida gavdalanadi. Bolalar ertakni tinglash orqali qissadan hissa chiqarishga o‘rgatiladi.

Ertaklarni mahorat bilan bolalarga o‘qib berish kichkintoy bilan his-hayajonli muloqotni o‘rnatishga, sezdirmay tarbiyaviy ta’sir qilishga, atrof-muhit haqidagi bilimi va ma’lumot zaxiralarini samarali to‘ldirishga imkon yaratadi. Shuningdek, xalq og‘zaki ijodi na’munalari qadimiyligi, ta’sirchanligi bois bolalar tarbiyasida e’tiborli va ishonchli manbalardan hisoblanib, bu tarbiya vositalarini bolalar hayotiga tabiiy ravishda olib kirish lozim. Ommaviy axborot vositasi hisoblangan zangori ekran orqali namoyish etilayotgan “To‘g‘rivoy va Egrivoy”, “Sher ila Durroj”, “Sohibjamol qo‘g‘irchoq”, “Yo‘l va bolalar”, “Sumalak – ming bir tilak”, “Susambil”, “Hunarmand shahzoda”, “Farrux va Zumrad”, “Alpomish” kabi milliy multfilmlar fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. Ular mehnat, poklik, kattalarga hurmat kabi insoniy fazilatlarni bola qalbiga ekran orqali singdiradi.

Bolalarni zangori ekran orqali namoyish etilgan multfilmlar ko‘rganda va audio ertaklarni eshitganlarida tasavvurlari boyib, so‘z boyligi ortadi. Kuzatishlar natijasiga ko‘ra, 5-6 yosh bolalar oynai jahonda multfilm va audio ertaklarni ko‘rishda vaqt me’yorlari ishlab chiqilib, quyidagi jadvalda berildi.

(1-jadval)

Maktabga tayyorlov guruhlarida vaqtni to‘g‘ri taqsimlash

5 yosh	**Vaqt me’yorlari**		**6 yosh**	**Vaqt me’yorlari**	
Qo‘zichoq va bo‘ri (audio ertak)	3 daqiqa	Kunning birinchi qismida	Ertaklar yaxshilikka yetaklar (audio ertak)	7 daqiqa	Kunning ikkinchi qismida
O‘g‘il va ota (audio ertak)	3:30 daqiqa	Kunning birinchi qismida	Susambil (audio ertak)	7 daqiqa	Kunning ikkinchi qismida
Uycha haqida ertak (audio ertak)	5 daqiqa	Kunning birinchi qismida	To‘g‘rivoy va Egrivoy (audio ertak)	5 daqiqa	Kunning ikkinchi qismida
Bolalik kunlarimda (audio ertak)	4 daqiqa	Kunning birinchi qismida	(audio ertak)	8 daqiqa	Kunning ikkinchi qismida

Bolalarni mehnatsevarlik, ishbilarmonlik ruhida tarbiyalash xalqimiz uchun qadimiy an’ana hisoblanadi. “Xalq ijodidagi ijobiy qahramonlarning hammasi xalq donishmandlari qo‘lida tarbiyalangan, zamonasi nuqtayi nazaridan to‘la-to‘kis kamolotga erishgan kishilar sifatida tasvirlanadi.Tarbiyaning yetakchi roli ulug‘lanadi”.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachi tomonidan aytib berilgan ertak qahramon-

lari orqali insonlarning salbiy-ijobiy sifatlar haqida umumiy tushunchalarga ega bo‘ladi.

Ertaklar hayvonlar, parrandalar, jodugar kampirlar haqidagi sehrli, afsonaviy hamda ijtimoiy-maishiy, umuman, qanday mavzu va xarakterda bo‘lishidan qat’i nazar, ularda xalqning madaniyati, ruhiyati, dunyoqarashi, urf-odatlari aks etadi. Ijobiy qahramonlar o‘z maqsadlari yo‘lida barcha to‘siq-g‘ovlarni mardlik va jasorat ila yengib o‘tishi, yalqovlar esa ko‘zlagan maqsadiga erisholmay va odamlar oldida izza bo‘lishi obrazli qilib gavdalanadi. Tarbiyachi bolalarga ertak aytib berganida qahramonning mardligini alohida ta’kidlab o‘tishi, jasurlik-qo‘rqoqlik, mehnatkashlik-dangasalik kabi tushunchalarni solishtirish asosida tushuntirishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasining “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari”da 6-7 yosh bolalarning nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari sohasi bo‘yicha quyidagi talablarga javob berishi kerakligi belgilab qo‘yilgan:

– boshqa bolalarga eslab qolgan kitob mazmunini so‘zlab beradi;
– sodda va murakkab gaplarni nutqida qo‘llaydi;
– so‘zlarni bo‘g‘inlarga bo‘ladi;
– bo‘g‘inli kartochkalar yordamida bo‘g‘inlardan so‘zlar tuzadi;
– so‘z, tovush, bo‘g‘in, gap haqida tushunchaga ega;
– peshlavha, kitob nomlari, rasm tagidagi yozuvlar va hokazolarni o‘qiydi;
– bolalar adabiyoti janri nomini biladi (ertak, she’r, hikoya);
– mashhur yozuvchi va shoirlar nomini biladi.

O‘zbek xalq ertaklari na’munalari bolalarning ma’naviy-ahloqiy sifatlarini shakllantirish, xususan, irodalilik, axloq qoidalari bilan tanishtirib borish, yaxshini yomondan, mumkinni mumkin bo‘lmagandan ajratib olishga o‘rgatish, hayotni sevishga undaydi. Ularni bola qalbiga singdirishda mantiqiy mulohaza yuritish, ibrat-na’muna ko‘rsatish, o‘z fikrini dalillash, xulosa chiqarish va boshqalar orqali ijobiy natijalarga erishiladi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash lozimki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ertaklarlar orqali shunday muhitni yaratish mumkinki, ta’lim jarayoni va bola rivojlanishida samara berib, ta’limning yangi imkoniyatlari ochiladi, pedagog-tarbiyachilarning ijodiy izlanishlari doimiy ravishda ta’minlab turiladi.

Ertaklarni bolalarga yetkazishda yangi pedagogik texnologiya asosida bolalarning so‘z boyligini oshirishga, ularning nutqini o‘stirish, tafakkuri va ma’naviyatini rivojlantirishga qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch. – T.: Ma’naviyat, 2008.– 61 b.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari” 2-ilova. (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 04.07.2018-y., 10/18/3032/1450-son).

3. Сухомлинский, В.А. Избранные педагогические сочинения: в 3-хтт Т. 2. /В.А. Сухомлинский, сост. В.З. Смаль, М.П. Кашин.– Москва: Педагогика, 1979. – С.560.

Sevara BOTIRALIYEVA,
Andijon davlat universiteti,
“Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishi magistratura talabasi

ERTAKLAR VOSITASIDA BOLALARNI MILLIY RUHDA TARBIYALASH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi va uning keng tarqalgan janri bo‘lmish ertaklardan bolalarni tarbiyalashning yo‘l-yo‘riqlari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Milliy ruh, xalq og‘zaki ijodi, ertak, tarbiya, ma’naviy ta’sir, o‘qish texnikasi.

В этой статье проанализированный пути воспитания детей национальном в духе при помощи устного народного творчество в частности в широко развитом жанре сказки.

Ключевые слова. Национальный дух, устное народное творчество, сказка, воспитания, духовное влияние, техника чтения.

In this article is analysed to educate of children with national mood in folklore and it’s wide genre that is way of educate of children in story.

Key words. National mood, folklore, story, education, moral impact, study technique.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab har bir o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’nan va ruhan sog‘lom, jismonan baquvvat bo‘lib, o‘sishi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Farzandlarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash ishiga jiddiy qaramoqda. Chunki jamiyat taraqqiyoti rivojlanishining asl mohiyati, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarning ma’naviy kamoloti darajasiga bog‘liq. Qaysiki jamiyatda ma’naviy kamolot yuksak bo‘lsa, ma’rifiy-tarbiyaviy tadbirlar to‘g‘ri va mazmunli yo‘lga qo‘yilgan bo‘lsa, shu jamiyat gullab-yashnaydi va taraqqiy etadi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Ma’naviy yo‘nalishlarimiz iqtisodiy yo‘nalishlardan o‘n qadam oldinda yurishi kerak. Ana shunda biz hozirda qurayotgan katta rejalarimiz, dasturlarimiz amalga oshadi” – deb aytgan so‘zlari fikrimizning yorqin dalilidir.

Har bir ota-ona farzand o‘stirar ekan, uning solih, odobli, bilimli, tarbiyali hamda yaxshi fazilatlar egasi bo‘lishini istaydi. Bu borada ota-bobolarimizning o‘gitlari va tajribalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bobolarimiz farzand tarbiyasiga, ularning xulq-atvorlariga, gap-so‘zlariga, kishilar oldida o‘zlarini qanday tutib, nimalar haqida fikrlashib, o‘z maqsadlarini qanday so‘zlar bilan tushuntirishlariga yoshligidan katta ahamiyat berishgan. Ular tarbiya vositalaridan biri bo‘lgan xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan janri bo‘lmish ertaklardan bolalarni tarbiyalashda juda unumli foydalanishgan.Bolalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodining o‘rni beqiyos. Asrlar davomida tildan tilga o‘tib kelgan xalq og‘zaki ijodi namunalari zamirida xalqning turmush tarzi, ijtimoiy va maishiy hayoti, mehnat faoliyati, tabiat va jamiyatga qarashlari, e’tiqodi va diniy tasavvurlari, inson va olamga nisbatan his-tuyg‘ulari, badiiy olami, bilim darajasi, baxtli va adolatli zamon haqidagi

o‘y-fikrlari o‘z ifodasini topgan. Maktabgacha va boshlang‘ich sinf yoshidagi bolalarni tarbiyalashda ertaklarning roli o‘ziga xosdir.

Ertak hayot haqiqatiga asoslangan, xayolot va fantastika xususiyatlari bilan yo‘g‘rilgan, odamlarga ibrat-o‘git beruvchi og‘zaki hikoyalar hisoblanadi. O‘zbeklar o‘rtasida ertaklar varsoqi, cho‘pchak, masal kabi atamalar bilan yuritiladi. Ertaklarning o‘ziga xos janr xususiyati orqali og‘zaki hikoyaga asoslangan qiziqarli syujetga ega bo‘lganligi bois bolalar ertak boshlanishi bilan uni jon qulog‘i bilan tinglaydilar; voqealarning ongli tarzda xayoliy uydirmalar orqali aks ettirilishi esa bolalarni dunyoqarashini, xayoliy tasavvurlarini rivojlantiradi; estetik vazifaning yetakchilik qilishi orqali bolalarda borliq go‘zalliklarini his qilishni o‘rganadi; o‘ziga xos badiiy shakli, qolip hamda tilga ega bo‘lishi (ertaklar bir bor ekan, bir yo‘q ekan… kabi maxsus boshlamalar bilan boshlanib, murod maqsadiga yetibdi kabi maxsus tugallanmalar bilan yakunlanadi) bilan bolalarni kelajakda xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan ajrata olishni bilib oladi.

Ertak o‘qib berishda har bir bolaning yosh va o‘ziga xos xususiyatlariga e’tibor beriladi. Masalan, maktabgacha yoshdagi va maktabning 1-sinfiga qabul qilingan bolalarga o‘qib beriladigan ertaklarning hajmi qisqa va mazmuni sodda bo‘ladi. Chunki bu yoshdagi bolalar hali olam haqida to‘liq tasavvurga ega bo‘lmaydi. Shuning uchun ularga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami do‘stlik, mehnat ahli, jamoa, odob-axloq tog‘risida bo‘lishi foydadan holi bo‘lmaydi. Ayni paytda, bolaga ertak o‘qib berishning ahamiyati, ta’siri haqida ota-onalar ongli ravishda xabardor bo‘lishlari kerak. Chunki ertak o‘qib yoki aytib berayotgan ota-ona (yoki tarbiyachi) bu jarayonni shunchaki vaqt o‘tkazish, bolani xursand qilish uchungina emas, ayni paytda, uning ma’naviy olamiga ta’sir ko‘rsatish, axloqiy sifatlarni shakllantirish maqsadini o‘z oldiga qo‘ysa, tabiiyki, aytib (o‘qib) berishda pedagogik yondashuv bilan ish ko‘radi. “Baxtli bola ma’naviyati” kitobinida 3-7 yoshdagi bolalarga kitoblarni o‘qib berishning ahamiyati haqida “Bolaga har kuni 15 daqiqa kitob o‘qib berishning 15 foydasi” bobidagi ko‘rsatmalar mana shunday ongli yondashuvga da’vatdir.

Bu yosh davrida ularga “Zumrad va Qimmat”, “To‘g‘rivoy va Egrivoy”, “Gul o‘stira olmagan bola”, “Tulki bilan turna”, “Birlashgan o‘zar”, “Aql va boylik” va boshqa ertaklarni oldindan aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda o‘qib berish maqsadga muvofiq. Ushbu ertaklar asosida bolalarda milliy odob-axloq qoidalari singdirish va millatga xos mentalitetni, fazilatlarni shakllantirish mumkin.

Ma’lumki, ertakni qiziqarli va maromiga yetkazib o‘qish yoki aytish, shu orqali bolaning e’tiborini jalb qilish ham bir san’at. Bunda ertak o‘qib beruvchi tarbiyachi yoki ota-ona o‘qish texnikasiga alohida e’tibor qaratishi lozim. O‘qish vaqtida ertak namunasida ifoda etilgan his-tuyg‘uni, yozuvchi yoki qahramonning ichki kechinmalarini saqlab qolish, ertakning mazmunini yecha olishga erishishda normal tezlikda o‘qishning samarasi katta. Normal tezlikda o‘qish orqali bola gapdagi asosiy mazmunni anglaydi va voqealar rivoji ketma-ketligini eslab qoladi.

Tarbiyachi yoki ota-ona tomonidan ertak o‘qib bo‘lingach, bolalarni umumiy xulosa chiqarishga undash lozim. “Agar sen uning o‘rnida bo‘lganingda nima qilgan bo‘lar eding?”, “Shu ertak qahramoniga o‘xshashni xohlaysanmi?”, “Bu qahramonning qaysi fazilatlari senga yoqdi?” kabi savollar berib, erkin muloqotga chaqirish ularning faolligini oshirishga va fikrlari erkin bayon etishga, fikrining ahamiyatga ega ekanligini his qilishga yordam beradi.

Abdurauf Fitrat shunday deb yozgan edi: “Agar saodat, izzat, osoyishtalik, rohat, sharaf, nomus va e’tibor kerak bo‘lsa, tezroq avlod tarbiyasi usullarini bilib olib, bolalari-

mizni shu usul va qoidalar asosida tarbiyalashimiz lozim". Ma'rifatparvar ajdodimiz qayd etgan usul va qoidalarni ertaklar vositasida muayyan darajada yo'lga qo'yish mumkin deb hisoblaymiz. Har bir ertakning o'z tarbiyaviy maqsadi bor. Masalan, "Zumrad va Qimmat" ertagining syujetiga Zumradning sochlarini mayda qilib o'rib, iroqi do'ppilarni, o'ziga yarashib turuvchi uzun va chiroyli atlas ko'ylak va nimchalarni kiyib yuradi, ota-onasiga nim tabassum bilan qo'lini ko'ksiga qo'yib o'zbekona salom beradi kabi jumlalarni qo'shib aytib ketish va bu so'zlarga alohida urg'u berish, Qimmat esa, aksincha, beodobligi, o'zidan kattalarni hurmat qilmasligi, qo'pol salomlashishi, Zumrad tozalagan joylarni iflos qilishi, juda beo'xshov o'smalarni qo'yib yurishi, yolg'on gapirib Zumradning uydan ketishiga sababchi bo'lishi haqida gapirib ketish juda ahamiyatlidir.

Yoki "To'g'rivoy va Egrivoy" ertagida ham To'g'rivoyning boshidagi do'ppisi, ustidagi o'zbek yigitlaring milliy kiyimi bo'lgan oq yaktaklari va belidagi chorsisi, oyog'idagi kovush-mahsisi haqida gapirib o'tilgandan so'ng, uning o'zbeklarga xos mardligi, to'g'riso'zligi, kamtarligi, birovlarga yordam qo'lini cho'zishligi va, aksincha, yolg'on so'zlab, birovni otiga egalik qilib, insonlarni aldab kun ko'ruvchi Egrivoyning oxir-oqibat hayotini xavfga qo'yishi jumlalariga alohida to'xtalish lozim.

Bu ertaklarni o'qib bergach tarbiyachi bolalarga savollar bilan murojaat qiladi: "Aziz bolajonlar! Ertaklar yoqdimi?", "Zumrad sochlarini qanday turmaklangan ekan?", "U qanday kiyimlar kiyadi?", " Zumrad qanday salom berar ekan?", "Kim Zumradga o'xshashni xohlaydi?", "Zumrad siz multfilmlarda ko'radigan Oppog'oy, Ropunzil, Zolushkalarga o'xshab kiyinar ekanmi?", "Qimmat sizga yoqdimi?", "Qimmatga o'xshashni xohlaysizmi?", "To'g'rivoyning qaysi fazilatlari sizga yoqdi?", "O'zbek yigiti qanday fazilatlarga ega bo'lishi kerak ekan?", "Egrivoydagi qaysi illat sizga yoqmadi?", "Siz To'g'rivoy bilan do'stlasharmidingiz yoki Egrivoy bilanmi?" asosidagi savollar orqali bolalarga milliy ertak qahramonlarining turmush-tarzi, kiyinish madaniyati va salomlashish odobi, ulardagi yaxshi fazilatlari va yomon illatlari haqida tushunchalar hosil qilish mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish kerakki, ertaklarni aytib berish va o'qish orqali biz bolalarni tarbiyalaymiz. Ertak orqali bolalarda Vatanga muhabbat, o'z ona-yurtiga sadoqat, insonlarga mehr-u oqibat tuyg'ulari shakllanadi, yaxshilik va yomonlik, rostgo'ylik va yolg'onchilikni bir-biridan farqlashni o'rganadi. Ularning ichki ma'naviy dunyosi boyib boradi va so'z boyligi oshib, nutqi rivojlanadi. Eng asosiysi, ertaklarni oila davrasida o'qish orqali bolalar va ota-onalar o'rtasidagi munosabatlar yaxshilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 29-dekabr kuni milliy kino san'ati va kinoindusrtiyani rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar tahlili va bu borada mavjud muammolarni hal etish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda so'zlagan nutqidan.

2. "Bolalarni tarbiyalashda ertaklarning o'rni to'g'risida". Elektron manba: kazok-v-vospitanii-detei-rol-skazki-v-vospitanii.html.16.03.2015.

3. Baxtli bola ma'naviyati. O'quv-qo'llanma. –T.: Sano-standart, 2018.

4. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oilani boshqarish. –T.: Ma'naviyat, 2006.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Bosh muharrir o‘rinbosari v.v.b:
Umaraliyeva Muhayyo Abdugaparovna

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

Tahrir hay’ati:
Sherzod SHERMATOV, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV, G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA, Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV, Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV. Yashin ISMANDIYAROV, Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV.

Jamoatchilik kengashi:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Ravil IS’YANOV, Abduhalim MAHMUDOV, Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Jurnalning maxsus soni Andijon davlat universiteti Maktabgacha ta’lim fakultetida amalga oshirilayotgan Ф3-202001064 “Oliy ta’lim muassasalari negizida maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT)ning zamonaviy didaktik metodika ta’minotini yaratish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida fakultet professor-o‘qituvchilari hamda magistrlarining ilmiy-amaliy izlanishlari natijalari aks etgan maqolalardan iborat.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar “Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

© “Xalq ta‘limi” jurnali, 2021.